

SH. A. ABDULLAYEVA, U. M. UTAMURADOV,
L. I. SUVONOVA, F. O. TURSUNOVA, F. T. XAMIDOVA

PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYA



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**SH.A. ABDULLAYEVA, U.M. UTAMURADOV,
L.I. SUVONOVA, F.O. TURSUNOVA, F.T. XAMIDOVA**

PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYA

70110101 - Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turlari bo‘yicha)
ixtisosligi bo‘yicha magistrantlar uchun

DARSLIK

NAVOIY – 2025

UO‘K 37.012(075.8)

KBK 74.00-923

P 29

Pedagogik diagnostika va korreksiya [Matn] : Darslik / Sh.A. Abdullayeva, U.M. Utamuradov, L.I. Suvonova, F.O. Tursunova, F.T. Xamidova .-Navoiy: Aziz kitobxon nashriyot, 2025. - 328 b.

Mazkur darslik pedagogika oliy ta'lim muassasalari 70110101-Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turlari bo'yicha) ixtisosligi bo'yicha tahsil olayotgan magistrantlar uchun O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim davlat talablari asosida hamda 2023-yil 31-yanvarda tasdiqlangan o'quv reja va 2023-yil 30-avgustda tasdiqlangan fan dasturi asosida tayyorlangan. Unda ixtisoslik fani "Pedagogik diagnostika va korreksiya" bo'yicha o'quv rejada ko'rsatilgan "Pedagogik diagnostikaning metodologiyasi", «Pedagogik diagnostika o'tkazish yo'llari va keng qo'llaniladigan metodlari», Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik tashxis qilishning mazmuni», "Korreksion tadbirlar"ga xos hamda turli pedagogik treninglarni o'tkazish bo'limlariga monand mavzular kiritilgan.

Данный учебник составлен на основе требований Государственного Стандарта Республики Узбекистан (2023) и предназначен для магистрантов обучающихся по специальности 70110101- "Теория и история педагогики". В учебнике в соответствии с программой курса раскрыты основные понятия, функции, методы педагогической диагностики и педагогической коррекции. В книге нашли отражение такие темы как: "Сущность и содержание педагогической диагностики" "Диагностирование в учебном заведении», «Основные методы педагогической диагностики», «Содержание педагогической диагностики в средней образовательной школе», «Коррекция поведения личности подростков», «Проведение педагогической диагностики и педагогической коррекции среди обучающихся».

Taqrizchilar G. N. Ibragimova,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.
Pedagogika fanlari doktori, professor.

F.N.Aminova,

Profi universiteti "Pedagogika va chet tillar" kafedrası dotsenti.

F. J. Xodjiyeva

Navoiy davlat pedagogika instituti, "Pedagogika va psixologiya" kafedrası dotsenti.

Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi "485"-sonli buyrug'ga asosan nashr etishga tavsiya etilgan. (Guvohnomaning ro'yxatga olish raqami 750979)

© Aziz kitobxon nashriyoti, 2025-y.

SO‘Z BOSHI

Dunyo miqyosida kreativ fikrlashni kasbiy faoliyat tarkibiga singdirish, fan, texnika, texnologiya, san‘at va matematika sohalaridagi integratsiya asosida ta‘limga yangicha yondashuvlarni tatbiq etish bo‘lajak mutaxassislarni mehnat konyunkturasidagi nufuzini oshirishga mo‘ljallanmoqda. Innovatsion texnologiyalarning shakllaridan biri STEAM texnologiyalari orqali o‘zini namoyon qilishni ta‘minlaydigan kasbiy kompetentlikni belgilovchi instrumentariyga ega bo‘lish bo‘lajak pedagogika oliy ta‘lim tashkilotlari mutaxassislari uchun muhim bo‘lib hisoblanadi. Ilmiy, ilmiy-texnologik ta‘minot taqozosidan kelib chiqib, ta‘lim-tarbiya sohasining barcha bo‘g‘inlari uzluksiz isloh etib borilishi pedagogika sohasida faoliyat yuritayotgan kadrlarning salohiyatini oshirishni talab etadi.

Davlatlar o‘rtasidagi globallashuv jarayonlari ta‘lim sohasidagi yangilanish ishlarini samarali tashkil qilish barobarida bo‘lajak mutaxassislarning professional rivojlanishini ta‘minlashga qaratilmoqda va bu sohadagi izlanishlar ko‘lamini kengaytirish negizida baholanishiga sabab bo‘lmoqda. “Aqlli” texnologiyalarga tayanish tendensiyalari ta‘limning barcha bo‘g‘inlariga kirib borishi kelajakda o‘z kasbini maromiga yetkazuvchi kadrlar salohiyatida ifodalanadi.

Ta‘lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning pedagogik faoliyatini tashkil qilish, samaradorligini diagnostika qilish va kvalimetrik o‘lchash bo‘yicha ta‘lim sohasidagi o‘zgarishlarni xalqaro baholash TALIS, CIVIC, ICCS-(International CIVIC and Citizenship Education Study) kabi dasturlar asosida tadqiqiy izlanishlar tendensiyalari kengaymoqda. Bunday ijtimoiy dolzarblik kasb etuvchi pedagogik hodisaning yorqin ko‘rinishlaridan biri-ta‘lim tizimida ham keng ko‘lamdagi islohotlarni olib borish, pedagog kadrlarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish orqali jahon miqyosida ta‘lim sifatini o‘lchash va baholash bo‘yicha

tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil-iyundagi PQ-3775-sonli «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorida pedagog kadrlarda kreativlik, innovatsion kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish, diagnostik metodlardan xabardor bo'lish bo'yicha qator vazifalar belgilandi[4,5]. Shu dolzarblik asosida mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimi, shu jumladan umumiy o'rta ta'lim tizimi o'quv jarayoniga ilg'or innovatsion texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarini joriy etish, o'qitish intensivligini, samaradorligini oshirish, jahon andozalariga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mana shunday zarurat va ehtiyojning paydo bo'lishi, ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatni olib borishga tayyorlanayotgan kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, ta'lim jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish mexanizmlarining huquqiy-me'yoriy asoslarini, metod, shakl va vositalarini takomillashtirish orqali yangi mazmundagi pedagog kadrlar faoliyatini tashkil qilish va ularning universal kompetensiyalarga ega bo'lish layoqatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosatida shaxs manfaatlari va ta'lim ustuvorligi orqali insonning konstitutsiyaviy huquqlaridan biri-ta'lim ehtiyojlarining qondirilishi har jihatdan yoshlarning qobiliyatlari va imkoniyatlarini, o'ziga xos individual xususiyatlarini o'rganishni, yo'naltirishni va rivojlantirishni talab etadi. Shu sababli pedagogik amaliyotda o'quvchi – yoshlarning rivojlanish darajasini hamda ularning intellektual qobiliyatlari va boshqa sifatlarini tezkor diagnostika qilishga talab ortib bormoqda. Bolaning shakllanish jarayonini, uning aqliy rivojlanishi,

tarbiyalanganlik darajasini va tafakkur qobiliyatini bilmasdan turib, ta'lim–tarbiya jarayonini samarali tashkil etish mushkuldir.

Abdulla Avloniy «Agar pedagogika insonni har tomonlama tarbiyalashni xohlar ekan, unda insonni har tomonlama o'rganishi kerak¹», – degan fikri ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik diagnostikaning qanchalik muhimligini ko'rsatib turibdi. Shu jihatdan jamiyatimizdagi yoshlarni o'qitish va tarbiyalashda optimal uslub va vositalardan foydalanish lozim.

Pedagogik jarayonning asosiy vazifasi tahsil oluvchilarda bilim, ko'nikma, malakalar egallash, tayanch hamda fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirish, yosh avlodda jamiyatimizda qabul qilingan odob-axloq qoidalariga mos keladigan e'tiqodni, axloqiy malaka va ko'nikmalarni, ehtiyoj va intilishlarni tarkib toptirishdan iborat. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'z faoliyatini tashkil qiladigan mutaxassislar pedagogik jarayon mazmuni va maqsadini aniq tasavvur eta olishi, vazifalarning muhimligini tushunishi lozim. Demak, qanday odamni tarbiya qilish kerak, tarbiya natijasida inson qanday bo'lishi lozim, degan savollarni avvaldan tasavvur etish zarur. Bunda pedagogik diagnostika katta ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik diagnostika – bu pedagogik omillarning samaradorligini oshirish maqsadida sotsiologik, ekologik va ijtimoiy – psixologik sotsiumga hamda har bir shaxsga ta'sir ko'rsatishi haqidagi axborotlar majmuyi kabi bilish jarayonining tashkiliy qismidir.

Respublikamizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning bugungi holati uzluksiz ta'lim tizimi ishtirokchilari: ta'lim subyektlarining o'zaro munosabatlarga kirishishi, pedagogik faoliyatni oqilona tashkil etish yo'llarini o'rganishni oliy va umumiy o'rta ta'lim tizimi o'quvchilari tahsil oluvchilarining qobiliyatlari, iqtidori, bilimlarni o'zlashtirish hamda tarbiyalanganlik darajasini tashxis qilish yo'llari, vositalarini aniqlash; ta'lim–tarbiyaviy bosqichlararo uning uzviylik va uzluksizligini ta'minlaydigan metodikani yaratish, o'quv jarayonini tashkil etish hamda mazmunini boyitish zarurligini ko'rsatadi.

¹ Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq-Toshkent: Fan, 1994.-73-bet

Shakllanib borayotgan demokratik huquqiy davlatning yoshlarga nisbatan amalga oshirayotgan siyosati yigit va qizlarga o'z qobiliyat va iste'dodini yaxshiroq ro'yobga chiqarishda, yangilanish va taraqqiyot jarayonlariga faolroq qo'shilishga yordam berishdan iboratdir. Shu jihatdan mazkur darslikning yangiligi o'z qirralarini yanada yorqinroq namoyish etishga imkoniyat yaratadi.

Ushbu darslik pedagogik diagnostika va korreksiyaning predmeti va tarixiy rivoji; o'quv-tarbiya jarayonida pedagogik diagnostika va korreksiyaning o'rni; pedagogik diagnostika va korreksiya metodlari tasnifi; o'quvchi shaxsi rivojini tashxis etish va korreksiyalash metodikasi kabi masalalarni o'z ichiga qamrab olgan.

Magistratura ta'lim bosqichini tugallagan magistrantlar kelgusida ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullanadilar. Magistrantlarni pedagogik jarayonni tashxis etish va korreksiyalash hamda diagnostik-korreksion faoliyatni samarali tashkil etishlarida mazkur fan muayyan darajada xizmat qiladi.

O'quv kursini o'qitishdan maqsad-magistrantlarni o'quv-tarbiya jarayonini tashxis etish va korreksiyalash hamda diagnostik-korreksion faoliyatga tayyorlash.

O'quv kursining vazifasi-magistrantlarni pedagogik diagnostika va korreksiyaning funksiyalari, tamoyillari va umumiy metodlari bilan tanishtirish, ular asosida pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlash; pedagogik jarayonni tashxis etish va korreksiyalash ko'nikmalarini shakllantirish; pedagogik jarayonni tashxis etish va korreksiyalash metodikalarini samarali qo'llashga o'rgatishdan iborat.

“Pedagogik diagnostika va korreksiya” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistrant:

- pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiyaning mohiyati, predmeti va funksiyalari;
- pedagogik diagnostikaning obyektlari;
- diagnostik tadqiqotlarning tuzilishi;
- pedagogik voqelikni diagnostik tadqiq etishning umummilliy tamoyillari;

- diagnostik tadqiqotlarni o‘tkazishga qo‘yiladigan talablar;
- korreksion faoliyatning mazmuni va mohiyati;
- korreksion faoliyatning asosiy tamoyillari haqida bilimga ega bo‘lishi;
- diagnostik ma’lumotlarni to‘plash, o‘lchash va qayta ishlash;
- pedagogik testlarni ishlab chiqish;
- o‘quvchilarni aqliy va axloqiy rivojlanish darajalarini tashxis etish;
- o‘quvchi shaxsining kasbiy yo‘nalganligini tashxis etish;
- korreksion faoliyatning umumpedagogik va maxsus metodlarini qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- o‘quvchilarning kasbga yo‘nalganligini tashxis etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- pedagogik diagnostika asosida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish;
- diagnostik-korreksion faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish malakalariga ega bo‘lishi kerak.

Darslikda keltirilgan tashxislash va xulq-atvordagi nuqsonlarni bartaraf etish metodikasidan amaliyotda foydalanilmoqda. Keltirilgan xulosalar, tavsiyalar oliy ta’lim muassasalari magistrantlari, tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchilar, shuningdek pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiyaning o‘tkazish va tashkil qilish masalalari bilan qiziquvchilarga mo‘ljallangan.



1-§. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING ILMIY VA NAZARIY ASOSLARI

Pedagogik diagnostikaning shakllanishi va rivojlanish tarixi.

Mamlakatimiz ta'lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirilishi ushbu sohaning qonunchilik asoslarini ham mustahkamlanishi, pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini yangi bosqichga ko'tarishning samarali usullarini topishni talab etadi. Ta'lim sifatini oshirish, ta'lim tashkilotlarida tayyorlanayotgan kadrlarning soha yo'nalishlari bo'yicha moslashuvchanlik, kommunikativlik, boshqaruvchanlik layoqatini rivojlantirish, o'qituvchining kasbiy faoliyatida ahamiyatli bo'lgan pedagogik texnikasi (o'quv materialini taqdim qilish qobiliyati, imidji, tovushi, o'zini tutishi, his-tuyg'ularini boshqara olishi va b.), Binobarin, raqamli, smart, avtomatlashtirish, robotlashtirish sharoitida ta'limning sifati ko'p jihatdan o'qituvchilarning professional va kasbiy kompetentligiga bog'liq bo'lib, ulardan professional darajada pedagogik texnikani yuqori saviyada egallagan bo'lishlarining zarur sharti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosatida milliy o'zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali shaxs bilan jamiyat o'rtasida uyg'unlikni vujudga keltirish, ehtiyojlarning xususiylikdan umumiylikka o'sib o'tishining qondirilishi har jihatdan tahsil oluvchilarning qobiliyatlari, iste'dodlari, ichki imkoniyatlari, o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini tadqiq etishni, shuningdek rivojlantirishni talab etadi. Pedagogik jarayonda ushbu masalalarni hal qilishga pedagogik diagnoslika xizmat qiladi.

Diagnostika – (*yunon tilida: «dia» – «shaffof», «gnosis»– «bilim»* degan ma'noni bildiradi) o'rganilayotgan obyekt yoki jarayon to'g'risida aniq ma'lumot olishning umumiy vositasi bo'lib xizmat qiladi.

«**Pedagogik diagnostika**» atamasi ilk bor 1968-yilda nemis olimi Karlxaynts Ingenkamp tomonidan fanga kiritildi.

Pedagogik diagnostika yordamida jamiyatdagi ma'naviy-ma'rifiy jarayon tahlil qilinadi va ta'lim-tarbiyaning kafolatlangan natijalari aniqlanadi. Tashxislashda nafaqat ta'lim-tarbiya natijalarini sarhisob qilish, balki ularning o'zgarish dinamikasi ham kuzatiladi, mavjud kamchiliklar bartaraf etiladi.

O'quv-tarbiyaviy jarayonni optimallashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik diagnostika har bir rejali o'quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanib, o'quvchi materialni qanday o'zlashtirayotganini doimo kuzatib borishga, tarbiyaviy jarayondagi muammolarning yechimini topishga xizmat qiladi. Pedagogik diagnostika yordamida o'quv-tarbiyaviy jarayonda tug'iladigan qiyinchiliklar o'rganiladi, ularni bartaraf etish yo'llari tashkil etiladi.

Agar diagnostika (tashxis)ning ahamiyatini tibbiyot sohasi nuqtayi nazaridan qarasak, kasallik, uning belgilari va uni kelib chiqish sabablari to'g'ri aniqlansa, davolanish natijasida bemorning tuzalib ketishiga imkon yaratiladi. Xato diagnoz esa faqat shifokorlarning harakatini yo'qqa chiqarib qolmay, kasalning tuzalish imkoniyatini ham susaytirishi mumkin. Tana salomatligi to'g'risida aytilgan shu fikrlar ruhiy sog'liqqa ham xuddi shunday aloqadordir. Shuning uchun diagnostika yuksak malaka va javobgarlikni talab qiladigan faoliyatdir.

Insonning jismoniy rivojlanishini tashxis qilish ancha oson. Buning uchun bir qator mashqlar bajarilgach, uning natijasiga qarab xulosa chiqarish mumkin. Lekin ruhiy, ma'naviy, intellektual, ijtimoiy rivojlanishni diagnoz qilish ancha mashaqqatli. Bu maqsadda qo'llanayotgan metodikalar hali ancha murakkab bo'lib, har doim ham to'g'ri natija beraveradi, deb bo'lmaydi. Pedagogik amaliyotda o'quv maskanlari pedagog-psixologlari va o'qituvchilar shaxsning alohida sifatlarini o'rganadilar, lekin bu natijalarga qarab, rivojlanishning barcha komponentlariga umumiy baho berishga har doim ham musharraf bo'la olganlaricha yo'q.

Pedagogik diagnostika o'qituvchi tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonini optimallashtirish, qulaylashtirishga xizmat qiluvchi faoliyatdir.

Rejali va maqsadli o'qitish va tarbiyalash jarayonida natijalarni aniqlash zaruriyati pedagogik diagnostikani vujudga keltirgan. Albatta o'z ibtidosida bu natijalar oddiy pedagogik metodlar orqali aniqlangan.

Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch-osoyshta hayot kechirayotgan, avvalambor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va ochiq fuqorolik jamiyat qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

Mustaqilligimiz tufayli xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va faravon hayotni barpo etayotgan, erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olayotgan bir davrda jamiyatimizdagi yoshlarni tarbiyalashda ma'naviy meros va qadriyatlarimizga suyanib, optimal uslub va vositalardan foydalanishimiz lozim. Demak, har tomonlama barkamol, yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash pedagogikaning azaliy maqsadlariga mos kelishi bilan tavsiflanadi. Shunday ekan, bugungi kunda har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularni komil inson qilib tarbiyalash–pedagogikaning eng dolzarb muammolari qatoridagi masalalardan biri bo'lib qoladi.

Sharqda pedagogik diagnostika elementlarining qo'llanilishi. Sharqda pedagogik diagnostika elementlari qo'llanilganligidan guvohlik beruvchi manbalar mavjud. «Avesto» ta'limoti, «Qur'oni Karim» saboqlari, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al- Buxoriy (810-870), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (824-892) kabi Hadis ilmining ulug'lari, tasavvuf ilmi (so'fiylik tariqati)ning namoyondalari: Bahovuddin Naqshbandiy, Abduxoliq G'ijduvoni, Najmiddin Kubro kabi olimu fuzalolar komil inson to'g'risidagi g'oyalari bilan Sharqda ta'lim -tarbiya jarayonining rivojiga ulkan

hissa qo'shdilar. Ularning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarida pedagogik diagnostika elementlarini xam uchratamiz. Xususan, ushbu olimlarning ta'limotlarida "ustoz-shogird" munosabatlarini o'rganish va tadqiq qilish, ilm o'rganish borasida yoshlarning aqliy qobiliyatlarini tashxislash va rivojlantirish, ularni kasb tanlashlari uchun imkoniyatlari va qobiliyatlarini diagnostika qilishga oid g'oyalari o'z ifodasini topgan.

Sharq Uyg'onish davrining 1-bosqichida yashab, ijod etgan Abu Nosir Farobiy (789-950), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (937-1051), Kaykovus (XI asr), Ahmad Yugnakiy (XI asr), Mahmud Qoshg'ariy (XI asr) kabi allomalar ta'limotlarida xam ilm o'rganish, tarbiya masalalarini hal qilishda yoshlarning ichki qobiliyatlarini tashxislash masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Sharq Uyg'onish davrining 2-pallasida yashab, ijod etgan o'zbek badiiy tilining asoschisi, buyuk davlat arbobi Mir Alisher Navoiy o'zining tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan noyob asarlari, dostonlari, she'riyat olamidagi mulki merosi bilan insonshunoslik to'g'risidagi fanning shakllanishiga zamin yaratgan bo'lsa, ilmiy tafakkur va falakiyot ilmi sohasida yetuk dunyoqarash sohibi Mirzo Ulug'bek ma'rifiy qarashlari, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa adiblar o'zlarining o'lmas ijodiyoti bilan pedagogika taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shdilar. Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarida zamonaviy pedagogik diagnostika sistemasida muhim o'rin tutuvchi omil-o'z-o'zini tarbiyalash masalasining mohiyati yoritiladi. Bu borada bildirilgan fikr mazmuniga ko'ra, bolaning o'zi yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini o'zi anglab olishi hamda ularni bartaraf etish uchun imkoniyat yaratish zarur. Mutafakkirning e'tirof etishicha, kimki bu borada yaratilgan imkoniyatdan to'g'ri foydalansa, o'z xatosini anglay oladi va uni bartaraf etishga harakat qiladi; kimki yo'l qo'yilgan xatoni anglash va uni to'g'rilashga harakat qilish o'rniga turli bahonalarni ro'kach qilaversa, xatolari yana bittaga oshishi uchun shaxsan o'zi sharoit yaratadi. Keltirayotgan bahonasi qancha ko'p bo'lsa, uning yanglishishi, xatosi shunchalik katta ko'rinadi, kamchilikning

mavjud ekanligini ko'rsatgan kishi bilan tortishish qancha kuchli bo'lsa, el oldida uning obro'si shunchalik pasayadi.

Mutafakkirning ilm olish yo'llari xususidagi qarashlari ham muhim ahamiyatga egadir. Alisher Navoiy: "...bilimlarni tinmay, uzluksiz o'rganish zarur,- degan fikrni ilgari suradi. Bu yo'lda duch keladigan har qanday qiyinchilikni yengib o'tish, xatoliklarni bartaraf etish mumkin"¹, - deb hisoblaydi. Aniq hayotiy maqsadni belgilab olgan holda ana shu maqsadning ro'yobga chiqishi yo'lida qunt bilan ishlash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, bu yo'nalishda olib borilayotgan harakatni oxiriga etkazishda chidamli, matonatli va sabotli bo'lishni maslahat beradi

Tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida inson kamolotida tarbiyaning o'rnini alohida ta'kidlab, «Janobi Haq insonlarning asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo'ladir. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuk xulqdan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o'ssa, nasihatni kulog'iga olmaydigan, har xil buzuk ishlarni qiladigan nodon, johil bir rasvoyi odam bo'lib chiqadi"²— deb ta'kidlaydi.

Sharqda pedagogik diagnostika elementlarini qo'llashda insonni voyaga yetkazish masalalariga jiddiy e'tibor berilgan. Xalq pedagogikasi o'zbekona axloq, odob va tarbiyaning murakkab barcha qirralarini o'zida mujassamlashtiradi. Xalq pedagogikasida tarbiyaning turli uslublaridan foydalanilgan. Bu uslublar nihoyatda rang-barang bo'lib, ko'p tomonlari bilan ilmiy pedagogika va pedagogik diagnostikaning shakllanishida ham o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Sharqda pedagogik diagnostika elementlari quyidagi tarbiya metodlari zahirida qo'llanilgan:

¹ Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. 5- jild.-Toshkent: qomuslar bosh tahririyati, 1999.-492 bet

² Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq-Toshkent: Fan, 1994,-25-b.

1) **Tushuntirish:** maslahat berish, uzr so‘rash, yaxshiliklar haqida so‘zlash, o‘rnak bo‘lish.

2) **Nasihat berish:** o‘git, undash, ko‘ndirish, iltimos qilish, oq yo‘l tilash, yaxshiliklar haqida so‘zlash, rahmat aytish, duo qilish.

3) **Namuna bo‘lish:** maslahat so‘rash, o‘rnak bo‘lish.

4) **Rag‘bat va jazo:** maqtash, olqishlash, tasanno aytish, ta’kidlash, ta’na, gina, tanbeh berish, uyaltirish va boshqalar.

Sharqda pedagogik diagnostika elementlari-an’analari, udumlar, rasm-rusumlar zahirida ham namoyon bo‘lgan. Bunda yosh avlodni aqliy rivojlantirish, bilim, ilm, malaka, ko‘nikmaga ega bo‘lish, axloqli qilib tarbiyalash: axloq, odob, xulq, yaxshilik, adolat, insof, diyonat, sharm, hayo, vatanparvarlik va boshqa fazilatlarni shakllantirish; mehnat tarbiyasi: faollik, ishchanlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik; aqliy ish, jismoniy mehnat; jismoniy tarbiya: chiniqish, jismoniy o‘yinlar; nafosat tarbiyasi: go‘zallik, kiyinish madaniyati, muomala madaniyati, saranjom-sarishtalik; ekologik tarbiya: tabiat, atrof-muhit, flora va faunaga sog‘lom yondashuv; iqtisodiy tarbiya: tejamkorlik, bozor iqtisodiyoti, sarf, isrof; foyda, mulk, mulkka egalik, tadbirkorlik; huquqiy tarbiya: insonparvarlik, burch, vijdon, tenglik, adolat, to‘g‘rilik, halollik kabi tushunchalarni shakllantirishga katta e’tibor qaratilgan. Demak, buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ta’lim-tarbiyaga oid g‘oyalarda pedagogik nazariya va amaliyot muammolarini tadqiq qilish va yechimini topishga alohida ahamiyat qaratilgan bo‘lib, ularni o‘rganish va ulardan foydalanish buyuk ma’naviyatimizni asrashga va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy sharoitda pedagogik diagnostika rivoji. Bir qator olimlar: Klauer, Ingo Xartman, Karxaynts Ingenkamp, Linert, Frikelarning pedagogik diagnostika psixologik diagnostika zahirida tug‘ilganligini ta’kidlashlari, albatta o‘rinsiz. Bir paytlari psixologik diagnostika biologiya va tibbiyotning tashxis modellarini andoza qilib olgani kabi pedagogik diagnostika ham zarur bo‘lganda psixologik ilmiy–tadqiqot metodlardan o‘z o‘rnida foydalandi.

Jahon pedagogikasida “ta’lim”, «tarbiya» atamaları keng qamrovlidir. Ta’lim muassasalarida pedagogik diagnostika tahsil oluvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalarining shakllanganlik darajasi hamda kompetensiyalarning rivojlanganlik darajasini tashxislashga qaratiladi.

“**Kompetensiya**” atamasi fanga 1959-yili Uayt tomonidan kiritilgan bo‘lib, yuksak darajadagi motivatsiya asosida bajarilgan faoliyatni ifodalardi. Uayt kompetensiyani insonning “ borliq, tevarakat-rof bilan samarali hamkorlik” qilishi natijasida orttirishini, shu sababli “kompetentli motivatsiya” - “qobiliyatlar asosida erishilgan yutuqlar” ekanligini e’tirof etdi. Kompetensiyani pedagogik hodisa sifatida tadqiq qilish XX asrning 60-yillaridan AQShda ommaviy tus oldi. Bunda mamlakatdagi iqtisodiyot sohasidagi inqirozga kompetentli bo‘lmagan o‘qituvchilar sababchi ekanligi, aynan ular shu sohada xizmat qilayotgan iqtisodiyotchilarga sayoz bilim berib, saboq berishganligi bois, iqtisodiy tanglik yuz berganligini isbotlashga harakat qildilar. **Kompetensiya** – soha bo‘yicha egallangan bilim, ko‘nikma, malakalarni hayotda yuqori darajada qo‘llay olish layoqati O‘qituvchi kompetensiyasini aniqlashtirish uchun maxsus testlar ishlab chiqildi va Mak-Klilland 1976-yili intellektni aniqlaydigan testlar o‘rniga ularni tajriba sifatida qo‘llashga muvaffaq bo‘ldi. Kompetensiyalarni diagnostika qilish testlari kognitiv testlarga qarama-qarshi o‘laroq ishlatila boshlandi. O‘ttiz yil muqaddam Amerika ta’lim assotsiatsiyasi kompetensiyalarning besh klasterini ajratib ko‘rsatdi (resurslar, shaxslararo, informatsion, tizimlar va texnologiyalar) va bugungi kunda ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar aynan shu kompetensiyalar asosida ishini tashkil qilishadi.

Germaniyada kompetensiyali yondashuvlarga asoslangan innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq qilish va natijalarni diagnostika qilish modeli katta qiziqish uyg‘otmoqda. Ta’limning kompetensiyali modeli Germaniya ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga mo‘ljallangan. Chunki XX asrning 90-yillariga kelib,

Germaniyadagi ta'lim tizimi eskirgan hisoblandi, chunki bozor ehtiyojlari va tahsil oluvchining bilimi o'rtasidagi nomuvofiqlik paydo bo'lganligi sezildi. Universitetni tugallayotgan yoshlar olgan bilim va ko'nikmalari zamonadan ortda qolayotganligini ko'rsata boshladi. Shu sababali bugungi kunda nemis o'quvchilarining tayanch kompetensiyalariga grafik redaktorlar bilan ishlash, dasturlashtirish, ma'lumotlarni matematik-statistik tahlil qilish, jadvallarni shakllantirish va ulardan asosiy ma'lumotlarni saralash ko'nikmalariga ega bo'lish, logistikaning asoslarini egallash, o'z va xorij tilidagi ma'lumotlarni o'qish, tushunish, anglash va interpretatsiya qilish, yozma va og'zaki tarzda fikrlarni bayon qilish, ish hujjatlarini yurita olish, yig'ilayotgan ma'lumotlarni tizimlashtira olish kompetensiyalariga erishish talab qilinadi. Ko'rib turganimizdek, fundamental bilimlarga tayanadigan an'anaviy ta'lim oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga zamonaviy mehnat bozorida raqobatga chidamli bo'lishga xizmat qilmayotganligi aniqlanmoqda.

XX asrning 80-yillarida Germaniyada "tayanch kompetensiyalar" atamasi paydo bo'ldi, ularga shaxsiy kompetensiyalar bilan birgalikda "mustaqil faoliyat yuritish va mustaqil qaror qabul qilish", "moslashuvchanlik", "hamkorlik qilish qobiliyati", "axloqiylik va ma'naviy yetuklik" kompetensiyalari kiritildi. 1996-yilda nemis ta'lim tizimi "Harakatlar kompetensiyalari"ni qabul qildi, unga asosan o'quv predmetini o'qitish kompetensiyaviy yondashuvlar asosida tashkil qilina boshlandi va o'quv dasturlarida o'z ifodasini topdi. Nemis ta'lim tizimi raqobatli zamonaviy mehnat bozorida o'zining kompetensiyaviy yondashuvlar asosida moslashuvchanligini ko'rsata oldi. Nemis olimlarining ta'kidlashicha, bugungi zamonaviy ta'lim tizimida 29 kompetensiyaviy yondashuv asosida oliy ta'lim bitiruvchilarining olgan bilimlari, ko'nikma va malakalari hamda zamonaviy bozor ehtiyojlari orasida muvofiqlik mavjud emas. Eng asosiysi, nemis ta'lim modelida insonning butun umri davomida bilim egallash kompetensiyasini shakllantirishga bo'lgan yondashuv dominantalik qilishi bilan xarakterlanadi. Ushbu ta'limning kompetensiyali nemis

modeli pedagog va sotsiolog olim F.Vaynertning kompetensiyalar haqidagi g'oyalari asosida tashkil topgan. Har qanday faoliyatni kompetentli bajarish insondan aynan shu xatti-harakatni qanday va nima uchun bajarayotganligini tushunish asnosida kechadi. Shu sababali, bugungi kunda o'quvchilarning kompetensiyali yondashuvlar asosida ta'lim olishlari ularning axborotlarni saralash qobiliyatlariga ega bo'lishlarini, qaror qabul qilishda mustaqillik hislarining mavjudligi, qabul qilinayotgan axborotni kodlashga o'rganish, uni ixchamlashtirish kabi ko'nikmalarni egallash talab etiladi.

Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Singapur ta'lim tizimida pedagogik diagnostika yil yakunlari bo'yicha o'qitish sifatini baholashga qaratiladi. Masalan, Germaniyada umumiy o'rta ta'lim tizimida 12 million o'quvchilar 50 mingga yaqin o'rta ta'lim maktablarida tahsil oladilar va boshlang'ich ta'lim – 4 sinfgacha; ilk o'rta ta'lim – 4 sinfdan 10 sinfgacha; ikkinchi o'rta ta'lim- 10 sinfdan 13 sinfgacha davom etadi. Boshlang'ich maktablarni (Grundshule) tugatganlaridan so'ng o'quvchilar tahsil olishlarini o'qish muddati besh yil bo'lgan asosiy maktablarda – (Naupthshule) va nufuzli maktablar (Realshule, Gimnazium, Gesamtshule)larda davom ettirishlari mumkin. Asosiy maktablarda o'quvchilar haftasiga 30-33 soat miqdorida dars o'tishlari ta'minlangan bo'lib, ushbu maktablarning asosiy maqsadi- o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdan iborat. Ushbu maktablarni bitirgan o'quvchilar muayyan kasb egalari bo'lib yetishadilar va mehnat faoliyatini boshlashlari mumkin. Iqtidorli o'quvchilar esa Realshule, Gimnazium, Gesamtshule, ya'ni nufuzli maktablarda saboq olishni davom ettirishadi va oliy o'quv muassasalariga kirishga tayyorlanishadi. Bunda o'qitish sifatini ta'minlashda ta'lim mazmuni birinchi darajali mohiyat kasb etadi. O'qitish sifatini diagnostika qilishda quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

- umumiy o'rta ta'lim muassasasida amal qilinayotgan modernizatsiyalashtirilgan ta'lim dasturlarining samaradorligi;

- tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar va pedagogik texnologiyalarning qulayligi, ularning davlat talablari va o'quv dasturlariga muvofiqligi;

- ta'lim dasturlarini yaxshilash va takomillashtirishga yo'naltirilgan tadbirlarning samaradorligi;

- davlat talablari, o'quv dasturlari hamda o'quv-metodik majmualarda ta'lim bosqichlararo uzviylik va uzluksizlikning ta'minlanganligi hamda amaliy mashg'ulotlarning sifat darajasining yuqoriligi;

- o'quv rejasida ta'lim sohalari va o'quv predmetlarining uyg'un tarzda ifodalanganligi;

- o'qituvchi hamda o'quvchilarning o'quv rejasidan qoniqishlari;

- o'quv dasturlarida uzviylikning ta'minlanganligi, mavzularning amaliyotga tatbiq etish uchun qulayligi, tarkibining uyg'unlashganligi;

- tabaqalashtirilgan ta'limni amalga oshirishga yo'naltirilgan harakatlarning takomillashganligi, o'quv jarayonini chuqurlashtirish va ixtisoslashtirishning amalga oshirilganligi kabilar.

Dunyoda ta'lim tizimida olib boriladigan ta'lim diagnostikasi o'quv dasturlarining modernizatsiyalashtirilganligi, zamonaviy bilimlarning ifodalanganligi, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilganligining ta'minlanganligi, sinovdan o'tganligi va o'quvchilarning o'zlashtirishlari uchun qulayligi ham inobatga olinadi. Shu bilan birga ta'lim tizimida yangi mazmundagi tarbiyaviy jarayonlarning sifatini aniqlash ham talab etiladi. Bunda tarbiyaviy jarayonlarning sifatini quyidagi ko'rsatkichlar yordamida tashxislash mumkin:

- individual-shaxsiy va insoniy yo'nalganlik;

- tashabbuskorlik;

- izchillik va muntazamlilik;

- tashkiliy shakllarni takomillashtirish va moslashtirish;

- umumiy o'rta ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy ishlar moddiy-texnik asosining to'liqligi, jumladan, tarbiyaning mujassamlashgan

rejasi, eslatmalar, kodekslar, xulq-atvor qoidalari, ijodiy tanlovlarning Nizomlari mavjudligi;

- tarbiyaviy ishlarni boshqarishning takomillashtirilganligi;
- tarbiyaviy ishlarning rejalashtirilganligi;
- tarbiyaviy ishlarni hisobga olish va nazorat qilish mexanizmining mavjudligi;
- tarbiyaviy ishlarning borishi va maromi tahlil qilinishi;
- umumiy oʻrta taʼlim muassasasidagi tarbiyaviy ishlarning izchilligi va muntazamliligi;
- umumiy oʻrta taʼlim muassasasida oʻquvchilar shaxsini tarbiyalash va diagnostika qilishning barcha turlariga eʼtibor qaratilganligi, chunonchi, maʼnaviy, axloqiy, jismoniy, estetik, ekologik va h.k.
- oʻquvchilarga taʼlim-tarbiyaviy taʼsir koʻrsatishning barcha imkoniyatlaridan foydalanish tajribasining mavjudligi;
- oʻquvchilarga yakka va umumiy tarbiyaviy taʼsir koʻrsatish shakllaridan foydalanilishi;
- umumiy oʻrta taʼlim muassasasidagi tarbiyaviy ishlarda maktab rahbariyati, ota-onalar, mahalla faollari, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va boshqa jamoatchilik vakillarining ishtirok etishlari;
- umumiy oʻrta taʼlim muassasasida qonuniylik, tartiblilik, intizom, ish tartibi, sogʻlom turmush tarzi talabalariga sifatli rioya qilinishi;
- tarbiyaviy ish shakllarining turli-tumanligi, jamiyatning zamonaviy talablariga, milliy mentalitet va milliy gʻoya tamoyillari, oʻquvchilarning ehtiyojlariga mosligi kabilar.

«Pedagogik tashxislashning asosiy maqsadi - tashabbuskor va mustaqil kishilarni tarbiyalashni nazarda tutadigan boʻlsa, u tarbiyalanuvchiga pedagogika jarayonida faol harakat qiluvchi subyekt rolini beradi». Demak, uzluksiz taʼlim tizimi qatnashchilarining maʼnaviy–axloqiy, intellektual va boshqa sifatlarini tashxislash uchun ilgʻor pedagogik tajribalarni ham oʻrganish zarur boʻladi.

Xorij olimlari: Ingo Xartman, Karlxaynts Ingenkamp, Linert, Frike, Lyumann, Rorshax, Diderix, Xeginger, Baxmayr (Germaniya); Bolsho, Burk, Rollet, Royleke (Angliya); Jorj Fisher, Jeyms Rays, T.Stoun (Amerika); A.V. Mudrik, V.D. Semyonova, G.N. Filova, S.D. Smirnov I.V. Dubrovina, Y. Langmeyer, G.M. Breslav, L.P. Fridman, I.Rogov (Rossiya) ta'lim tizimida pedagogik diagnostika masalalarini tadqiq etishgan.

O'zbekistonda pedagogik diagnostikaga oid qarashlarning shakllanishi va XX asrda pedagogik diagnostikaning rivojlanishi. O'zbekistonda pedagogik diagnostika o'zining tarixiga ega bo'lgan yangi fan sohasidan biriga aylandi. 1991-yilda mamlakatimiz mustaqqillikni qo'lga kiritgandan so'ng, pedagogik diagnostikaning rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratildi. Jamiyatimizda ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda yoshlarning aqliy rivojlanishlari, intellektual salohiyatini oshirish, ularda Vatanga muhabbat, milliy g'ururni qaror toptirish, muloqot odobi, o'zbek va jahon madaniyati, san'ati, xalq yodgorliklarini tushunish va ardoqlash kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga katta e'tibor qaratila boshlandi. Ayniqsa, 2020-yilda O'zbekiston Respublikasining yangi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilinganidan so'ng pedagogik diagnostika ta'limiy-tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshirishda, ta'lim sifatini baholashda, muhim tarbiyaviy vazifalarni hal etishda yetakchi o'rinni egallab kelmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2015-yil 25-sentyabrdagi 70-Bosh Assambleyasida qabul qilingan 2016-2030-yillarga mo'ljallangan "Barqaror Rivojlanish Maqsadlari", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Birlashgan Millatlar tashkiloti tomonidan tasdiqlangan "2013-2017-yillarda Ta'lim sektorini rivojlantirish rejasi", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 15-fevraldagi "2016-2030-yillarga mo'ljallangan "Barqaror Rivojlanish Maqsadlari"ni O'zbekiston Respublikasida amalga oshirish" to'g'risidagi 111-F-sonli Farmoyishi

umumiy o'rta ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning kompetentligini oshirishga me'yoriy-huquqiy asos sifatida xizmat qilmoqda. Mazkur Qonun va qonunosti hujjatlarida xalq ta'limi muassasalari tomonidan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni talablari hamda umumiy o'rta ta'limning belgilangan davlat ta'lim standartlariga rioya etilishini nazarda tutadi. Bunda ta'limning demokratiyalashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy va iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratilgan bo'lib, o'qitish sifati hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar, pivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlanishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatilgan.

Mazkur hujjatlarda:

- ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash, ta'limning barcha turlari va bosqichlarida o'quv-tarbiya jarayonini maqbullashtirish;
- umumiy o'rta ta'limning belgilangan davlat ta'lim standarti talablarini bajarilishiga erishish monitoringi amalga oshirilishini tartibga solish;
- sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish;
- mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash;
- kadrlar tayyorlash sifati va pedagogik faoliyat natijalarini baholash mezonlari va tartibini belgilash;
- ta'lim sifati va ko'psatiladigan ta'lim xizmatlari nomenklaturasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilash;
- ta'lim va uning pirovard natijalari, ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini muntazam baholash tartibi va mezonlarini ishlab chiqish;
- o'quv-tarbiya jarayoni, unda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar, axborot ta'minotiga erishish;

- o'qitish darajasini nazorat qilish, ta'lim muassasalarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan me'yoriy talablarni belgilash;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baho bepishning xolis tizimi, hamda ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilishni jopiy etish;

- milliy standartlar talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash;

- umumiy o'rta ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog kadrlar bilimi va kasbiy kompetensiyalari sifatini nazorat qilish hamda xolisona baholash tizimini tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Mazkur masalalar ta'lim-tarbiya sifatini takomillashtirishda pedagogik diagnostikadan oqilona foydalanishning yo'nalishlarini ifodalab, ularning nazariy-empirik asoslari pedagog, psixolog, huquqshunos, siyosatshunos va faylasuf olimlar tomonidan tadqiq etishni taqozo qiladi.

Respublikamiz olimlari: E.G'oziyev, G'.Shoumarov, M.Quronov, O.To'rayeva, R.Mavlonova, O.Musurmonovalar yoshlarning ma'naviy qiyofasini shakllantirish, rivojlantirish hamda jamiyatning har bir a'zosi ongiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirish, mafkuraviy immunitet hosil qilish masalalarini tadqiq qilishgan va bu muammolar yechimini topish uchun o'z ilmiy-amaliy maktablarini yaratishga muvaffaq bo'lishgan.

Bugungi kunda professor E.G'oziyevning "Oliy ta'lim tizimida tahsil oluvchi talabalarning aqliy qobiliyatlarini tashxislash", M.Quronovning "Yoshlarda mafkuraviy immunitetni hosil qilish" kabi metodikalaridan jamiyatimiz pedagoglari unumli foydalanishmoqda.

Mamlakatimiz olimlari: B.Qodirov, O.Hasanboyeva, Sh.A.Abdullayeva, K.Zaripov, Z.Qurboniyozovalar yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini tashxislash, xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalash, o'smir va o'spirin yoshidagi o'quvchilarni kasb tanlashga to'g'ri yo'naltirish masalalari ustida ilmiy izlanish olib

bordilar va maxsus metodikalar yaratishga muvaffaq bo'ldilar hamda O'zbekistonda pedagogik diagnostikaning fan sifatida shakllanishiga o'z ulushlarini qo'shdilar.

Bugungi kunda B.Qodirovning "O'quvchilarning iqtidori va qobiliyatlarini diagnostika qilish", O.Hasanboyevaning "Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning qobiliyatlarini tashxislash", K.Zaripovning "O'qituvchilarning kasbiy tayyorligini tashxislash", Sh.A.Abdullayevaning "O'spirinlarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va xulqidagi nuqsonlarni korreksiya qilish" nomli metodikalari uzluksiz ta'lim tizimiga tatbiq qilinib, samarali natijalar bermoqda.

O'zbek olimlari - R.H.Djurayev, J.G'.Yo'ldoshev, Sh.S.Sharipov, B.X.Xodjayev, D.I.Ro'ziyevlar ta'lim muassasalari rahbarlarining kasbiy faoliyatini tashxislash, ta'lim sifatini oshirish monitoringini o'rganish masalalari ustida ilmiy izlanish olib bormoqdalar.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar, iqtisodiyotning innovatsion yo'nalishda shakllantirilishi, jahon iqtisodiyotiga integrallashuvi ta'lim tizimi oldiga dolzarb masalalaridan biri bo'lgan sifatli ta'limni amalga oshirishni va sifatli mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo'ydi.

Bu nafaqat boshqaruv muammolari, balki ta'lim jarayoni subyektlari faoliyatini innovatsion tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirish, ularni tashxis qilish va o'rganish vazifalarini belgilaydi. Demak, ta'lim tizimida innovatsion jarayonlarni tashkil qilishning ilk qadamlaridan biri bu-o'qituvchilarni innovatsion pedagogik jarayonga tayyorligini diagnostika qilish, maqsad qo'yish, rejalashtirish va bashorat qilish jarayonlarini o'rganishni ta'minlashdir.

Bu holat pedagog diagnostikasi (o'z-o'zini tashxislash), otalar, pedagoglar tomonidan o'quvchilar jamoasini tashxislash, ma'muriyat, mutasaddi mutaxassislarning va ta'lim bo'limlari uslubiyotchilari tomonidan olib borilayotgan tashhislash yo'nalishlarini ham qamrab oladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik diagnostika va korreksiyaning yaxlit nazariyasi va amaliyoti alohida o'rganilishi lozim bo'lgan va o'z yechimini kutayotgan masalalar sirasiga kiradi.

O'zining maqsadi, vazifalari, tatbiq qilish sohasi bo'yicha pedagogik diagnostika hamisha mustaqil bo'lgan. Ammo hanuzgacha pedagogik diagnostikani mavhum va turli bahs–munozaralarga sabab bo'luvchi yo'nalish, uni “dastur sifatidagina qabul qilish mumkin”,– deb hisoblaydigan olimlar ham yo'q emas. Shu sababli bugungi kunda “pedagogik diagnostika” atamasining bir necha talqinlari mavjud bo'lib, ular mazmun–mohiyatiga ko'ra xilma–xildir.

Bir qator tadqiqotchi olimlar (G.Royleke, R.Rollet, K.Leongard, A.Bass, E.Lichko, A.Shmelev) pedagogik diagnostikani–“pedagogik faoliyatni qulaylashtirishda zarur bo'lgan axborotni qo'lga kiritish jarayoni”–deb ta'kidlaydilar.

X.Feger, N.Petillon, V.Bogatskiylar “pedagogik diagnostika psixologik diagnostikadan ajralib chiqqan” – degan fikrni ilgari surishadi.

Bugungi kunda Y.Yirasek, A.Kern yoshlarning bilim olishga moyilliklarini aniqlovchi oriyentatsion testlari, D.B.Elkoninning «Grafik diktant»i, A.L.Vengerning «Nuqtalar bo'yicha chizish», I. Shvansarning «Aqliy rivojlanishni diagnostika qilish» kabi metodikalari mashhurdir.

Nemis olimi Mauermanning yozishicha: «Pedagogik diagnostika o'zlashtirish va o'quv jarayoniga tayyorgarlik o'rtasida aloqa o'rnatadi, o'quv jarayonida kechadigan o'quv maqsadini to'g'ri belgilaydi va o'quv–tashkiliy shakllarni sharoitga mosligini baholaydi».

K.Klauer pedagogik diagnostikaga ta'rif bergan bir qator olimlarni tanqid ostiga olib, shunday fikrlarni bildiradi: «Pedagogik diagnostika (tashxislash) vazifalarini bir paytning o'zida amalga oshirish mushkul. Pedagogik diagnostika dolzarb pedagogik qarorlarni, hukmlarni chiqarishga bo'lgan urinishlar majmuyidan iborat».

Rus olimi V.I.Zverev: “Pedagogik diagnostika–bu turli pedagogik vaziyatlarni o‘rganish, aniqlash, ta’lim tizimi qatnashchilarining xilma–xil qobiliyatlari darajasini bilishdan iborat jarayondir”, – degan fikrni ilgari suradi. Boshqa rus olimasi L.Denyakina: “Pedagogik diagnostika–bu pedagogning o‘quv–tarbiyaviy jarayonni tashxislashda individual–malakaviy sifatlarini belgilovchi, shaxsning ijodiy taraqqiy topishida ko‘makchi, pedagogik jamoaning muvaffaqiyatini oshiruvchi faoliyatdir. Pedagogik diagnostika o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, mazmunini boyitish va attestatsiya uchun qo‘llaniladi” – deb yozadi.

Binobarin, pedagogik diagnostika atamasiga bugungi kunda ko‘plab tariflar uchraydi. Barcha tavsiflarni umumlashtirib quyidagicha fikr bildirish mumkin: pedagogik diagnostika–pedagog shaxsining va u bilan muloqotga kirishuvchilarning pedagogik tizim natijalarini o‘rganish, tahlil qilish, samaradorligini oshirish jarayonidir.

XXI asrda pedagogikada novatorlikka qiziqishni uyg‘otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta’limning o‘zi yangiliklarga boy bo‘lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim.

Ta’lim jarayonini mohiyatan yangilash kelajak uchun uzoq muddatli intellektual investitsiyalarni kiritish demakdir. Ana shunday dolzarblikdan kelib chiqqan holda, bugungi kunda pedagogikaning mustaqil sohasi-pedagogik diagnostika jadallik bilan rivojlanib, psixologiya, sotsiologiya, kvalimetriya sohalaridagi izlanishlar bilan chambarchas bog‘liq, biroq, uning maqsadi, obyekti, predmeti ushbu fanlarning tadqiqot sohasidan muayyan darajada farq qiladi.

Ta’lim muassasalarida pedagogik diagnostika quyidagi maqsadlarga qaratiladi:

1) oydinlashtirilgan ta’lim maqsadi va vazifalarini o‘rganish, tahlil qilish, “identiv o‘quv maqsadlarini o‘quv vazifalariga aylantirish”;

2) ta’lim va tarbiya mazmuni bilan bog‘liq innovatsiyalar ta'sirini o‘rganish, ta’lim subyektlarini differensiatsiyalashtirish;

3) ta'limning shakl, metod, vosita va texnologiyalarining o'quvchi shaxsiga yo'naltirilganligini baholash, noan'anaviy dars shakllari, interfaol metodlar, multimedia vositalari, ta'limning samarali texnologiyalari, modulli ta'lim texnologiyalari, madaniy-insonparvarlik yondashuv texnologiyalarini amaliyotda qo'llanilishi uchun pedagogik shart-sharoitlarni baholash;

4) ta'lim o'zlashtirilishini diagnostika qilish; tahsil oluvchilarning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash, o'qituvchi va o'quvchilarning kompetensiyalarini diagnostik metodlar orqali o'rganish, tahlil qilish, zarur bo'lsa, pedagogik kemptikliklarni bartaraf etish va boshqalar.

Ta'lim muassasalarida pedagogik diagnostika ta'lim subyektlarining shaxs taraqqiyotidagi munosabatini quyidagi holatlarda ifodalaydi:

1) tahsil oluvchi va o'qituvchilarning ma'lum bir qobiliyatlarini rivojlantirish dinamikasini o'rganadi;

2) pedagog va o'quvchilarning BKM, faoliyat usullari, kompetentligini rivojlantirishga doir innovatsiyalarni qo'llash layoqatini aniqlaydi;

Ta'lim muassasalarida pedagogik diagnostika quyidagi ma'lumotlarni yig'ishga zamin hozirlaydi:

1) o'quv jarayonida qo'llaniladigan pedagogik diagnostika. Masalan, ta'limning axborot texnologiyalari; evristik o'qitish, modulli o'qitish, dasturlashtirilgan o'qitish ta'sirini aniqlaydi;

2) dars va undan tashqari sharoitlarda ko'llaniladigan pedagogik diagnostika. Masalan, elektron xarita; multimediali ilovalar va boshqalarning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatini o'rganadi.

3) ta'limni boshqarish sohasida qo'llaniladigan diagnostika. Masalan, ta'limning davlat boshqaruvidan davlat-jamoatchilik boshqaruviga o'tilishi darajasini aniqlaydi.

Pedagogik diagnostikaning obykti-bu ta'lim-tarbiya jarayonida yuzaga kelgan o'zgarishlarni aniqlash jarayoni. Pedagogik diagnostikaning predmeti-bu ta'lim-tarbiya amaliyotida pedagogik

shart-sharoitlar, vosita va qonuniyatlarni aniqlash, baholash, pedagogik jarayon ishtirokchilarining layoqatlari, qobiliyatlari, shaxsiy-xarakterologik xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

Pedagogik diagnostikaning metodologiyasi pedagogik jarayonlarni qulaylashtirish, optimallashtirish maqsadida mazkur jarayon subyektlari, pedagogik shart-sharoitlar, metod, vositalarni tashxislashga xos bilim va faoliyat tizimi tashkil etadi.

Pedagogik diagnostikani ta'lim tizimida tashkil etishda uning nazariy bloklari quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik neologiya (ilmiy-pedagogik jarayon, uning o'ziga xosliklari va asosiy natijalari xaqidagi ilmiy va tajribaviy ma'lumotlar tizimlashtiriladigan pedagogikadagi yangilik xaqidagi ta'limot).

2. Qiyosiy pedagogik aksiologiya (pedagogika nazariyasi va amaliyotida yuzaga keladigan pedagogik yangiliklarni baxolash va o'zlashtirishning o'ziga xosliklarini ochib beruvchi fan).

3. Innovatsion praksiologiya (pedagogik yangiliklarni amaliyotda qo'llashni o'zlashtirish). Shundan kelib chiqib, ta'lim jarayonida pedagogik diagnostikadan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishda:

1) obyektivlik; 2) ishonarlilik; 3) aniqlik; 4) interpretatsiya; 5) qiyoslash kabi kontseptlar muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olish zarurati vujudga keladi.

Ta'lim muassasalarida pedagogik diagnostika mexanizmlari pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'zaro harakat turiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:

1) jamoada mohiyatan yangi o'qitishga doir g'oyalarni tatbiq etilishini va uning natijasini diagnostika qilish;

2) guruhli o'qitishga doir innovatsiyalarni amaliyotda qo'llash va ularning natijalarini tashxislash;

3) tyutorlikni tashkil qilish va natijasini o'rganish;

4) fatsilitatorlikni tashkil qilish va natijasini o'rganish;

5) moderatorlikni tashkil qilish va natijasini o'rganish.

Ta'lim muassasalarida pedagogik diagnostika funktsional imkoniyatlariga ko'ra quyidagicha farqlanadi:

1) shart-sharoit bilan bog'liq diagnostika (ta'limiy muhitni o'zgartirishni ta'minlovchi; ijtimoiy-madaniy shart-sharoit va boshqalar)ni ta'lim jarayoniga tatbiq etishni aniqlash;

2) mahsulot ko'rinishidagi innovatsiyalar (pedagogik vositalar, loyihalar, texnologiyalar)ni joriy qilish darajasini va ularning natijalarini tashxislash.

3) boshqaruvga doir yangiliklarni kiritish darajasini o'rganish va ularni tashxislash.

Ta'lim jarayonida pedagogik diagnostika ta'limiy faoliyatni tahlil etish va o'zgarishlarga ehtiyojni aniqlash; yangiliklarni baholash va tanlab olish; bo'lajak ko'zda tutilgan ta'limiy tizimni loyihalashni o'rganish; yangiliklarni qo'llash darajasini aniqlash; natijalarni tahlil etish va baholashga qaratilishi lozim. Shu bilan birga pedagogik diagnostika turli darajada-alohida o'qituvchi yoki o'quvchi faoliyatini tashxislaydi. Bunda:

a) faoliyatli: motivli maqsad, vazifalar, mazmun, shakl, metodlarni qo'llash natijasida qo'lga kiritiladigan samara tashxislanadi;

b) subyektivli: ta'lim muassasasi barcha subyektlari- direktor, uning o'rinbosarlari, o'qituvchilar, o'quvchilart ota-onalar, metodistlar, konsultantlar, ekspertlar, ta'limni boshqarish organlari xodimlari, attestatsiya komissiyasining faoliyati tashxislanadi;

v) darajalangan: xalqaro, respublika, viloyat, tuman, shahar, ta'lim muassasasi darajasidagi pedagogik faoliyat subyektlarining o'zaro hamkorligi darajasi tashxislanadi;

g) mazmunli; ta'lim-tarbiya ishlari, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish darajasi, ta'lim muassasasini boshqarishga doir yangiliklarni ishlab chiqish va o'zlashtirish holati baholanadi;

d) boshqaruvga doir faoliyatning ta'lim muassasasidagi muammolarini aniqlash, ularning qamrovlik darajasi kvalimetrik o'lchanadi.

Pedagogik diagnostikaning predmeti: “shaxs” tushunchasi va uning pedagogikada qo‘llanilishi. Pedagogika fanida umumiy kategoriyalar bilan bog‘langan asosiy tushunchalardan biri – shaxs tushunchasidir.

Shaxs- jamiyatda o‘z mavqeiga ega bo‘lgan, o‘zligini anglagan, o‘z “Men”iga da’vogar, tevarak-atrofdan sodir bo‘layotgan ijtimoiy voqea-hodisaga adekvat baho bera oladigan, tafakkur faoliyatining obyektivligi bilan tavsiflanadigan insondir. Shaxs- “kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekt va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi”. Jamiyatsiz shaxs, shaxssiz jamiyat bo‘lmaganidek, insonning shaxs sifatida kamol topishi uchun biologik, psixologik, ijtimoiy omillar sabab bo‘ladi.

Shaxsning axloqiy sifatlari-shaxsning aqliy jihatdan kamolotga yetishuvi uning aqliy, zehniy sifatlari, fazilatlari orqali namoyon bo‘ladi: bilag‘onlik, obyektivlik, fikrlovchilik, qobiliyatlilik va boshqalar hisoblanadi.

Shaxsning o‘zi, o‘z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilish orqali hosil bo‘lgan obraz- “Men”-obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va realikka yaqinligi insonning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini belgilaydi va barkamollik mezonlari bo‘lib hisoblanadi.

“Men” – obrazining ijtimoiy pedagogik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va uning tarbiyalanganlik darajasi omillarining ahamiyatini yuksaltiradi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, “tarbiyani shaxsning o‘zi va o‘z sifatlari to‘grisidagigi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta’rif berish mumkin”. Demak, har bir inson o‘zini, o‘zligini qanchalik aniq va to‘g‘ri anglasa, tasavvur qilsa, unda jamiyatning axloq normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kamayadi.

Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida inson kamolotida tarbiyaning o‘rnini alohida ta’kidlab, “Janobi Haq insonlarning asl xilqatda iste’dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin, bu

insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo‘ladir. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqdan saqlanib, go‘zal xulqlarga odatlanib katta bo‘lsa, baxtiyor bir inson bo‘lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o‘ssa, nasihatni qulog‘iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan nodon, johil bir rasvoi odam bo‘lib chiqadi”-deb ta’kidlaydi. Demak, tarbiya-o‘tib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot-dunyoqarashni, insoniy e’tiqod, burch va ma’suliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo‘lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya bola tug‘ilgandan boshlab umrining oxirigacha oilada, tarbiya muassasalari, o‘quv dargohlari, mahallada, jamoatchilik ta’sirida shakllanib boradigan jarayondir.

Shaxs deganda ruhiy jihatdan taraqqiy etgan, o‘z xususiyati va sifatleri bilan boshqalardan farq qiladigan muayyan jamiyatning a’zosi tushuniladi.

Shaxs – ijtimoiy hayotning mahsuli. U o‘zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi.

Inson shaxs sifatida oilada - ota-onalar, jamiyatda esa tarbiyachi-ustozlar, ijtimoiy guruhlar va turli jamoalarning ta’sirida shakllanadi. Jamiyat rivojlangan sari yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalab yetishtirish ehtiyoji ham ortib boradi. Odamning insonlik jinsiga mansublik fakti esa individ tushunchasi bilan ifodalanadi. Inson shaxsining eng xarakterli tomonlaridan biri uning individualligi (faqat o‘ziga xos bo‘lgan, boshqa insonlarda uchramaydigan xususiyat)dir.

Individuallik deganda shaxs ruhiy xususiyatlarining qaytarilmaydigan birikmasi tushuniladi. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, ruhiy jarayonlarning o‘tib borish xususiyatlari, hissiyotlar, faoliyat motivlari, tarkib topgan qobiliyatlar kiradi.

O‘zbek olimlari: M.G.Davletshinning “Shaxs va jamiyat”, E.G‘ozievning “Psixologiya”, “Tafakkur psixologiyasi”, “O‘spirinlar psixologiyasi”, V.Karimovanning “Ijtimoiy psixologiya”,

A.Munavvarovning “Pedagogika”; xorij olimlari: J.J.Piajening “Bolaning rivojlanishida muhitning o‘rni”, D.B.Elkoninning “Shaxs rivojlanishida o‘yinning ahamiyati”, “Pedagogik psixologiya”, A.V.Petrovskiyning “Umumiy psixologiya”, V.Davidovning “Rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi”, L.S.Vigotskiyning “Psixologiya”, D.Dyuining “Shaxs va uning jamiyatdagi o‘rni”, G.Gardnerning “Shaxs rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar”, kabi asarlarida shaxs tavsifi, uning rivojlanish bosqichlari, bunda faoliyatning ahamiyati to‘g‘risida qimmatli fikrlar keltirilgan. Jamiyat taraqqiyotida insonning bilimi va faol amaliy faoliyati to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M Mirziyoyev asarlarida barkamol shaxsni voyaga yetkazish to‘g‘risida chuqur ma’noga ega bo‘lgan g‘oyalar keltirilgan.

Shunday qilib, insonning shaxs sifatida kamol topishida ijtimoiy, biologik, ruhiy omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ijtimoiy muhit-kishi shaxsini shakllantiruvchi ijtimoiy munosabatlar majmui sifatida talqin qilinadi. Ijtimoiy tafakkur, turmush tarzi, shaxslararo, guruhlararo hamda millat va xalqaro munosabatlarning o‘zaro muvofiq kelishi va bir-birini boyitishi tushuniladi. Odob-axloq shaxsning o‘ziga va dunyoga nisbatan munosabatlaridagi xatti-harakatlarining belgilangan, aniqlangan usuli bo‘lib, sabab tasavvurlar va qarashlarni qamrab oladi, ya’ni shaxs shakllanadigan manba hisoblanadi.

Ijtimoiy muhitning shaxs shakllanishidagi o‘rni nihoyatda beqiyosdir. Irsiy belgilarning rivojlanishi insoniy-ijtimoiy muhitda yashashga bog‘liqligiga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Inson bolasi, agar ijtimoiy-insoniy muhitda emas, boshqa muhit, aytaylik hayvonlar muhitiga tushib qolsa, unda irsiy belgilarning ayrim biologik ko‘rinishlari saqlanar, lekin insoniy fikr, faoliyat, xatti-harakat bo‘lmaydi. (1920-yilda hindistonlik doktor Singx Midnapur shahri yaqinidagi bo‘ri uyasidan topib olgan qizchalar Kamola va Amola hayoti bunga misol bo‘ladi). Yoki Daniyel Defoning “Robinzon Kruzo” asaridagi bosh qahramon- Robinzon yashagan orol sohillariga uning xaloskor kemasi yelkan otmaganida edi, u shaxs sifatida degradatsiyaga uchragan bo‘lardi.

Ijtimoiy muhitning buyuk insonlar shakllanishidagi o‘rni muhim bo‘lib, Alisher Navoiy-shoir, Eynshteyn- fizik, Ulug‘bek-astronom, Ibn Sino-tabib bo‘lib tug‘ilmagan, albatta. Ulardagi qobiliyat kurtaklarining rivojlanishi, iste’dodga aylanishida ijtimoiy muhit, ta’lim - tarbiya muhim o‘rin egallaydi. Davlatimizning barkamol inson tarbiyalash borasidagi siyosatida ham shaxs shakllanishida muhitning o‘rni muhimligi ko‘rsatiladi.

Ta’lim - tarbiya insonning shakllanishida yetakchi o‘rin egallaydi. Ta’lim -tarbiya natijasida irsiyat va muhitning stixiyali ta’sirini o‘qish, chizish, mehnat qilish, musiqa bastalash va boshqa malaka va ko‘nikmalar egallanishi evaziga o‘zgartirish, hatto tug‘ma kamchiliklar (karlik, zaif ko‘rish, soqovlik)ni bartaraf etish mumkin. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda qobiliyatli, iste’dodli va iqtidorli bolalarga aloqida e’tibor berila boshlandi, ularning iqtidori yoshligidan aniqlanib rivojlantirilmoqda. Bugungi kunda Zulfiya nomidagi davlat mukofotlari, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy nomidagi va Prezident stipendiyalarining ta’sis etilganligi ham yoshlarga berilayotgan e’tiborning timsolidir.

Insonning shaxs sifatida kamol topishida ijtimoiy, biologik, ruhiy omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan ma'naviy meros – ularning asarlarida komil insonni ma'naviy rivojlantirish g‘oyasi o‘z ifodasini topgan. Xususan, “Avesto”, Qur’oni Karim, Sharq mutafakkirlarining noyob asarlaridagi komil inson g‘oyasi, Sharqona axloq kodeksi va bugungi kundagi O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida sog‘lom avlod tarbiyasi haqida o‘lmas g‘oyalar keltirilgan. Har bir inson shaxs sifatida turlicha namoyon bo‘lar ekan, uning ijtimoiy voqelikka, mehnatga, insonlar va jamiyatga bo‘lgan munosabati, faollik darajasi, axloq-odob borasidagi yetukligi turlicha bo‘ladi. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa o‘sha jamiyat qonun-qoidalariga amal qiladi va voyaga yetadi. Pedagogikada shaxsning

kamolotga etishishi murakkab va ziddiyatli jarayon sifatida qaraladi. Shaxsning kamolotga erishishida irsiyat, muhit, maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan ta'lim -tarbiya va albatta o'zining mustaqil faoliyati, iroda safarbarligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Irsiyat nishonalari shaxsni shakllantirishning obyektiv omillariga kiradi. Inson organizmidagi anatomik tuzilish, fiziologik harakat, asab tipi, asosiy shartsiz reflekslarni ota-onasidan meros qilib oladi. Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida odam shaxsi va xulqi rivojlanishida biologik omillarning rolini yuksak baholab, shaxsni naslga bog'lab o'rganuvchi bixeviorizm, pragmatizm, biogenetik oqimlar mavjud bo'lib, ularning ayrim vakillari (E.Torndayk) odam bolasi ona pushtidaligidayoq bo'lajak shaxsga xos barcha xususiyatlarga ega bo'ladi, degan fikrni ilgari surishsa, ayrimlari ong va aqliy qobiliyat ham nasldan-naslga o'tadi, - degan g'oyani ma'qullaydilar. Ba'zi olimlar shaxsning axloqiy jihatdan o'sishini ham irsiyatga bog'laydi. Shunday qilib, irsiylik shaxsning o'ziga xosligini belgilab beradigan anatomik, fiziologik, psixologik, tashkiliy jihatlar, ota-ona tomonidan irsiy o'zgaruvchilar orqali o'tadigan birliklardir.

Biologik omilning inson shakllanishidagi o'rni muhim va o'ziga xos, albatta, irsiyatning ahamiyatini inkor etib bo'lmaydi, insonga xos xususiyatlar - aqliy va jismoniy mehnat qobiliyati, tafakkur va nutq ham tug'ma o'tishi mumkinligi, lekin bu tug'ma imkoniyatlar rivojlanishi uchun inson bolasi insoniy muhit, odamlar orasida yashashi, jamiyatda munosabatlar o'rnatishi, ijtimoiy hayotda qatnashishi va ma'lum xulq-odob qoidalariga amal qilishi lozimdir. Insonning shaxs sifatida shakllanishida muhit (geografik, ekologik, axborot vositalarining uzoq-yaqinligi, ota-ona, bobo-buvilar tarbiyasining to'laqonligi, tashqi muhit va h.k) beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Shaxsning rivojlanishida «faoliyat», «faollik» tushunchalarining o'rni beqiyos. Buyuk insonlar o'z sohalarida yuksaklikka erishish uchun tinmay mehnat qilganlar. Inson o'z intilishi va faolligi bilan

yuksak natijalarga erishishi mumkin, qobiliyat va iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun ham o'z ustida ishlanishi zarurdir.

Shunday qilib, ta'lim-tarbiya jarayonini oqilona tashkil etishda pedagogik diagnostika:

- birinchidan, individual ta'lim jarayonini qulaylashtirish;
- ikkinchidan, jamiyat talabidan kelib chiqib, ta'lim–tarbiya natijalarini oldindan bashoratlash, samaradorligini aniqlashni ta'minlash;
- uchinchidan, o'ziga xos ta'lim yo'nalishi va mutaxassislikni to'g'ri tanlashga yordam beradi.



MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR TESTLAR:

1. “Diagnostika” atamasining lug'aviy ma'nosi to'g'ri ifodalangan qatorni ko'rsating

A) «dia» – «shaffof», «гнозис» – «bilim- o'rganilayotgan obyekt yoki jarayon to'g'risida aniq ma'lumot olishning umumiy vositasi bo'lib xizmat qiladi;

B) “dia”-“ta'lim”, «гнозис” - “tarbiya” – ta'lim-tarbiya jarayonini qulay tashkil etish;

C) “Shaffof ma'lumot beruvchi” metodika sifatida tushuniladi;

D) “Donishmandlar suhbatlari” ma'nosini bildirib, pedagogikada keng qo'llaniladigan metodni bildiradi.

2. Pedagogik diagnostika – bu.....

A) Pedagog shaxsining va u bilan muloqotga kirishuvchilarning pedagogik tizim natijalarini o'rganish, tahlil qilish, samaradorligini oshirish jarayonidir ;

B) Shaxsning o'ziga xosligini belgilab beradigan anatomik, fiziologik, psixologik xususiyatlari;

C) Ijtimoiy muhitning shaxs shakllanishidagi xususiyatlari;

D) Ta'lim tizimida innovatsion jarayonlarni tashkil qilish.

3. Pedagogik diagnostikaning predmeti: “shaxs” bu –...

- A) o'zining fikrini bayon eta oladigan, mustaqil qaror qila oladigan, boshqaruv tamoyillarini to'la-to'kis idrok etuvchi inson;
- B) jamiyatda o'z mavqeiga ega bo'lgan, o'zligini anglagan, o'z "Men"iga da'vogar inson;
- C) kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyeksi va obyekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi, jamiyatda o'z mavqeiga ega bo'lgan, o'zligini anglagan, o'z "Men"iga da'vogar inson;
- D) biologik, psixologik, ijtimoiy omillar asosida taraqqiy etgan, aqliy jihatdan kamolotga yetishgan, obyektivlik, fikrlovchilik, qobiliyatlilik va boshqa sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan individ

4. Pedagogik jarayon – bu...

- A) ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan jarayon
- B) tarbiyalanuvchilarning o'z-o'zini taraqqiy etish jarayoni
- C) axloqiy, estetik, falsafiy dunyoqarashni shakllantirish
- D) shaxsning o'ziga va o'z faoliyatiga bir jamoa yoki butun jamiyat nuqtai nazaridan baho bera olish

5. Sharqda pedagogik diagnostika elementlari quyidagi tarbiyaviy metodlar zahirida qo'llanilgan:

- A) Nasihat, ogohlantirish, namuna;
- B) Tushuntirish, nasihat berish, namuna, ibrat, rag'bat;
- C) Hikoya, so'z orqali ifodalash, ko'rgazmalilik;
- D) Tushuntirish, jazolash, ko'rgazmalilik.

6. «Pedagogik diagnostika» atamasi birinchi bor nechanchi yili va kim tomonidan fanga kiritildi?

- A) 1964-yilda nemis olimi Ingo Xartman tomonidan fanga kiritildi;
- B) 1968-yili nemis olimi Karlxaynts Ingenkamp tomonidan fanga kiritildi;
- C) 1970-yilda ingliz olimi Adam Osborn tomonidan fanga kiritildi;
- D) 1981-yilda Djon Linert tomonidan fanga kiritildi.

7. Nemis olimi K. Klauer pedagogik diagnostikaga ta'rif bergan bir qator olimlarni tanqid ostiga olib, shunday fikrlarni bildiradi:

A) «Pedagogik diagnostika - dolzarb pedagogik qarorlarni, hukmlarni chiqarishga bo'lgan urinishlar majmui»;

B) “Pedagogik diagnostika – ta’lim jarayonini qulaylashtirishga mo’ljallangan faoliyat turi”;

C) “Pedagogik diagnostika – pedagog va tahsil oluvchi o’rtasidagi qo’shaloq jarayon bo’lib, ta’limning natijaviyligini ta'minlaydi”;

D) “Pedagogik diagnostika -jamiyat talabidan kelib chiqib, ta’lim–tarbiya natijalarini oldindan bashoratlash, samaradorligini aniqlashni ta’minlaydi”.

8. «Janobi Haq insonlarning asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan” iborasi qaysi tarbiyashunos olim asarida keltirilgan?

A) Abu Ali ibn Sinoning “Tadbiru manozil” asarida;

B) Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida;

C) Govard Gardnerning “Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar” asarida;

D) V.Mauermannning “Diagnostischen in der Shule” (“Maktabda diagnostika”) asarida.

9. Insonning shaxs sifatida kamol topishida qaysi omillar muhim ahamiyat kasb etadi?

A) ijtimoiy, jismoniy

B) ijtimoiy, biologik, ruhiy omillar

C) dunyoqarash, genetik

D) irsiyat, ijtimoiy

10. Ta’lim tizimida innovatsion jarayonlarni tashkil qilishning ilk qadamlaridan biri bu – ...

A) O‘qituvchilarni innovatsion pedagogik jarayonga tayyorligini diagnostika qilish, maqsad qo‘yish, rejalashtirish va bashorat qilish jarayonlarini tashxislash;

B) Maqsad qo‘yish, rejalashtirish, nazorat qilish, bashoratlash;

- C) Rejalashtirish, maqsad qo'yish, baholash;
D) Pedagogik omillarni inobatga olish, rejalashtirish, tashxislash.

NAZARIY DALILLARGA ASOSLANIB, SAVOLLARGA JAVOB BERING:

1. Pedagogik diagnostikaning predmeti va obyektini izohlab bering.
2. Pedagogik diagnostikaning maqsadi, vazifalarini tushuntirib bering.
3. O'zbekistonda pedagogik diagnostikaga oid qarashlarning shakllanishi haqida nimalarni bilasiz?
4. Shaxs rivojlanishida biologik omilning o'rnini qanday tushunasiz?
5. Shaxs shakllanishida ijtimoiy muhitning ahamiyatini ko'rsatuvchi misollar keltira olasizmi?
6. Shaxs rivojlanishida ta'lim va tabiya qanday o'rin tutadi?
7. Shaxsning rivojlanishi uning faolligi bilan bog'liqmi? Javobingizni izohlang.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Pedagogik diagnostikaning inson va jamiyat taraqqiyotidagi o'рни.
2. Pedagogik diagnostikaning shakllanish va rivojlanish tarixi.
3. Zamonaviy sharoitda pedagogik diagnostika rivoji.
4. Sharqda pedagogik diagnostika elementlarining qo'llanilishi.
5. O'zbekistonda pedagogik diagnostikaga oid qarashlarning shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari va asosiy yo'nalishlari.

ADABIYOTLAR VA AXBOROT MANBALARI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-Toshkent: O'zbekiston, 2023, 30-aprel
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2020-y., 41-son, 543-modda. <https://www.lex.uz/acts/16188>.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-son Farmoni
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent:O‘zbekiston, 2016.-56-bet.
5. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga qo‘ramiz. –Toshkent:O‘zbekiston, 2017-y. 488-bet.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent:O‘qituvchi, 1994, 17-b.
7. Abdulla Avloniy. Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom.- Toshkent: Fan, 1994-y. 293-b.
8. Abdurauf Fitrat. Muxtasar islom tarixi.-Toshkent Fan, 1993-y. 172-b.
9. Abdullayeva Sh. A. Pedagogik diagnostika.-Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010-y. 256-b.
10. Weiner B, Theorien der Motivazion. Stuttgart: Klett ,2007 y.-196 p.
11. Ingenkamp Karlxayns. Pedagogischen diagnostik.-Berlin,1991 y, 240 p.
12. Пиаже Ж. Ребенок и его развитие -Москва: Знание, 2008 g.,508 s.
13. Подласый И. Педагогика -М., «Владос», 2010. 576 s.
14. Сунцов Н.С. Диагностирование в ученическом коллективе- М., // Педагогика, 2016 №4,S.- 40-50.
15. www.ziyonet.uz
16. www.edu.uz
17. www.pedagog.uz
18. www.wikipedia.ru



2-§. TA'LIM MUASSASASIDA PEDAGOGNING DIAGNOSTIK FAOLIYATI

Pedagogik diagnostikaning mohiyati va funksiyalari. Mustaqil O'zbekistonning har tomonlama rivojlanishi va amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati aholining, ayniqsa, yosh avlodning bilimi, tarbiyasi va madaniyatining qay darajada shakllanganligiga bog'liqdir.

O'quv-tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini nihoyatda beqiyosdir. Mutafakkir olim Abu Nosir Forobiy: "Ta'lim - tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat"¹ – degan fikrni "Fozil odamlar shahri" asarida alohida ta'kidlagan.

Jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallagan insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Insonning mushohada qilishi qobiliyatni tarbiyalaydi va aqlni peshlaydi. Aql ongini saqlaydi. Ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta-sekin takomillashib, komillikka erishib boradi, ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchilardan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharaflilik mehnat va qunt, irodani talab etadi. Bunda o'qituvchi yoshlarning shaxs sifatida rivojlanishining xususiyatlarini e'tiborga olishi zarur.

Mustaqil, ma'rifiy–madaniy, adolatli va insonparvar jamiyatda yosh avlodni har tomonlama yetuk, axloqli, odobli kishilar sifatida kamol toptirish dolzarb vazifadir. Mustaqil respublikamizning «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni talablari bilan hamohang ravishda barkamol insonni voyaga yetkazish uchun zarur bo'lgan quyidagi xususiyatlarni shakllantirish lozim:

–ijobiy fazilatlar mohiyati, mazmunini to'g'ri tushunish hamda tahlil qilib, munosabat bildirish;

¹ Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. -Тошкент: Ўқитувчи, 2004.-87-бет.

–jamoadada qabul qilingan normalarga amal qilish, mehnat qilish malakalarini egallash;

–barkamol inson siymosini idrok etish, uning ma'naviy qiyofasini shakllantirish usullarini izlash.

Faoliyat-tashqi olamga faol munosabat shakli, insonning o'zini o'zi maqsadga muvofiq tarzda o'zgartirish usuli, inson borlig'ining muhim xususiyatlaridan biri. Faqat faoliyat zamiridagina inson mohiyati namoyon bo'lishi, jamiyatning, har qanday ijtimoiy tuzilmaning mavjudligi ta'minlanishi mumkin.

Mashg'ulot o'tkaziladigan sharoitlardan qat'i nazar o'quv jarayonini qulaylashtirishga xizmat qiluvchi diagnostika quyidagi maqsadlarga yo'naltiriladi:

- ta'lim natijasi noto'g'ri baholanganda ichki va tashqi tahrirga;
- ta'limdagi kamchiliklarni aniqlashga;
- ta'limning muvaffaqiyatli natijalarini tasdiqlashga;
- o'quv jarayonining keyingi bosqichlarini rejalashtirishga;
- ta'lim–tarbiyadagi muvaffaqiyatlarni rag'batlantirish orqali motivatsiya paydo qilishga va keyingi murakkab qadamlarni yo'naltirishga;
- o'quv–tarbiyaviy sharoitlarni yaxshilashga.

Nufuzli amerika ma'lumotnomalarining (Lindquist) birida pedagogik tashxislash vazifalari (Educational Measurement)ga yirik boblar uchun o'rin ajratilgan: o'qitish jarayonida uslubiy yordam ko'rsatish, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, maktabdagi ijtimoiy pedagog maslahati, tarbiyaviy jarayonda ta'limning o'рни (Plazierung). Bu yana bir karra ilmiy asoslangan pedagogik diagnostika o'quv–tarbiyaviy jarayonning mazmunini boyitishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Pedagogik diagnostikada o'quvchi shaxsi pedagogik diagnostika obyekti sifatida qaraladi. Ta'lim muassasadagi ta'lim-tarbiya sifati, moddiy-texnika bazasining mustahkamligi, o'quv

jarayonida axborot-kommunikatsiya vositalari va o'qitishning zamonaviy metodlaridan, innovatsiyalardan samarali foydalanilayotgani o'quvchi shaxsini kamol toptirishga qaratiladi va o'quv dargohining bilim o'chog'i degan maqomga munosibligini ko'rsatadi.

Pedagogik diagnostikada mavjud pedagogik muammolar ravshanlashadi, ularning yechimini topish zarurati aniqlanadi.

Bugungi kunda pedagogik diagnostikaning shunday tamoyillarini amaliyotda qo'llash lozimki, bu tamoyillar tarbiyalanuvchi, o'quvchi-yoshlarning shaxsiyatiga zarar keltirmasligi, ularning pedagogik dahlsizligini ta'minlashi, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar orqali ularga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va korreksiyalash metodikalarini oqilona tatbiq etishi zarur.

Tashxislashning natijalari kadrlar tayyorlash va ularning kasbiy malakalarini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Muammolar yechimi faoliyatning tarkibiy qismlarida, vazifalarni oqilona taqsimlashda o'z aksini topadi. Pedagogik diagnostika funksiyalari (vazifalari) aynan shu nuqtayi nazardan kelib chiqadi:

–**teskari aloqa funksiyasi**–ko'zlangan o'quv–tarbiyaviy maqsadlarga erishish shakllari va yo'llarini tahlil qilish;

–**maqsad va vazifalarni belgilash funksiyasi**– jamoaning taraqqiy qilish istiqbollari, istiqbolij rejalarini aniqlash;

–**taqsimot funksiyasi**–jamo'a a'zolari o'rtasida burchlarni, vazifalarni taqsimlash;

–**yaratish funksiyasi**– kattalarning yoshlar bilan muloqot qilishining sog'lom muhitini tarkib toptirish;


–**pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirish funksiyasi**;

–**pedagogik korreksiyalash funksiyasi** – yoshlar xulqidagi, ta'limiy faoliyati, tarbiyaviy jarayondagi nuqsonlarni bartaraf etish

vazifasini o'taydi, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarni attestatsiyalashda qo'l keladi;

–**motivatsiya va rag'batlantirish funksiyasi** – o'quvchi–yoshlarning hamda tarbiyachi-o'qituvchilarning ta'lim olish va ta'lim berish faoliyatini rag'batlantirishni, tashqi stimullarni adekvat qabul qilishni nazarda tutadi. Tarbiyaviy jarayonda komillikka intilishni kuchaytiradi;

–**nazorat funksiyasi** – ta'limiy-tarbiyaviy jarayonda turli xil nazorat turlarini o'tkazishni nazarda tutadi, chunki diagnostika ma'naviy-ma'rifiy jarayon holati to'g'risidagi axborotga ega bo'lishni bildiradi.



1-rasm. Pedagogik diagnostika funksiyalari

Shunday qilib, pedagogik diagnostika natijasida ta'lim-tarbiya jarayonidagi mavjud muammolar ravshanlashadi, ularning yechimini topish zarurati aniqlanadi.



MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR TESTLAR:

1.O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik diagnostika funksiyalari to'g'ri keltirilgan qatorni ko'rsating:

- A) teskari aloqa, maqsad va vazifalarni belgilash, taqsimot, yaratish;
- B) pedagogik tajribani o'rganish, umumlashtirish, rag'batlantirish, ogohlantirish;
- S) pedagogik korreksiyalash, ta'lim oluvchilarni attestatsiyalash;
- D) tarbiyaviy jarayondagi nuqsonlarni bartaraf etish, teskari aloqa, umumlashtirish.

2. Pedagogik korreksiyalash funksiyasi bu – ...

- A) Ta'limiy va tarbiyaviy jarayondagi nuqsonlarni bartaraf etish vazifasini o'taydi;
- B) Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarni attestatsiyalashda qo'l keladi;
- S) Jismoniy nuqsonlarni bartaraf etadi;
- D) Tahsil oluvchilar o'rtasida "subyekt-subyekt" munosabatlarini tashkil qiladi.

NAZARIY DALILLARGA ASOSLANIB, SAVOLLARGA JAVOB BERING:

1. Pedagogik diagnostika obyektlari to'grisida fikr bildiring.
2. Diagnostik tadqiqotlarning tuzilishi: diagnostik tadqiqotlarning semiotik, texnik va mantiqiy aspektlari; pedagogik tafakkurning mohiyati va o'ziga xosliklari haqida nimalar bilasiz?
3. Pedagogik diagnostikaning mohiyati va funksiyalari haqida so'zlab bering.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga qo'ramiz. –toshkent:o'zbekiston, 2017.-488 bet.

2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-toshkent:o'zbekiston, 2017.-48 bet.

3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-Toshkent:O'zbekiston, 2017.

4. Abdullayeva SH.A. Pedagogik diagnostika.-Toshkent: fan va texnologiyalar,2010,256 b.

5. Weiner B. Theorien der motivazion. Stuttgart: Klett ,2007.-196 p.

6. Ingenkamp Karlxayns. Pedagogichen diagnostik.-berlin,1991, 240 p.

7. www.ziyonet.uz

8. www.edu.uz

9. www.Pedagog.uz

10. www.wikipedia.ru



3- §. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA METODLARI

Pedagogik diagnostika metodlari tasnifi. Pedagogik diagnostika o'quv-tarbiyaviy ishlarning yakuniy natijalar ko'rsatkichlarini hamda mazkur jarayonning kechish holatini hamda ta'lim subyektlariga ta'sir etuvchi omillarni yaqqol aks ettirish xususiyatiga ega. Pedagogik diagnostikani amalda qo'llashda turli metodlardan foydalaniladi.

Metod - (lotincha «metodos»-«yo'l», “uslub”) tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot, deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida “metod” so'zi keng ma'noda: muayyan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan uslubni, malum maqsadga erishish yo'lini, tor ma'noda: tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini hamda qonuniyatlarini bilish maqsadida qandaydir vazifani hal etish uslubini bildiradi.

Pedagogik diagnostikani tashkil qilishda beriladigan nazariy bilimlarni yoshlar ongiga yetkazish, ularni kundalik ehtiyojiga yoʻnaltirish uchun quyidagi ish usullariga eʼtibor berish lozim:

–oʻquv muassasa, mas'ul shaxslar sinf, guruh jamoasining ruhiy holati, ya'ni har bir shaxsning faoliyati, qiziqish darajasiga;

–oʻquvchi-yoshlarning tartib-intizomiga, davlat mulkiga boʻlgan munosabatiga;

oʻquvchi-yoshlarning ijtimoiy hayotdagi faolligiga;

–yoshlar bilan oʻtkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarga boʻlgan munosabatiga (ijobiy, salbiy, befarqligiga);

–yoshlarning kattalar, oʻz tengdoshlari bilan axloqiy muomala va munosabatlariga;

–oʻquv maskanlarida tashkil etilgan qonun–qoidalarga munosabat va ularga amal qilishga;

–oʻquv muassasadagi ijtimoiy fikrga boʻysunuvchanligiga.

Yuqoridagilarga amal qilinganda pedagogik diagnostikani oʻtkazish yoʻnalishlarini toʻgʻri tashkillashtirishga imkoniyat yaratiladi.

Oʻqituvchining oʻz oʻquvchilarini doimo kuzatib borishining oʻziyoq diagnostik faoliyat hisoblanadi. Diagnostik axborotlarni maʼlum koʻrsatkichlar (sinf, guruh ishlari, test, anketa va boshqalar), orqali yoki ularsiz (oddiy kuzatish orqali) yigʻish mumkin.

Diagnostik faoliyatda avvalo quyidagi yoʻnalishlarni ajratib koʻrsatish mumkin:

a) solishtirish;

b) tahlil;

v) bashorat (prognoz) qilish;

g) interpretatsiya (tatbiq qilish);

d) diagnostik faoliyat natijalarini oʻquvchilarga yetkazish;

e) turli diagnostik metodlarning oʻquvchiga taʼsirini nazorat qilish.

Solishtirish – diagnostik jarayonning asosiy tayanch nuqtasi hisoblanadi. Biz hayotdagi har bir narsani kuzata turib, beixtiyor uni solishtiramiz. Koʻrgan narsamizni oʻz tajribamiz asosida fikrlashni, unga baho berishni xohlaymiz. Shu maqsadda xotiramizdagi xuddi

shunday yoki shunga o'xshash kuzatishlarni esga olamiz. Faqat o'z kuzatishlarimiz emas, balki o'zgalar tomonidan o'tkazilgan kuzatishlar ham tadqiqot tasnifiga yordam berishi mumkin. Agar qandaydir yangi kuzatishda solishtirishga asos yo'q bo'lsa, kuzatishimizda unga yaqinroq bo'lgan kategoriyadan foydalanishga harakat qilamiz.

Insonning xulqini kuzata turib, uning oldingi xulqi yoki hozirgi kundagi va o'tmishdagi boshqa individning xulq-atvori bilan, kimningdir xulq haqidagi fikrlari bilan solishtiramiz. Bu pedagogik diagnostikada individual, ijtimoiy yoki obyektiv solishtirish normalari deb hisoblanadi.

1-jadval. Pedagogik diagnostikaning asosiy metodlari, prinsiplari tasnifi va ularning qisqacha tavsifi

№	Pedagogik diagnostika metodlari TASNIFI	Pedagogik diagnostika metodlari TAVSIFI	Pedagogik diagnostika prinsiplari
1	TESTLAR: <u>An'anaviy testlar:</u> 1) Normalarga yo'naltirilgan (aniqlovchi, yordamchi, alternativ); 2) Normalarga mezonlar bo'yicha yo'naltirilgan (tanlov asosida tuzilgan, solishtirish asosida tuzilgan, aralash, tartibni aniqlash va h.k.) <u>Noan'anaviy testlar:</u> A) Bashoratlash B) Tashxislovchi S) Teskari aloqa o'rnatish Pedagogik jamoada	<u>An'anaviy tushuncha sifatida:</u> Stantdartlashgan topshiriqlar majmui. <u>Noan'anaviy tushuncha sifatida:</u> tashxislanayotgan pedagogik jarayonlarning obyektivligini ta'minlash, qisqa muddat ichida katta hajmdagi axborotni qo'lga kiritish, validlikka erishish, reprezentativligini ta'minlashga mo'ljallangan o'lchov	Validlik (lotin tilida: "validus"- asoslangan) Frontal (ommaviy), individual, jamoaviy Qo'llanilishi

	(individual, guruhli, aralash)		
2	KUZATISH	<u>Ma'lum</u> pedagogik voqea-hodisani ilmiy asoslangan faktlar asosida o'rganish	
	SHKALALASH - (ingliz tilida: "scaling"- "masshtabni aniqlash") o'lchov 1) pedagogik hodisaning raqamli tizim asosida tashqi tuzilishini o'rganuvchi (baholash asosida) 2) pedagogik hodisaning raqamli tizim asosida ichki tuzilishini o'rganuvchi (qadriyatlar, ustanovkalar asosida)	Real pedagogik voqea-hodisani raqamli tizimlar asosida o'lchash, empirik ma'lumotlarning sifatli xususiyatlarini miqdoriy o'lcham bilan bog'liqda o'zgaruvchanligini o'rganish	Qo'llanilish sohasi: individual, guruhli, jamoaviy
1	BASHORAT (prognoz) Qo'llanilish sohasi: pedagogik jamoada (individual, guruhli, aralash)	Ilmiy asoslangan model. Ta'lim-tarbiya jarayonlarining rivojlanish tendensiyalari, istiqbollarini rejalashtirish. Ilmiy asoslangan dalillar asosida kelajakda sodir etilishi mo'ljallanayotgan istiqbolli rejalarni ilmiy ravishda asoslash, oldindan bilish, bashoratlash. O'qituvchi faoliyatining asosiy ko'rinishlaridan biri sifatida ham baholanadi.	Qo'llanilish sohasi: individual, guruhli, jamoaviy
2	SOLISHTIRISH	O'rganilayotgan obyekt,	Qo'llanilish sohasi:

	(tartib bo'yicha) Individual, jamoaviy, guruhli, aralash	predmet, pedagogik hodisalarning borliq, real hayotga mosligini aniqlovchi, ular to'g'risida ishonchli nazariy bilimlarga ega bo'lish. Masalan, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalarning, o'zlashtirilganligi, shakllanganlik darajasini solishtirish. Yoki ma'naviy-axloqiy sifatlar: vatanparvarlik, insonparvarlik, tolerantlik, kamtarinlik, va boshqalarning shakllanganlik darajasini va h.k.larni aniqlashga mo'ljallangan metod.	individual, guruhli, jamoaviy
3		Qo'shimcha tashxislash davrining bir xil pedagogik sharoitida takroriy natijalarning barqarorligini ta'minlashga mo'ljallangan pedagogik o'lchov	ANIQLIK Guruhli, individual, jamoaviy,
4	INTERPRETATSIYA (lotin tilida: "interpretation"- talqin qilish tushuntirish) Qo'llanilish sohasi: individual, aralash, jamoaviy	Tashxislanayotgan pedagogik hodisalarni pedagogik g'oyalar, nazariyalar, qarashlar asosida o'rganish, aniqlash (Masalan, kognitiv, geshtalt, aksiologik pedagogik nazariyalar asosida, o'rganish, talqin qilish, aniqlash).	Qo'llanilish sohasi: individual, guruhli, jamoaviy
		Tashxislanayotgan pedagogik hodisalarning	RANJIROVKA Kombinatsiyalashgan

		muayyan tartib asosida joylashganligini, reytingini, oʻrnini aniqlash, jarayonlar dinamikasini koʻrsatishga moʻljallangan pedagogik oʻlchov	aralash, individual, jamoaviy
--	--	---	--------------------------------------

Mamlakatimiz taʼlim tizimidagi oʻziga xos tajribalardan kelib chiqqan holda pedagogik diagnostika nazariyasi asosida taʼlim samaradorligi prinsipining birinchi parametri “taʼlim-tarbiya jarayonining kafolatlangan natijaviyligini aniqlash” sifatida belgilandi. Mazkur parametrning “faoliyat samaradorligini aniqlash” indikatori quyidagi koʻrsatgichlar asosida tashxislanadi:

1) Oʻqituvchilar faoliyati quyidagi indikatorlar asosida diagnostika qilinadi: aniq kasb sohasi doirasida nazariy va amaliy bilimlar, kasbiy malaka va koʻnikmalarga ega boʻlish; favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish borasidagi meʼyor va tartiblar mohiyatini bilish; mehnatni muhofaza qilish koʻnikmalari shakllangan boʻlishi; kasbiy mohirlik va tafakkur doirasining yetarli shakllanganligi; tashkilotchilik xislatlarining shakllangan boʻlishi; davlatning tuzilishi, uning ijtimoiy va siyosiy rivojlanishi haqida aniq bilimlarga ega boʻlish, xalqaro voqea, hodisa va muammolarni tushuna olish; mustaqil va ijodiy fikrlash, fikrlarini yozma va ogʻzaki ravon bayon etish malakalari shakllangan boʻlishi; turli vaziyatlarni tanqidiy baholash, yangiliklarga doimiy intilish; oʻzbek tilini mukammal bilish, yozma va ogʻzaki ravishda erkin muloqot qilish; umuminsoniy fazilatlariga ega boʻlish, oʻz millatini va Vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish;

zamonaviy axborot-telekommunikatsiya vositalaridan foydalana olish; chet tillarida muloqot qilish; oʻzlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotga, boshlangʻich kasbiy koʻnikmalarni kundalik hayotga, turmushga tatbiq eta olish; mehnat huquqlarini bilish; ishga joylashish texnologiyalari va koʻnikmalariga ega boʻlish; shaxsiy tadbirkorlikni

tashkil etish malakalari shakllangan bo'lishi; jismoniy baquvvat, sog'lom bo'lish, harbiy xizmatga va tezkor tibbiy yordam ko'rsatishga layoqatli bo'lish; ma'naviy, ruhiy, jismoniy jihatdan o'zini o'zi doimo takomillashtirish xislatlariga ega bo'lish; bilimlarni muntazam oshirib borish, yangilab borishga intilish, o'quv va mehnat faoliyatiga ijodiy hamda mustaqil yondashish sifatlariga ega bo'lish; mantiqiy fikrlashning uslublari va usullarini bilish, ularni amaliy faoliyatda qo'llay olish malakasiga ega bo'lish; huquqiy bilim asoslariga ega bo'lish; iqtisodiy bilim asoslariga ega bo'lish; zamonaviy axborot vositalari bilan ishlashning amaliy ko'nikmalarini mustahkam egallash; ma'naviy-axloqiy madaniyatga ega bo'lish; siyosiy madaniyatga egalik, fuqarolik burchi va mas'uliyat hislari shakllangan bo'lishi; ekologik madaniyatga egalik, kasbiy faoliyatda ekologik mas'uliyatni his qilish, tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga ega bo'lish; ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish layoqatiga ega bo'lish.

2) O'quvchilar faoliyati quyidagi indikatorlar asosida diagnostika qilinadi: davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari talablarini bajarish darajasi; ta'lim muassasasi o'quvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasidagi umumiy natijalari; o'quvchilarning bosqichli nazoratlardagi umumiy natijalari; ta'lim muassasasini bitirgan o'quvchilarning akademik litsey, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qishlarini davom ettirishlari; "Umumta'lim muassasalari o'quvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha bilimlar bellashuvi"dagi tuman, viloyat va respublika bosqichidagi natijalari; fan olimpiadasining tuman va viloyat bosqichi natijalari; "Til bilimdonlari" va boshqa ko'rik-tanlovlar natijalari.

Ta'lim samaradorligi printsiplining ikkinchi parametri "Umumiy o'rta ta'lim muassasasida samarali diagnostik xizmatni tashkil qilish" indikatorlari sifatida:

-o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini o'rganishda ilmiy-uslubiy, diagnostik va nazariy asosga ega metodlardan foydalanilishi;

-o'qituvchi, maktab psixologi va rahbar o'rinbosari faoliyatlarining ilmiy-metodik jihatdan optimal ravishda tashkil etilganligi;

-o'quvchi, o'qituvchi, maktab rahbariyati faoliyatini jamoatchilik tomonidan nazorat etuvchi, ota-onalar, jamoatchilik fikrini o'rganuvchi mexanizmning mavjudligi va natijaviyligi;

-ta'lim muassasasini boshqarish holati, muammo va kamchiliklarini ifodalovchi tahlillarning mavjudligi;

-rahbar kadrlarning kasbiy, ilmiy-metodik tayyorgarligining ta'lim mazmuni va uning metodik ta'minoti bilan muvofiqlashtirilganligi;

-maktab rahbarlarida nazariy, pedagogik, ilmiy-metodik tayyorgarlik, g'oyaviy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy, ijodiy va ijtimoiy faollik darajasining ortganligi;

-umumiy o'rta ta'lim maktabi rahbarlarini tayyorlash tizimining nazariy-metodik jihatdan asoslanganligi, bu jarayonda zamonaviy pedagogik, axborot va innovatsion texnologiyalardan foydalanish uchun zarur bo'lgan metodik bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga e'tibor qaratilganligi;

-ta'lim muassasasi rahbarining ijtimoiy-psixologik, muloqotga kirishuvchanlik, kommunikativ kompetentligi, madaniyati va mahorati sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarga hamda to'g'ri qaror qabul qilish va uni bajarilishini nazorat etish, tashkilotchilik qobiliyatlariga egaligi;

-ta'lim muassasasi rahbarida o'quv-tarbiya jarayoni sifatini ta'minlashga oid ta'lim strategiyasini belgilash ko'nikmalarining mavjudligi;

-ta'lim iste'molchilari va pedagogik xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida ijtimoiy hamkorlikning o'rnatilganligi;

-ta'lim muassasasi rahbarining vaqtni samarali taqsimlash, muammoni malakali tarzda aniqlay olish, maqsad va vazifalarni to'g'ri belgilash, xodimlar o'rtasida ishni tashkil eta olish layoqatiga egaligi;

-ta'lim muassasasi rahbarining moslashuvchanligi: jamoada shaxslararo munosabatlarning dinamikasini tavsiflay olishi;

-ta'lim muassasasi rahbarining yetakchiligi: muammoli vaziyatlarni hal qila olish, o'zgalardan barcha xususiyatlari bilan sifat jihatdan yuqori tura olishi, tashabbuskorligi;

-ta'lim muassasasi rahbarining kirishuvchanligi: ijobiy ijtimoiy aloqalarni o'rnatish, ruxiy zo'riqish va bosimlarga qarshi tura olishi kabilar belgilangan.

Navbatdagi indikator "Umumiy o'rta ta'lim sifatini diagnostika qilishning demokratik tamoyillar asosida yo'lga qo'yilganligi" hisoblanadi. Mazkur indikator quyidagi ko'rsatgichlar asosida baholanadi:

-maktab direktorining o'qituvchilar, o'quvchilar faoliyatini boshqara olish qobiliyatiga egaligi;

-ta'lim muassasasida o'quvchilar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishning yo'lga qo'yilganligi;

-sinflar kesimida darslarni taqsimlashda o'qituvchilar tajribasi va tayyorgarlik darajasining hisobga olinganligi;

-o'quvchilar va o'qituvchilarning maktab ichki tartib-qoidalariga qat'iy amal qilishiga erishilganligi;

-maktabda o'z-o'zini boshqarish tizimining mavjudligi;

-yetakchilik (liderlik) qobiliyatiga ega bo'lgan o'quvchilar faoliyatining rag'batlantirib borilganligi;

-maktabda sog'lom raqobat va o'z-o'zini tanqidiy baholashga nisbatan do'stona munosabatning shakllanganligi;

-ta'lim muassasasida shaxslararo ziddiyatlarni bartaraf etish tizimining mavjudligi;

-maktabdagi o'quvchilar hamda o'qituvchilar jamoasida samimiylilik va o'zaro hamkorlikka asoslangan ishchan muhitning yaratilganligi;

-o'quvchilar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimining mavjudligi;

-ta'lim muassasasidagi sharoitlar o'quvchilar va ota-onalarni qay darajada qoniqtirishining o'ragnilganligi hamda tahlil qilinganligi;

-o'quvchilar, ota-onalar va boshqa manfaatdor tomonlarning takliflari, so'rovlariga muvofiq tarzda o'qitish sifatini nazorat qilish va ta'minlashning ichki tizimi yaratilganligi;

-ta'lim muassasasining joriy va istiqbol rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda o'qituvchilar hamda ota-onalar vakillarining ishtirok etishi;

-ta'lim muassasasining ichki boshqaruvi tizimiga ijtimoiy institutlar, vakolatli tuzilmalar, ota-onalar vakillarining kiritilganligi;

-bitiruvchilar, o'quvchilar va ota-onalar taqdim etgan axborotlar yordamida ular bilan qayta aloqaning o'rnatilganligi;

-o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlarni talablar darajasida tashkil qilish tizimining yaratilganligi kabilardan iborat.

Ta'lim muassasasida innovatsiyalarning tatbiq etilishini diagnostika qilishda quyidagi indikatori ko'rsatgichlariga murojaat etiladi:

-o'qituvchilarning innovatsion faoliyati samaradorligini ta'minlovchi chora-tadbirlar va rag'batlantiruvchi muhitning mavjudligi;

-ta'lim boshqaruvi muassasalari tomonidan tavsiya etilgan innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish monitoringining amalga oshirilganligi va tahliliy materiallarning mavjudligi;

-ta'lim muassasalarida izlanuvchan, ijodkor, is'tedodli pedagoglarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash mexanizmining yaratilganligi;

-ta'lim muassasasida innovatsiyalarni tatbiq etish maqsadlari va rejasining mavjudligi;

-ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar (o'qituvchilar) va o'quvchilar uchun ijodiy muhit yaratilganligi, tashabbuslar va yangiliklarga qiziqish hosil bo'lganligi kabilar.

Pedagogik diagnostika – ta'lim jarayonini qulaylashtirishi, jamiyat talabidan kelib chiqqan holda, ta'lim-tarbiya natijalarini to'g'ri aniqlashni taminlashi, kafolatlashi kerak.

Pedagogik diagnostika: birinchidan, individual ta'lim jarayonini qulaylashtirishi, ikkinchidan, jamiyat talabidan kelib chiqqan holda, ta'lim-tarbiya natijalarini to'g'ri aniqlashni taminlashi, kafolatlashi, uchinchidan, o'ziga xos ta'lim yo'nalishi va mutaxassislikni oqilona tanlashga yordam berishi kerak. Pedagogik diagnostika yordamida ma'naviy-ma'rifiy jarayon tahlil qilinadi va ta'lim-tarbiya natijalari aniqlanadi.

Tashxislashda nafaqat ta'lim-tarbiya natijalarini sarhisob qilish, balki ularning o'zgarish dinamikasini ham nazarda tutish lozim.

Pedagogik diagnostika quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

-birinchisi-shaxsni har tomonlama o'rganish, tashxis qilish yoki o'zini-o'zi tashxislash;

-ikkinchisi - pedagoglar jamoasi tomonidan ta'limiy-tarbiyaviy jarayonning samaradorligiga erishishni ta'minlash.

Pedagogik diagnostika o'quv-tarbiyaviy jarayonni tadqiq qiladi. Uning metodlari ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlaridan shu bilan farq qiladiki, u alohida o'spiranga yoki o'quvchi-yoshlar guruhiga dolzarb pedagogik tadbirlarni qo'llashni ko'zda tutadi.

O'quv-tarbiyaviy jarayonni takomillashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik diagnostika har bir rejali o'quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanib, tahsil oluvchi o'quv materialini qanday o'zlashtirayotganini doimo kuzatib boradi, tarbiyaviy jarayondagi muammolarning yechimini topishga harakat qiladi. Mohir pedagog o'quv jarayonida tug'iladigan qiyinchiliklarni boshqalardan ko'ra yaxshiroq tushunadi.

Mashg'ulot o'tkaziladigan sharoitlardan qat'i nazar o'quv jarayonining samaradorligiga xizmat qiluvchi diagnostika quyidagi maqsadlarga yo'naltirilishi kerak:

- ta'lim natijasi noto'g'ri baholanganda ichki va tashqi tahrirga;
- ta'limdagi kamchiliklarni aniqlashga;
- ta'limning muvaffaqiyatli natijalarini tasdiqlashga;
- o'quv jarayonining keyingi bosqichlarini rejalashtirishga;
- ta'lim-tarbiyadagi muvaffaqiyatlarni rag'batlantirish orqali motivatsiya paydo qilishga va keyingi murakkab qadamlarni yo'naltirishga;
- o'quv-tarbiyaviy sharoitlarni yaxshilashga.

Shu bilan bir qatorda o'qitish sifatini tashxislash uchun quyidagilarni aniqlash talab etiladi:

- amalda qo'llanilayotgan o'quv dasturlarining samaradorligi va maqsadga muvofiqligi;
- metodik hamda tashkiliy innovatsiyalar;
- mazkur innovatsiyalarning o'qitish natijalarining sifati va bitiruvchilarning bilimdonlik darajasiga ko'rsatadigan ta'siri;
- o'quv jarayonining texnologik jihatdan ta'minlanganlik darajasi;
- umumiy o'rta ta'lim muassasasining turli bo'g'inlari faoliyati maqsad va vazifalarining o'zaro muvofiqligi;
- o'qitish konsepsiyalari, davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va o'quv-metodik majmualar mazmuni orasidagi o'zaro uzviylik;
- pedagogik, metodik, boshqaruv sohasidagi axborot tarmoqlarining samaradorligi, ularni ommalashtirish va foydalanish uchun qulayligi va ishonchliligi;
- fanlar bo'yicha o'qitish sifati baholanishini ta'minlovchi kvalimetrik, tashxislash metodikalarining o'qituvchilar tajribasida foydalanilganligi va sinovdan o'tkazilganligi kabilar.

Pedagogik diagnostika pedagogik jarayonlarda tahsil oluvchi shaxsini har tomonlama o'rganish, tashxis qilish yoki o'zini-o'zi tashxislash hamda pedagoglar jamoasi tomonidan ta'limiy-tarbiyaviy jarayonning samaradorligiga erishishni ta'minlashga qaratiladi.

O'qitish sifatini tashxislashda umumiy o'rta ta'lim muassasasining metodik quvvatini tashkil etuvchi ko'rsatkichlar ham muhim o'rin egallaydi. Jumladan:

- avvalgi yillarda tuzilgan o'quv dasturlari;
- umumiy o'rta ta'lim muassasasida ishlab chiqilgan metodik hamda didaktik materiallar;
- sinovdan o'tkazilgan o'rgatuvchi va tashxislovchi metodikalar;
- innovatsion g'oyalar banki;
- metodik ishlarning tashkiliy shakllari, ilg'or tajribalarni aniqlash, tanlash, umumlashtirish va ommalashtirish kabilar.

O'qitish sifatini tashxislashda informatsion-metodik hamda ta'limiy-texnologik manbalarni tahlil qilish ham alohida qimmatga ega. Uning asosiy ko'rsatkichlari:

- ekspert xulosalari;
- nazorat va tekshirish natijalarini ifodalovchi materiallar;
- yig'ilishlar, kengashlarning materiallari;
- metodik seminarlarning materiallari kabilar.

O'qitish sifatini tashxislashda moddiy-moliyaviy manbalarni hisobga olish ham nihoyatda zarur. Mazkur manbalar sirasiga:

- ta'lim muassasasida amalga oshiriladigan alohida tadbirlarni moliyalashtirish manbalari;
- qabul qilingan me'yorlar va talablarga mos tarzda o'quv materiallari mazmuniga muvofiq keladigan modddiy-texnik bazaning tavsifi;

- umumiy o'rta ta'lim muassasasidagi sinf xonalari va o'quv kabinetlarining kompyuterlar, audio, video-vizual texnikalar va laboratoriya jihozlari bilan ta'minlanganligi;

- umumiy o'rta ta'lim muassasasining aloqa vositalari bilan ta'minlanganligi;

- umumiy o'rta ta'lim muassasasining o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlanganligi;

- umumiy o'rta ta'lim muassasasining sport maydonchalari, zallari, inventarlari bilan ta'minlanganligi;

- umumiy o'rta ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazani kengaytirishga yo'naltirilgan rejasi;

- o'qitish jarayoni sifatining o'quv jarayoni sifati natijalari bilan mos kelishining ta'minlanganligi;

- umumiy o'rta ta'lim muassasasida masofaviy ta'limni joriy etish uchun moddiy-texnik bazaning mavjudligi kabilarni kiritish mumkin.

Bugungi kunda pedagogik diagnostikaning tamoyillarini takomillashtirishda yoshlarning shaxsiyatiga zarar keltirmaslik, ularning pedagogik dahlsizligini ta'minlash, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar orqali ularga ijobiy ta'sir ko'rsatish inobatga olinishi zarur.

Ta'lim tizimida pedagogik diagnostika ta'lim jarayonida turli elementlar va hodisalarning obyektiv ravishda aniqlash uchun, ularni interpretatsiyalashga, bashoratlashga xizmat qiluvchi o'zaro aloqalarni aks ettiruvchi tizim sifatida baholanadi. Ta'lim tizimida pedagogik diagnostikani amalga oshirishda diagnostika tuzilmasi, uni tashkil etishning asosiy talablarini belgilab beruvchi qoidalar, ta'lim samaradorligini aniqlash va ta'limiy maqsadlarning quyilganligi, tahsil jarayonlari ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini tashxislash singari umumiy va xususiylarga bo'linadi.

2-jadval


Ta'lim tizimida pedagogik diagnostika(PD)ning umumiy va xususiy yo'nalishlari

<i>PDning umumiy yo'nalishlari</i>	<i>PDning xususiy yo'nalishlari</i>
Ta'lim samaradorligini aniqlash va ta'limiy maqsadlarning quyilganligi	PD funksiyalarining o'zgarishini aniqlash
O'quv jarayonidagi oydinlashtirilgan va umumiy maqsadlar taksonomiyasini diagnostikasi	Tahsil jarayonlari ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini tashxislash
Ta'lim sifati va o'qituvchi kompetentligini tashxislash	PD funksiyalarining ta'lim ishtirokchilari qobiliyatlarini aniqlashga qaratilishi
Ta'lim subyektlarining bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash	Monitoringning keng tarqalishi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, pedagogik diagnostikaning umumiy yo'nalishlari ta'lim bochqichlarining barcha tizimlariga xos bo'lsa, xususiylari ayrim ta'lim muassasalariga nisbatan amal qiladi (2-jadval).

PDning umumiy tamoyillari: aniq maqsadga yo'naltirilganlik; ta'limning umumiy tashkil etilishini tashxislashda pog'onaviylikdir.

Ta'lim muassasalarida pedagogik diagnostika yordamida ta'lim jarayoni subyektlarining o'z mehnat faoliyati samarasi va unumdorligidan manfaatdorligi, undan qoniqishi, jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhit aniqlanadi.



2-rasm. Pedagogik diagnostika o‘tkazish bosqichlari

Pedagogik diagnostikani o‘tkazishda ta’lim-tarbiya jarayonida yuz berayotgan o‘zgarishlarga o‘z vaqtida munosabat bildirish, buning uchun esa bu haqda tegishli axborotga ega bo‘lish talab etiladi. Bunday axborotni olish, ta’lim-tarbiya va pedagogik faoliyat jarayonlarida mavjud kamchiliklarni korrektsiyalash zaruratini vujudga keladi. Olingan natijalar asosida tahlil natijalari bashoratlanadi, kelgusidagi istiqboliy rejani amalga oshirishga zamin hozirlanadi (2-rasm).

Pedagogik diagnostika natijalari pedagogik jamoa, o‘quvchi-yoshlar va ularning ota-onalariga xabar qilinishi, yetkazilishi kerak. Aks ta'sir sifatida bu ularning kelajakdagi faoliyatiga ham ta'sir qo'rsatadi. Ma'lumotning o'quvchi-yoshlarga ta'sirini, qo'yilgan maqsadga erishilganlik nazorat qilinadi. Shunday nazorat turlaridan biri- normalar hisoblanadi.

Pedagogik diagnostika natijalari pedagogik jamoa, o'quvchi-yoshlar va ularning ota-onalariga xabar qilinishi, yetkazilishi kerak

Normalar pedagogik diagnostikada u yoki bu o'quvchilarning ma'naviy darajasini baholash uchun kerak bo'ladigan axborotlar to'plashni bildiradi. Masalan, biz to'plagan axborotlar intellektni o'lchovchi quyidagi ma'lumotlar bo'lishi mumkin: diktantda yo'l qo'yilgan xatolar soni, matematikadan to'g'ri yechilgan misollar soni, uchta mashg'ulot davomida olingan spontan javoblar soni, testdan to'g'ri bajarilgan topshiriqlar soni yoki shaxsning tarbiyalanganligini bildiruvchi axloqiy kategoriyalar: qiyin vaziyatda o'zini tuta bilishi, to'g'ri ma'nodagi sovuqqonlik, ijtimoiy foydali mehnatda ko'rsatgan ko'rsatkichlari, bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish darajasi kabilar. Lekin bu axborotlar to'la informativ emas. Bizga ayrim holatlarda kriteriya va normalar yetishmaydi. Agar o'quvchi-yoshlarimiz yozma ishda 9 ta xatoga yo'l qo'yganligi ma'lum bo'lsa uni baholash uchun yozma ishning qiyinlik darajasini bilishimiz kerak. Bundan tashqari xuddi shu sharoitda boshqa ta'lim oluvchilar yozma ishni qanday yozganlilarini, yoki o'quv maqsadiga erishish uchun qancha xatogacha yo'l qo'yilishi mumkinligini bilishimiz kerak. Boshqacha so'z bilan aytganda solishtirma tahlil kerak bo'ladi.

O'quvchining individual o'zlashtirishini biz quyidagicha tenglashtirishimiz mumkin:

Boshqa ta'lim oluvchilarning ijtimoiy solishtirma natijalari bilan = norma Shu o'quvchining oldingi natijalari bilan individual solishtirma = norma

Qo'yilgan o'quv maqsad = predmet solishtirmalari (kriteriyalar) bilan = norma

Fanda solishtirma o'lchovlar uchun foizli darajali shkala keng ishlatiladi.

Bu shkala o'quvchining aniq bir holatga muvofiq guruh ichidagi holatini belgilaydi.

Masalan, 4-sinf o'quvchisi u yoki bu qobiliyati bo'yicha ranjirovkada 75– o'rinni egalladi, bundan ko'rinadiki o'quvchi sinfdagi 75 foiz o'quvchi bilan teng yoki ulardan ortiq natijaga erishgan, faqat 25 foiz bola undan ham yuksak yoki unga teng natijaga erishgan.

Foizli shkalada o'rinni aniqlash uchun solishtirma o'zgaruvchanlikni bilish zarur. T–kattalik va intellekt koeffitsientini aniqlashda chekinish shkalalari keng qo'llaniladi.

T–kattalik shkalasi «standart norma» hisoblanadi. Bu shkala test o'tkazishda keng qo'llaniladi. Bu shkala uchun o'rtacha kattalik 50 va standart chekinish 10 bo'lib hisoblanadi.

Pedagogik tashxisning noeksperimental metodlari: kuzatish, anketa, so'rovnoma, suhbat, intervyu. O'quvchi yoshlarning turli sifatlarini o'rganish uchun mashhur kuzatuv metodidan foydalanishi mumkin. Ma'lumki, kuzatish metodi ancha murakkab bo'lib, nazarda tutilgan maqsad: kattalar va yoshlar o'rtasidagi muloqotning ta'sir kuchini, individual farqlarini qiyoslash uchun ham qo'llaniladi.

Kuzatish metodlari orqali o'quvchilarning o'zaro aloqalari, tengdoshlari bilan muloqoti, individual–psixologik farqlarini qiyoslash, ularning xulq-atvori va mavjud muammolaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ma'naviy-ma'rifiy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi.

Kuzatish metodi o'quvchi–yoshlarning ilmiy dunyoqarashi, intellektual rivojlanishi, fikrlash jarayonining dinamikasi, xulosalar chiqarishdagi mustaqilligi, faolligi va ularni tahlil qilishga yordam beradi.

Tajribalar ko'rsatishicha, o'quvchi–yoshlarning markaziy nerv sistemasidagi psixik qo'zg'alish kuchiga qarab, umumiy ta'limiy–tarbiyaviy jarayonga kirishish faolligini aniqlash mumkin.

Kuchsiz nerv sistemasiga mansub o'quvchi–yoshlarda sezgirlik chegarasi o'ta nozikligi bilan tavsiflanadi. Shu sababli ular zarracha ahamiyatga molik bo'lmagan psixotravmatik ta'sirlarga ham uzoq

muddat davomida qaygʻurib yurishadi. Pedagogik tashxislashda va korreksiyalashda shu jihatlar alohida eʼtibor berish joizdir.

Oʻspirin va oʻsmirlarning «kuchli nerv sistemasi»ga mansubligi qoʻyidagi koʻrsatkichlar orqali namoyon boʻladi:

1. Oʻz faoliyatidagi intensivlik va mahsuldorlikni yoʻqotmagan holda uzoq muddat mobaynida u darajada qiziqarli boʻlmagan topshiriqlarni bajarish imkoniyatiga ega boʻlishlari;

2. Taʼlim jarayonida qiyinchiliklarni bartaraf qila olish, maqsadga erishish yoʻlidagi qaysarlik xususiyatlarining mavjudligi;

3. Mushkul vaziyatlarda ish mahsuldorligi va qatʼiyatligining oshishi (ayniqsa xavfli vaziyatlarda);

4. Xatti–harakatlari va xulq–atvorida mustaqillikka intilish xususiyatlarining mavjudligi, ayniqsa yangi, notanish vaziyatlarda ularning kashf qilinmagan qirralarining namoyon boʻlishi.

Demak, pedagogik tashxislashda kuzatish metodi muhim ahamiyatni kasb etadi. «Ilmiy kuzatish maqsadga qaratilganligi, konstantligi va nazorat qilinishi bilan oddiy kuzatishlardan farq qiladi¹»,– deb hisoblaydi ingliz olimi G.Jenks.

Pedagogik kuzatish metodi - ushbu metod taʼli - tarbiya jarayonlarining amaldagi holati bilan tanishtiradi, ularning oqibat natijalarini bilishga yordam beradi va shu asnoda yaratilgan yangi kashfiyotlar uchun dalillar, omillar yigʻish imkonini tugʻdiradi. Bu usul ancha murakkab boʻlib, nazarda tutilgan maqsad qanday amalga oshayotganligini aniqlash, “subyekt-subyekt” munosabatlarining oʻzaro aloqalari, individual farqlarini qiyoslash uchun ham qoʻllaniladi.

Kuzatish metodi quyidagi holatlarni nazarda tutadi:

1. Kuzatuv qanday savolga javob berishi kerak.
2. Kuzatuv qanday sharoitlarda oʻtkazilishi lozim.
3. Kuzatuvga quyilgan xulq yuzasidan kategoriyalar, tushunchalar taqsimlab chiqilganmi, shu tushunchalar yordamida qoʻyilgan savolga javob bera oladimi va h. k.

¹ Jenks S. The sociology of childhood. -London, 1982. -26p

4. Ushbu kategoriyalar kuzatilayotgan xulqqa mosmi? Ushbu kategoriyalar bilan ishlash mumkinmi?

5. Bitta pedagogik vaziyatni kuzatgan turli kuzatuvchilar qaydnomalarida shu kategoriyalarga mos yakdillik bormi?

6. Alohida kuzatuvchi qayta kuzatganda shu kategoriyalardan qayta foydalanganmi?

7. Xuddi shu xulq yuzasidan o'tkazilgan kuzatuvni taqqoslash vaziyatlarida qayta kuzatish mumkinmi va h.k.

Tabiiy kuzatishda o'rganilayotgan respondentlarning (tadqiq qilinuvchilar. Masalan, o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalarning o'zaro munosabatlari, o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muammolaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi. Ilmiy kuzatishlar esa nafaqat respondent(o'rganilayotgan subyekt)larning tabiiy faoliyatini balki ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllanishi, fikrlash jarayonining koeffitsiyentini, kuchini, xulosalar chiqarishdagi faolliklarini aniqlaydi, ularni tahlil qiladi. Bunday kuzatishlar oqibat natijada pedagogika fani mazmunini boyishiga sabab bo'ladi. Ilmiy kuzatish orqali respondentlar (bular maktabgacha tarbiya yoshidagilar, o'quvchi, talabalar bo'lishi mumkin)ning o'rganilayotgan muammo yuzasidan sifat va son ko'rsatkichlarini aniqlashga yordam beradi. Bu metod tadqiqotchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko'zda tutib tashkil etiladi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish obyekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va boshqalar hisobga olinadi.

Suhbat metodi-an'naviy pedagogik metodlar turkumiga kirib, dialog, diskussiya tarzida o'tkaziladi. Ushbu metod orqali insoniy munosabatlar, ularning istiqboldagi rejalari, qarashlari va xususiy fikrlarini o'rganish mumkin. Pedagogik suhbat oddiy suhbatdan farq qiladi. Ushbu metod orqali suhbatdoshning ichki olamini o'rganish, uning dunyoqarashi, kelajakdagi rejalari bilan tanishish imkoniyati

tugʻiladi. Taʼlim-tarbiya tizimi sifatini oshirishda, takomillashtirishda yoki yaratilgan ilmiy farazlarning qanchalik toʻgʻri ekanligini aniqlash maqsadida suhbat uslubidan foydalaniladi.

Suhbat metodi – taʼlim muassasasi oʻqituvchilari va tahsil oluvchilar jamoasi bilan ota-onalar va keng jamoatchilik bilan, yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qoʻllaniladi. Suhbat metodini tadbiq etishdan oldin reja tuziladi, uni amalga oshirish yoʻllari belgilanadi, natijalar tahlil qilinadi va tegishli xulosaga kelinadi. Bu metod soʻrashning bir turi boʻlgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik koʻrishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada boʻlish vaqtida ogʻzaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala shaklida qoʻllaniladi. Suhbat metodidan farq qilib, intervyu olish metodi savollarni oldindan belgilangan izchillikda intervyu yoʻli bilan bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar magnit tasmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy soʻrash nazariyasi va amaliyotida intervyu tashkil etishning bir necha usullari mavjud:

- guruhlar bilan ishlash;
- intensiv, rivojlantiruvchi;
- sinash va boshqalar.

Bolalar ijodini oʻrganish Bolalar ijodini oʻrganish koʻp qirrali jarayondir. Bunda taʼlim va tarbiya maskanlari tarbiyalanuvchilarining oʻziga xos individual tartibdagi faoliyatlari tahlil qilinadi, muayyan xulosalarga kelinadi. Ularning turli yozma ishlari, daftarlari, tutgan kundaliklari, sheʼr va hikoyalari, hayotiy rejalari, insholari, turli yozma hisobotlari, chizgan rasmlari, haykaltaroshlik ishlari, bastalagan kuylari, yozgan va ijro etgan qoʻshiq va raqslari ularning dunyoqarashi va maʼnaviyatini oʻrganish uchun manba boʻlib xizmat qiladi. Bu metod orqali yoshlar orasidan iqtidor egalari, noyob qobiliyatga ega bolalar ajratib olinadi. Ayniqsa, bizning respublikamizda mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida salmoqli ishlar amalga oshirilayapti. Bugungi kunda iqtidorli yoshlarimiz jahon

mamlakatlarining fan olimpiadalarida, turli koʻriklarda (san'at, musiqa va boshqa), sport maydonlarida oʻzlarining iqtidorini namoyish qilishmoqda, zehn va bilim, kuch va chaqqonlik, shijoat va gʻayrat bobida dunyodagi boshqa millatlardan kam emasligini namoyish qilishmoqda, gʻolibliklarni qoʻlga kiritishmoqda. Taʼlim va tarbiya muassasalarida isteʼdodli, iqtidorli yoshlar aniqlanib, ular bilan alohida ish olib borilmoqda. Bolalar ijodi fan olimpiadalari, mavzular boʻyicha koʻrgazmalar, qushiq va raqs tanlovlari, maktablar boʻyicha viktorinalar, musobaqalar, sayohatlar va boshqalarda namoyon boʻladi.

Tajriba-sinov metodi – tajriba- («eksperiment» soʻzi lotincha «sinab koʻrish», «tajriba quyish» maʼnosini anglatadi) tajriba ishlari, asosan taʼlim -tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbqiqiy jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida oʻtkaziladi. Tajriba –sinov metodi sharoitga qarab 3 xilda oʻtkaziladi: 1. Tabiiy tajriba, 2. Laboratoriyaviy tajriba, 3. Amaliy tajriba.

Pedagogik diagnostikada tadkikotlarini tashkil qilish. Ilmiy-pedagogika tadkikotlarining tarkibi, unga ilmiy izlanishlarning u yoki bu elementini kiritish bilan bogʻlik ravishda har xil oʻzgarishlarni boshdan kechirdi. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar tarkibini birmuncha umumlashgan koʻrinishda tasvirlash mumkin. Ilmiy redagogika tadqiqotlarini tashkil qilishda maʼlumotlarni yigʻish, xulosalarni jamlash, tadqiqot doʻyicha miqdoriy tahlil oʻrtacha miqdoriy raqamlarni aniqlash, ilmiy faraz, xulosalarning toʻgriligini taʼminlovchi maʼlumotlarni yigʻish: (buning uchun turli xil metodlar qoʻllaniladi); taʼlim -tarbiya jarayoniga oid ishchi farazni ilgari surish, uni nazariy va amaliy jihatdan sinovdan oʻtkazish maxsus metodikasini ishlab chiqarish va boshqalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchi oʻzi tadqiq etayotgan predmet yoki hodisalarni oʻrganishda ilmiy bilishning turli metodlaridan foydalanish asosida maʼlum yangi bilimlarni hosil qiladi. Bu yangi bilimlar oʻzlarining paydo boʻlishidan, to insoniyatning nazariy bilimlari tizimlari – fanlarga kirib kelishgacha, har xil koʻrinishlarda bir qancha taraqqiyot

bosqichlarini bosib o'tadi. Ilmiy tadqiqot asosida paydo bo'lgan yangi bilimlarning rivojlanishidagi turli ko'rinishdagi bu bosqichlar ilmiy bilishning shakllari deyiladi. Ilmiy bilish bunday shakllarining asosiylarini ilmiy g'oya, muammo, faraz, nazariya va ilmiy oldindan ko'rishlar tashkil qiladi. Ilmiy g'oya ilmiy bilishning birinchi shaklidir.

Diagnostikada so'rov metodlari. Pedagogik diagnostikada turli og'zaki so'rov metodlari mavjuddir. *Nostandart intervyu* ko'proq birinchi sinov qadamini eslatadi. Bunda muammoni aniqlash, axborot to'rlash rejasining asosiy holatlarini yana bir bor tekshirib ko'rish va tadqiqot obyektni aniqlash zarur. Intervyu o'tkaziladigan mavzu tanlangach, uni olib boruvchi faqat oraliq savollar yordamida mavzuni kerakli yo'nalishga buradi. Javob beruvchi o'zining qarashlarini o'ziga qulay shaklda bayon qilish uchun keng imkoniyatga ega bo'ladi. Bu erkin shakl intervyu oluvchiga katta talab yuklaydi.

Standart intervyuda intervyu oluvchi beriladigan savolarning tuzilishi va ketma-ketligini o'rnatuvchi maxsus ishlangan sxema asosida ish olib boradi. Sxemada savollarga tushuntirishlar, so'rov kechadigan holatlar ham ko'rsatilgan bo'ladi. Masalan, «O'quvchilarga jinsiy tarbiya berishda oilaning hamkorligi» mavzusidagi so'rovnomaning sxemasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

Holat: *uyda oilaning boshqa a'zolari yo'q vaqtida bolaning onasi bilan o'tkazilgan intervyu.*

Savollar	Javoblar
Maktab bilan oila hamkorligida bolalarning jinsiy tarbiyasini amalga oshirish to'g'risidagi marifiy dasturlar to'g'risida eshitgan bo'lsangiz kerak. 1.Sizning farzandingiz bu to'g'risidagi ma'lumotni uyda olganmi ? Agar «ha» bo'lsa, 2-savolga javob berish lozim. Agar «yo'q» bo'lsa, 1-savolga javob kutish kerak. 2.Farzandingiz bu ma'lumotni kimdan qabul qilgan? 3.Farzandingizni jinsiy tarbiyalashda oila-a'zolarida yakdillik bormi?	Ha Yo'q Otasidan, onasidan Oilaning boshqa a'zolaridan Savol javobsiz qoldi.

4.Bola tugʻilishi toʻgʻrisidagi axborot hayvonlar yoki insonlar tugʻilishi jarayoni misolida tushuntirilganmi? 5.Agar misollar hayvonot olamidani keltirilgan boʻlsa, unda qaysi hayvon misol qilib keltirilgan?	Yakdillik bor. Yakdillik yoʻq, chunki. Boshqa javoblar Hayvonlar olamidani Insonlar hayotidan Savol javobsiz qoldi
---	---

Intervyu mobaynida tarbiyachi suhbatning samimiy kechishini taʼminlashi lozim. Savollar oʻta nazokatli, murakkab boʻlmagan, insonlarning nafsoniyatiga tegmaydigan qilib tuzilishi shart. His-hayajonni oʻygʻotuvchi shaklda beriladigan savollardan iloji boricha voz kechish lozim. Savol-javob jarayoni savol beruvchi va intervyuchi orasida bir-biriga ishonch tariqasida oʻtkazilsa, savollarga olingan javoblar shunchalik toʻliq va samimiy boʻlishi taʼminlanadi. Savollar javob beruvchida qiziqish uygʻota olishi kerak. Intervyu oluvchi iloji boricha neytral pozitsiyada boʻlishi shart, chunki uning vazifasi pedagogika, psixologiya yoki axloq normalari nuqtayi-nazaridan maʼlumot berishdan emas, balki koʻproq axborot olishdan iborat. Javob beruvchilar past yoki oʻrta maʼlumotga ega kishilar boʻlishidan qatʼi nazar, intervyuchi savollarni oqilona, savodli, nazokatli qilib tayyorlashi kerakki, bu tinglovchida ishonch tugʻdirishga asos boʻladi. Kamtarona va nazokatli tuzilgan savollardan samimiy javobni kutish mumkin, aksincha, demagoglarcha, safsatabozlikdan tashkil topgan savollardan quruq va hissiz javoblar olinadi. Ayrim hollarda tarbiyalash jarayoni haqida ota-onalar koʻp gapirib yuborishlari mumkin, bu intervyuchidan sabr-toqatlilikni talab qiladi. U savollarni iloji boricha mohirona berib, ancha choʻzilib ketgan javobni qisqartirishi va tadqiqot uchun zarur boʻlgan axborotni eshitishi mumkin.



TESTLAR:

1. “Metod” soʻzining lugʻaviy maʼnosi-bu...
 - A) lotincha: «metodos»-«yoʻl», “uslub”
 - B) vazifa, faraz
 - S) qoʻllanma
 - D) yoʻriqnoma
 - E) nasihat, maslahat
2. Ilmiy tushuncha sifatida “metod” soʻzi keng maʼnoda nimani anglatadi?
 - *A) muayyan muammoyechimini topishga yoʻnaltirilgan uslubni, maqʼlum maqsadga erishish yoʻlini
 - B) tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilishni
 - S) qandaydir vazifani hal etishni
 - D) taʼlim -tarbiya jarayoniga taalluqli muhim faktlarni
 - E) pedagogik vaziyatlar mohiyatlari, mexanizmlari, xususiyatlarini anglatadi
3. Pedagogika fani oʻz mazmunini boyitish va yangilash maqsadida qanday metodlardan foydalanadi?
 - *A) mavjud pedagogik xodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan oʻrganadi
 - B) mavjud pedagogik xodisa va jarayonlarni kuzatish orqali oʻrganadi
 - S) mavjud pedagogik xodisa va jarayonlarni suhbat asosida oʻrganadi
 - D) mavjud pedagogik xodisa va jarayonlarni tajriba asosida oʻrganadi
 - E) mavjud pedagogik xodisa va jarayonlarni matematika-statistika metodlari asosida oʻrganadi
4. Hozirgi kunda pedagogikaning qaysi ilmiy – tadqiqot metodlari yetakchi xisoblanadi?
 - A) Pedagogik kuzatish va soʻrash metodlari;
 - B) Test sinovlari va taʼlim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodlari;

- C) Tajriba – sinov metodlari;
- D) Matematika – statistika metodlari;
- E) Barcha javoblar to‘g‘ri

5. So‘rashning modifikatsiyalashtirilgan shakli – bu..

- A) Dialog
- B) Monolog

*S) Intervyu

- D) suhbat
- Ye) kuzatish

6. Suhbat metodi - bu...

A) An'anaviy pedagogik metod

*B) Dialog, diskussiya tarzida o‘tkazilib, insoniy munosabatlar, ularning istiqboldagi rejalari, qarashlari va xususiy fikrlarini o‘rganish uchun zarur bo‘lgan metod

S) Pedagogik jarayonni kuzatish uchun zarur bo‘lgan metod

D) Suhbatdoshning ichki olamini o‘rganish uchun axborot-texnologiyalari orqali unga ta'sir o‘tkazish metodi

Ye) Bilim, ko‘nikma, malaka oshirish metodi

7. Pedagogikada ta’lim -tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbqiqiy jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan ilmiy tadqiqot metodi –bu...

A) Kuzatish metodi

*B) Tajriba –sinov metodi

S) Suhbat metodi

D) Modellashtirish metodi

Ye) Ijtimoiy fikrni o‘rganish metodi

8. Pedagogikada ijtimoiy fikrni o‘rganish (so‘rovnoma, intervyu, test) metodining vazifasi – ...

*A) Biror muammo tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayonidir. Bu metod orqali o‘rganilayotgan muammoning yechimini topish yo‘llari belgilanadi.

B) Ta'lim-tarbiya jarayoni to'g'risida muayyan xulosaga kelish uchun foydalanuvchi metod. Bu metod ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi.

S) Uzoq muddatli jarayonlarni tekshiradi

D) Ko'p xususiyatli jarayonlar, o'zaro munosabatlarni tadqiq qiladi

Ye) Ilmiy ishlarni tashkillashtirishda qo'llaniladigan metod

9. Ilmiy tadqiqot natijasida jamlangan axborotga kompyuter texnologiyalari yordamida ishlov berish, statistika ma'lumotlarini jamlash, taxlil qilish, qiyoslash umumlashtirishda qo'llaniladigan metod-bu...

A) So'rovnoma

B) Qiyoslash

*S) Matematika va statistika metodi

D) Kuzatish

Ye) Tajriba

Qaysi metod ta'lim -tarbiya jarayonlarining amaldagi holati bilan tanishtiradi, ularning oqibat natijalarini bilishga yordam beradi va shu asnoda yaratilgan yangi kashfiyotlar uchun dalillar, omillar yig'ish imkonini tug'diradi?

A) Matematik-statistika

B) Bashorat

S) Interpretatsiya

D) Modellash

*E) Pedagogik kuzatish

13. Modellash- bu...

*A) bilish obyektlarini o'z tushunchalari asosida tadqiq etish, jarayon va hodisalarning xususiyatlarini o'rganish maqsadida modellar orqali o'rganish

B) Tajriba asosida qo'lga kiritilgan bilimlarni o'rganish

S) Ta'lim-tarbiya jarayonida qaror qabul qilish texnologiyalarini ishlab chiqishga mo'ljallangan metod

D) Ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternat to'g'risidagi nizomlarni ishlab chiqishga mo'ljallangan metod

Ye) ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirish

14. Pedagogikada oddiy kuzatish nima?

A) pedagogik jarayonni tahlil qilish

B) tarbiya natijasini umumlashtirish

S) ta'limning kafolatlangan natijasiga erishish

D) hayotiy voqea-qodisalarni tahlil qilish bilan cheklanish

Ye) o'qituvchining faoliyatini o'rganish

15. Sotsiometriya- bu-...

A) nazarda tutilgan maqsad qanday amalga oshayotganligini aniqlash uchun qo'llaniladigan metod

B) pedagogika faniga ijtimoiy psixoliya sohasi orqali kirib kelgan tushuncha bo'lib, kichik ijtimoiy guruhlarining tarkibi hamda ijtimoiylashuvi vazifalarini miqdoriy metodlar orqali o'rganadi.

S) "subyekt-subyekt" munosabatlarining o'zaro aloqalari, individual farqlarini qiyoslash uchun qo'llaniladigan metod

D) Test sinovlari va ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi

Ye) pedagogika faniga ijtimoiy psixoliya sohasi orqali kirib kelgan tushuncha bo'lib, guruhlarda kelib chiqadigan ixtiloflarni o'rganadi

16. Tajriba nima maqsadda o'tkaziladi?

*A) Ta'lim- tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbqiqiy jarayonlarini aniqlash maqsadida

B) Bola rivojlanishiga doir o'zgarishlarni aniqlash maqsadida

S) Bolalarning ruxiy jihatdan rivojlanishini aniqlash uchun

D) Maktab yoshidagi bolalarga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rganish maqsadida

Ye) Katta insonlarga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlash maqsadida

17. Matematik-statistika metodiga XX asrning 40 yillarida asos solgan olim-...

A) ingliz olimi A. Osborn

- B) nemis olimi A. Vald
S) amerika olimi R. Jonson
D) rus olimi S. Arxangelskiy
Ye) rus olimi Yu. Babanskiy

ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva SH. A. Pedagogik diagnostika. -T.: Fan, 2005, 256 b.
2. Weiner B, Theorien der Motivazion. Stuttgart: Klett 1996 p.
3. Ingenkamp Karlxayns. Pedagogicheskaya diagnostika. -M.: Pedagogika, 1991, 240 s.
4. Piaje J. J. Rebyonok i ego razvitie -M.: Znanie, 1984, 508 s.
5. Podlasiy I. P. Pedagogika -M., «Vlados», 2003. 576 s.
6. Sunsov N.S. Diagnostirovanie v uchenicheskom kollektive- M., // Pedagogika, 2016 № 4, S.- 40-50.



4-§. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKADA TESTLARNING TUTGAN O‘RNI

Dastlabki test metodining qo‘llanilinishi. Test orqali ilmiy asoslangan ma’lumotga ega bo‘lib boriladi. SHu bois, ularni mutasaddi pedagog va psixologlar loyihalashtirishadi.


Test – o‘rganilayotgan jarayon yoki obyekt to‘g‘risida aniq ma’lumot olish uchun zarur bo‘lgan standartlashtirilgan metoddir.

Test – o‘rganilayotgan jarayon yoki obyekt
to‘g‘risida aniq ma’lumot olish uchun zarur bo‘lgan
standartlashtirilgan metoddir.

“Test” ingliz tilidan olingan bo‘lib, “sinash, tekshirish” degan ma’nolarni bildiradi. Ushbu atama psixolog olim- F. Galton tomonidan fanga kiritilgan. Shaxsning aqliy o‘rishini, mentalitetini, qobiliyatini, irodaviy sifatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo‘llaniladigan qisqa masala, topshiriq, misol, jumboq, syujetli rasm yoki shakl “test” deb ataladi. Test ayniqsa odamning qanday kasbni

egallashi mumkinligini, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligi, iste'dodlilar, iqtidorlilar va aqli zaiflarni aniqlashda kishilarni saralashda keng qo'llaniladi. Test metodining qimmatini tajribaning ilmiylik darajasiga, tekshiruvchining mahoratiga va qiziqishiga, yig'ilgan psixologik ma'lumotlarning ob'ektivligi va ularni ilmiy tahlil qila bilishga bog'liqdir.

Pedagogik diagnostika natijalari o'quvchi-yoshlar va ularning ota-onalariga xabar qilinishi, yetkazilishi kerak. Aks ta'sir sifatida ularning kelajakdagi faoliyatiga ham ta'sir qo'rsatish mumkin. Ma'lumotning o'quvchi-yoshlarga ta'sirini, qo'yilgan maqsadga erishilganlikni nazorat qilish mumkin. Shunday nazorat turlaridan biri—**testlar** hisoblanadi. Bugungi kunda pedagogik diagnostikada testlarning quyidagi turlari mavjud:



Pedagogikada ko'proq maktabdagi o'zlashtirishni ko'rsatuvchi, intellektual rivojlanishni aniqlovchi, kasbiy tayyorgarlikni ko'rsatuvchi, diqqat va xotirani aniqlovchi, shuningdek, ijtimoiy testlardan foydalaniladi.

Xorij davlatlarida diagnostik testlarni qo'llash uzoq tarixga ega. Pedagogik testlar ta'lim va tarbiya jarayonlarini o'rganish uchun qo'llanilib kelmoqda.

O'zlashtirishni test orqali aniqlash 1864-yili ingliz olimi Jorj Fisherning «scale books» (Shkalalangan kitoblar)idan boshlangan. 1894-yili amerikalik J. M. Rays «Orfografiya bo'yicha bilimlarni aniqlash» jadvalini qo'lladi. 1908-yili Torndaykning shogirdi Stoun arifmetikadan birinchi testni nashr qildi. Boshqa sohalarda ham testlar keng qo'llanila boshlandi.

Pedagogik testlar sohasining yirik asoschilaridan biri Edvard Torndayk (1874-1949) amerika maktablariga testlarni kirib kelishini 3 bosqichda ko'rsatadi:

1. Izlanishlar davri 1900–1915-yillarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu bosqichda frantsuz psixologi Alfred Bine taklif etgan xotira, diqqat, qabul qilish testlarini anglash va dastlabki qo'llash davri bo'ldi. Aqliy rivojlanish darajasini aniqlovchi intellekt teslari ishlab chiqilib tekshirila boshlandi.

2. Keyingi 15 yillik maktab testlari sohasida «shovqinli» yillar bo'lib hisoblanadi. Bu davrni testlarning ahamiyatini, uning o'rnini, imkoniyatlari va cheklanganliklarini anglash davri deb hisoblashadi. O.Stounning arifmetikaga oid testlari, B.Zekingemning husnixatga oid testlari, E.Torndaykning ko'plab maktab predmetlari bo'yicha testlari ishlab chiqildi va tatbiq etildi. T.Kelli qiziqishlarni o'lchaSh vositalarini ishlab chiqdi. G.Mattesning qobiliyatlarni aniqlash testlari hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotganicha yo'q.

3. 1931-yildan maktab testlashtirishining hozirgi zamonaviy bosqichi boshlandi. Mutaxassislar testlarning obyektivligini oshirishga, yangi samarali diagnostik usullarni yaratishga harakat qilishdi.

1963-yilda Y.Farenberg, X.Zarg, R.Gampellar shaxsning ko'pqirralik xususiyatlarini aniqlaydigan, R. Bernsning (1983) xulqni tashxislashga oid testlari, A.Anastazining o'quvchining ichki dunyosini aniqlash testlari ishlab chiqildi. Frantsiyada odatdagi

maktabdan aqliy jihatdan rivojlanishi past bo'lgan bolalar tahsil oladigan maktabga o'tkazish uchun pedagogik va tibbiy imtihonlar o'tkazilgan. Shu maqsadda Alfred Bine hamda Teodor Simon 30 ga yaqin topshiriqni o'z ichiga qamrab olgan, murakkablik darajasiga qarab joylashtirilgan intellektual rivojlanishni aniqlovchi ko'p bosqichli testlarni ishlab chiqib, o'quv maskanlariga taqdim etishdi. Bu testlar dunyodagi eng mashhur testlar qatoridan o'rin oldi.

Lekin sobiq sho'ro hukumati davrida «Pedagogik buzilishlar to'g'risida» (1936-yil)gi qaror bilan faqat intellektual testlar emas, balki barcha o'zlashtirishni aniqlash testlari qo'llanilishi bekor qilindi. Hatto XX asrning 70–80-yillaridagi urinishlar ham testlarni joriy qilishdagi urinishlarni zoye ketkazdi.

Rivojlangan davlatlarda testlarni joriy etish intensiv ravishda kechdi. Bugungi kunda mustaqillik sharofati bilan bizning Respublikamizda zamonaviy texnologiyalarga asoslangan metodikalarni joriy qilish imkoniyati yaratildi.

Ta'lim testlari – bu shaxs rivojlanishi va shakllanishining turli tomonlarini diagnoz qilishning xilma–xil pedagogik va psixologik shakllaridan bir turi xolos. Mazkur testlarni qo'yidagicha tavsiflash mumkin:

1. Idrok kuchi, aqliy qobiliyat, aqliy rivojlanish testlari;
2. Faoliyatning turli sohalaridagi maxsus qobiliyat testlari;
3. Ta'lim, o'zlashtirish, akademik natija testlari;
4. Shaxsning alohida sifatleri(xotira, tafakkur, intellekt)ni aniqlash testlari. Masalan, Vekslerning mashhur IQ – «intellektni tashxislash», Gilfordning S–«Standartlashgan shkalalari», Amtxauyerning «Z–Qiziqishlarni baholash» kabi diagnostik testlari bunga misol bo'la oladi.

Tarbiyalanganlik darajasini aniqlash testlari. Shuni alohida qayd etish lozimki, bugungi kunda pedagogik diagnostikada tashxislash metodlari to'laqonli o'rganilib chiqilmagan.

Bugungi kunda tarbiyalanganlik darajasini aniqlaydigan quyidagi testlar mavjud:

1. Umuminsoniy sifatlarni shakllantirish testlari;
2. Axloqiy tushunchalarni shakllantirish testlari;
3. Ijtimoiy va boshqa sifatlarning shakllanganligini aniqlash testlari;

Shaxsning alohida sifatlari (temperament, idrok, xarakter)ni aniqlash testlari.

O‘lchovning metodik sifat talablari Pedagogik diagnostikada «o‘lchov» tushunchasi. Pedagogik diagnostikada o‘lchovning natijalari aniqlik va ishonchlilik talablariga javob berishi lozim. O‘lchovning sifatiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- 1) Obyektivlik.
- 2) Ishonchlilik.
- 3) Validlik (*ingliz tilida: valid–ahamiyatga ega, qadrli; rus tilida: pokazatel'nost, deystvitel'nost, dostovernost*).

Obyektivlik deganda o‘lchov natijalari tadqiqotchiga bog‘liq bo‘lmagan tarzda baholanishi yoki bir necha voqea–hodisani tadqiqotchilarning shu masala yuzasidan deyarli bir xil xulosa chiqarishi tushuniladi.

O‘lchovni o‘tkazish obyektivligi ta’lim jarayoni qatnashchilarining aynan bir xil sharoitda bo‘lishini taqozo etadi.

Ma’lumotlarni tahlil qilishning obyektivligi alohida qiziqish uyg‘otadi. An’anaviy baholash tizimida ma’lumotlarni tahlil etishda obyektivlik past bo‘ladi. Masalan, bitta yozma ishni turli o‘qituvchi turlicha baholaydi, ya’ni baho obyektiv bo‘lmaydi.

Ishonchlilik deganda o‘rganilgan u yoki bu aniq belgining ishonchlilik va aniqlik darajasi tushuniladi.

«Agar biror belgi yuqori darajadagi aniqlik bilan o‘lchansa, uning aks etish darajasi shkalada bitta yagona nuqtaga tushadi»¹. demak, aniq va uncha aniq bo‘lmagan o‘lchov haqida gapirilganda quyidagicha misolni keltirish mumkin: masofa 4188 millimetрни tashkil qiladi, yoki masofa 4 metrga yaqinni tashkil qiladi.

Oʻlchovning ishonchlilik darajasi ishonchlilik koeffitsiyenti bilan aniqlanadi.

Validlik. Oʻlchov sifatining muhim metodik talablaridan biri validlikdir. Validlik haqiqatda ham oʻlchash talab etilayotgan narsa oʻlchandimi yoki boshqa narsa oʻlchanganligini aniqlaydi.

Test metodikasida validlikning toʻrtta turi uchraydi:

- Mazmunning validligi;
- Natijaning validligi;
- Prognozning validligi;
- Kostruktiv validlik.

Oʻlchov sifatining yuqoridagi muhim uchta talabi bilan birga adabiyotlarda boshqa mezonlar (kriteriyalar) ham uchraydi. Linert quyidagi mezonlarni keltiradi³:

- a) testning oʻlchamli boʻlishi (normalangan testlar);
- b) testning solishtirma boʻlishi (test oʻzining egizagi, alternativi bilan taqqoslanadi);
- v) testning tejamli boʻlishi;
- g) testning foydali boʻlishi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida pedagogik tashxis qilishning mazmuni. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarini isloh qilishning asosiy maqsadi – shaxsni har tomonlama kamol toptirish hisoblanadi.

Pedagogik tashxislashda maktab oʻquvchilarining oʻziga xos xususiyatlari mavjud. Boshlangʻich taʼlim oʻqishga va ijtimoiy–foydali mehnatga halol munosabatni, Vatanga muhabbatni tarbiyalasa, umumiy oʻrta va keyingi bochqichda aynan shu munosabatlar bilan birga taʼlimiy–tarbiyaviy va kamol toptirish vazifalarini ajratish, bilimlarni oʻzlashtirish hamda zarur shaxsiy sifatlarni shakllantirish, takomillashtirish uchun yaxshi sharoitlar vujudga keladi. Oʻqish jarayonida qarashlar va maʼnaviy sifatlarni ham shakllanadi, yaʼni mazkur funksiyalarning birligi va oʻzaro bogʻliqligi kuzatiladi.

³ Lienert G.A. Testaufbau und Testanalyse. Weinheim: Beits. 1999. 18p.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida pedagogik tashxislash va korreksiyalashning mazmuni oʻquvchilarda aqliy, intellektual qobiliyatlarni, ijobiy qarash va eʼtiqodlarni, axloqiylik, irodalilik va hissiyotlarni shakllantirishdan iborat.

Diagnostika oʻtkazadigan oʻqituvchi oʻquvchilarda maʼrifiy va maʼnaviy sifatlarni shakllantirishi, maʼnaviy va moddiy hayotning uygʻunligini, maʼnaviy yuksalishda milliy gʻoyaning tushunishlari ni va ularni turmushda qoʻllay bilishlari uchun zamin yaratishi lozim.

Shuningdek, oʻquvchilarning hozirgi globallashuv jarayonida maʼnaviy taxdidlarni farqlay olishlari, fikrga qarshi fikr, gʻoyaga qarshi gʻoya bilan kurash olib borish lozimligini, inson qalbiga yoʻl topish maʼnaviy kamolot ekanligini va mamlakat ravnaqi yoʻlida fidoyilik, jasorat ekanligini anglab etishlari uchun barcha pedagogik metodlardan foydalanish lozim.

Oʻqituvchi har bir darsdagi oʻquv materialini taqdim qilish jarayonida tarbiyaviy vazifaning muayyan bir tomonini amalga oshiradi. Masalan, boshlangʻich sinf oʻquvchilarida doʻstlik, mehribonlik, mehnatsevarlik toʻygʻulari shakllanadi. Yoki 5–6–sinflarda Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ogahiy, Fuzuliy, Nodira kabi soʻz gavharlarining ustalari, turk dunyosi adabiyotining eng mashhur vakillari; 7–10–sinflarda Abdulla Qodiriy, Choʻlpon, Abdulla Qahhor, Usmon Nosir, Gʻafur Gʻulom, Zulfiya, Rauf Parfi, Omon Matchon kabi oʻzbek adabiyoti osmonida yarqiroq yulduzlar, koʻzni qamashtiruvchi chaqmoqdek paydo boʻlgan shoir va yozuvchilarning hayoti va ijodini oʻrganishar ekan, oʻquvchilarda milliy gʻurur va iftixor hissi, vatanparvarlik va sadoqat, olijanoblik va insonparvarlik kabi hislatlar shakllantiriladi. Bunday darslarda, darsdan va maktabdan tashqari tadbirlarda oʻqituvchining darsda qoʻyadigan tarbiyaviy vazifasi oʻquvchida shaxsning muayyan sifatlarini takomillishtirishga qaratilishi lozim. Masalan, 8–9–sinflardagi Tarix darslarida Temuriylar davlatining tashkil topishi, iqtisodiy–ijtimoiy taraqqiyoti oʻrganilar ekan, oʻqituvchi katta maktab yoshidagi oʻquvchilarda oʻzbek davlatchiligining rivojlanish tarixi,

buyuk bobokalonlarimizning xalq va millat oldida qilgan ulug‘ ishlari, Temuriylar davridagi ijtimoiy–iqtisodiy va siyosiy hayoti haqida tasavvur hosil qilish bilan bog‘liq ma’naviy-ma’rifiy vazifalarni amalga oshiradi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik tashxis qilishning mazmuni oziga xos xususiyatga ega. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar (6–10 yosh), o‘rta pog‘ona o‘quvchilari (11–14 yoshli o‘smirlar) va katta maktab yoshidagi (15–16–17 yoshli o‘spirinlar) o‘quvchilarni tashxislashda ularning o‘ziga xos individual–psixologik xususiyatlari inobatga olinadi.

O‘qituvchi maktabda pedagogik diagnostika o‘tkazganda o‘quvchilarning tavsifiy belgilariga alohida e’tibor berishi kerak.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni pedagogik diagnostika qilish va xulqini korreksiyalashda o‘quvchilardagi sezgi, idrok, xotira, tafakkur kabi bilish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish kerak.

Mazkur yoshdagi bolalar o‘z idroklarining aniqligi, ravonligi, sofliqi, o‘tkirligi bilan boshqa davrdagi insonlardan keskin farqlanadilar.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini pedagogik tashxislashda, avvalambor, o‘qituvchi yosh davrlarining o‘ziga xos xususiyatlarining qaysi jihatlariga alohida e’tiborini qaratishi kerak, qanday pedagogik diagnostika metodlari va metodikalaridan foydalanilsa pedagogik tizimni boshqarish samarali kechishi to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lishi lozim. Shu sababli o‘qituvchi maktabda pedagogik tashxis o‘tkazganda o‘quvchilarning tavsifiy belgilariga e’tibor berish kerak. (4–jadval)

***Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar(6–10 yoshlilar)ni
pedagogik tashxislashda e‘tibor berilishi lozim bo‘lgan tavsifiy
belgilar***

4–Jadval

Yosh chegarasi	Rivojlanishning ijtimoiy vaziyatlari	Yosh uchun xarakterli bo‘lgan Shaxsiy jihatlari	Pedagogik tashxislash metodlari va mashhur metodikalar	O‘quvchilar xulqida korreksiya talab etuvchi nuqsonlar
Kichik maktab yoshi davri: 6-10 yoshlilar 1-4 sinflarning o‘quvchilari	1-sinf. Ongli xatti-harakat ehtiyojlarining mavjudligi; Yaratilgan obrazlarni, tabiat va jamiyatning obyektiv qonunlariga suyanan holda baholash ko‘nikmasi takomillashadi; O‘qituvchi Shaxsiga ishonch hissi va yuksak ehtirom. Bola o‘qituvchini aql-idrok sohibi, mehri	1-sinf. Kattalarning xatti-harakatini taqlid qilish; Xatti-harakatida o‘yin va mehnat faoliyati bilan bevosita bog‘liqlik. Narsa va hodisalarning tashqi sifat va xususiyati belgilarini guruhlarga ajratish va tasniflashga, narsa va hodisalarning xossalari, qonuniyatlarini umumlashtirishga harakat qiladi. Har qanday obyekt, subyekt va voqelikdagi yangilikni yaqqol idrok	Kuzatish So‘rovnoma Qiyoslash Tajriba J. Piaje. “Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning axloqiy sifatlarini o‘rganish” L. V. Venger, V. V. Xolmovskaya. «6-7 yoshli maktab o‘quvchilarining aqliy rivojlanish darajasini	Axloqiy kategoriyalarni to‘liq anglay olmasligi; Idrokning salbiy xususiyati–obyektlarni bir-biridan farqlashdagi zaiflik; tartibli, maqsadga muvofiq tahlil qilish faoliyati zaifligi, injiqlik, hayotiy voqelik bilan fantaziyaning aralashib ketishi, natijada maqtanchoqlik, yolg‘onchilik, chaqimchilik, toqatsizlik, o‘jarlikning paydo bo‘lishi;

8-9 yosh	bon va donishmand inson deb biladi. 2-sinf. Idrokning xilma-xil yorqin bo‘yoqlar, yaqqol tasvir va his-to‘yg‘uga boyligi; O‘qituvchi shaxsiga ishonch va hurmat hissi; O‘qituvchi siymosida o‘zining ezgu niyati, orzu-istagi, ajoyib his-to‘yg‘ularini ro‘yobga chiqaruvchi mu‘tabar Shaxsni ko‘radi; Katta vaqt o‘lchovi miqdorini kichik vaqt miqdoriga, o‘tgan	qilishga intilish; Atrof-muhitning sirli tomonlari, jozibalariga qiziqish; Bilimlar ko‘lamining kengayishi; Turli savollarga shaxsan o‘zi javob topishga harakat qilish hissining paydo bo‘lishi; 1-sinf o‘quvchilariga nisbatan mantiqli va mazmunli fikr yuritadilar; «Yaxshi» va «yomon» kategoriyalarini tushunadilar; Mustaqil harakat qilishga intilish hissi paydo bo‘ladi va boshqalar. O‘z o‘quv faoliyatining ta’siri, talabi, imkoniyat va shart-sharoitlari orqali ijodiy xayolning tarkib topishi;	aniqlash» O. Hasanboyeva, M. Turopova, J. Hasanboyevlar-ning “Ma’naviy-ma’rifiy tarbiya ishlarini tashkillashtirish” metodikasi Kuzatish So‘rov Qiyoslash Tajriba O. Hasanboyeva-ning «Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish» metodikasi E.F. Zambitsyaviche ne.	Muhim belgilar miqdorini to‘liq anglay olmasliklari; Tevarak-atrofdagi salbiy xatti-harakatlarga taqlid qilish; Axloqiy kategoriyalarni aniq anglay olmasligi; O‘rganiladigan o‘quv materialini noaniq tasavvur etishlari; Yolg‘onchilik, tartib-intizomga bo‘ysunmaslik, fantaziyaga berilish hislatlarining paydo bo‘lishi; Axloqiylik saviyasining barqarormasligi va boshqalar. Axloqiy kategoriyalarni to‘liq anglay
----------	---	---	--	--

9-10yosh	zamonni hozirgi zamonga almashtirib yuborish hollari tez-tez uchrab turadi; Ishonuvcha, tashqi taassurotlarga beriluvchan va boshqalar;	Xatti– harakatlarida, fikr– mulohazalarida mustaqillikka intilish; Hodisalarni tanqidiy baholash ko‘nikmasining paydo bo‘lishi;	«Kichik maktab yoshidagilarning intellektual darajasini aniqlash» Kuzatish Qiyoslash So‘rovnoma Tajriba	olmasligi; Xayolparastlik– ka berilish; O‘z tenqurlari oldida kibru– havo qiliqlar qilish; Janjalkash–lik, surbetlik, manmanlik, yolg‘onchilik, o‘g‘rilik, deviant va deikvent xulqning paydo bo‘lishi ;
9–10 yosh	3–sinf. Tafakkurning faolligi; O‘quv fanlariga ijobiy munosabat; Jamoatchilik oldida mas’uliyatni his qila bilish;	Uyushqoqlik bilan ishlash hissining paydo bo‘lishi, o‘z diqqatini boshqarish ko‘nikmalarining vujudga kelishi; O‘z tenqurlari yoki kattalar oldida o‘zini uddaburon qilib ko‘rsatish istagining paydo bo‘lishi va boshqalar.	A.Karsten, V.I.Kalinin, Y.Z. Neverovich– larning «O‘quvchilarning irodaviy hislatlarini baholash metodikasi»	Salbiy siymolarga taqlid qilish; Yolg‘onchilik, subutsizlik, o‘z so‘zida tura olmaslik, tartibsizlik, passivlik, ijtimoiy ustanovkalarni mensimaslik kabi hislatlarning paydo bo‘lishi.
4–sinf	Bilim olishning ijtimoiy ahamiyatini anglash	Intellektning rivojlanishi; Umumlashtirish	D.B. Elkonin– ning «Harakatli o‘yinlarda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning faolligi» metodikasi	

9–10yosh	to‘yg‘ularini ng tarkib topishi; Bola psixik jihatdan o‘sishi munosabati bilan o‘kituvchi mavqeiga munosabati o‘zgaradi. Ongli xatti– harakat ehtiyojining tug‘ilishi; Tarixiy ma’lumotlar, xabarlar, axborotlarni o‘qish va eShitish tufayli «yil», «asr», «o‘ ming yillik avval», «eramizdan oldingi asr» kabi tushunchalar Shakllana boshlaydi; Qat’iy hukmlardan taxminiy hukmlarga	da moddiy dunyodagi voqelikning eng muhim munosabat va bog‘lanishlarini aks ettiruvchi ichki belgilarga tayanish; Xarakter kuchini ko‘rsatishga bo‘lgan intilishlar; Murakkab axloqiy kategoriyalarni tushunish; Diqqat, xotiraning intensivla– Shuvi; Tenqurlari va katta yoshlilar oldida o‘zini mustaqqil ko‘rsatishga intilish; O‘z idealiga taqlid qilish; Yumorning paydo bo‘lishi;	Kuzatish So‘rovnoma Qiyoslash Tajriba SH.N. Chxartshvi–li, D.B.Elkoninlar ning «Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning irodaviy faolligi metodikasi»	Irodasizlik Intizomsizlik, odobsizlik, manmanlik, subutsizlik, o‘z so‘zida tura olmaslik, yolg‘onchilik , chaqimchilik, toqatsizlik kabi hislatlar; Betga choparlik, salbiy xislatlarga taqlid qilish; Deikvent va deviant xulqning paydo bo‘lishi; Mayda bezorilik, o‘g‘irlik, jamoat joylarida tartibni buzish va boshqalar.
----------	---	--	---	--

	kucha boshlaydilar va boshqalar. 4–sinf Jamoadada faol ishtirok etishga harakat qilish; Ijtimoiy hayotni kognitiv to‘yg‘ular orqali idrok etish; Gipotetik– deduktiv tafakkurning rivojlanishi; Murakkab axloqiy kategoriyalar ni tushuna borish; Alternativ mulohazalarni tahlil qila olish ko‘nikmalari –ning paydo bo‘lishi; O‘quvchilarda tushuncha va hukmlar rivojlanishi bilan birga turli narsa va			
--	--	--	--	--

	hodisalar haqida yuritilgan muhokamalar asosida xulosa chiqarish va boshqalar.			
--	---	--	--	--

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishonuvchan, tashqi taassurotlarga beriluvchan bo‘ladilar. Mazkur yoshdagi bolalar o‘z idroklarining sofliqi, o‘tkirligi bilan boshqa yosh davridagi insonlardan farqlanadilar, ammo ularda tartibli, maqsadga muvofiq serqirra tahlil qilish faoliyati zaifligi uchun ta’limiy–tarbiyaviy jarayonda ko‘pincha xatolarga yo‘l qo‘yadilar.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri ulardagi o‘qituvchi shaxsiga ishonch hissi va yuksak ehtiromdir. O‘qituvchining gapi ular uchun qonun sifatida qabul qilinadi. Ular o‘qituvchi siymosida o‘zining ezgu niyati, orzu–istagi, ajoyib his–tuyg‘ularini ro‘yobga chiqaruvchi mo‘tabar shaxsni ko‘radi. Shu sababli korreksiyalash ishlarini to‘g‘ri tashkillashtirishni rejalashtirgan o‘qituvchi o‘zining obro‘sidan oqilona, odilona va omilkorona foydalanib, o‘quvchilarda uyushqoqlik, mehnatsevarlik, o‘qishga ijobiy munosabat, o‘quvchi diqqatini boshqarish, xulqini idora etish, o‘zini tuta bilish, qiyinchiliklarga sabr–toqat qilish va ularni yengish kabi xislatlarni shakllantirishi lozim. Buning uchun mumtoz metodlar bilan bir qatorda zamonaviy metodikalardan ham foydalanish zarur.

Ma’lumki, o‘smirlik inson shaxsining kamol topishida alohida o‘rin egallaydi. U (11–14 yoshlilar) inson kamolotining muhim bosqichi hisoblanadi. O‘smirlik davrida g‘oyat katta ahamiyatga ega bo‘lgan psixologik o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, bolaning muayyan ijtimoiy turmush sharoitida keyingi kamol topishi uchun zarur ta’lim–tarbiya ta’sirida barqaror, mustahkam iz qoldiruvchi ijobiy hislatlar

namoyon bo‘ladi. Tadrijiy ravishda izchil vujudga kelayotgan psixik o‘zgarishlar, Shakllanayotgan fazilatlar va shaxsning o‘shisi, avvvalo, mazkur yoshdagi o‘g‘il-qizlar faoliyatlarining (o‘qish, mehnat, o‘yin va boshqalar) xususiyatiga bevosita bog‘liqdir. O‘smirning boshqa yosh davrlaridan farqlanadigan o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular his-to‘yg‘u va irodaviy sifatlarda o‘z ifodasini topadi.

5–jadval.

O‘smir yoshidagi o‘quvchilar (10–15 yoshlilar)ni pedagogik tashxislashning xarakterli belgilari

Yosh chegarasi	Rivojlanishni– ng ijtimoiy vaziyatlari	Yosh uchun xarakterli bo‘lgan shaxsiy jihatlar	Qo‘llash ko‘zda tutilgan pedagogik tashxislash metodlari va mashhur metodikalar	O‘quvchilar xulqida korreksiya talab etuvchi nuqsonlar
10–11–yoshlilar	Kichik maktab yoshidagilarda n farqli ravishda hayotni ilk bor shaxs sifatida ilmiy bilishga intiladi Narsa va hodisalarning ayrim alomatlarini emas, balki ularning umumiy va obyektiv qonuniyatlarini anglab yetish, tushunish	O‘yin faoliyati o‘smirda yuksak axloqiy his–tuyg‘ularni vujudga keltiradi, matonatilik, jasurlik, to‘g‘riso‘zlik kabi fazilatlarni shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Mazkur faoliyat	Rag‘batlantirish Jazolash Kuzatish Solishtirish Qiyoslash Tajriba Veksler metodikasi A. Ya. Ivanova metodikasi Kuzatish Rag‘batlantir	O‘ta ta’sirchanlik oqibatida yotg‘oyalarga berilish; XShaxsning o‘shidagi pedagogik nuqsonlar, shaxsning o‘shidagi psixik kamchiliklar, chunonchi, aql–idroknin zaiif rivojlanganligi; Irodanin bo‘shligi;

11–12 yoshlilar	imkoniyatiga ega boʻlib boradi. shaxs sifatida uygʻun rivojlanishiga mehnat faoliyati salmoqli taʼsir koʻrsatadi. Oʻyin faoliyati maʼlum vaqtgacha shaxsning kamolotida oʻz ahamiyatini saqlab qoladi.	oʻsmirning akliy jihatdan oʻsishiga, fikr yuritishiga, oʻz his–tuygʻusini boshqarishiga, jismoniy kamol topishiga turtki vazifasini oʻtaydi. Oʻyinning har xili bilan mashgʻul boʻlish oʻsmirni fahmlashga, eslab qolishga, biror ishni amalga oshirishdan oldin uni rejalashtirishga va diqqatni bir nechta obyektga taqsimlashga odatlantiradi. Tiyraklik, farosatlilik, tezkorlik kabi muhim xususiyatlar ham oʻyin va sport	ish Jazolash Raynberg metodikasi, K. Ingenkampning» «Oʻquvchilarning irodaviy fazilatlarini tashxislash» metodikasi	Xulqida axloqiy ogʻish belgilarining paydo boʻlishi;
	Dunyoqarash, eʼtiqod, nuqtayi nazar, prinsip, oʻzligini anglash, baholash va hokazolar Shakllanadi. Oʻz faoliyatini muayyan prinsip, qarashlar asosida tashkil qila boshlaydi. Axloq, oʻziga xos ong alohida ahamiyat kasb etadi. Axloqiy	Kuzatish Solishtirish Ragʻbatlantirish Jazolash A.I. Maliova–novning «Oʻsmirlarning Axloqiy normalarga mosligini tashxislash» metodikasi	Shaxsning psixik oʻsishidagi kamchiliklar: aql–idrokning zaif rivojlanganligi; Irodaning boʻshligi, hissiyotning kuchsizligi;	Zarur ehtiyoj va qiziqishlarning mavjud emasligi;
12–13– yoshlilar				Oʻsmirning intilishi bilan mavjud imkoniyati

13–14–15–yoshlilar	tushunchalarni o‘zlashtirishi va ularni turmushga tatbiq etishi boshlanadi. Umuminsoniy xislatlarning jarayoni o‘quvchidagi ishonch, aqida, nuqtayi nazarning qarama–qarshiliklariga duch keladigan davr. Ijtimoiy turmushni kuzatish, undagi inson uchun zarur ko‘nikmalarni egallash kattalar xulq–atvorini tahlil qilish imkoniyati yaraladi. Muayyan kasbga mayl va qiziqishning paydo bo‘lishi. Orzu istaklarning rang–barangligi. O‘zini anglash	mashg‘ulotlari tarkib topadi. Psixik dunyosida yangi fazilatlar va sifatlar paydo bo‘la boshlaydi, psixikasida keskin qayta qurish sodir bo‘ladi. Psixik takomillashish, kamolotga intilish, nisbiy barqarorlik sodir bo‘la boshlaydi Balog‘atga yetishish, jinsiy yetilish, akseleratsiya sodir bo‘lishi. Qat’iyatlilik, kamtarlik, mag‘rurlik, samimiylik, dilkashlik, adolatlilik kabi ma’naviy–axloqiy tushunchalarni to‘g‘ri anglaydilar. Turmush	D. B. Elkonin, I. V. Straxovlarning «Patoxarakterli tashxis so‘rovnomasini»; Shmisheknin g «Xulqdagi motivlarni tashxislash» metodikasi; Kuzatish Solishtirish Rag‘batlantirish Jazolash T.G. Chertovanin g «Yoshlarning astenik qiyofasini o‘rganish» metodikasi; E. G‘oziyevnin g «Axloqiy sifatlarni shakllantirish	o‘rtasidagi nomutanosiblik va boshqalar; Eng muhim bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashdagi uzilishlar; Maktab faoliyatidagi: o‘qitishdagi nuqsonlar; Tarbiyaviy chora va tadbirlardagi xatolar; Maktabdan tashqari muhitning ta’siridagi nuqsonlar, chunonchi oilada pedagogik–psixologik bilimlarning yetishmasligi, oilaviy nizolar, ajralish, otanonaning ichkilikka va shahvoniy hayotga berilishi; Balog‘atga yetmagan
----------------------------------	---	---	---	--

	xususiyatining paydo bo'lishi O'zini anglash jarayonida o'ziga baho berishga mayl va istakning tug'ilishi; O'zini anglash yangi pog'onaga ko'tariladi; Xatti-harakati, o'z kuchiga, mayliga, yoshiga loyiq ijtimoiy munosabatlari, muayyan muhitda o'z o'rnini topishga intilishi o'zini anglashining takomillashuvi ga puxta zamin yaratadi.	tajribasida fan asoslarini egallashi natijasida barqaror e'tiqod va ilmiy dunyoqarash tarkib topadi, shular zamidida axloqiy ideallar yuzaga kela boshlaydi. O'quv fanlarining ko'payishi, axborotlar tarmog'ining kengayishi ularning fikr yuritishini jadallashtiradi . Intellectning takomillashuv i	h» metodikasi; V.Karimova ning «O'z-o'zini boshqarish» autotreningla ri va boshqalar.	tengqo'rlarini g salbiy ta'siri; Madaniy- ma'rifiy ishlab chiqarish jamoalari hamda jamoatchilik qurshovidagi kamchiliklar; Bo'sh vaqtini to'g'ri taqsimlay olmaslik, o'zini o'ta mustaqil qilib tasavvur etish, natijada kattalar maslahatini inobatga olmaslik, manmanlik, betga choparlik, surbetlik; Deviant xulqning paydo bo'lishi va boshqalar.
--	--	---	---	---

Jadvalga kiritgan tavsifiy belgilardan o'smirlik yoshidagi o'quvchilarni pedagogik tashxislash va korrektsiyalash o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi ko'rinib turibdi. O'smir shaxsning tarkib topishida axloq, o'ziga xos ong alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda o'quvchilarning axloqiy tushunchalarni o'zlashtirishi va ularni

turmushga tatbiq etishi muhim rol o'ynaydi. O'smir shaxsini tarkib toptirishda uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, yaqin odamlariga munosabatini hisobga olish zarur. Chunki, o'smirda muayyan narsalarga munosabat shakllangan bo'ladi. Ijtimoiy turmushni kuzatish, undagi inson uchun zarur ko'nikmalarni egallash kattalar xulq-atvorini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Shunday qilib, o'smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim xislat-voyaga yetish yoki kattalik hissining paydo bo'lishi alohida ahamiyatga ega ekanligini inobatga olinsa, kattalik hissi ijtimoiy-axloqiy sohada, aqliy faoliyatda, qiziqishda, munosabatda, xulq-atvorning tashqi shakllarida o'z ifodasini topishi muqarrardir. O'smir o'quvchilarda o'rinsiz homiylik, g'ashga tegadigan rahbarlikdan, zeriktiradigan g'amxo'rlikdan holi bo'lish istagining vujudga kelishi kattalar bilan munosabat va muloqotda noxush kechinmalarni paydo qiladi. To'g'ri tashkil qilingan korreksion faoliyatgina o'smirning sinf, maktab jamoasi va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni barqarorlashtiradi.

O'smirlarning jismoniy va jinsiy yetilishi ularning xulq-atvorida keskin o'zgarishlarni vujudga keltiradi. O'quv fanlarining ko'payishi, axborotlar tarmog'ining kengayishi ularning fikr yuritishini jadallashtiradi. 6–10 yoshli bolalarda endigina rivojlanish bosqichiga ko'tarilgan intellekt o'smirlik davrida yanada takomillashadi. Tafakkurning rivojlanishi intellektni qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitadi. O'smirning aqliy faoliyati xususiyatlaridan biri–mavhum tafakkurning rivojlanishidir. Ularda mavhum tafakkur o'sishi bilan yaqqol–obrazli tafakkurning tarkibiy qismi mutlaqo yo'qolib ketmaydi, balki saqlanib qoladi va rivojlanadi.

Pedagogik tashxislashni amalga oshirganda o'qituvchi o'smirlar oldiga turli obyektlarni mustaqil holda taqqoslash, ulardagi shunday va tafovutli jihatlarni topishni yuklash kerak. Buning uchun ularning diqqatini quyidagi savollarga javob berishga qaratish maqsadga muvofiqdir: «Bu holda qanday umumiylik bor?». «Mazkur tushunchalarni siz qanday baholaysiz? Javobingizni dalil asosida

izohlang», «Muayyan narsalar qaysi belgi va jihatlari bilan bir–biridan farq qiladi?», «Quyidagi axloqiylik kategoriyasini qanday baholaysiz?» va boshqalar.

O‘smir aql–zakovatini kamol toptirish uchun ularga doimo mantiqiy tafakkur usullarini o‘rgatib borish zarur. Bunda mantiqiy xatolarni tuzatib borishni aslo yoddan chiqarmaslik kerak. O‘smirda to‘g‘ri mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda pedagogik diagnostika va korreksiyaning roli juda muhimdir. O‘smirlarning mantiqiy fikrlashida ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayrim hollarda o‘smirlarning fanlarga bo‘lgan qiziqishlari susayganligi bois diagnostikaga murojat qilishga to‘g‘ri keladi. Bu o‘smirlik davrida o‘quvchilarda analitik–sintetik faoliyat yetarlicha rivojlanmaganligi bilan belgilanadi.

Shunday qilib, umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini pedagogik tashxislashda va korreksiyalashda o‘qituvchi o‘quv predmetidan chuqur bilimlarga ega bo‘lishi bilan birga pedagogik–psixologik bilimlardan ham xabardor bo‘lishi, xususan, turli yosh guruhlaridagi o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini, ularni umumiy o‘rta ta’lim maktabini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari talablariga muvofiq o‘qitish va tarbiyalash qonuniyatlarini ham bilmog‘i kerak.



MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR

1. Test metodini ilk bor fanga kiritgan olim kim?
2. Testlar yordamida shaxsning qanday xususiyatlarini aniqlash mumkin?
3. Testlar qaysi sohalarda foydalaniladi?
4. Testlarning bugungi kunda keng tarqalgan turlari haqida batafsil ma’lumot bering.
5. Pedagogik diagnostikada testlarning tutgan o‘rni haqida mulohaza yuriting.

TOPSHIRIQ

1. Pedagogik diagnostika fanidan kamida 10 ta test tuzing.
2. Kichik guruhlarda test ishlash metodikasi bajaring va to'plangan ballar yuzasidan g'olib guruhni aniqlang.

ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva SH. A. Pedagogik diagnostika. -T.: Fan, 2005, 256 b.
2. Weiner B, Theorien der Motivazion. Stuttgart: Klett 1996 p.
3. Ingenkamp Karlxayns. Pedagogicheskaya diagnostika. - M.: Pedagogika, 1991, 240 s.
4. Piaje J. J. Rebyonok i ego razvitie -M.: Znanie, 1984, 508 s.
5. Podlasiy I. P. Pedagogika -M., «Vlados», 2003. 576 s.
6. Sunsov N.S. Diagnostirovanie v uchenicheskom kollektive- M., // Pedagogika, 2016 №4, S.- 40-50.



5-§. PEDAGOGIKADA DIAGNOSTIK FAOLIYATNING TASHKILIY-METODIK JIHATLARI

Ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash. Bugun barcha davlatlar ta'limga imkon qadar ko'p yangilik kiritishga, uning sifatini oshirishga intilmoqda. Chunki ta'lim millat ko'zgusi bo'lib, jamiyat va davlatning yuksalib borishini ta'minlovchi, xalqqa yaratuvchanlik, ijodkorlik xususiyatlarini baxshida etuvchi kategoriyadir. Uning mahsulati – intellektual rivojlangan, keng mushohada qiluvchi, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta'limning o'zi yangiliklarga boy bo'lishi, uning mazmunida ijodkorlik ruhi va motivlari hukm surishi lozim. O'quv-tarbiya jarayonida innovatsion faoliyat subyektining talablarini qondirishdan innovatsion faoliyat subyekti ehtiyojining majmuaviyligini anglash va shakllantirishgacha bo'lgan amaliy faoliyati jarayonida yuzaga keluvchi subyektning yangilikni yaratish

va o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishlarini o'zida ifoda etuvchi, undovchi kuch bo'lmog'i lozim.

Psixologik-pedagogik jihatdan o'qitish va tarbiyalash mahorati bilan uzviy bog'liqdir. Pedagog ta'lim oluvchilarning bilimlari va mahoratlarini xolisona baholash prinsiplari, metodlari va mexanizmlarini bilishi, standartlashtirilgan testlarni ishlab chiqish, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilishning turli shakllarini samarali qo'llash mahoratiga ega bo'lishi kerak.

Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ta'lim-tarbiyaning maqsadini yangi yo'nalishga burdi. Demak, ta'lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilandi, unga mos holda mazmunning ham, pedagogik jarayonning ham yangilanishi tabiiydir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta'limning yangi modeli yaratildi.

Butun dunyo ta'lim muassasalarida "shaxs", "davlat" va "jamiyat" talablariga javob beruvchi o'zining ta'lim sifati tizimi yaratilmoqda.

Ta'lim muassasalari o'quv faoliyatining sifati o'quv jarayonini rejalashtirish, uni amalga oshirish, o'quv reja, dasturlarining mazmun mohiyati bilan emas, balki o'quvchilarning olgan bilimlari, malaka va ko'nikmalari, mustaqil ravishda olgan bilimlari bilan bog'liq ta'lim natijasi sifati bilan belgilanmoqda. SHunday ekan, bugungi kunda pedagogik diagnostikaga asoslangan g'oyalar ta'lim-tarbiya tizimiga singib ketishi, ayni muddaodir.

Pedagogik diagnostika yangilangan ta'lim va uning turlari, bosqichlari, maqsadlarini o'rganishga, pedagogik muammolar yechimini imkon qadar tezroq hal etishga xizmat qiladi.

O'quv jarayonini tashkil etishning umumiy ko'rsatkichlari. Hozirgi paytda jahonning barcha ta'lim tizimida quyidagi tushunchalar asosida ta'lim sifati diagnostika qilinadi:

- sifatli o'quv va pedagogik faoliyatni olib borish uchun ta'lim muassasalarida yaratilgan shart – sharoitlar;

- o'quv jarayoni;
- sifatni ta'minlash tizimining amaldagi asosiy hamda boshlang'ich nuqtasi hisoblangan - ta'lim natijasi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida sifatni boshqarishni tashkil ta'lim muassasasini bunyod etish tizimini mazmunan modernizatsiyalash, ta'lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko'tarish O'zbekiston Respublikasida vujudga keltirilishi mo'ljallangan fazoviy muhit- sifatli ta'lim boshqaruvini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Shunday ekan ta'lim sifatini yuqori bosqichga ko'tarish uchun, avvalambor ta'lim muassasalari faoliyatini, ya'ni sifat boshqaruvini amaldagi holatini isloh qilish nazarda tutiladi. Buning uchun Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida keltirilgan bosh g'oya, ya'ni faqat ilm va bilimlar jamiyatni rivojlantirishi, davlatni taraqqiy ettira olishi mumkinligi, to'g'risidagi g'oyasiga monand ravishda sifatli ta'lim boshqaruvini amalda joriy etish talab etiladi.

Jamiyatning turli bosqichlarida tarbiya va ta'lim sohasidagi to'plangan tajribalarni nazariy jihatdan anglash, umumlashtirish va hayotga tatbiq qilish ehtiyojlari asosida hamkorlik pedagogikasi rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatimizda barcha sohalar bo'yicha, shu jumladan, ta'lim tizimida salmoqli ishlar amalga oshirildi. O'quv jarayoni uchun zarur bo'lgan barcha moddiy – texnik bazalar yaratildi. To'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ta'lim sifatini oshirishda, ta'lim jarayonini axborotlashtirish, innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, normativ-texnik bazani yaratish, yuksak ma'naviyatli, o'z shaxsiy pozitsiyasiga ega bo'lgan fuqaroni shakllantirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Pedagogik diagnostika yangilangan ta'lim va ta'lim turlari, bosqichlari maqsadini o'rganishga, pedagogik muammolar echimini imkon qadar tezroq hal etishni taqozo etmoqda.

Pedagogik diagnostika o'quvchi shaxsidagi o'ziga xos xususiyatlarni, individuallikni saqlagan holda intellektual, ma'naviy rivojlanishini ta'minlaydi. Uning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- bola shaxsini rivojlantirishda majburiy ta'limga o'rin bo'lmasligi kerak, ya'ni bola o'zida o'qishga qiziqish, motivatsiya hosil qilishi lozim

- o'quv materialini to'liq idrok etish uchun taqdim qilinayotgan ma'lumotga oid tayanch iboralar, chizma va tasvirlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi

- o'quv materialini idrok etishda tanlash xususiyatining mavjudligi dialog shaklida tashkil qilingan darslar g'oyasi

- intellektual rivojlanishi deyarli bir xil bo'lgan guruh, sinf jamoalarini tashkil qilish

- o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini rivojlantirish g'oyasi

- o'qishdan bo'sh vaqtni mazmunli rejalashtirish g'oyasi.

O'quv jarayonini tashxis etish tamoyillari. O'z mazmun-mohiyatiga qarab pedagogik diagnostika quyidagi **tamoyillarga** asoslanib o'tkaziladi:

Maqsadga qaratilganlik tamoyili kuzatishni ma'lum maqsadga qaratilgan bo'lishini talab qiladi. Ilmiy tadqiqot olib bormoqchi bo'lgan kishi kuzatuv davomida tekshirish uchun bir qator farazlarni ilgari surishi kerak.

Konstantlik tamoyili kuzatuv davomida yuzaki, dastlabki hissiyotlar bilan cheklanmaslikni, tasodifiy, qisqa muddatli ayrim hodisalarning ahamiyatini oshirib yubormaslikni talab qiladi. Kuzatuvchi turli vaziyatlarda o'sha hodisani tekshirib kurishi yoki bir nechta kuzatuvchi hodisani kuzatishi lozim. Bu kuzatuvchilarning

xulosalari yoki natijalari qanchalik bir–biriga to‘g‘ri kelishi kuzatuvning konstant yoki bunday emasligini ko‘rsatadi.

Nazorat tamoyili kuzatuvchining bir necha bor kuzatuvi yoki bir qator kuzatuvchilarning ma‘lum guruh yuzasidan chiqargan natijalari, xulosalari nazorat kuzatuvi davomida boshqa guruxlarda tekshirib ko‘rilishini talab qiladi. Bu kuzatuv natijasida olingan ma‘lumotlar faqat shu sinaluvchi guruhning o‘zigagina xos xususiyatlar emasligini aniqlash uchun lozim bo‘ladi. Natijaning aniqligini, barchaga xosligini tekshirish uchun shu tadqiqotni boshqa sinf, guruh, jamoa yoki o‘quv maskanida ham o‘tkazib ko‘rish kerak.

Uzluksiz ta‘lim tizimida zamonaviy o‘qituvchining vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lishi kuzda tutilmoqda:

Layf kouching (ingliz tilida: *life- hayot, couching-rejalashtirish*) ta‘lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining faoliyatini to‘g‘ri rejalashtiradigan mutaxassis. Ma‘lumki, o‘qituvchi pedagogik jarayonni rejalashtiruvchisi, boshqaruvchisi hamda yo‘naltiruvchisi hisoblanadi. Uning kasbiy, shaxsiy faoliyatini uyg‘unlikda olib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi guruh, sinfdagi o‘quvchilarga ta‘lim va tarbiya berar ekan, shu bilan birgalikda jamiyat a‘zosi bo‘lgan o‘z farzandlarini ham tarbiyalovchi ota-ona sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, o‘z ish joyidagi faoliyati bilan birgalikda, oiladagi, jamoadagi ishlarini uyg‘unlikda olib borish uchun kun tartibini to‘g‘ri rejalashtirib olishga zarurat tug‘iladi. SHunday paytda o‘qituvchiga layf kouching yordam beradi.

Fasilitator – inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, “yordam beruvchi”, “yengillashtiruvchi” degan ma‘noni anglatadi. Ta‘lim-tarbiya maqsadiga erishishni osonlashtirish uchun o‘quvchilarning samarali hamkorligini shakllantiradi.

Menejer – o‘quvchilarning imkoniyatlari va ehtiyojlarini o‘rganish natiajsida ta‘lim-tarbiya jaryoni strategiyasini ishlab chiqadi va jarayonni boshqaradi.

Ekspert – aniq mavzu, masala bo‘yicha hakamlik qiladi. BKM darajasini belgilashda yordam beradi.

Moderator – ma’lum mavzu yuzasidan muhokama, bahs tashkil etadi, o‘zi aralashmagan holda bir echimga erishishga yordam beradi.

Ma’ruzachi – mashg‘ulot uchun o‘quv materiallarini tayyorlaydi, o‘quvchilarni bahsga chorlaydi, o‘rganish jarayonini motivatsiyalaydi.

Maslahatchi – o‘quvchilarning tajribasiga asoslangan holda bilim beradi, mavhum o‘rinlarni aniqlashtirishda yordam ko‘rsatadi.

Trener – o‘quvchilarning o‘zaro muloqotini tashkil etadi, ularning ma’lum malaka va ko‘nkimalarini rivojlantiradi.


Shunday qilib, pedagogik diagnostika sohasida yaratilgan adabiyotlarda o‘qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o‘rniga obyektiv baho berilgan bo‘lishiga qaramasdan, ta’lim-tarbiya jarayonida qanday insonni shakllantirish lozim, ta’lim-tarbiya natijasida inson qanday bo‘lishi kerak, degan savollarga muntazam javob izlash zaruriyati mavjudligicha qoladi va asrlar osha mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan «komil inson tarbiyasi» g‘oyalariga hamohang ravishda rivojlantiriladi.

Ta’lim diagnostikasi –didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash sanaladi. Tashxissiz didaktik jarayonni innovatsion tashkil etish, uni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas.

Pedagogik jarayonni tashxislash orqali ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishga erishiladi.

Didaktik diagnostikaning maqsadi o‘quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarni uning mahsuli bilan bog‘liq holda, o‘z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

Ta’limni baholash yoki tekshirish faqat natijalarni qayd etadi, biroq ularning kelib chiqishini izohlamaydi. Tashxis natijalarini ularga erishish yo‘llari va vositalari, usullari bilan aloqadorlikda baholaydi, ta’lim samarasini ta’minlovchi jarayon va bosqichlarini aniqlaydi. Pedagogik diagnostika quyidagi nazorat shakllarini o‘z ichiga oladi:



5-rasm. Ta'lim diagnostikasining asosiy tarkibiy qismlari

O'quvchilarning BKM va kompetensiyalarining rivojlanganlik darajasini aniqlash pedagogik diagnostikaning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi.

Ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri – **nazorat va hisobga olish**dir. Bu tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. O'qituvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab berishi lozim.

Nazorat umumiy o'rta ta'limda tahsil oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'lchash tekshirish deb ham ataladi.

Tekshirish – nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida teskari aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida obyektiv axborot olinishi, bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashni ta'minlashdir. Tekshirishning maqsadi nafaqat o'quvchining bilim darajasi, sifati, shuningdek, uning o'quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim jarayonida pedagogik tekshirish bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Ya'ni:

1. O'quvchilarning bilim darajasini oldindan aniqlash. Odatda, u o'quv yili boshida o'quvchilar tomonidan avvalgi o'quv yilida o'zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o'quv yilining o'rtasida yangi bo'lim (kurs)ni o'rganishga kirishilganda ham o'tkazilishi mumkin va o'rinli.

2. Har bir mavzuni o'zlashtirish jarayonidagi joriy tekshirishdir. Joriy tekshirish ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o'zlashtirish darajasini tashxislash imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi alohida olingan muayyan vaziyatni o'rganishdir. Bunday tekshirish shakl va metodlari turlicha bo'lib, ular o'quv materiali mazmuni, murakkabligi, o'quvchilarning yoshi va tayyorgarligi, ta'lim bosqichi va maqsadlari, muayyan pedagogik sharoitlarga muvofiq belgilanadi.

3. Oraliq tekshirish bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish. O'quvchilarning o'quv materialining muayyan bob yoki bo'limlari bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli. Yangi mavzuni o'rganish bilan birga o'quvchilar avval o'zlashtirilganlarni takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko'maklashadi, biroq o'quv ishlari bosqichini tavsiflash, bilimlarning mustahkamlik darajasini tashxislash imkonini bermaydi. Tashxisning boshqa shakl va metodlari bilan birga qo'llanilsagina ushbu tekshirish kutilgan samarani beradi .

4. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yaxlit bo'lim yoki kursning alohida mavzusi bo'yicha davriy diagnostika qilish. Uning maqsadi – kursning turli qismlarida o'rganilgan o'quv materialining strukturaviy elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'zlashtirish sifatini tashxislash. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi – tizimlashtirish va umumlashtirish.

5. O'quvchilarning ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini yakuniy tekshirish va hisobga olish. O'zlashtirishning yakuniy hisobi har bir chorak va

o'quv yili oxirida o'tkaziladi. U olingan baholarni qo'shib, o'rtacha arifmetik ballni mexanik tarzda chiqarishdangina iborat bo'lmashligi lozim. Bu, avvalo, mazkur bosqichda belgilangan maqsadga muvofiq tarzda mavjud bilim darajasi (sifati)ni tashxislashdir.


Nazorat, shuningdek, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholash va tahlil qilishni ham o'z ichiga oladi. O'zlashtirish tabellari, sinf, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholar shartli belgilar, kod signallari, xotiralash belgilari va hokazolar baho ko'rinishida qayd etiladi. O'quvchining o'zlashtirish darajasini baholash uchun nazorat yakunlari (natijalari) asos bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishining ham sifat, ham miqdor ko'rsatkichlari hisobga olinadi. Miqdor ko'rsatkichlari ko'proq ballar yoki foizlarda. Sifat ko'rsatkichlari esa a'lo, yaxshi, qoniqarli va hokazo baholovchi fikrlar yordamida qayd etiladi. Har bir baholovchi fikrga oldindan kelishilgan (belgilangan) ma'lum ball, ko'rsatkich (masalan, o'rin – 1, 2, 3, 4 va hokazo) tayinlanadi.

Bahoni amalda egallangan BKM bilan davlat ta'lim standartiga ko'ra o'zlashtirilishi belgilangan BKM umumiy hajmi o'rtasidagi nisbat sifatida tushunish zarur.

Hisobga olish ta'limning muayyan davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirish, xulosalash demakdir.

O'quvchilarning o'zlashtirish natijalarini hisobga olishda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim: 1) o'quv dasturi asosida mavzu va bulimni o'rganishda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama nazorat qilish; 2) har bir yakunlangan mavzu bo'yicha o'quvchilarning faoliyati to'g'risida xulosa chiqarish; 3) o'rtacha arifmetik ma'lumotlarga tayanibgina o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholamaslik; 4) o'quvchilarning mavjud bilimlariga aniq, batafsil ma'lumot (tavsif) berish uchun ularning bir necha o'quv yilidagi statistik o'zlashtirish ma'lumotlarga asoslanib tahlil etish.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari (BKM) hamda kompetensiyalari darajasi diagnostikasi



6-rasm. O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari (BKM) hamda kompetensiyalari darajasi diagnostikasi

Pedagogik diagnostika vazifalaridan biri - o'quvchilarning BKM darajasini aniqlash va baholashdan iborat. Bu o'quv materiallarini o'rganishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi va o'qituvchining o'quv metod hamda usullarini to'g'ri tanlaganini nazorat qiladi. Nazorat qilish vazifasi o'quv materiallarini o'rganishning maqbul yo'llarini topish bilan bog'liqdir.

O'qitish vazifasi o'quvchilarning bilimini tekshirishda aniq ko'rinadi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshirishda o'quvchilarning o'tilgan mavzuni takrorlashga, ular uchun tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni bilish olishlariga imkon tug'iladi.

Nazoratning tarbiyaviy vazifasi shundan iboratki, o'quvchilar tekshirishga tayyor bo'lish uchun darslarni o'z vaqtida tayyorlaydilar, bo'sh vaqtdan unumli foydalanishga harakat qiladilar, intizomga o'rganadilar.

Tekshirish va baholash o'quvchining o'z bilimlari va qobiliyatlarini o'zi mustaqil aniqlashiga ham yordam beradi. O'zidagi kamchiliklarni ko'ra olishga va uni tugatish yo'llarini izlashga ko'maklashadi. Lekin o'quvchining bilimini baholashda o'qituvchi nohaqlikka yo'l qo'ysa, o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida ziddiyat kelib chiqadi. Uy vazifalarining esa haddan ziyod ko'p bo'lishi ham o'quvchilarning yuzaki dars tayyorlashiga olib keladi.

Agar nazorat o'qitish va tarbiyalash vazifalari to'g'ri amalga oshirilsa, shaxsning tafakkurini rivojlantirish hamda his-tuyg'ulari va axloqiy sifatlarini tarbiyalashga imkon tug'iladi. Bu o'z-o'zidan nazoratning rivojlantiruvchi vazifasi sanaladi.


Pedagogikada o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va tashxislash tamoyillari aniqlangan. Ular: **xolislik (obyektivlik), tizimlilik va oshkoralik.**

Xolislik (obyektivlik) tashxis testlari (topshiriqlari, savollari), tashxis jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi, pedagogning barcha ta'lim oluvchilarga do'stona munosabati hamda bilim, ko'nikma, malakalarni baholashdan aniq maqsadning ko'zlanganligi kabi talablardan iborat.

Tizimlilik nazorat ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida – bilimlarning o'zlashtirilishi ularni boshlang'ich idrok etishdan to amalda qo'llashgacha bo'lgan davrlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lishini anglatadi. Bu tamoyil barcha ta'lim oluvchini uning ta'lim muassasasida bo'lgan birinchi kunlaridan boshlab so'nggi kunlarigacha muntazam ravishda tashxisga jalb etilishini ifodalaydi. Ta'lim oluvchining bilimi, ko'nikma va malakalarini ishonchli tekshirish uchun nazoratni muayyan vaqt oraliqlarida muntazam o'tkazib borish talab etiladi.

Oshkoralik barcha ta'lim oluvchilarni aynan bir xil mezonlar bo'yicha ochiq sinovdan o'tkazishni anglatadi. Tashxis jarayonida belgilanadigan har bir o'quvchining reytingi oshkora xarakter kasb etadi. Oshkoralik tamoyili, shuningdek, baholarni e'lon qilish va motivatsiyalashni talab etadi.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish turlari, shakl va metodlari. Har bir fan bo'yicha o'quvchining o'quv faoliyatini nazorat qilish va baholash chorak yoki yarim yillik davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi nazorat turlari orqali baholanadi: **1) joriy nazorat (JN); 2) oraliq nazorat (ON); 3) yakuniy nazorat (YAN).**



7-rasm. O'quvchilarning o'quv faoliyatini diagnostika qilish turlari

Nazoratning turi o'quv ishini tashkil etish shakliga bog'liq. O'qituvchi mavzudan kelib chiqib, nazoratning quyidagi shakllaridan foydalanadi:

1) nazoratning ommaviy (frontal) shakliga ko'ra o'qituvchi o'quvchilarga materialning ma'lum bir hajmi bo'yicha savol beradi, o'quvchilar unga qisqacha javob qaytaradilar. Bu kabi so'rash ko'pchilik o'quvchini bir vaqtning o'zida nazorat qilishni ta'minlaydi va butun guruhni faollashtiradi. Ammo bu nazoratni o'quvchilarning bilim darajasini har tomonlama aniqlash uchun qo'llab bo'lmaydi;

2) nazoratning guruhli shakliga ko'ra o'quvchilarning ma'lum bir qismi nazorat qilinadi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilar guruhiga vazifa beriladi va uni guruh muayyan vaqt oralig'ida bajaradi. Lekin masalani hal qilishda boshqa o'quvchilar ham ishtirok etishlari mumkin.

3) nazoratning individual shaklidan har bir o'quvchining bilim. ko'nikma va malakalari darajasini mukammal tashxislash uchun foydalaniladi. Nazoratning bu shaklida, odatda o'quvchilar javob berish uchun sinf yozuv taxtasi oldiga chaqiriladi:

4) nazoratning uyg'unlashtirilgan (kombinatsiyalangan) shakli individual nazoratni ommaviy va guruhli shakllar bilan

birlashtirishni taqozo etadi. Bu nazoratdan yirik hajmli mavzularni bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilardan so'rash maqsadida foydalaniladi, har bir o'quvchiga alohida topshiriq beriladi va bir vaqtda bir necha o'quvchini tekshirish imkoniyati yuzaga keladi;

5) o'z-o'zini nazorat qilish ta'lim jarayonida ichki qaytar aloqani yuzaga keltirishga xizmat qiladi va psixologik mezonlarga asoslanadi. Uning samaradorligi o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq bo'ladi.

O'quvchilarning faoliyatini nazorat qilish metodlari quyidagilar: **og'zaki tekshirish, yozma tekshirish, amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish, uy vazifalarini tekshirish.**

Og'zaki tekshirish. Bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholashning ancha keng tarqalgan an'anaviy usullaridan biridir. Tekshirish chog'ida o'qituvchi o'quvchilarga o'rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, savol-javob usuli asosida amalga oshiriladi. Ushbu usul ayrim hollarda suhbat usuli deb ham ataladi. Og'zaki tekshirishda o'qituvchi o'rganilayotgan mavzuni alohida qismlarga ajratadi va ularni har biridan o'quvchilarga savollar beradi. Biroq, o'quvchilarning nutqini o'stirish hamda ularning chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lishlari uchun ulardan shu yoki oldingi mavzuni butunlay esga tushirishni talab qilish mumkin.

Keng tarqalganligi va samarali ekanligiga qaramay og'zaki tekshirish ayrim kamchiliklarga ham ega. Chunonchi, uni qo'llash jarayonida: nisbatan ko'p mehnat sarflanadi; dars mobaynida 3-4 nafar o'quvchinigina bilimini tekshirish mumkin.

Yozma tekshirish. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo'lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Unga ko'ra o'qituvchi alohida mavzu yoki o'quv dasturining ma'lum bo'limini o'tib bo'lganidan so'ng o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashni tashkil etadi. Yozma tekshirish nazorat ishi, insho, bayon, diktant va boshqalar yordamida olib boriladi. Ushbu jarayonda o'qituvchining bajarilgan ish bilan tanishib chiqishi, uning sifatini

tekshirishi uchun ko'p mehnat va vaqt sarflanadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida bevosita aloqaning yo'qligi sababli uning fikrlashini kuzatish imkoni bo'lmaydi.

Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish. Amaliy harakatlar (sport, mehnat harakatlari)ning to'g'riligini kuzatish yoki olingan natijalarga tayanishdan iborat bo'ladi. Tekshirishning bu shaklidan o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarini hisobga olishda keng foydalaniladi.

Uy vazifalarini tekshirish. O'quvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilish uchun ular tomonidan uyga berilgan vazifalarning bajarishlarini tekshirish katta ahamiyatga ega. Uy vazifalarini tekshirish o'qituvchiga o'quvchilarning o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabatini, o'rganilgan materialni qanchalik egallaganligini, uy vazifalarini bajarishdagi mustaqillik darajasini aniqlashga imkon beradi.

Test. Aniq maqsad asosida muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Pedagogik amaliyotda testning bir qator afzalliklari ko'zga tashlanadi. Ular quyidagilardir: 1) nazorat uchun vaqtning kam sarflanishi; 2) nazariy va amaliy bilim darajasini obyektiv sharoitda aniqlash imkonining mavjudligi; 3) bir vaqtda ko'p sonli o'quvchilar bilan nazoratni tashkil etish mumkinligi; 4) bilim natijalarining o'qituvchi tomonidan qisqa muddatda tekshirilishi; 5) barcha o'quvchilarga bir xil murakkablikdagi savollar berilib, ular uchun bir xil sharoitning yaratilishi.

O'quvchilar bilimini baholashning besh balli tizimining eskirganligi, zamon talablariga javob bera olmaganini uni reyting tizimi asosida baholash uslubi bilan almashtirishni taqozo etdi.

Reyting (inglizcha "baholash", "tartibga keltirish") **nazoratda** o'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilishning yuqorida keltirilgan metodlari bilan birga test usulidan ham samarali foydalanilmoqda. Test so'rovidan nafaqat o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, balki 1993-yildan boshlab

O'zbekiston Respublikasida abituriientlarni oliy o'quv yurtlariga tanlov asosida qabul qilish jarayonida ham samarali foydalanib kelinmoqda.

Reyting tizimi yana bir qator afzalliklarga ega. Masalan: baholash tizimi imkoniyatlarini kengaytirish; o'quvchi bilimni obyektiv aniqlash; ta'limni standartlashtirish imkoniyatini ta'minlash; DTSda ko'zda tutilib, o'quv dasturiga kirgan majburiy ixtiyoriy BKMni to'la o'zlashtirilishini ta'minlash; o'quvchilarda mustaqil bilim olish, erkin fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish; o'quvchilarda bilimlarni ixtiyoriy o'zlashtirish, kamchiliklarni bartaraf etish uchun mustaqil ishlash imkoniyati yaratiladi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning BKMni va 2017-yilning 6-fevralidan boshlab tayanch va fanga oid kompetensiyalarining shakllanganlik darajalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalari, shuningdek, sinf. guruhdagi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi. Baholash mezonlarini ishlab chiqishda o'quvchilarning og'zaki javob berishlari, ko'nikma va malakalariga, kompetensiyalariga alohida-alohida yondashiladi.

O'quvchilarning BKM darajasi quyidagi mezonlarga muvofiq baholanadi:

“5” baho (85-100 ball) qo'yiladi, agar: a) o'quvchi materialni to'liq o'zlashtirib olgan bo'lsa; b) o'rganilgan mavzu bo'yicha asosiy ma'lumotlarning mohiyatini ochib bera olsa; v) egallangan bilimlarni amalda qo'llay olsa; g) o'rganilgan mavzuni bayon qilishda, o'zma ishlarda xatolarga qo'l qo'ymasdan, ma'lumotlarni tushuntirib bera olsa qo'yiladi.

“4” baho (71-84 ball) qo'yiladi, agar: a) o'quvchi o'rganilgan mavzuning mohiyatini bilsa; b) o'qituvchining savollariga qiynalmasdan javob bera olsa; v) egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olsa; g) og'zaki javob berishda jiddiy xatolarga yo'l qo'ymasdan, o'qituvchining qo'shimcha savollari bilan xatolarini to'g'rilay olsa hamda yozma ishda uncha jiddiy bo'lmagan xatoga yo'l qo'yilsa;

“3” baho (55-70 ball) qo‘yiladi, agar: a) o‘quvchi o‘rganilgan mavzuni o‘zlashtirgan, lekin mustaqil tushuntirish berishda o‘qituvchining aniqlashtiruvchi savollariga ehtiyoj sezsa; b) savollarning mantiqiy tuzulishini o‘zgartirib berganda, javob berishga qiynalsa; v) yozma ishda xatolari bor bo‘lsa.

“2” baho (0-54 ball) qo‘yiladi, agar: o‘quvchi o‘rganilgan mavzu haqida tushunchaga ega bo‘lsa-da, biroq, uni o‘zlashtirmasa, yozma ishda qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘ysa.

Zamonaviy didaktika jadal rivojlanib, o‘zgarayotgan jamiyatning talablari va ta’limdagi amaliy ishlanmalarni aks ettiruvchi yangi yondashuvlar, ta’lim berish texnologiyalari bilan boyitilmoqda.

Ta’lim berishning nazariyasi va amaliyotida o‘quvchilarning bilim olish harakatlarini faollashtirish eng dolzarb muammolardan biri sanaladi. Keyingi vaqtlarda pedagoglarning diqqati bilim orttirishning muloqot yuritish shakliga asoslangan o‘qitishning interfaol shakl va uslublarini o‘zlashtirishga qaratilgan. Ta’lim berish jarayoni quyida ko‘rsatilgan talablarga amal qilgan taqdirda samarali bo‘lishi va yaxshi natijalar berishi amalda isbotlangan:

- o‘quvchilar ta’lim olish uchun ochiq va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan munosabat va hamkorlikka faol kirishib ketganlarida;
- o‘z faoliyatini tahlil qilish va shaxsiy salohiyatini amalga oshirish uchun imkonga ega bo‘lganlarida;
- ular yaqin vaqt ichida o‘z hayoti va professional faoliyatida duch kelishi muqarrar bo‘lgan vaziyatga amaliy jihatdan tayyorlanib olishlariga imkoniyatlari bo‘lganida;
- o‘zlariga ishonishlari, o‘zlarini ifodalashdan qo‘rqmasliklari, xatoga yo‘l qo‘yganda ham ular bu faoliyatlari uchun muhokama qilinmasligi va salbiy baholanmasligini bilganlarida.

Ta’lim olish jarayonining barcha ishtirokchilarining muloqot, kooperatsiya va hamkorlik qilishiga asoslangan bilim berishning

interfaol tartibi qo'llanilganda, yuqorida keltirilgan talablarning deyarli barchasiga amal qilinadi.

O'quvchilarda kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini diagnostika qilish. O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni Davlat ta'lim standarti talablari asosida tashkil etiladi va uning bajarilishi yuqorida ko'rsatilgan barcha muassasalar uchun majburiydir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori, "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori asosida tuzilgan DTSda ko'rsatilishicha, umumiy o'rta ta'limning malaka talablari umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablardan iborat bo'lib, u quyidagilardan tashkil topadi:

bilim – o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

ko'nikma – o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish;

malaka – o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

kompetensiya – mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Bundan tashqari baholash tizimi – davlat ta'lim standarti bo'yicha umumiy o'rta ta'limning malaka talablarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi darajasini hamda umumiy o'rta ta'lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat. Shundan kelib chiqib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchi shaxsini har tomonlama tashxislash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Tashxislash obyektni tanlash;

Tashxislash uslubini belgilash;

Tashxislash jarayonini o'tkazish;

Tashxislash natijalarini tahlil qilish;

Tahlil asosida tavsiyalar va tadbirlar ishlab chiqish;

O'quvchi bilan individual ishlash mazmunini belgilash va amalga oshirish

Qayta diagnostika qilish ta'lim jarayonidagi o'zgarishlarni aniqlash.

Y.M.Asadov ta'kidlashicha, "pedagogik tashxislash diagnostika obyektining rivojlanish darajasini aniqlashdir. Pedagogik-psixologik tashxislash ta'lim jarayonining barcha jihatlarini qamrab oladi". Olimning fikricha, u quyidagi maqsadlarga yo'naltiriladi:

1) Ta'lim natijalarini baholash, ichki va tashqi tomondan korreksiyalash;

2) O'qitish sifatini o'rganish, undagi bo'shliqlarni aniqlash;

3) O'quv jarayonining keyingi bosqichlarini rejalashtirish va h.k.
(10 bet)

Y.M.Asadovning fikriga qo'shilgan holda qo'shimcha qilish mumkinki, pedagogik-psixologik tashxislash o'qish va o'qitishda erishilgan yutuqlarni rag'batlantirish orqali subyekt faoliyatining ijobiy motivatsiyalarini rivojlantirish, ta'lim-tarbiya jarayonini optimallashtirishga ham yo'naltiriladi.

Dunyoning rivojlangan davlatlari hamda mamlakatimizda davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlarini yaratish tajribasidan kelib chiqib, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limning 16 ta umumta'lim fanlari bo'yicha kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirilgan DTS va o'quv dasturlari ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

Kommunikativ kompetensiya — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni,

muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi — mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi — doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi — jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi — aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini engillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni

nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar umumta'lim fanlari orqali o'quvchilarda shakllantiriladi.

Shuningdek, har bir umumta'lim fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Umumiy o'rta ta'limda o'quvchi shaxsini har tomonlama diagnostika qilishda quyidagi testlardan samarali foydalanish mumkin: etuklik testi, kreativlikni aniqlash testi, biror mezon bo'yicha test, proektiv test, intellekt testi va boshqalar.

Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarida Ona tili va adabiyot o'quv predmetlariga oid fan kompetensiyalarining shakllanganlik darajasini aniqlash uchun ularning **nutqiy kompetensiyalari** (*tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish*) tashxislanadi. Bunda o'quvchilar DTSda ko'rsatilgan mezonlar(A1, A1+, A2, A2+, V1, V1, V1+) asosida baholanishi nazarda tutiladi.

Diagnostikada keng tarqalgan test metodlari asosida o'quvchilari fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga hamda nutqiy kompetensiyalarini rivojlanish darajasini o'rganishga e'tibor qaratiladi.

Bir necha variantda taqdim qilingan testlar orqali o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlar (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni)ning rivojlanganlik darajasi tashxislanadi. O'quv jarayonini tashkil etishning umumiy diagnostikasi natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars o'tish ta'limning samarali modellaridan biri bo'lib qolmoqda.

An'anaviy dars - muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'lim modelidir.

O'quv materiali yangi va ancha murakkab bo'lganda, an'anaviy dars - ko'p hollarda ta'lim jarayonining birdan-bir metodi bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki an'anaviy darsda ta'lim jarayonining markazida o'qituvchi turadi. Shu bois, ba'zida an'anaviy darsni markazida o'qituvchi turgan o'qitish usuli deb ham atashadi.

Markazda o'quvchi bo'lgan o'quv jarayonining, darsning maqsadi va uning ijobiy jihatlari quyida keltirilgan asoslarga mos ravishda diagnostika qilinadi:

- O'quvchining o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirib borish layoqatini diagnostika qilish
- Ilgari egallangan bilimlarni ham inobatga olish layoqatini diagnostika qilish
- o'qish jarayoni tezligini muvofiqlashtirish darajasi
- o'quvchi tashabbusi va majburiyatini qo'llab-quvvatlash darajasi
- Amaliyot orqali o'rganish, ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta'minlashga bo'lgan motivatsiya
- O'qish jarayonini tugri yo'lga qo'yish, o'qituvchi-o'quvchilar uchun o'quv jarayonini engillashtiruvchi metodlardan foydalanish darajasi, o'quv jarayonini baholashni diagnostika qilish.

Dars samaradorligini diagnostikasi asosida pedagogik jarayon kemptiklari vaqtida korreksiyalanadi. Dars interfaol ko'rinishda tashkil qilinishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning o'quv predmetiga bo'lgan motivatsiyasi muttasil rag'batlantirilib turilishi ta'minlanadi. O'quv jarayonini diagnostika qilishda bir qator o'ziga xos ko'rsatkichlarga e'tibor qaratiladi:

a) o'quv jarayonining etakchi maqsadi – bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirilishi;

b) o'quvchilarning bilish layoqatlarini rivojlantirish, bilim, ko'nikma va malakalar vositasida ularning bilish mustaqilliklarini shakllantirish.

v) didaktik jarayonning mazmuni – barcha dasturlar uchun mazmun yagona hisoblanadi;

g) o'quv jarayoni doirasida – o'rgatish faoliyati davomida o'qituvchining yo'naltiruvchilik, rahbarlik, maslaxat beruvchilik mavqei namoyon bo'ladi;

e) o'quv jarayoni doirasida pedagogik faoliyat o'quvchilarning etakchilik mavqei bilan uyg'unlashadi. Bunda pedagogik diagnostika ta'lim-tarbiyaning sifatli ekanligini o'lchashda qo'l keladi:

- o'quv jarayonining davlat ta'lim standartlari, didaktik talablar va me'yorlarga muvofiqligini tekshirish va aniqlash;
- o'quv jarayonini tashkil etishni aniqlash;
- o'quv jarayonida qo'yilgan maqsadning aniqligi;
- o'qituvchi hamda o'quvchilar orasida teskari aloqaning mavjudligi;
- belgilangan tartibga muvofiq tarzda o'quv rejalari va dasturlarning aniq bajarilishi;
- o'quv jarayonida ijtimoiy-ruhiy qulaylikning mavjudligi;
- valeologik tarbiyaning mavjudligi, belgilangan o'quv yuklamalarining o'quvchilar salomatligiga xavf tug'dirmasligi kabilar.

O'quv jarayonini tashxislash uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- o'quv jarayonining ilmiy-didaktik asoslarga tayangan holda tashkil etilganligi;

umumiy o'rta ta'lim muassasasi rahbariyati va metodistlarning o'quv jarayonini tahlil qilishlariga asoslangan holda darsning sifatiga bergan baholari;

- o'quv jarayonining texnologiyalashtirilganlik darajasi;
- o'quv jarayoni asosiy parametrlarining davlat ta'lim standartlari va didaktik me'yorlarga muvofiqligi; bunda quyidagilar hisobga olinishi kerak: sinfnig to'liq emasligi, o'qituvchining haftalik yuklamasi, o'quv maydoni bilan ta'minlanganlik darajasi, o'quv jarayonining texnik vositalar bilan ta'minlanganligi, o'quv jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan kutubxona fondining mavjudligi, har bir o'quv predmeti mazmuniga mos keladigan o'quv-metodik majmualarning mavjudligi kabilar;

- sinfdan tashqari o'quv ishlarini tashkil etish va o'tkazish sifati;
- o'quv jarayonining maromiyligi, ma'muriyat harakatlarining muvofiqligi, qo'yilgan maqsadga erishish uchun o'qituvchi hamda o'quvchilar harakatlarining yo'naltirilganligi, o'quv va taqvimiy

rejalarning bajarilishi, maqsadli hamda umumlashgan dasturlarning ijrosi ta'minlanganligi;

- asosiy parametrlarning barqarorlik darajasi, o'quv jadvali, o'quv rejasi va dasturlarning aniq bajarilganligi;

- yuklamalarning o'quvchilar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'yilmasligi;

- o'quv jarayonida ta'minlanadigan ijtimoiy-psixologik qulaylik darajasi kabilar.

O'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish uchun diagnostikada quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni har uch yilda modernizatsiyalashtirilganligi;

- umumiy o'rta ta'lim muassasasida o'quv dasturlari takomillashtirilganligining natijasi;

- mualliflik dasturlarining ishlab chiqilganligi, amaliyotga tatbiq etilganligi, ommalashtirilganligi;

- tahrir qilingan, integrallashtirilgan dasturlarning yaratilganligi va joriy etilganligi;

- kengaytirilgan va chuqurlashtirilgan ta'lim dasturlarining yaratilganligi;

- tashkiliy yangiliklarning mavjudligi va ta'lim jarayonida qo'llanilganligi;

- pedagogik monitoring yangi shakllarining o'zlashtirilganligi;

- o'quvchilarni rivojlantiruvchi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari va axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga tatbiq etilganligi;

- yakunlangan pedagogik tajriba-sinov natijalarining mavjudligi kabilar.

Pedagogik diagnostikada o'qitish sifati va o'qituvchilarning shaxsiy yutuqlarini tashxislashni taqoza etadi:

- ta'lim jarayonini takomillashtirish sohasidagi yutuqlari;

- o'qituvchilarning metodik, ilmiy, ixtirochilik ishlari;

- o'qituvchilarning turli tanlovlarda ishtirok etish darajalari;
- shaxsiy-ta'limiy quvvatlarini oshirishga yo'naltirilgan faoliyatlari;
- mustaqil bilim olish va o'zlarini takomillashtirish yo'nalishidagi ishlari kabilar.

O'qitish sifatini oshirishda asosiy o'rin egallaydigan holatlardan yana biri o'quv rejasining bajarilishi diagnostikasidir. O'quv rejasining bajarilganligini bir qator holatlar tasdiqlaydi:

- me'yorlar va ularning bajarilishi;
- o'quv rejasining alohida o'ziga xos yo'nalishlari ijrosi;
- ta'lim sohalari;
- sinflarni ixtisoslashtirish va maxsus yo'nalishlarni tashkil etish;
- o'quv rejasidagi maktab komponentiga rioya qilish;
- o'quvchilar bilan individual ishlash ko'lami;
- o'quvchilarning tanlovlariga asoslangan holda chuqurlashtirilgan ta'lim bilan qamrab olish;
- o'quvchilarning o'quv yuklamalari ko'lami kabilar.

Pedagogik diagnostikada o'qitish sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan quyidagi tarkibiy qismlar ajratiladi:

1. Moyillik hosil qiluvchi – o'quvchilarni faol o'rganish jarayoniga jalb qiluvchi va bilish faoliyatining barcha bosqichlarida faollikni saqlab qoluvchi qiziqishlari, ehtiyojlari, mayllari.

2. Yo'naltiruvchi – o'quvchilarning o'quv-biluv maqsadini amalga oshirish uchun uni rejalashtirishlari va bashorat qilishlari.

3. Mazmunli-operatsion nuqtai nazardan - axborotlarni qabul qilish, saqlash va qayta ishlash maqsadida etakchi bilimlar va usullarni o'zlashtirish.

4. Quvvatiga ko'ra – diqqat, iroda va kechinmalar.

5. Nazariy-tahliliy jihatdan – o'quvchilarning o'z-o'zlarini mustaqil nazorat qilishlari, bajarilgan harakatlarning borishi va natijalarini mustaqil baholashlari, o'zgalarning bahosiga tayangan holda o'zlari va faoliyatlariga bergan baholari, o'rganish jarayonlarini mustaqil boshqarishlari va tuzatishlar kiritishlari, o'z-o'zlarini boshqarishlari kabilar.

O'qitish sifatini diagnostika qilishda ta'lim muassasasi faoliyatining ijtimoiy samaradorligi ham aniqlanadi. Bu quyidagilarda namoyon bo'ladi:

-o'quv jarayoni subyektlarida mazkur jarayondan qoniqishning hosil bo'lishi;

-o'quv jarayonining tashkil etilishi, borishi, natijalari va sifatining namoyon bo'lishi;

-o'quv jarayoni subyektlarining o'zaro hamkorligi;

-umumiy o'rta ta'lim muassasasining mavjud mavqei;

-umumiy o'rta ta'lim muassasasida amal qiladigan strategiyalar kabilar.

Shunga ko'ra, ta'lim muassasalari va ta'lim boshqaruvi idoralari tomonidan o'qitish sifatining holati axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'qitish sifati monitoringi asosida xolis baholanishi maqsadga muvofiq. Natijada pedagogik diagnostika yordamida ta'lim-tarbiya sifatiga salbiy ta'sir etadigan omillar o'z vaqtida bartaraf etiladi hamda o'quv dasturlari, darsliklarni korreksiyalash imkoniyati vujudga keladi.



MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR

Mavzu yuzasidan testlarni eching:

1. Mazmun–mohiyatiga qarab pedagogik diagnostika quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

- A) Maqsadga qaratilganlik, konstantlik, nazorat;
- B) Kuzatuv, solishtirish, tabaqalashtirish;
- C) tizimlilik, pog'onaviylik, konstantlik;
- D) Ixtiyoriylik, maqsadga yo'naltirilganlik, solishtirish.

2. O'qituvchining diagnostik faoliyati – bu...

- A) Kasbiy mahoratning namoyon bo'lishi
- B) O'quv jarayonini samarali tashkil etish mahorati

C) O‘z mutaxassisligi va ixtisosligi doirasida pedagogik diagnostika mohiyatini chuqur bilishi hamda diagnostik metodlardan samarali foydalanishi

D) Sohaga doir bilim, ko‘nikma, malaka, qarashlar majmui

3. O‘qituvchining dunyoqarashi asnosida ya’ni qadriyat va o‘zini anglashi deganda nima tushuniladi?

A) o‘qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati

B) atrof-muhitdagi voqea va hodisalarni mohiyatini ko‘ra olish

C) pedagog sifatida o‘z fikrini asoslay olish

D) o‘qituvchining o‘quv va boshqa faoliyatlaridagi o‘z-o‘zini anglash mexanizmini ta’minlaydi

4. O‘qituvchining umummadaniy kompetensiyasi – bu...

A) milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo‘lish;

B) mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oilasiga, urf–odatlariga hurmat; ijtimoiy ko‘nimalarga ega bo‘lish.

C) Ilm fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta’sirini angalay olishi va o‘quvchi yoshlarga tushuntira olishi

D) Barchasi to‘g‘ri

5. O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi- bu...

A) bilim, ko‘nikma, malakaga ega bo‘lishi, ta’lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o‘rnata olishi, o‘z fanini mukammal bilishi

B) Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo‘lishi, o‘quvchilarda motivatsiyani shakllantirishi

C) AKTni bilishi; ta’lim muhitiga yangilik kiritishi;

D) Xorijiy tillardan birini bilishi

6. Kompetensiya turlari to‘g‘ri belgilangan qatorni ko‘rsating

a) Kasbiy, shaxsiy, ma’naviy, maxsus

b) Kasbiy, shaxsiy, umummadaniy, maxsus

c) Maxsus, umummadaniy, kasbiy, didaktik

d) Kasbiy, shaxsiy, kommunikativ, maxsus

7. Kasbiy kompetensiyaning shakllanish bosqichlari qaysilar?

a) O‘z-o‘zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash

- b) Faoliyatini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash
- c) O‘zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish
- d) barchasi to‘g‘ri

8. Maxsus kompetensiya – bu...

- a) Madaniyatli bo‘lish
- b) Sohaga doir maxsus metodlarni bilish
- c) Ma’suliyatlilik
- d) Ishchanlik va insonparvarlik

9. O‘qituvchining shaxsiy kompetensiyasi- bu...

- a) insonparvarlik, etakchilik, faollik, tashabbuskorlik
- b) Turli yosh xususiyatlarini bilishi
- c) Ma’lumotlilik
- d) Kasbiy malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lishi

10. O‘qituvchining umuminsoniy qadriyatlarga egaligi, mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etishi, boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilishi qaysi kompetensiya turiga mansub?

- A) O‘qituvchining maxsus kompetensiyasi
- B) O‘qituvchining shaxsiy kompetensiyasi
- C) O‘qituvchining umummadaniy kompetensiyasi
- D) O‘qituvchining maxsus kompetensiyasi

11. Fasilitator (ingliz tilida: “yordam beruvchi”, “engillashtiruvchi”)- bu...

- A) ta’lim-tarbiya maqsadiga erishishni osonlashtirish uchun o‘quvchilarning samarali hamkorligini shakllantiradi
- B) Maxsus, umummadaniy, kasbiy, didaktik kompetensiyaga ega shaxs
- C) O‘z-o‘zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglashni engillashtiruvchi
- D) Faoliyatini rivojlantirishni rejalashtirish maqsadida yordam beruvchi

12. Ta’lim menejeri – bu...

A) o'quvchilarning imkoniyatlari va ehtiyojlarini o'rganish natijasida ta'lim-tarbiya jarayoni strategiyasini ishlab chiqadi va jarayonni boshqaradi

B) Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lgan, ta'lim jarayonini loyihalashtiruvchi

C) ta'lim jarayonida o'quvchilarda motivatsiyani shakllantiruvchi

D) AKTni bilib, ta'lim muhitiga yangilik kirituvchi

13. Ta'lim jarayonida ekspert vazifasi quyidagilardan iborat:

A) BKM darajasini belgilashda yordam beradi, aniq mavzu, masala bo'yicha hakamlilik qiladi

B) o'quvchilarning imkoniyatlari va ehtiyojlarini o'rgandi

C) ma'lum mavzu yuzasidan muhokama, bahs tashkil etadi

D) o'quvchilarning tajribasiga asoslangan holda bilim beradi

14. Moderator bu - ...

A) ma'lum mavzu yuzasidan muhokama, bahs tashkil etadi, o'zi aralashmagan holda bir echimga erishishga yordam beradi

B) aniq mavzu, masala bo'yicha hakamlilik qiladi

C) BKM darajasini belgilashda yordam beradi

D) mashg'ulot uchun o'quv materiallarini tayyorlaydi

II. Quyida Ona tili va adabiyoti o'quv predmetlariga oid fan kompetensiyalarining shakllanganlik darajasini aniqlash uchun 8-10-sinf o'quvchilariga taqdim qilinadigan testlardan namunalar keltirilgan. Testlarni tahlil eting va o'quv predmetlariga oid fan kompetensiyalarining shakllanganlik darajasini aniqlash uchun tuzilgan testlar tahsil oluvchilarda qanday xususiyatlarni (lingvistik, nutqiy, savodxonlik va b.) aniqlashga mo'ljallanganligini bayon eting

1. Inversiya hodisasi deb nimaga aytiladi?

A. * Gap bo'laklarining o'rin almashtirish hodisasi inversiya deyiladi

B. Bosh gaplar bilan ikkinchi darajali bo'laklar bog'lanishi

C. Ega va kesimning bog'lanishi

D. Yordamchi soʻzlarning ishlatilishi.

2. Soʻz oʻzgartiruvchi affikslar qaysi qatorda koʻrsatilgan?

- A. * Kelishik, egalik, shaxs-son affikslari.
- B. Egalik va kelishik qoʻshimchalari
- C. Kelishik va yordamchi soʻzlar
- D. Kelishik va shaxs-son affikslari

3. Otlashgan sifat ishtirok etgan gapni aniqlang?

- A. * Yaxshining soʻzi- qaymoq, yomonning soʻzi-toʻqmoq
- B. Doʻkonda Shokir otadan boshqa hech kim yoʻq edi
- C. Har kim ekanini oʻradi
- D. Oʻzbekistonning joʻshqin, shoʻx bahori choʻlga gul va koʻkat sepini yoygan.

4. Ritorik savolni toping?

- A. * Yaxshini kim sevmaydi deysiz?
- B. Bugun uni koʻrasiz-a?
- C. Sizni bu masalalar qiziqitirmaydimi?
- D. Uyda mehmon bormi?

A. Navoiy fikriga koʻra farzandlarning ilmu odob oʻrganishida muhim rol oʻynovchi zot kim hisoblanadi?

- A. *Ustoz-muallim
- B. Ota-ona
- C. Aka-uka
- D. Doʻst-oʻrtoq.

5. “Yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarni esa yomonliklariga topshirdim. Kim menga doʻstlik qilgan boʻlsa, doʻstlik qadrini unutmadim va unga muruvvat, ehson, izzatu ikrom koʻrsatdim ”.

Bu soʻzlar qaysi kitobdan olingan?

- A.* Amir Temur, “Temur tuzuklari”
- B. Saʼdiy, “Guliston”
- C. A.Navoiy, “Hayrat ul-abror”
- D. Abu Nasr Forobiy, “Fozil odamlar shahri.

6. Bir adabiy turga mansub boʻlgan asarlar qaysi javobda koʻrsatilgan?

A.* Gʻ.Gʻulom “Shum bola”, “J.Svift “Gulliverning sayohatlari”, A.Qahhor “Oʻtmishdan ertaklar”

B. Hoja “Mifton ul-adl”, A. Navoiy “Hayrat-ul abror”, A. Xorazmiy “Gulshan ul-asror”

C. Muqimiy “Tanobchilar”, Gulxaniy “Zarbulmasal”, A. Navoiy “Hayrat-ul abror”

D. P.Qodirov “Yulduzli tunlar”, M. SHayxzoda “Toshkentnoma”, Z. M. Bobur “Boburnoma”.

7. Adabiyot va adabiy oʻqish mashgʻulotlariga aloqador boʻlgan toʻgarak turlari qaysi javodba toʻgʻri berilgan?

A.* Adabiy-ijodiy toʻgarak, drama toʻgaragi, ifodali oʻqish va badiiy ijod toʻgaragi;

B. Drama toʻgaragi, adabiy vstavkalar toʻgaragi;

C. Adabiy ekskursiya, kitobxonlar toʻgaragi;

D. Kitobxonlar toʻgaragi, drama toʻgaragi, sheʼrxonlar toʻgaragi.

2-variant

1. Oʻzbek adabiyotida drama janriga asos solgan adibning nomini koʻrsating

A.* Mahmudxoʻja Behbudiy

B. Abdulla Avloniy

C. Hamza Hakimzoda Niyoziy;

D. Sadriddin Ayniy.

2. Qaysi javobda Xamza Hakimzoda Niyoziyning pedagogik asarlari toʻgʻri berilgan?

A. *«Engil adabiyot», «Qiroat kitobi

B. «Ayn-ul-adab», «Ganjinai xikmat»

C. «Lugʻati sitti-al-sina», «Jomeʼ-ul xutut»

D. «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim»

3. Choʻlponning «Koʻngil» sheʼridagi etakchi gʻoyani belgilang.

A. * SHaxs erki

V. Doʻstlik

C. Ishq-muhabbat

D. Fojea.

4.Nuqtalar o‘rniga berilgan qo‘shimchalarning qaysilari qo‘yiladi?

«arava..... quruq olib qochish siz... yarashmay.. .»

- A. * –ni, -ga, -di
- B. –da, -ning, -sa
- C. –ga, -siz, -gan
- D. –dir, -lar, -da.

5. Faqat otdan yasalgan otlar aks etgan javobni aniqlang.

- A. * Navbatchi, paxtakor, soatsoz
- B. taroq, devoriy, kiyim
- C. bahorgi, devoriy, kiyim
- D. qo‘rqoq, qaynatma, o‘tkir.

6. Tushum kelishigining belgisiz shakli ishlatilgan so‘zlardan iborat qatorni toping.

- A. * Rasm ... chizdim, xat... yozdim, she’r... o‘qidim
- B. Bepoyon... dalalar, tiniq... suvlar..., zilol.. daryolar...
- C. Gul... hidi, daraxt...kurtagi, metro... bekati
- D. Paxta ... terish mashinasi, yuk ... tashib oling

7. Quyidagi gapni berilgan gaplarning qaysi biri bilan almashtirib bo‘ladi?

Kechagi kun bugungi kundan issiqroq.

- A. * Bugungi kun kechagi kundan salqinroq
- V. Kechagi kun bugungi kunga qaraganda salqinroq
- S. Bugungi kun kechagi kundan issiqroq
- D. Kechagi kun ham bugungi kundan salqin.

3-variant

1.Alisher Navoiyning "Sher va Durroj" masali qaysi tasviri vosita asosida yaratilgan?

- A. *Sifatlash
- B. Majoz
- C. Mubolag‘a
- D. O‘xshatish

2. Alisher Navoiy ijodiga mansub mazkur asar mumtoz lirikaning qaysi janrida yozilgan?

Jahon ganjiga shoh erur ajdaho,
Ki, o‘tlar sochur qahr hangomida.
Aning komi birla tirilmak erur,
Maosh aylamak ajdaho komida.

- A. *Qit’a
- B. Murabba’
- C. Tuyuq
- D. Masnaviy.

3. Narsa, hodisalar va predmetlarning u yoki bu belgisining o‘xshashligiga asoslangan ko‘chim qanday nomlanadi?

- A. *O‘xshatish
- B. Sifatlash
- C. Sinekdoxa
- D. Metafora.

4. O‘tmish yoki zamondosh shoirdan ilhomlanib, uning biror bayti asosida o‘sha qofiya va radifda g‘azal bitilsa, u qanday she’riy san’at hisoblanadi?

- A. *Tazmin
- B. Lutf
- C. Iyhom
- D. Tajnis.

5. She’rda o‘tmishning mashhur tarixiy yoki adabiy qaxramonlari nomini keltirish san’ati qanday nomlanadi?

- A. *Talmeh
- B. Tazmin
- C. Tajnis
- D. Tashbeh.

6. Ushbu baytda Bobur badiiy tilning qaysi ko‘rinishidan foydalangan?

Bobur, bo‘lib turur ikki ko‘zim yo‘lida to‘rt.
Kelsa ne bo‘ldi qoshimga bir bir mango mango.

- A. *Ibora
- B. Maqol
- C. Hikmat
- D. Qochirim

7. Quyidagi parchada she'riy san'atlardan qaysi biri qo'llangan?

Bu labi jonbaxshu bu husni malohat sendadur
Yo seni Yusuf desunlar, yo Masiho, yo Habib.

- A. *Talmeh
- B. Tazmin
- C. Tajnis
- D. Husni ta'lil

8. Mumtoz lirikaning masnaviy shaklida yozilgan asarni belgilang.

- A. *"Hayrat ul- abror" asari
- B. "Sayohatnoma" asari
- C. "Sarguzashtnoma" asari
- D. "Boburnoma" asari

SAVOLLARGA JAVOB BERING:

1. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy Dasturida o'qituvchiga quyiladigan talablar to'g'risida fikr bildiring.
2. Zamonaviy o'qituvchining diagnostik faoliyati qanday namoyon bo'ladi?
3. O'qituvchidagi pedagogik mahorat qanday namoyon bo'ladi?
4. " Diagnostik faoliyat" deganda nima tushuniladi?
5. O'quv-tarbiya jarayonida gumanitar omilni ta'minlaydigan o'qituvchining shaxsiy sifatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
6. O'qituvchining ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati qanday belgilanadi?

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR:

- Abdullaeva SH. A. Pedagogika.- Toshkent: Fan va axborot texnologiyalari, 2012.-308 bet.
- Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. – T.: Universitet, 2000.
- Ochilov M. O‘qituvchining muomala madaniyati. – Qarshi: Nasaf, 2012.-276 bet.
- Pranskune E., Grudene S va boshq. Новые роли и компетенции учителя. Литва.- 2011y. Yunisef. Seminar dasturlari.
- www.google.ru.



6-§. TA'LIM MUASSASASIDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Pedagogik diagnostika faoliyatini tashkil etish. Pedagogik diagnostika va korreksiyaning asosiy vazifasi–barcha ta’lim oluvchilarning qobiliyatini maksimal darajada va har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydigan shart–sharoitlarni aniqlashdan iborat. Shu bilan bir qatorda, muayyan sohalarida chuqur qiziqishi, moyilligi va qobiliyatini namoyon qilayotgan o‘smirlarni ham aniqlash va ularga bundan keyingi rivojlanishi uchun barcha shart–sharoitlarni yaratib berish zarur. Bu vazifani differensiyalashgan (keng ma’noda olganda) ta’limning turli shakllari bajarishi mumkin. Bu yerda maxsus maktablar va sinflarning har xil tiplari (matematikaviy, fizikaviy, kimyo,biologiya, ingliz tili va boshqa tiplari), maktab ilmiy jamiyatlari, bilim beradigan markazlar va boshqalar ko‘zda tutiladi.

Pedagogik diagnostikani o‘tkazish o‘qituvchi professional aktivligining bir ko‘rinishi bo‘lib, bunda ta’lim va tarbiya vazifalarini o‘qituvchi hamda o‘quv – tarbiya jaraënining boshqa ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro ta'sir vositasi bilan hal qilinadi.

Ta'lim muassasasida pedagogik diagnostika faoliyatini tashkil etish maqsadi- ta'lim muassasasi va unda ta'lim olayotgan o'quvchilar, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlar to'g'risida xolisona ma'lumot to'plash, ta'lim jarayonini qulaylashtirish, ta'lim sifatini oshirish, ergonomik xususiyatlarini yaxshilashdan iborat.

Ta'lim muassasasida pedagogik diagnostika faoliyati quyidagilardan iborat:

1. Diagnostika o'tkazilishi lozim bo'lgan hodisa bo'yicha ma'lumot topish uchun tashxislash yo'nalishini belgilash va rejalashtirish;
2. Diagnostikani qaerda va qaysi metodlar asosida o'tkazilishini rejalashtirish va aniqlash;
3. Tashxislanayotgan sub'ekt va ob'ekt xususiyati (yoshi, jinsi va h.k.)dan kelib chiqib, diagnostika algoritmini tuzish va metodlarni tanlash;
4. Natijalar ishlovini o'tkazish; olingan ma'lumotlarni umumlashtirish va tavsiyalar ishlab chiqish va h.k.

O'qituvchining diagnostika faoliyati ishi - bu ta'lim oluvchilarning shaxsiy va psixologik muammolarini o'z vaqtida aniqlashni va ta'lim tashkiloti sharoitida psixologik-pedagogik yordam ko'rsatishni ta'minlaydigan talabalarni har tomonlama tekshirishdan iborat. O'rganish davomida maktab psixologlari, yoki sinf raxbari o'quvchi, uning ota-onasi, sinfdoshlari bilan suhbat uyushtirishi kerak. So'ng, maqsadga qarab, bir qator sinovlardan, yoki texnikalardan o'tiladi. Bu test savollariga javob berish formatida, yoki tasvirlar bilan ma'lum kartalarni joylashtirish, so'zlarni eslab qolish, assotsiatsiyalar bilan ishlash, yoki, rasm chizish va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Agar, pedagogik diagnostikaning barcha turlarini umumlashtirsa, ularni to'rtta asosiy yo'nalishga bo'lish mumkin: differentsial diagnostika, xarakter va shaxsiy xususiyatlar diagnostikasi, odamlar o'rtasidagi munosabatlar diagnostikasi (masalan, o'qituvchi va o'quvchi; o'qituvchi va ota-ona, o'quvchi va o'quvchi, o'quvchi va jamoa o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tabiatini tashxislash) va ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'zgarishlar diagnostikasi. Oddiy

tashxislash 30 daqiqadan 2 soatgacha davom etsa, murakkab yoʻnalishdagi tashxislash yillab davom etishi mumkin. Masalan, oʻquvchining biron qobiliyatini umumiy holatda aniqlash uchun 10-20 daqiqa davom etadigan anketa, intervyuni tashkil qilish orqali aniqlash mumkin. Oʻquvchilarda biron-bir sifatlarni (mustaqil mushohada qilish, mas'uliyatlilik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega boʻlish va b.) shakllantirish uchun bir muncha muddat talab etiladi. Bunda diagnostik muolajalar uzoq vaqt davom etishi mumkin. Diagnostika maxsus suhbatlar, testlar, anketalar va hatto oʻyinlar yordamida amalga oshiriladi.

Oʻqituvchining diagnostik faoliyati. Oʻqituvchining diagnostik faoliyati quyidagilarda namoyon boʻladi:

- Oʻquvchilarga bilim, koʻnikma, malakalarni, kompetensiyalarni (BKM) rivojlantirishga yordam beradi;
- Turli xil yoʻnalishdagi reja (strategiya)larni qanday qoʻllash kerakligi boʻyicha maslahat beradi;
- Faol qayta aloqani taʼminlaydi;
- Noanʼanaviy usullar bilan oʻquvchilarning harakatlarini qoʻllaydi va mustahkamlaydi;
- Oʻquv faoliyatidagi qiyinchiliklarni engishga yordam beradi;
- Oʻquv faoliyatini individuallashtirishga yordam beradi;
- Oʻquvchilarning oʻquv jarayonidagi ehtiyojlarini tahlil qiladi.

Kasbiy faoliyatni diagnostika qilish bosqichlari:

1. Oʻz-oʻzini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;
2. Oʻzini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash;
3. Oʻzini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish.

Oʻqituvchining diagnostik faoliyatidagi maxsus kompetensiyalar:

Faniga doir maxsus metodlarni bilish;

- Taʼlimni tabaqalashtirish;
- Oʻquvchilar ehtiyojini bilish;
- Turli yosh xususiyatlarini bilish;

O'zbek olimi M.Ochilov "kompetensiya" tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: "kompetensiya-bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarni faoliyatda ko'rinishi ⁴". Kvalifikatsiya esa potensial faoliyatda bilim va ko'nikmaning namoyon bo'lishidir. Demak, kompetensiya ko'rinishlari umumiy va maxsus tarzda namoyon bo'ladi.

O'qituvchining diagnostik faoliyati ko'rinishlari:

1. Dunyoqarash asnosida ya'ni qadriyat va o'zini anglash- o'qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. U atrof-muhitdagi voqea va hodisalarni mohiyatini ko'ra oaldi va tushunadi bunga o'zini yo'naltiradi, pedagog sifatida o'z fikrini asoslay oladi. Muammo echimini topa oladi. Bu kompetensiya- o'qituvchining o'quv va boshqa faoliyatlaridagi o'z-o'zini anglash mexanizmini ta'minlaydi.

2. Umummadaniy–milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo'lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oilasiga, urf–odatlariga hurmat; ijtimoiy ko'nimalarga ega bo'lish. Ilm fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta'sirini angalay olishi va o'quvchi yoshlarga tushuntira olishi.

3. O'quv va bilish jarayoni - o'qituvchining mustaqil bilish faoliyati. Mantiqiy fikrlashi. O'quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko'nikmasini tahlil qila olishi.

4. Ma'lumotga ega bo'lish - pedagogik faoliyati, o'z faniga doir ma'lumotlarni egallash ko'nikmasi.

5. Muloqotchanlik - til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo'lishi, jamoada o'ziga xos o'rinda turishi.

6. Ijtimoiy - foydali mehnat-oilaviy munosabatlar va ma'suliyat, jamiyat rivojidadagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko'nikmalarga ega bo'lish.

7. O'z ustida ishlashi - jismoniy, ma'naviy, intellektual jihatdan o'z-o'zini rivojlantirib borishi. Xissiyotini boshqarish.

¹¹ Очиллов М. Ўқитувчининг муомала маданияти. – Қарши: Насаф, 2012. -66-бет.

O'qituvchining didaktik kompetensiyasi. Didaktik kompetensiya zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetensiya asosini tashkil etadi. Bular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- - O'qitish muhitini yaratish.
- - Mavzu mazmunini yoritishni rejalashtirish
- - O'quv jarayoni boshqarish
- - O'quvchilarning yutuqlari va rivojlanishlarini baholash
- - O'quvchilarga motivatsiya berish va yordam ko'rsatish
- - O'quvchilar bilimini anglash va ularni rivojlantirish

Fanlar bo'yicha diagnostik faoliyati:

Ta'lim sifatini belgilovchi omillardan biri bu o'qituvchining o'z fani bo'yicha kompetensiyaga ega bo'lishidir. U pedagogik moslashuv tizimi asosida namoyon bo'ladi. Bular:

- Ilmiy bilim;
- Turli xil faoliyatni bajara olishi (namuna misol keltira olishi);
- Muammoli vaziyatlarni samarali echimini topishda ijodiy faoliyat asosida yondashish;
- Jamiyat va insonlarga, tabiatga ijobiy emotsional munosabatda bo'lish tajribasi.

Globalashuv sari borayotgan hozirgi dunyoda davlatning xalqaro raqobat jarayoni shartlariga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bunda yuksak taraqqiy etgan davlatlarning asosiy ustunligi - ta'lim tizimining holati bilan aniqlanadigan, shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi bilan bog'liq. Davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi omillar ham aynan ta'lim sohasi rivojlanishiga bevosita bog'liqdir.

O'qituvchining diagnostika faoliyati ta'lim jarayonida katta rol o'ynaydi. Umuman olganda, u to'g'ri tanlash va bolaning ta'lim yo'nalishini qurishga qaratilgan. Bola uchun bu pedagogik yordam vazifasini o'taydi, unga o'z ta'lim yo'nalishini tanlash va qurish

imkonini beradi. O'qituvchi uchun u aniqlangan qiyinchiliklarni bartaraf etishda yordam berish uchun o'quvchilarning ham fan sohasidagi, ham shaxsiy darajadagi qiyinchiliklarini aniqlashga qaratilgan ushbu faoliyat samarasi yuqori. Pedagogik diagnostikaning o'ziga xos ahamiyati shundaki, u ta'lim dasturlarining o'ziga xos xususiyatlaridan qat'i nazar, joriy va yakuniy natijalarni ob'ektiv baholash va taqqoslash imkonini beradi.

Bugungi kunda pedagogik diagnostikada shaxs va jamoani o'rganish usullarining tasnifi mavjud:

1. Tadqiqotda ishtirok etish xususiyatiga ko'ra (passiv va faol).
2. Kuzatish vaqti bo'yicha (bir martalik, uzoq muddatli).
3. Joylashuvi bo'yicha (sinf, laboratoriya).
4. Shaxsni o'rganish maqsadlariga ko'ra (eksperimental bo'lmagan, diagnostik, hodisalarni tushuntirish, rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash).

Pedagogikada pedagogik diagnostikaning quyidagi usullari ajralib turadi: *kuzatish, pedagogik eksperiment, so'rovnoma, suhbat, so'rov, test, pedagogik hujjatlarni o'rganish (dasturlar, o'quv materiallari, kasbiy faoliyat portfeli)*. Ushbu usullardan ta'lim dasturini ishlab chiqishning joriy va oraliq monitoringi uchun ham, yakuniy bosqichda ham foydalanish mumkin

Xulosa qilib aytganda, pedagogik diagnostikaning o'ziga xosligi shundaki, u nafaqat bolaning shaxsiyatidagi o'zgarishlarni o'rganishga, balki uning shaxsini rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni topishga qaratilgan. Tashxis o'tmish tajribasi, hozirgi tajriba va istiqbollarni qamrab olishi kerak. Bolaning imkoniyatlarini to'g'ri baholash, unga to'g'ri rahbarlik qilish va bolaning o'quv jarayonining to'liq huquqli sub'ekti sifatidagi rolini aniqlash juda muhimdir. Bugungi globallashuv davrida zamonaviy o'qituvchilarning diagnostik faoliyatida quyidagi hislatlarni tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi:

- insonparvarlik hislatlarini rivojlantirish;
- kommunikativ (muloqotga moyillik) malakalarini shakllantirish;

- kasbiy mustaqillik, ishchanlik, hissiy barqarorlik, o‘z ishiga ijodiy yondashish hislatlarini tarkib toptirish;
- pedagogik nazokat va pedagogik texnikadan oqilona foydalanishni shakllantirish;
- nutq texnikasini, o‘z tovush, mimika, jest va gavdasini boshqarish, jamoaga va shaxsga ta’sir ko‘rsatish qobiliyatlarini takomillashtirish;
- zamonaviy fan va ishlab chiqarishdagi muammolar, pedagogik, axborot va yuqori darajadagi texnologiyalardan xabardor bo‘lish hamda ulardan zarurlarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish va boshqalar.



MAVZU YUZASIDAN TOPSHIRIQLAR

“O‘quvchilarning adabiy-nutqiy kompetensiyasini diagnostika qilish”

namunaviy DIAGNOSTIK ANKETA

(Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilari uchun)

Sinfingizda ta’lim olayotgan har bir o‘quvchi uchun quyidagi matritsa bo‘yicha ma’lumot to‘plashga harakat qilganmisiz? Agar, “Ha” bo‘lsa, o‘tkazgan monitoring ishingiz qanday natija berdi? Agar “Yo‘q” bo‘lsa, chorak yakunida ushbu diagnostik jarayonni o‘tkazish tavsiya etiladi.

O‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini diagnostika qilish

Diagnostika mazmuni	FISh (1-o‘quvchi)	FISh (2-o‘quvchi)	FISh (3-o‘quvchi)	FISh (4-o‘quvchi)	FISh (5-o‘quvchi)	FISh (6...-o‘quvchi)	FISh (25-o‘quvchi)
Har xil manbalardan olingan ma’lumotlar ni tahlil qila oladi	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha

O'qishga qiziqishi mavjud	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha
Matnni tez va ifodali o'qiy oladi	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha
O'z fikrini bildirish uchun dalil topa oladi	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha
O'qilgan matnni qayta aytib bera oladi	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha
Matn bo'yicha savol tuza oladi	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha
Matn bo'yicha mustaqil fikr bildiradi	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha	1ball-dan 5 ballgacha

Izoh: **1-ball-** O'qishga qiziqishi mavjud. Idrok etiladigan ma'lumotlarning muhimini ahamiyatsizdan ajrata olish qobiliyati shakllanmagan, biroq, axborotning ahamiyatini ilg'ay oladi;

2-ball- O'qish texnikasiga ega. Tovushlarni, harflarni, alohida so'zlarni o'rganish ketma –ketligi darajasi sust rivojlangan;

3-ball- Matnni tez va ifodali o'qiy oladi, biroq, ma'lumotlarning ortiqcha tafsilotlarini o'rnatish qobiliyati sust.

4-ball- Har xil manbalardan olingan ma'lumotlarni tahlil qila olish qobiliyatiga ega. Matnni tez va ifodali o'qiy oladi. Matnni tavsilotlari bilan qayta aytib berish qobiliyatiga ega.

5-ball. O‘qish texnikasi kuchli, ifodali o‘qiy oladi. Matn bo‘yicha savol tuza oladi. Matn bo‘yicha mustaqil fikr bildiradi. Matnni idrok etish jarayonida savollar berish qobiliyati yuqori. Olingan ma‘lumotni tanqidiy baholash, unga munosabat bildirish, hayotiy vaziyatlarda foydalanish qobiliyatiga ega.

Natijalar ishlovi:

10-56 ballgacha

O‘qishga qiziqishi mavjud bo‘lishiga qaramasdan, o‘qish texnikasi sust. Idrok etiladigan ma‘lumotlarning muhimini ahamiyatsizdan ajrata olish qobiliyati shakllanmaganligi bois, matn bo‘yicha keltirilgan ma‘lumotlarni ilg‘ay olmaydi. O‘qishga ehtiyoji mavjud bo‘lsada, biroq mantda ketirilgan muhim kontekst ahamiyatini tushunmaydi. O‘quvchi bilan ishlash zarurati mavjud.

56-71 ballgacha

O‘quvchi o‘qishni yaxshi biladi. O‘qish uchun ehtiyoji mavjud. Tovush tizimini va o‘qish jarayonini-harflardan so‘zlarning paydo bo‘lishini o‘zlashtirgan. Dastlabki o‘qishni (savodxonlikni) o‘zlashtirgan o‘quvchi o‘qish motivini o‘zgartiradi: u so‘zlar ortida qanday fikr yashiringanligini tushunishga qiziqadi. O‘quvchida to‘g‘ri, ravon, ongli va ifodali o‘qish ko‘nikmalari shakllangan. Tovushlar, harflar, alohida so‘zlarni o‘rganish ketma-ketligini o‘zlashtirgan. Og‘zaki tayyorgarlik bosqichidan boshlangan nutqni rivojlantirish ishlari davom etmoqda.

71-86 ballgacha

O‘quvchining o‘qishga bo‘lgan motivlari rivojlangan. Ma‘lum bir fakt, hodisani bilish uchun o‘qiydi. Murakkab ehtiyojlar paydo bo‘lar ekan, o‘quvchi, masalan, badiiy adabiyotdagi qahramon qilmishining sababini aniqlash va uni baholash uchun; ilmiy-ommabop, ilmiy matn va boshqalarda asosiy g‘oyani topa oladi. O‘qituvchining rahbarligi ostida yoki mustaqil ravishda o‘qish rejasini tuzish qobiliyati yuqori.

86-100 ballgacha

Nutq faoliyatining barcha turlari uchun zarur bo'lgan og'zaki muloqot ko'nikmalari shakllangan. O'quvchi kichik matnlarni, shu jumladan ularga tanish bo'lgan so'z birikmalari, ma'lum grammatik shakllar va tuzilmalarni ovoz chiqarib ongli o'qish mahoratiga ega. O'quvchi o'qish mazmuni bo'yicha savollar berish va savollarga javob berish qobiliyatiga ega. Matnda kim yoki nima haqida gapirayotganini tez aniqlay oladi, savollarga ko'ra o'qiganlarini takrorlay oladi. Olingan ma'lumotdan hayotiy vaziyatlarda foydalanish, idrok etiladigan ma'lumotlarning muhimini ahamiyatsizdan ajrata olish qobiliyati yuqori.

Shunday qilib, yuqorida tavsiya etilayotgan diagnostika orqali o'qishning kognitiv va qiymatga yo'naltirilgan funksiyalari ta'lim vazifalarini bajarishga, yuqori madaniy darajaga o'tishga, shaxsiyatni takomillashtirishga va oxir-oqibat ta'lim sifatini yaxshilashga yordam beradi.



7- §. TA'LIM MUASSASASIDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA FAOLIYATI NATIJALARINI RASMIYLASHTIRISH

Pedagogik diagnostika va ta'lim sifatini baholash bu bir-biri bilan chambarchas bog'langan ikkita tushunchadir. Qo'shimcha ta'limda davlat standartlari mavjud emas. Bu qo'shimcha ta'lim muassasalarining maqsadi bilan belgilanadi. Binobarin, har bir o'qituvchi uchun standart uning o'quvchilarining ta'lim dasturlarini o'zlashtirish natijalari, ish faoliyatini diagnostikasi esa ta'lim sifatini baholash usulidir. Maktabdan farqli o'laroq, qo'shimcha ta'limda baholar qo'yilgan baho kitoblari yo'q. U holda ta'lim sifatini qanday aniqlash mumkin? Shu maqsadda ta'lim sifatini va bolaning shaxsiyatidagi o'zgarishlarni baholashning turli usullari mavjud.

Har bir o'quvchi uchun diagnostika xaritalarini tuzib qo'yish lozim. Agar har bir bolaning individual muvaffaqiyatlarini kuzatish va o'quv dasturini o'zlashtirish darajasini va butun sinf, yoki, umuman ta'lim sifatini baholash uchun bunday xaritalar katta yordam beradi. Pedagogik diagnostika va ta'lim sifatini baholashning universal usullari, shuningdek, alohida sohalari uchun o'ziga xos metodlari mavjud. Qo'shimcha ta'lim sifatini baholash bugungi kunda pedagogik faoliyatning ajralmas qismiga aylandi. Qo'shimcha ta'limda davlat standartlari mavjud bo'lmasa, uni qanday baholash mumkin? Ta'lim faoliyatida nimani va qanday baholash kerak?

O'qitish faoliyati samaradorligini o'lchash muammosi pedagogik diagnostika yordamida hal qilinadi. Pedagogik diagnostika pedagogik faoliyatning tarkibiy qismidir, chunki ta'lim va tarbiya jarayonlarini amalga oshirish ushbu jarayonlarning natijalarini baholash, tahlil qilish va hisobga olishni talab qiladi.

Pedagogik diagnostika o'qituvchining kasbiy faoliyatining boshlang'ich va yakuniy bosqichidir, chunki u tsiklik xususiyatga ega va bitta pedagogik muammoni hal qilish bilan cheklanmaydi.

Ta'lim muassasasida pedagogik diagnostika faoliyati natijalarini rasmiylashtirish. Ta'lim muassasasida pedagogik diagnostika faoliyati natijalari maxsus blankalarda rasmiylashtiriladi va bu kelgusi korreksion ishlar uchun muhim hujjat bo'lib hisoblanadi. Chunki, pedagogik diagnostika o'qituvchining kasbiy faoliyatining boshlang'ich va yakuniy bosqichidir, u tsiklik xususiyatga ega va bitta pedagogik muammoni hal qilish bilan cheklanmaydi. Pedagogik diagnostika natijasida olingan ma'lumotlar o'qituvchining innovatsion faoliyati uchun kuchli turtki bo'lishi mumkin. Albatta, o'qituvchi olingan diagnostika natijalarini hisobga oladi, ularni jiddiy tahlil qiladi va o'z ishining keyingi bosqichlarini tuzadi, afzalliklarini rivojlantiradi va kamchiliklarni kamaytiradi.

U o'z o'quvchilarining xususiyatlarini qanchalik ko'p o'rgansa, hal etishni talab qiladigan muammolarni qanchalik aniq ko'rsa, uning faoliyati shunchalik samarali bo'ladi.

Pedagogik diagnostika – bu turli xil pedagogik hodisalarni aniqlash va buning uchun zarur bo'lgan parametrlardan foydalanish asosida ularning ma'lum bir vaqtda holatini o'rganish jarayoni. Pedagogik diagnostika quyidagi savollarga javob beradi: nimani va nima uchun o'rganish kerak; qanday ko'rsatkichlar bo'yicha aniqlash zarur; qanday usullar; qanday sharoitlarda (o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini bilish) hodisani o'rganish lozim va h.k. Natijalarni baholash uchun mezon va ko'rsatkichlarni aniqlash kerak. Ular shaxs yoki jamoani shakllantirishning maqsad va vazifalari, asosiy g'oyalari, rivojlanish bosqichlarini hisobga olgan holda o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqiladi. Ular juda aniq, o'lchov uchun ochiq va bolalar va kattalar uchun tushunarli bo'lishi kerak. Tashqi o'ziga xos mezonlarga qo'shimcha ravishda (va bular bilim, qobiliyat va ko'nikmalar, shaxsiy va jamoaviy ijodiy yutuqlar va boshqalarni o'z ichiga oladi) bolaning rivojlanishining umumiy mezonlari (motivatsiya, qadriyat yo'nalishlari, hayotiy pozitsiyasi, ijtimoiylashuvdagi muvaffaqiyat, rivojlanishdagi o'zgarishlar), ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar va boshqalar)ni o'rganish muhimdir. Natija barcha ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda o'rganiladi.

Mezonlar, ko'rsatkichlar va usullarni tanlash muayyan davr uchun aniq shartlar va vazifalarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Ammo bu usullar va mezonlar har yili qo'llanilishi kerak, shuning uchun taqqoslash usuli yordamida rivojlanish dinamikasi, muvaffaqiyati va ta'lim jarayonining natijasini kuzatish mumkin. Dastur samaradorligini qanday usullar bilan diagnostika qilish mumkin? Ular: *so'rov, "tugallanmagan taklif", intervyu, suhbat, faoliyat mahsullarini tahlil qilish, kuzatish, ilmiy loyihalarni himoya qilishda ishtirok etish, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, reyting tizimi, test* va boshqalar bo'lishi mumkin. Faoliyat natijalarini o'rganishda bir nechta metodikalardan foydalanish kerak, ammo ular bir-birini to'ldiradigan va natijalarning ishonchliligini tasdiqlaydigan tizim bo'lishi shart. Ular bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini, jamoaning o'ziga xos xususiyatlarini va undagi munosabatlarni

hisobga olgan holda tanlanishi kerak. Ular juda oddiy bo'lishi va og'ir ishlov berish jarayonlarini talab qilmasligi kerak. Bular *jadvallar, diagrammalar, ekranlar* va boshqalar bo'lishi mumkin. Nazorat shakllari: Suhbat, Test, Nazorat mashqi, Insho, loyiha, ijodiy ish himoyasi, Diagnostik o'yin, So'rov bo'lishi mumkin.

Natijalarni taqdim etish shakllari: *olimpiadalar, ko'rgazmalar, tanlovlar; konsertlar, festivallar, tomoshalar; Ijodiy ishlarni himoya qilish; ochiq darslar kompyuter taqdimotlari Ota-onalar kollokviumi sifatida namoyon bo'ladi.*

Diagnostika natijalari *jadvallar, diagrammalar, ekranlar, kundaliklar, talabalar portfeli* va boshqalar shaklida taqdim etilishi mumkin. Ya'ni, pedagogik faoliyat natijalarining hujjatli dalillari bo'lishi kerak. Pedagogik jarayon samaradorligining quyidagi ko'rsatkichlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Kontingentning xavfsizligi.
2. O'qituvchining o'quvchining individual o'sishini aniqlash va ijodiy rivojlanish istiqbollarini bashorat qilish qobiliyati.
3. Bolalarning ushbu guruhdagi sinflarga va o'qituvchiga munosabati.
4. O'quv dasturlarining o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi.
5. Diagnostika natijalarining maqsadga muvofiqligi.
6. Bolalarni o'ziga jalb qila oladigan va qiziqtiradigan ta'lim va o'quv dasturlarini yaratish.
7. Testlar, imtihonlar, tanlovlar va boshqalar natijalari.
8. Mutaxassislarning ekspert baholari.

Natija sifatini aniqlash yoki ta'lim sifatini baholash uchun ta'lim jarayonining samaradorligi mezonlari yoki ko'rsatkichlarini aniqlash kerak. Mezonlar muayyan ishlash parametrlari bilan bog'liq bo'lishi lozim. Masalan, bular jadval ko'rinishida taqdim etilishi mumkin.

O'quv jarayoni samaradorligi parametrlari

Mezon	Nazariy bilimlarning dasturga muvofiqligi
Talabalarning nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish tajribasi (o'quv dasturining asosiy mavzulari bo'yicha nazariy bilimlar, maxsus terminologiyani bilish)	Maxsus terminologiyadan foydalanishning ma'nosi va to'g'riligi
Amaliy tajriba	faoliyat usullarini, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish (o'quv rejasining asosiy mavzulari bo'yicha dasturda nazarda tutilgan amaliy ko'nikma va malakalar, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish ko'nikmalari
Amaliy ko'nikma va malakalarning dastur talablariga muvofiqligi.	Olingan xavfsizlik ko'nikmalarining dastur talablariga muvofiqligi.
Ijodkorlik tajribasi	Dasturni o'zlashtirish jarayonida ijodkorlikning namoyon bo'lishi
Muloqot tajribasi	hissiy-qadriyat munosabatlari, o'quvchilarning shaxsiy fazilatlarini shakllantirish

Жадвалда акс эттирилганидек, ўқувчиларда asosiy kompetensiyalarni shakllantirish ularga hayotiy vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolar va tipik vazifalarni bilim, ta'lim va hayotiy tajriba, qadriyatlar va moyilliklardan foydalangan holda hal qilishga imkon beradi. Har bir yosh o'ziga xos faoliyatning predmetli mazmuni, kognitiv vazifalar doirasi va ularni hal qilish usullari bilan tavsiflanadi, bu kompetensiyalarning shakllanishini ta'minlaydi. Va qo'shimcha ta'lim bolaga rivojlanishning ushbu yangi vektorini to'liq tanishtiradi va o'quvchilarda asosiy kompetensiyalarning rivojlanish darajasi o'qituvchisining kasbiy kompetentsiyasiga, ta'lim jarayoni qanday tuzilganiga bog'liq эканлигида намоён бўлади.

Ta'lim muassasasida pedagogik diagnostika faoliyati natijalarini rasmiylashtirishda tanlanadigan pedagogik diagnostika usullari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik diagnostika usullari. Ularni bir necha turga bo'lish mumkin:

1. Bola shaxsidagi o'zgarishlarni aniqlash usullari: "Qiziqishlar xaritasi" (6–11 yosh va 12–16 yoshli bolalar uchun);
 2. "Ta'lim ehtiyojlari" (6-11 yosh va 12-16 yoshli bolalar uchun);
 3. "Qadriyat yo'nalishi" (12-16 yoshli bolalar uchun);
 4. "Dasturni amalga oshirish samaradorligini baholash kartasi";
- "Pedagogik kuzatishlar kundaligi" usuli;
5. "Maqol" usuli, "Gapni to'ldiring".

O'quvchi shaxsining sotsializatsiyasini o'rganish metodikalariga:

Fidler testi

Ketel testini kiritish mumkin.

Munosabatlar tizimidagi o'zgarishlarni tashxislash usullariga:

"O'quv jarayonida ota-onalarning o'rni" metodikasi;

"Pedagogik kuzatishlar kundaligi" metodikasi

"Kayfiyat ranglari jadvali" texnikasi

Fidler testi

Ketel testi

Sotsiometriyani kiritish mumkin.

Tashxislash faoliyatini rasmiylashtirish uchun misol tarikasida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

"O'zlashtirish samaradorligini tahlil qilish diagnostikasi"

(Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari uchun)

Maqsad: ta'lim dasturini o'zlashtirish natijalarini diagnostika qilish; ko'rsatkichlarga qarab, o'quvchining o'zlashtirish darajasini aniqlash, ijtimoiy ahamiyatga ega tadbirlarda ishtirok etishini aniqlash.

Jarayonni rasmiylashtirish: jadvalda har bir familiyaga nisbatan dasturni o'zlashtirish darajalari uchun belgilar, yoki, ball qo'yilishi lozim.

O'quv yili davomida o'qituvchi bola uchun barcha ko'rsatkichlar bo'yicha jadvalni, keyin esa ballar sonini to'ldiradi. O'qituvchi har bir bola uchun ko'rsatkich bo'yicha dasturning bajarilish holatini foizlarda aniqlaydi va o'quvchining familiyasi, ismi, BKM o'zlashtirishini rasmiylashtiradi.

RASMIYLASH TIRISH BLANKASI

“O‘zlashtirish samaradorligini tahlil qilish”

7 “A” sinf O‘quvchilar soni: 28 nafar 2024-yil, 23-may.

Toshkent shahri, 259-umumiy o‘rta ta’lim maktabi

№	ФИИШ	1- чорак	2- чорак	3- чорак	4- чорак	Йиллик ўзлаштириш кўрсаткичи
1	Акобиров Шохрух	5	4	5	5	5 (98%)
2	Болтаева Жамила	3	3	4	3	3 (57,3%)
3	Василова Шарифа	4	4	4	5	4(73%)
4	Додахўжаев Баҳодир	5	4	5	4	4 (85,4%)
5...	Жамилхосилова Музайяна	5	5	5	5	5 (96%)
6	Миркомилова Сабрина	3	3	3	3	3 (56%)

Qabul qilingan ma’lumotlarni qayta ishlash. Har bir ўquvchi va har bir ko‘rsatkich bo‘yicha ballar soni hisoblab chiqiladi va ishlash % shaxsiy ballar sonini maksimal mumkin bo‘lgan ball soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning Ona tili bo‘yicha iqtidorini diagnostika qilish (6-sinf o‘quvchilari uchun)

Ushbu iqtidorni aniqlash metodikasi Timoti-Liri, Ayzenk test so‘rovnomalari asosida tuzilgan.

Ushbu diagnostika metodikasini tuzishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari inobatga olindi va Ona tili o‘quv predmetiga moslashtirib, modifikatsiyalashtirildi.

O‘qituvchi ushbu metodika asosida o‘quvchilar qobiliyati, iqtidorini, qiziqishlarini aniqlab, undan o‘z darslarini tashkil etishda foydalanishi mumkin.

Testni to'g'ri qo'llash uchun quyidagi shartlarga qat'iy amal qilinadi:

1. Ajratilgan vaqt birligiga (40 ta savol uchun 20 daqiqa) qat'iy rioya qilish.
2. Sinaluvchining savol mazmunini to'g'ri idrok etishga va tushunilishiga erishish.
3. Javoblar sinaluvchining mustaqil fikriga asoslanganligiga erishish.
4. Savollarga berilgan javoblarni ishlab chiqish (100 ballik tizim asosida)

Sinaluvchi savollarni diqqat bilan o'qib chiqadi. Qaysi savol o'zi xaqida ketayotganiga ishonch hosil qilsa, shu savolga belgi qo'yadi, qolgan savollarga hech qanday belgi qo'ymaydi. Sinaluvchi savollarga shoshilmasdan ochiq oydin va to'g'ri javob berishi lozim. Belgilangan savollarning kam yoki ko'pligi muhim emas. Sinaluvchida «qancha ko'p savollarni belgilasam, shuncha ijobiy javob olaman», degan fikr tug'ilmasligi kerak.

Xotirada saqlangan ma'lumotlarga javob berish, qauta yodga tushirishni talab etuvshi savollarni quyidagicha turkumlash mumkin::

Xabardor bo'lishga oid topshiriqlar.

Alohida dalil, son, tushunshalarni yodga olishga doir topshiriqlar.

Ta'rif, me'yor, qoidalarni yodga olishga oid topshiriqlar.

Katta hajmdagi matn, bo'lim, she'r, jadval va boshqalarni yodga olishga oid topshiriqlar.

Savollar:

1. O'qiganlaringizni yaxshi bayon etib bera olasizmi?
2. Ona tili darsini yaxshi ko'rasizmi?
3. Ot va Sifat kabi gap bo'laklari xaqida qanday ma'lumotga egasiz?
4. *Bog', tog', chaqiriq, qarmoq, chaqmoq, momaqalldiroq, o'rkach, sochiq, tovoq, qovoq* kabi so'zlar o'zbek tilidagi jo'nalish kelishigining qo'shimchasi qo'shilganda qanday yoziladi?
5. O'zingizga tanish kuy ostida qo'shiq kuylay olasizmi?

6. Arg‘imchoqda uchishni yoqtirasizmi?
7. Uyda yolg‘iz o‘tirishdan ko‘ra do‘stlaringiz bilan suhbatlashish afzalmi?
8. Hayvonlarga ozor bermay, yaxshi munosabatda bo‘lasizmi?
9. Siz adabiyotga qiziqasizmi?
10. Rang barang bezatilgan kitoblarni yaxshi ko‘rasizmi?
11. Har xil imo ishoralar va harakatlarni yaxshi eslab qolasizmi?
12. Sportga qiziqasizmi?
13. Qiynalmasdan bir guruh sinfdoshlarni ortingizdan ergashtira olasizmi?
14. Har xil so‘z o‘yinlarini va topishmoqlar topishni yoqtirasizmi?
15. Narsalar bilan raqamlar orasidagi bog‘lanishni aniqlay olasizmi?
16. Gullarni nomini yoddan bilasizmi?
17. Toqqa chiqishni yoqtirasizmi?
18. Tez-tez musiqa eshitib turasizmi?
19. Narsalarni buzib boshqatdan terishni yaxshi ko‘rasizmi?
20. Radio, televizordan eshitgan ma‘lumotlarni yaxshi eslab qolasizmi?
21. O‘z fikringizni bayon qilganda rasm va sxemalardan foydalanasizmi?
22. Hisob-kitob ishlarini yaxshi olib borasizmi?
23. O‘yinga tushishni yaxshi ko‘rasizmi?
24. Tez-tez barmoqlaringiz yordamida musiqa chalib turasizmi?
25. Eng yaqin do‘stlaringiz bormi?
26. Narsa haqida to‘la tasavvurga ega bo‘lishingiz uchun uni ushlab ko‘rishingiz shartmi?
27. Bahslashganda o‘z fikringizni qat’iyat bilan himoya qilasizmi?
28. Narsalarning mohiyatini baholash uchun ularni turli guruhlariga ajratasizmi?
29. Siz rasmlar tomosha qilishni yoqtirasizmi?
30. So‘zlashayotganda imo-ishoralarni ko‘p ishlatasizmi?
31. Ko‘zingiz tushgan xamma yozuvlarni xatto buyumlarning etiketkalarini ham o‘qiysizmi?

32. Mantiqiy o'yinlarni yaxshi ko'rasizmi?
33. Tushuntirganda misollar keltirasizmi?
34. Bir marta eshitgan notanish so'zingizni eslab qolasizmi?
35. Bilimlarni tajriba va sinov orqali o'zlashtirasizmi?
36. So'zlashganda kitoblarni o'qigan obrazlardan foydalanasizmi?
37. Mashhur yozuvchilar asarlarini o'qishga hohishingiz, ishtiyoqingiz kuchlimi?
38. Aktyorlarning gaplarini o'zlariga o'xshatib aytishni, yani taqlid qilishni yoqtirasizmi?
39. Kundalik yuritasizmi?
40. O'zbek tiligi kirib kelgan so'zlarning ma'nosini bilasizmi?

Endi bu savollarga javoblarni baholash ustida to'xtalamiz. Sinaluvchi o'zi belgilagan savol nomerlarni quyidagi jadvalda doira ichiga olib chiqadi.

Qaysi ustunda 8-10 doiralar bo'lsa sinaluvchida o'sha qobiliyat ustun bo'ladi. Qaysi qobiliyatning ustunligiga qarab o'quvchining nimaga qiziqishi xaqida so'z yuritish mumkin.

A – lingvinistik qobiliyat. Bunday qobiliyatli o'quvchilarda til o'zlashtirish, o'qishga, she'riyatga, bahs -munozaraga hazil hajv va hikoyalarga qiziqishi kuchli bo'ladi. Ular tillarni o'zlashtirishda o'z iqtidorlarini yorqin namoyish etishlari mumkin.

V – matematik qobiliyat. Bu qobiliyati ustun bo'lgan kishilar abstrakt belgilar, formulalar, raqamlar bilan ishlashni yoqtirishadi.

S- ko'rish qobiliyati. Bu qobiliyatga ega kishilarda tasviriy san'atga xaykaltaroshlik va chizmachilikka qiziqish katta bo'ladi.

D- kinetik qobiliyat. Bu qobiliyat egalari raqs, rol ijro etish, jismoniy mashqlar, sport o'yinlari va drama qiziqadilar.

Ye – tabiatsevarlik qobiliyati. Bu qobiliyat egalari sayru-sayohatga, ekskursiyalarga ko'proq qiziqadi.

F- musiqiy qobiliyat. Bu qobiliyat egalari qo'shiq aytishni, musiqa tinglashni, jo'r bo'lishni yaxshi ko'radilar.

G- suhbatdoshlik qobiliyati. Bu qobiliyat sohiblari hamdard, hamkor, xushmuomala bo‘lishni, birgalikda turli loyihalar yaratishni xush ko‘rishadi.

H – fikrlash qobiliyati. Bu qobiliyat egalari doim fikrni bir joyga yig‘ib to‘play oladi, yaxshi va chuqur fikrlaydi, xayol surib yurishni yaxshi ko‘rishadi.

A	B	C	D	E	F	G	H
1	2	3	4	5	6	7	8
9	11	10	14	12	13	15	16
17	19	18	21	20	24	22	23
25	26	32	27	31	30	28	29
33	35	34	36	37	39	38	40

Natijalar ishlovi.

O‘quvshilar iqtidorini aniqlashda berilgan savollarga olingan javoblardan bolalarning ular bir vaqtning o‘zida bir necha yo‘nalishli ishlar bilan shug‘ullanishini kuzatish mumkin, ular juda qiziquvshan bo‘ladilar, kushli xotiraga yegadirlar va diqqatlarni bir jouga to‘rlau oladilar.

V-G

Idrokning kengligi, iste’dodli bolalar atrofidagi voqealarga juda sezgir va juda qiziquvshandir. Ular ushun dunuo nimadan tarkib torganligini bilish juda qiziqdir. Ular bir neshta jarauonni bir vaqtning o‘zida kuzatishga juda qiziqishadi.

S-F

Ular ko‘rinish va rredmetlarning orasidagi aloqani kuzatish va nazorat qilish xususiatiga yega; iqtidorli bolalar juda katta lug‘at bouligiga yega, lekin o‘zlari ushun uangidan uangini so‘zlarni ixtiro qiladilar.

D-ye

Qobiliyat bilan birga mantiqiy yo‘l bilan masalalar ueshimini torish, idrokning uuqori darajasini saqlab qolishi, o‘z ixtiuori bilan murakkab mashqlarni uoqtirishadi, ular tauuor javoblarni olishni

uoqtirishmaudi; Ba'zi iqtidorli bolalarning diqqatini to'rlashi juda kushli hisoblanadi, ular o'zlari tushunmagan so'zlar, mashq mohiyatini ueshishga harakat qiladilar.

RASMIYLASHTIRISH BLANKASI
“O'qituvchi faoliyatining natijaviyligini tashxislash”

1.Shaxsiy natijalar

1.1	Familiya, ismi, otasining ismi (Sharifi)	Natijaviylik bo'yicha baholash ko'rsatkichlari			
	Natijaviylik bo'yicha baho (ballarda)	Sust	Qoniqarli	Yaxshi	A'lo
1.2	Pedagogning lavozimi			+	
1.3	Ish joyi	Navoiy shahridagi 2-umumiy o'rta ta'lim maktabi			
1.4.	Ish joyining manzili	Navoiy shahri 5-mikrohudud, Abdurahmonov ko'chasi 1-uy			
1.5.	Pedagogik staj	11 yil			
2.Tashkilotchilik qobiliyati					
		Sust	Qoniqarli	Yaxshi	A'lo
2.1	Kasbiy tashkilotchiligi			+	
3.Kasbiy kompetensiyaga egaligi					
3.1	Fanni chuqur bilishi, AKTdan xabardorligi	Sust	Qoniqarli	Yaxshi	A'lo
3.2	Kreativligi, moslashuvchanligi			+	
4.Ijrochilik qobiliyati					
4.1	Qaror qabul qilishi va ijro qobiliyati			+	

Natijalar ishlovi. Har bir ko'rsatkich bo'yicha ballar soni hisoblab chiqiladi va ishlash % shaxsiy ballar sonini maksimal mumkin bo'lgan ball soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.



MAVZU YUZASIDAN TOPSHIRIQLAR

Quyida “Boshlang'ich sinf o'quvchilarining adabiy-nutqiy kompetensiyasini milliy baholash dasturi asosida diagnostika qilish” mavzusida anketa savollari berilgan. Shu anketa bo'yicha olingan javoblarni qay holatda rasmiylashtirasiz?

ANKETA

(O'qituvchilar uchun)

Hurmatli hamkasaba! Boshlang'ich sinf o'quvchilarining adabiy-nutqiy kompetensiyasini milliy baholash dasturi asosida diagnostika qilishga xizmat qiluvchi quyidagi anketa savollariga xolisona javob berishingizni so'raymiz. Javoblaringiz uchun oldindan minnatdorchiligimizni izhor etamiz!

SAVOLLAR:

1.O'qish darslarida qo'llaniladigan usullarning keng doirasi bor. Quyida keltirilgan usullar to'g'ri belgilangan qatorni belgilang.

A) Sharhlash, talqin qilish, mazmun va shaklni tahlil qilish, asarni ifodali o'qish va dramatizatsiya qilish;

B)O'quvchilarning amaliy harakatlari, vizual faoliyat, o'yin texnikasi, shuningdek yozish va og'zaki nutqning turli shakllarini keng jalb qilish;

C) O'qituvchi rahbarligida olib boriladi barcha ijodiy ishlar;

*D) Barcha javoblar to'g'ri.

2. O'qituvchining rahbarligi ostida tuzilgan rejaga binoan badiiy hikoya matnining taqdimotini yozish uchun boshlang'ich sinf o'quvchisi (4-sinf) nechta so'zdan iborat, mantiqiy bir-biri bilan bog'liq matnni shaklantirishi lozim?

- *A) 70-90 soʻz;
- B) 100-150 soʻz;
- C) 90-120 soʻz;
- D) 120-150 soʻz.

3. Boshlangʻich sinf oʻquvchisining oʻqish malakasi kamida ikkita asosiy komponentni oʻz ichiga oladi. Ular:

- *A) Oʻqish texnikasi, matnni tushunish (uning maʼnosini, mazmunini chiqarish);
- B) Ifodali oʻqish, matndagi voqyealarni anglash;
- C) Soʻzlarni talab doirasidagi tezlikda oʻqish, matn mohiyatini tushunish;
- D) Baland ovozda oʻqish, oʻqilganlarning mohiyatini anglash.

4. Oʻqish texnikasi deganda nima tushuniladi?

- A) Oʻqishning vizual tasvirlari akustik va nutq-motorli tasvirlar oʻrtasidagi bogʻliqlikka asoslangan soʻzlarni toʻgʻri va tez idrok etish va ovoz chiqarish;
- B) Taqdim qilingan matnni ifodali oʻqish;
- C) Vizual tasvirli soʻzlarni toʻgʻri talaffuz etib oʻqish;
- D) Oʻqilganlarni tez idrok etish.

5. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining adabiy-nutqiy kompetensiyasining rivojlanganligi quyidagilarda namoyon boʻladi:

- A) Kitob nima haqida ekanligini titul varagʻi, mazmuni, rasmlari orqali bilish;
- B) Qahramonlarning harakatlarini tushuntirish va ularga baho berish; matndan majoziy soʻz va iboralarni topish va ularning maʼnosini tushuntirish;
- C) Voqealar ketma-ketligini belgilash va kichik epik asar rejasini tuza olish; oʻqilgan asarning maʼnosini tushuntira olish, uning mazmuni va sarlavhasini oʻzaro bogʻlay olish;
- *D) Barcha javoblar toʻgʻri.

6. Didaktik talablar bo'yicha, 4-sinf o'quvchisi kichik epik asarni batafsil aytib bera olishi uchun nimalarga e'tiborni qaratishi kerak?

*A) She'r va nasrni ifodali o'qish, bir nechta she'rlarni yoddan o'qiy olishi, ongli ravishda, notanish badiiy matnni daqiqasiga 70-80 so'z tezligida (baland ovozda) va daqiqada 90-100 so'zda (jim) ravon o'qiy olishi shart;

B) Ongli ravishda, notanish badiiy matnni ravon o'qishi;

C) Voqyealar ketma-ketligini belgilash va kichik epik asar rejasini tuza olish;

D) Qahramonlarning harakatlarini tushuntirish va ularga baho bera olishi va 1 daqiqada 90-100 so'zda (jim) ravon o'qiy olishi;

7. Uslubiy fanda o'qish malakalarini shakllantirishning uch bosqichi bor. Bosqichlar to'g'ri belgilangan qatorni ko'rsating.

*A) Analitik, sintetik va avtomatlashtirish;

B) Noto'g'ri o'qishning oldini olish, tahlil qilish, korreksiyalash;

C) O'qish paytida xatolarni tuzatish, tegishli tizimdan foydalanish;

D) O'qish uchun matnlarni tanlash, bolalarning psixologik xususiyatlari va matnlarning adabiy xususiyatlarini hisobga olish, tahlil qilish.

8. Uslubiy jihatdan o'quvchilarning o'z-o'zidan o'qishini tashkil qilish qilish bir necha maxsus bosqichlarda amalga oshadi. Shu bosqichlar belgilangan qatorni ko'rsating.

*A) Pichirlab o'qish, o'qilayotganlarni ovozsiz ifodalash, "sokin o'qish" (ichki nutq nuqtai nazaridan), aslida matnning o'zini o'qish;

B) Matndan savollarga javob topa olish, yozma ravishda mustaqil xulosa qila olish;

C) Ma'lumotlarning ob'ektivligini anglay olish, qiziqarli savolar tuza olish;

D) O'qilayotganlarni ovozsiz ifodalash, pichirlab o'qish, matni so'zlab berish.

9. Har bir o'quvchi uchun yutuqlar dinamikasi, har bir guruh ko'rsatkichlari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich va ta'lim

kompetensiyalarining shakllanish darajasini umumiy baholash uchun qaysi metodlar samarali, deb o'ylaysiz?

*A) Solishtirish, umumlashtirish, test;

B) Shkalalash, hikoya, suhbat;

C) Intervyu, interfaol, namuna;

D) Hikoya, ko'rgazmali, rag'batlantiruvchi

10. O'qituvchiga ma'lum bir raqamlarga tayanib, ota-onalar yig'ilishida, metodik birlashmada, maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchi uchun individual rivojlanish dasturi ustida ishlashda samarali tavsiyalar berishga imkon beradigan narsa bu...

A) yig'ilgan pedagogik ma'lumotlar;

B) Chorak bo'yicha yig'ilgan ballar;

C) Sinf rahbarining ma'lumoti;

D) Ota-ona tomonidan berilgan ma'lumot.



8-§. PEDAGOGIK KORREKSIYA: MAZMUNI, MOHIYATI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Korreksion faoliyatning mohiyati. Pedagogik diagnostika o'z zahirida korreksion tadbirlarni nazarda tutadi.

Pedagogik korreksiya - bu turli xil psixofizik nuqsonlari bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash xususiyatlarini o'rganadigan, shuningdek ularni tuzatish uchun maxsus dasturlar va usullarni ishlab chiqadigan fan.

Korreksiya – muayyan vaziyatlarda oldindan yo'l quyilgan kamchiliklarni bartaraf etish faoliyatidir. Bir qator olimlar: R.S.Nemov, D.V.Olshanskiy, G.Broyer, G.Matteslar: “Pedagogik korreksiya–tarbiya jarayonida yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi oldindan yo'l qo'yilgan nuqsonlarni bartaraf etish jarayonidir”¹– deb hisoblaydilar.

¹Немов Р.С. Педагогическая коррекция. -Москва:Сентябрь, 2012.-С.71.

N.V.Kuzmina bu jarayonni: «Korreksiyalash jarayoni– o‘quvchilarning ongiga, his–tuyg‘ulariga ta’sir etuvchi va turli ijobiy qobiliyatlarini shakllantiruvchi faoliyat turidir¹» – deb tavsiflaydi. Korreksiyalash ta’sirida o‘quvchi–yoshlarning g‘oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlari tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch–quvvatlari mustahkamlanadi va shu bilan birgalikda tarbiya masalalari amalga oshiriladi.

Korreksiya jarayonida yoshlarda jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlari hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o‘quvchining ongiga (ta’lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta’sir etib boriladi.

Qomusiy lug‘atda “korreksiya” so‘zi “tuzatish” deb talqin qilingan. Maxsus pedagogikaga oid darslik va o‘quv qo‘llanmalarda “korreksiya” tushunchasiga “anomal bolalarning psixik va fiziologik rivojlanishidagi tafovutlarni bartaraf qilish yoki kamaytirishga qaratilgan jarayon, chora-tadbirlar tizimi” deb qaraladi (V.V.Voronkova, I.G.Eremenko, S.D.Zabramnaya, V.A.Lapshin, B.P.Puzanov, P.M.Pulatova va boshq.).

Pedagogik korreksiyaning **mohiyati** – o‘quvchilar shaxsiy sifatlarining rivojlanganlik darajalarini tahlil qilib, ularning ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash hamda tuzatishga, ijtimoiy va kasbiy zarur fazilatlarni yanada rivojlantirishga maqsadli yo‘naltirilgan pedagogik tadbirlar tizimidan iboratdir.

***Correctio** (lotincha: correctio – tuzatish) – bolalar va o'smirlarning psixofizik rivojlanishini va xatti-harakatlaridagi og'ishlarni bartaraf etishga qaratilgan maxsus va umumiy pedagogik chora-tadbirlar tizimi.*

¹ Кузьмина В. Путь от нравственного понятия к нравственному убеждению.-Москва: Знание, 1998.-С. 45

Korreksion (maxsus) pedagogika - pedagogikaning ta'lim sharoitlarini o'rganadigan sohasi va turli xil psixo-jismoniy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun shaxsiy rivojlanish, ta'lim va mustaqil kattalar hayotiga tayyorlikning eng yuqori darajasiga erishish uchun zarur bo'lgan tarbiya.

O'quvchilar bilan pedagogik korreksiya faoliyatini tashkil etishning, pedagogik faoliyatning boshqa turlari kabi o'z maqsadi, ob'ekti, sub'ekti, vazifalari, metodlari va vositalari mavjud.

Ta'lim muassasalarida **pedagogik korreksiyaning asosiy maqsadi** – o'quvchi-yoshlar shaxsini maqsadli rivojlantirish, ularning istiqboldagi ijtimoiy-psixologik va kasbiy adaptatsiyasi jarayoni samaradorligini oshishiga ijobiy ta'sir qiluvchi sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish, mazkur jarayonga salbiy ta'sir etavchi omillarni tuzatish va bartaraf etishdan iborat.

Tarixan, 19-asr boshlarida birinchi bo'lib, surdopedagogika va tiflopedagogika, 19-asrning so'nggi choragida esa, oligofrenopedagogika paydo bo'lgan va rivojlana boshlagan va aynan shu bo'limlardan pedagogika sohasi shakllangan. Tibbiy va psixologik fanlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan surdopedagogika, tiflopedagogika va oligofrenopedagogika dastlab imkon qadar, g'ayritabiiy bolada tarbiya va ta'lim, madaniy rivojlanish va uning buzilishlarini bartaraf etish, uning tashqi dunyo bilan o'zaro munosabatini normallashtirish, balog'atga etishishga tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan edi. Anormal bolalarning biologik va madaniy rivojlanish yo'nalishlari o'rtasidagi tafovut naqadar muhimligini anglagan holda, surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika asoschilari o'zlarining ilmiy tadqiqotlari va amaliy ishlarini madaniy rivojlanish va bolalarda uning buzilishini maxsus tayyorgarlik orqali bartaraf etish vazifalariga bo'ysundirdilar.

Ushbu bosqichda eshitish, koʻrish va aqliy zaif bolalarni oʻqitish va tarbiyalashda Gʻarbiy Evropa mamlakatlarida toʻplangan amaliy tajriba va xorijiy adabiyotlarni tahlil qilish mantiqan toʻgʻri keladi.

Korreksiya – hayotiy chekinishlarga uchragan bolalar va oʻsmirlar bilan olib boriladigan aniq faoliyatdir (M.Quronov).

Pedagogik korreksiya – tarbiya jarayonida yoshlarning maʼnaviy-maʼrifiy sohalarda oldin yoʻl qoʻygan nuqsonlarini bartaraf etish jarayonidir (R.S.Nemov, D.V.Olshanskiy G.Broer, G.Mattes).

Zamonaviy taʼlimda anomal bolalarni tarbiyalash va oʻqitish tizimlarining nazariy va uslubiy asoslarini ijodiy tushunish xarakterlidir. Rivojlanishning dastlabki bosqichida korreksion (maxsus) pedagogika gʻayritabiiy bolani har tomonlama oʻrganishga qaratilgan. Bu bolaning psixikasini tirik, rivojlanayotgan tizim sifatida tushunish bilan tavsiflanadi, shuning uchun kar, koʻr, aqli zaif bolada aniqlangan aqliy rivojlanish darajasi va uning buzilishlarining xarakterli kompleksi oʻqituvchilar tomonidan muqarrar berilgan hodisa sifatida qabul qilinmaydi. Bu ularning (u yoki bu darajada) ikkilamchi aqliy rivojlanish buzilishlarini bartaraf etishga va umuman bolaning rivojlanishida oldinga siljishiga olib keladigan oʻqitish usullarini izlashga undaydi.

Maxsus taʼlim oʻqituvchilarining karlarning soqovligini, koʻrning fazoviy yoʻnalishi muammolarini va aqli zaif bolaning ijtimoiy kompetentsiyasini taʼlim va tarbiya vositasida hamda maxsus vositalar yordamida engish mumkinligiga ishonchlari tahsinga sazovordir.

Maxsus taʼlimning amaliy yutuqlari karlik, koʻrlik, aqliy zaiflik oqibatlarini bartaraf etish, maʼlum bilim va madaniy koʻnikmalarni shakllantirishdagi oʻqituvchilar tomonidan bolalarning nomaʼlum va

kashf qilinmagan potentsial qobiliyatlari ulushini ochib berishdagi yutuq sifatida talqin etiladi.

Bolada aniqlangan rivojlanishdagi buzilishlar uning ta'lim va tarbiya sharoitlarini proektsiyalashda tushuniladi. Maxsus ta'lim mazmuni sohasidagi izlanishlar boshlang'ich bosqichda eshitish, ko'rish va intellektual nuqsonlari bo'lgan bolalarning mumkin bo'lgan va zaruriy (jamiyatning o'ziga xos ijtimoiy-madaniy sharoitida), ta'lim darajasini aniqlash vazifasiga bo'ysunadi va ularni maxsus ta'lim muassasalarida, balog'at yoshigacha, imkon qadar mustaqil hayotga tayyorlashga yonaltiriladi.

XX asrning 50-yillarida O'zbekistonda kar, ko'r va aqli zaif bolalar uchun maxsus ta'lim muassasalari tarmoqlari kengaydi. Ushbu davrda korreksion (maxsus) pedagogika o'z tadqiqot doirasini va amaliy qo'llanilish doirasini kengaytirdi. 1970 yillardan so'ng, logopediya nazariyasi va amaliyoti ham jadal rivojlandi.

Eshitish analizatori funksiyalarining qisman buzilishi bo'lgan bolalarni o'rganish muammosi L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi kontekstida ko'rib chiqildi va dastlab umumiy muammo sifatida "qisman nuqsoni bo'lgan" bolalar rivojlanishining sifat jihatidan o'ziga xosligini tushunishning korreksion (maxsus) pedagogikasi uchun, bu ularni maxsus ta'lim va tarbiyalashning sifat jihatidan boshqacha tizimini yaratish zarurligini belgiladi. Eshitish qobiliyati qisman zaiflashgan bolaning rivojlanish shakli kar bolaning rivojlanish sxemasidan sifat jihatidan farq qilishi isbotlandi.

Eshitish qobiliyati zaif bolalarning psixologik-pedagogik tasnifi ishlab chiqilib, kar va zaif eshitadigan bolalar uchun ta'lim tizimini farqlash zarurligini belgiladi. Ko'zi ojiz bolaning rivojlanishi ko'r bolaga nisbatan o'xshash murakkabligi va sifat jihatidan o'ziga xosligi va shunga mos ravishda ularni o'qitish va tarbiyalashda sifat farqlari zarurligi haqida faraz ilgari surildi.

Anomal ("g'ayritabiiy") bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashda muvaffaqiyatli tajriba to'plangani sayin, defektolog-pedagoglar uchun maxsus ta'limning bolaning rivojlanishidagi etakchi roli tobora

ravshan bo'lib bormoqda. An'ana bolada aniqlangan rivojlanish darajasini va uning ta'lim va tarbiya sharoitlarini proektsiyalashda uning buzilishlari majmuasini baholash uchun o'rnatiladi.

XX asrning 50-yillari oxiri, 60-yillarning boshlarida O'zbekistonda eshitish qobiliyati zaif (kar va zaif eshitish), ko'rish (ko'r va zaif ko'rish), aqli zaif, nutqida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalar bilan birga tayanch-harakat a'zolari va aqli zaif bolalarni korrektsiya qilish pedagogikasi rivojlandi. Ushbu davrning yutug'i maktab yoshidagi anomal bolalar uchun tabaqalashtirilgan maxsus ta'lim tizimining ilmiy va uslubiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat bo'ldi. Sakkiz turdagi (karlar, zaif eshituvchilar, ko'rlar, ko'rishi zaif, aqli zaif, nutqida nuqsoni bo'lgan, tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun) maxsus maktablar tashkil etildi.

Maxsus tayyorgarlikning o'n olti turi ishlab chiqilgan. Maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari, shuningdek, maxsus maktablar bitiruvchilari keyingi umumiy va kasbiy ta'lim olishlari mumkin bo'lgan ta'lim muassasalari paydo bo'ldi. Ushbu davrning yutug'i sifatida anomal bolalarni o'qitish uchun maxsus didaktika ishlab chiqilganligi va korreksion vazifalar aniq belgilanganligini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, normal rivojlanmayotgan bolalar uchun ta'lim dasturlarida mavjud bo'lmagan ta'lim mazmunining muayyan bo'limlarini ishlab chiqishga turtki bo'ldi; "vaqtinchalik echimlar" yaratish va maxsus o'quv vositalaridan foydalanish; o'qitishni individuallashtirish; ta'lim muhitini maxsus tashkil etish; ta'lim maskanidan tashqarida ta'lim maydonini kengaytirish; o'quv jarayonini uzaytirish; o'quv jarayonida ishtirok etuvchi turli profil mutaxassislari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqarishkabi muammolar yechimini topishga xizmat qildi.

Bugungi kunda O'zbekistonda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, inklyuziv ta'lim talablari asosida ta'lim muassasasida o'qiyotgan bolalarning har bir toifasi uchun ta'limning tamoyillari, vazifalari, mazmuni, o'quv jarayonini tashkil etish shakllari aniqlandi,

pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlari, usullari va vositalari ishlab chiqildi.

Korreksion (maxsus) pedagogika rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarni normal rivojlantirish uchun samarali "muvaffaqiyatli echimlar" ni ishlab chiqish tajribasini to'pladi. Erta (2-3 yoshdan) kar bolalarga o'qish va yozishni o'rgatish, ularning og'zaki nutqini rivojlantirish, noto'g'ri talaffuz oldini olish, ko'zi ojiz bolalarni yozish va o'qishga o'rgatishga katta e'tibor berildi. Davlatning maxsus ta'limning malakali xususiyatiga yo'naltirilganligi maktab yoshidagi anomal bolalarni "Umumjahon ta'lim to'g'risida"gi qonunni doirasida o'qitishni amalga oshirishga kafolat beradi. Anomaliyali bola uchun umumiy ta'limning mavjudligi, uning kognitiv faollik va og'zaki nutqni rivojlantirish sohasidagi yutuqlari shu paytdan boshlab inklyuziv ta'limning asosiy qadriyati sifatida tushuniladi.

Inklyuziv ta'limda asosiy e'tibor kognitiv faollik va og'zaki nutqni rivojlantirish usullariga, malakali ta'lim olish imkoniyatini beradigan maktabga tegishli ko'nikmalarni shakllantirishning shaxsiy usullarini ishlab chiqishga va pedagogik texnologiyalarni yaratishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi.

XX asrning 70-yillarining oxiri, 80-yillarning boshlarida maktab yoshidagi bolalar bilan ishlaydigan ko'pchilik defektologlarning ilmiy tadqiqotlari va amaliy ishlari anomal (g'ayritabiiy) bolalar uchun malakali ta'lim vazifasiga bo'ysunadi. Shu bilan birga, amaliyotda ro'yobga chiqqan maxsus maktab o'quvchilariga odatdagidek rivojlanayotgan tengdoshlari bilan taqqoslanadigan umumiy ta'lim ("akademik") bilimlarni berish istagi, tabiiyki, eng muhim vazifalari maktab yoshining barcha bosqichlarida bolalarda shaxsiy, ijtimoiy-emotsional rivojlanish va uning buzilishlarini tuzatish fonida qolib ketishiga olib keldi. Shu bilan birga, maxsus pedagogika bolaning maksimal rivojlanishi muammosini hal qilishga, uning tashqi dunyo bilan o'zaro munosabatlarini normallashtirishga yo'naltirildi. Maxsus pedagogikada maxsus ta'lim

va tarbiyaning asl qadriyat yoʻnalishi bolaning madaniy rivojlanishiga, patologiyalarning oldini olish va tuzatishga, uning tashqi dunyo bilan munosabatlarini normallashtirishga va shaxsning shaxsiy rivojlanishiga qaratilgan.

Rivojlanishda turli xil nuqsonlari boʻlgan maktabgacha yoshdagi bolalarni maxsus taʼlim va tarbiyalash tizimlarining ilmiy va uslubiy asoslarini ishlab chiqish ushbu qadriyat yoʻnalishlariga muvofiq qurilgan.

Sovet davridagi maktabgacha tuzatish (maxsus) pedagogikasining tadqiqot natijalari va amaliy yutuqlari maxsus taʼlimning "oʻz vaqtida" boshlanishi kontseptsiyasini qayta koʻrib chiqishga imkon berdi va anomal bolaning potentsial rivojlanishi va oʻrganish imkoniyatlari haqidagi gʻoyalarni sezilarli darajada oʻzgartirdi.

Endilikda ikki yoshdan uch yoshgacha boʻlgan bolaga, aqli zaif bolalarga esa 4 yoshdan boshlab, maxsus taʼlim berishni oʻz vaqtida boshlash dolzarb hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolani oʻz vaqtida va etarli darajada maxsus oʻqitish sharti bilan uning rivojlanishini kuchaytirishni, umumiy rivojlanishning yuqori darajasiga erishishni va ikkinchi darajali tabiatdagi buzilishlarni tuzatishni taʼminlash mumkinligi isbotlangan. Maktabgacha maxsus pedagogika bolaning maxsus taʼlim jarayonida rivojlanishining barcha yoʻnalishlari boʻyicha rivojlanishini kuzatish zarurligini isbotlaydi.

Surdotiflopedagogika (kar va koʻzi ojizlar) pedagogikasi ontogenezning dastlabki bosqichlariga nisbatan ogʻir rivojlanish buzilishlari boʻlgan bolaga maxsus taʼlim nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga katta hissa qoʻshdi, bu barcha maktabgacha tuzatish (maxsus) rivojlanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatdi.

Pedagogik tashxislash va yoshlarning xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalash masalalari bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega boʻlib borishi mustaqil Oʻzbekistonning har tomonlama rivojlanishidan, jamiyat aʼzolarining maʼnaviy-maʼrifiy hayotida paydo boʻlgan muammolarini hal etilayotganidan dalolatdir.

QAT'İYATLILIK, O'Z SO'ZIDA TURA OLISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Yo'riqnoma:

(Ishtirochilarga blankalar tarqatib beriladi.)

Tadqiqot davomida talabalar kichik 4-5 kishidan iborat guruhlar bo'linadilar. Har bir guruhga sardorlar tayinlanadi.

Ekranda quyidagi tartibda so'zlar ro'yxati namoyish etiladi.

Shaxsni tavsiflovchi belgilar

Oriyatli	Vijdonsiz
Shuxratparast	Beg'araz
G'amxo'r	Boqibeg'am
Qat'iyatli	Jur'atsiz
Mehnatsevar	Dangasa
Shiddatli	LapaShang
His-hayajonga beriluvchan	Sovuqqon
Sabrli	
Faol	Toqatsiz
Yuvosh, itoatkor	Passiv
Fikr-mulohazali	Qaysar
	Shoshma-Shoshar
Samimiy	
Quvnoq	
Sahovatli	Ikkiyuzlamachi
Bosiq	Kamgap
Optimist	Safsataboz
Kirishuvchan	Badjahl
Hazil-mutoyibaga	Qizg'anchiq
moyil	Tortinchoq
Mas'uliyatli	Pessimist
Tirishqoq	«Ichimdagini top»
Kamtarin	Loqayd

		Mas'uliyatsiz SustkaSh Maqtanchoq, kiborli
--	--	--

Topshiriq:

1) Shaxsni tavsiflovchi soʻzlarni diqqat bilan oʻqib chiqing. Oʻzingizga talluqli boʻlgan sifatlovchi soʻz yoniga belgi(^) qoʻying. Ikir-chikir detallar toʻgʻrisida oʻylab oʻtirmasdan, ikkilanmay oʻzingizga baho qoʻyishga harakat qiling. Sifatlovchi belgilarning mosini tanlaganingizdan soʻng, guruh sardoriga eʼlon qiling;

2) tadqiqotning ikkinchi bosqichida siz oʻzingizda mavjud boʻlgan sifatlovchi belgilarga toʻgʻri baho berayotganligingizga ishonchingiz mukammal boʻlmagan taqdirda, aynan oʻSha soʻzlar tagiga chizib chiqing.

3) Tadqiqotning uchinchi bosqichida, siz oʻzingizda mavjud boʻlgan tavsifiy belgilaringizga yanada aniqroq baho berishga harakat qiling va har bir tavsiflovchi belgi yoniga foizlarni chiqarishga harakat qiling. Masalan, qatʼiyatlilik-45%; qaysar-65%; kamtarin-60%, Itoatkor-30% va h.k.

4) Sifatlovchi belgilar juftligini hamda ularga qoʻyilgan foizlarni yana bir bor sinchiklab oʻrganib chiqing.

Natijalar ishlovi:

1. Guruh sardorlari tadqiq qilinuvchi talabaning ishlashiga sarflagan vaqtini sarhisob qilib, har bir bosqichda kiritilgan oʻzgartirishlarni inobatga olishi lozim.

2. Har bir talabaning tadqiqotdagi natijalarini D. Dauney Shkalasi boʻyicha baholash lozim:

a) birlamchi javob uchun sarflangan vaqt jadvali.

Korreksiyalashda natijalarni baholash

7-jadval (a)

Topshiriqni bajarish uchun sarflangan vaqt	Ballarda baholash mezon
1,8»-1,53»	10
1,54»-2,18»	9
2,19»-2,34»	8
2,35»-2,49»	7
2,50»-3,09»	6
3,10»-3,26»	5
3,27»-3,56»	4
3,57»-4,2»	3
4,31»-5,40»	2
5,41-15,	1

Ballning yuqoriligi va o'zgartirishlarning kamligi Shaxsning Shiddatkor, qat'iyatli ekanligidan dalolat beradi.

B) Fikr-mulohazadagi qat'iylik (foizlarda) 100% nisbati uchinchi va to'rtinchi bosqichlardagi farq asosida hisoblanadi (22ning ikkinchi bosqichda to'g'ri belgilangan sifatlar yig'indisi).

V) Tadqiqotning to'rtinchi bosqichida vaqt orasidagi tafovutning ranjirovkasi.

7-jadval (b)

Topshiriqni bajarish uchun sarflangan vaqt	Ballarda baholash mezon
0»-13»	10
14»-22»	9
23»-30»	8
31-35»	7
36»-42»	6
43»-53»	5
54»-1,1»	4

1,2»-1,10»	3
1,11»-1,46»	2
1,47»-5,34»	1

3. Ballning yuqoriligi va o'zgartirishlarning kamligi Shaxsning Shiddatkor, qat'iyatli ekanligidan dalolat beradi, oldin bajarilgan ishdagi ikkilanish uchramaydi.

4. Yig'ma jadvallarda barcha tadqiq qilinuvchilarning uchala bosqich bo'yicha erishgan natijalarini aks ettiring.

5. Korrelyatsion koeffitsiyent ko'rsatkichlarini rab, rab,rbv (2-ilovaga qarang) hisoblab chiqing.

1. Tadqiqot jarayonida qat'iyatlilikni namoyish etuvchi sifat tezligi har bir bosqichda o'zgarganligini xulosalang.

2. 1,5 va 6-bosqichlarda qo'lga kiritilgan natijalarni sarhisob qiling hamda uning Shaxsni sifatlovchi belgilarini tashxislashdagi ahamiyatini argumentlaShga harakat qiling.

Bu alfozda o'tkazilgan treninglar o'smir va o'spirinlarda zo'r qiziqish o'yg'otdi. Tadqiqotda qatnashgan 120 ta talabaning 65,7% tasi qat'iyatliligini namoyish etgan bo'lsa, 47,3 % talaba o'rta miyonada tashabuskorlikka ega ekanligini ko'rsatdi va 7% talaba tadqiqotlarda past ko'rsatkichlarga ega bo'lishdi. Shu sababli biz keyingi bosqichlarda yoshlarni o'z-o'zini tarbiyalash metodikalariga e'tiborni kuchaytirdik.

ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva SH.A. O'quvchilarni pedagogik tashxislashda qo'llaniladigan metodlar// Xalq ta'limi, 2003 ,№3, 40-45 b.b.
2. Abdullayeva SH. A. Pedagogik diagnostika.-T.: Fan va axborot технологиялари,2020.-,256 b.
3. Abdulla Avloniy. Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom.-T.: Fan, 1994, 293b.

4. Bojovich L. I. Lichnost i yeyo formirovaniye v yunosheskom vozraste.-M.: Vldos, 1998,219 s.
5. Xobson Fleyk. Razvitiye rebyonka i yego otnosheniy s okrujayuShimi.-M.: Pedagogika,1990, 304 s.
6. Qo‘ziyev.Z. Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalshtirish-Toshkent: Universitet, 1994.-127 b.



9-§. UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MUASSASASIDA OLIB BORILADIGAN PEDAGOGIK-KORREKSION FAOLIYATLAR TASNIFI VA TAMOYILLARI

Korreksion-pedagogik faoliyat - bu pedagogik faoliyatning obyekti va predmetini o‘z ichiga olgan uning quyi tizimi vazifasini bajaradigan, butun ta‘lim jarayoniga (o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish) singib ketadigan murakkab psixo-fiziologik va ijtimoiy-pedagogik hodisa.

Faoliyat obyekti - ob'ektlar, jarayonlar va hodisalar, shuningdek, boshqa odamlar va ijtimoiy guruhlar, jamiyat. Faoliyat motivi - bu insonning ehtiyojlari, uni harakatga undaydigan narsa. Faoliyatning maqsadi - kerakli natijaning tasviri. Vositalar (asboblar) sub'ektning faoliyatni amalga oshirish uchun foydalanadigan narsasidir.

Pedagogik faoliyat "inson-inson" munosabatlari kasblar guruhiga kiradi.

Korreksion (maxsus) pedagogika rivojlanishida ma‘lum nuqsonlari (kar va zaif eshitish; ko‘r va ko‘rish qobiliyati zaif bolalar; aqli zaif bolalar; hissiy rivojlanish; tayanch-harakat tizimining funksiyalari) mavjud bo‘lgan o‘qitish va tarbiyalash sharoitlarini o‘rganadigan bo‘limlardan iborat.

Maqsadli korreksion-pedagogik faoliyat tizimidagi yetakchi tamoyil tuzatuvchi, profilaktika va rivojlantiruvchi vazifalarning birligi

tamoyili bo'lib, bunda vazifalarning izchilligi va o'zaro bog'liqligi bola shaxsining turli tomonlari rivojlanishining o'zaro bog'liqligini va ularning geterogenligini, ya'ni турли-туманлигини aks ettiradi.

Ta'lim muassasalarida o'quvchilar bilan pedagogik korreksiya faoliyatini tashkil etishning **asosiy vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- o'quvchilardagi mavjud og'ishlarni korreksiya qilish;
- o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirish samaradorligi hamda ijtimoiy faolligini maqsadli oshirish;
- o'quvchilarda ijtimoiy me'yorlarga mos keladigan ijobiy fazilatlarni shakllantirish;
- o'quvchilarning samarali ijtimoiylashuviga yordam beradigan (kompensator) fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish;
- o'quvchilarda bo'lajak kasbiy faoliyatiga salbiy ta'sir qiluvchi (yoki qilishi mumkin bo'lgan) sifatlarni bartaraf etish;
- o'quvchilarda bo'lajak kasbiy faoliyatga ijobiy munosabatni shakllantirish;
- o'quvchilarda mustaqil ta'lim olishga intilishni shakllantirish;
- o'quvchilarni individual tarzda korreksiya qilish va rivojlantirishda ta'limning differentsiallashtirilgan pedagogik sharoitlarini yaratish;
- ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari faoliyatini psixologik-pedagogik ta'minotini amalga oshirish;
- ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari – ma'muriyat, pedagoglar, o'quvchilar hamda ularning ota-onalari bilan inklyuziv ta'lim masalalari bo'yicha informatsion-ma'rifiy tadbirlarni olib borish.

Pedagogik ta'sir samaradorligi ta'sir ob'ekti va ta'sir subyektlarining o'zaro munosabatiga bog'liq bo'lib, bu hol tarbiyaviy ta'sir ob'ektining o'zi tarbiya jarayonida faol ishtirok etishini, uning o'zi barkamol bo'lishga intilishini hamda pedagog tomonidan bo'ladigan ta'sirga ongli munosabat shakllanini taqozo etadi. O'quvchining ta'lim-tarbiya jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlikni, barkamol

bo'lishga intilishni hamda pedagog tomonidan bo'ladigan tarbiyaviy ta'sirlarga ongli munosabatda bo'lishni shakllantirish **“tarbiyaviy mobillikni shakllantirish jarayoni”** deb nomlanadi. O'quvchida bo'lajak korreksioyalarga nisbatan ehtiyojning shakllanganligini esa **“tarbiyaviy mobillik”** deb yuritiladi. Yoshlarda tarbiyaviy mobillikni shakllantirishda ulardagi mavjud qobiliyat va fazilatlarning shakllanganlik darajalaridan kelib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shaxsda u yoki bu fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish, ko'p jihatdan, korreksiya jarayonidagi maqsadli ko'rsatmalarga bog'liq bo'ladi. Bu ko'rsatmalar shaxsni bo'lajak faoliyatga psixologik tomondan tayyorlanib borishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham pedagogik korreksiya faoliyatini “shaxsni tarbiyalanish jarayonini boshharish, unda zarur bo'lgan ijtimoiy, psixologik va kasbiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish” deb ham qarash mumkin.

Shaxsning alohida olingan fazilatini rivojlantirish nihoyatda katta muammo hisoblanadi. Masalan pedagogik korreksiya jarayonida o'quvchidagi “jur'atsizlik” sifatini (aslida buni illat deb hisoblash mumkin) kamaytirish yoki “ishtimoiy faollik” fazilatini rivojlantirish maqsad qilib qo'yilgan bo'lsa, korreksion faoliyat jarayonida yaxlit shaxs sifatlari tizimini, uning xarakteridagi barcha kuchli va ojiz tomonlarini hisobga olishga to'g'ri keladi. Bunda korreksion ta'sirning yo'llari va vositalarini tanlashda ham o'quvchi shaxsining individualligini, uning o'ziga xos jihatlarini hisobga olish lozim bo'ladi. Bu esa, o'z o'rnida korreksion tadbirlarning o'quvchini shaxsiy, axloqiy va kasbiy hislatlarini, hayotiy tajribasini hamda tuzatilishi rejalashtirilgan sifatlarga nisbatan undagi munosabatni hisobga olgan holda individuallashtirilishi talab qilinadi.

- o'quvchida korreksiyaning maqsadi tog'risida aniq tushunchaning shakllanganligi;
- o'quvchi belgilangan maqsadga erishish uchun korreksiya jarayonida bajarilishi zarur bo'lgan vazifalarni hamda ularning ketma-ketligini bilishi;

- pedagog va o‘quvchining korrektsiya jarayoniga tayyor bo‘lishi;
- korrektsiya jarayonida o‘quvchining faolligiga erishish;
- pedagog tomonidan o‘z tajribasini tahlil qilib, uning ijobiy va salbiy jihatlarini farqlashga intilishi;
- korrektsiya jarayonida vaqt me‘yorlariga rioya qilish;
- zarur moddiy-texnika bazasining mavjudligi.

Demak, pedagogik diagnostika va korrektsiya jarayonida bulardan birortasi (tafakkuri, ongi, hissiyoti, irodasi, qarashlari) e‘tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi.

«Muayyan bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi²» – deb yozadi Fleyk Xobson «Развитие ребенка и его отношение с окружающими» nomli asarida. Uning fikricha, muayan hislatlarni tarbiyalash yoki yo‘qotish uchun xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi va belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qaerda ishlatish rejalashtiriladi.

Bunday reja asosida olib borilgan tarbiya mohiyati ta‘lim – tarbiya tizimini, jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyatini tashkil qiladi. Demak, pedagogik diagnostika va korrektsiya jarayoni ham reja asosida, tizimli va maqsadli olib borilsa, komil insonni tarbiyalashdek asrlardan beri azaliy orzuni amalga oshirish istiqbollari kengayadi.

Uzluksiz ta‘lim tizimida pedagogik diagnostika va pedagogik korrektsiya ishlari metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirilganda jamiyatning har bir a‘zosi ongiga milliy istiqlol g‘oyalarini singdirishda, mafkuraviy immunitet hosil qilishda, o‘quvchilarning o‘zligini anglashlarida, vatanparvarlikni, millatlararo totuvlikni, diniy bag‘rikenglikni, tolerantlikni shakllantirishda hamda komil insonga xos bo‘lgan fazilatlarini: sofdillik, to‘g‘riso‘zlik, adolatparvarlik, sahovatlilik, or–nomuslik, tantilik va boshqa sifatlarni tarkib toptirishda ijobiy samara beradi.

² Флейк Хобсон. Развитие ребёнка и его отношение с окружающими.-Москва: Педагогика, 1991.-С. 68.

Pedagogika fanida tamoyillar deganda, pedagogik faoliyatni tashkil qilishning birlamchi asosi tushuniladi va ularga muvofiq ravishda shu faoliyatning yoʻnalishlari, maqsadi va natijalari belgilanadi.

Pedagogik korreksiyada umumpedagogik va maxsus tamoyillar mavjud boʻlib, korreksion faoliyatni rejalashtirish va tashkil qilishda ularga rioya qilish oldindan rejalashtirilgan natijaga erishish imkonini oshiradi.

Umumpedagogik tamoyillar. Umumpedagogik tamoyillardan pedagogik korreksiya uchun ahamiyatli boʻlganlaridan biri – pedagogik jarayonning maqsadga yoʻnaltirilganligidir. Maqsad, huddi qonunga oʻxshab, kishi faoliyatining xarakteri va vositasini belgilaydi. Oʻquvchi shaxsi rivojlanishi va tarbiyasining umumiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda, pedagogik korreksiya jarayonida oʻquvchi shaxsining mavjud boʻlgan holati bilan erishish rejalashtirilayotgan holatini taqqoslash (qiyoslash)ning roʻy berishi, korreksiya yordamida rejalashtirilgan natijaga erishish yoʻllari, vositalari hamda bosqichlarining mazmunini belgilashga, uning dasturini shakllanishiga zamin yaratadi.

Keyingi muhim tamoyil – pedagogik jarayonning yaxlitligi va tizimlilik boʻlib, bunda pedagogik jarayonni tizim, yaʼni oʻzaro munosabatda va bogʻliqlikda boʻlib, oʻziga hos yaxlitlikni hosil qilgan elementlar majmuasi, deb haralsa, pedagogning korreksion faoliyati shu tizimning ichki tizimi, subʼektiv tizim yoki elementlaridan biri boʻladi. Shu bilan birga, pedagogik korreksiya faoliyatni boshharishga asoslangan tizim tarkibini oʻzaro bogʻliq boʻlgan va yagona maqsadga qaratilgan faoliyatni taʼminlash imkonini beruvchi elementlar tashkil etadi.

Pedagogik korreksiyaning navbatdagi tamoyili – insonparvarlik. Insonparvarlik oʻz tarkibiga insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, yaʼni odamlar oʻrtasida oʻzaro yaxshi munosabatda boʻlish, doʻstlik, ota-onaga hurmat, Vatanga sadoqat, mehnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatlarni qamrab oladi. Ota-bobolarimiz bolalarda

yoshlikdan ana shunday go'zal fazilatlarni qaror toptirishga katta ahamiyat berganlar. Insonparvarlik tamoyili o'quvchida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarining o'zaro uyg'unligini ta'minlashda, ta'lim-tarbiya jarayonini o'quvchi imkoniyatlaridan, uning qiziqishlari hamda ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tashkil qilishda o'z aksini topadi.

Pedagogik korreksion faoliyatni tashkil qilishda insonparvarlik tamoyiliga o'quvchi shaxsini hurmat qilish va oqilona talabchanlik tamoyili bilan birgalikda rioya qilinadi. Bunda, "oqilona talabchanlik" deganda pedagogik jarayonni o'quvchi shaxsida ijobiy fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilganligi tushuniladi.

Nisbiy talabchanlik – korreksion faoliyat maqsadi bo'lmasdan, o'quvchi shaxsi taqdiri, uning barcha talablarni ongli ravishda qabul qilishi hamda ularga rioya qilishi, xulqi va qadriyatlarini korreksiya qilinishiga nisbatan bo'lgan ishonchni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Shu bilan birga ta'kidlash joizki, pedagogning talabchanligi o'quvchi g'ururiga va shaxsiyatiga tegmasligi shart.

O'quvchi shaxsining ijobiy, kuchli sifatlariga tayanish tamoyili yuqorida keltirilgan tamoyillarning davomidir. O'quvchiga faqatgina insonparvarlik bilan munosabatda bo'lish, uni shaxs sifatida hurmat qilish, pedagog sifatidagi hushyorlik, xarakteri va xulqidagi salbiy sifatlar qatorida uning himoyasiz ekanligini ko'ra bilish, komillikka intilish tarbiyaviy-korreksion faoliyatni samarali tashkil qilishga imkon beradi.

Ijobiy fazilatlarga tayanish, ularni kuchaytirish va rivojlantirish va shu yo'l bilan salbiy sifatlarini bartaraf etish orqali barkamol avlodni shakllantirish lozim. O'smirlar ilk muvaffaqiyatlarga erishganlarida, xulq-atvorlarining yangi va nisbatan samarali shakllarini o'zlashtirganlarida ularda o'z kuchlariga va oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishishlariga bo'lgan ishonch kuchayib boradi.

Shaxsning ongliligi va faolligi tarbiyaviy-korreksion jarayonning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Ushbu tamoyil o'quvchi shaxsida rejalashtirilayotgan korreksion o'zgarishlarga ehtiyojning shakllantirish bilan bog'liq. Shaxsda korreksion o'zgarishlarga

ehtiyoj, korreksiya jarayonining ma'lum bosqichida, passiv munosabatdan faol munosabatga o'zgarishi mumkin. Pedagogik korrektsion faoliyatda bu jarayonni "o'quvchida tarbiyaviy faollikning shakllanish jarayoni" ham deyiladi. O'quvchi bunday holat shakllantirilganida u korrektsion o'zgarishlarni amalga oshirishda pedagogga faol yordam bera boshlaydi – o'quvchi pedagogik korrektsiy ta'sir ob'ektidan korrektsion ta'sir sub'ektiga aylanadi. Bu esa pedagogik korreksiyaning muvaffaqiyatini kafolatlaydi.

Ichki va tashqi ta'sirlarni qulaylashtirish tamoyili – o'quvchining korrektsion o'zgarishlarga bo'lgan ijobiy munosabatini uning yaqin ijtimoiy muhit tomonidan qo'llab-quvvatlanishi. Ushbu tamoyilning bajarilishi o'quvchi shaxsida tanlagan yo'lining to'g'ri ekanligiga ishonch shakllanishiga yordam beradi. Chunki, ayniqsa, o'smirlik yoshida yaqin ijtimoiy muhit – sinfdoshlari, aka-ukalari va opa-singillarining fikri shaxs rivojlanishidagi muhim omillardan biri bo'ladi.

Maxsus tamoyillar. Pedagogik korrektsion faoliyatda korrektsion, profilaktik va rivojlantiruvchi vazifalarning birligi va o'zaro bog'liqligi tamoyili. Bu tamoyil o'quvchi xulqi va xarakterida turli fazilat va sifatlarning xilma-xil shakllanganligi hamda ularning o'zaro bog'liqligini aks ettiradi. Shaxs sifatlarining turli darajada shakllanganligi barcha o'quvchilarning, ularning bir xil yoshda va ijtimoiy sharoitda rivojlanganliklaridan qattiq nazar, shakllanganlik darajalarining bir biridan farq qilishidan darak beradi. O'quvchi shaxsidagi bir sifatning o'zgarishi uning barcha qo'lgan sifatlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Korreksion faoliyat tashkil qilishda uning rivojlanish jihatlari, tafakkuri va faoliyati o'zaro bog'liq ekanligini nazarda tutish kerak. Shuning uchun, pedagogik korrektsion faoliyatni tashkil qilishda, uning maqsad va vazifalarini belgilashda o'quvchi xulqidagi og'ishishni bir zumlik mashg'ulotda bartaraf qilishni emas, balki asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirishdan kelib chiqishiga intilish kerak.

O'z vaqtida qabul qilingan profilaktik chora-tadbirlar shaxs rivojlanishi jarayonida uning xulq-atvorida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ko'ngilsizliklarning oldini olib, kelajakda keng ko'lamda korreksion tadbirlarni amalga oshirishga imkon beradi. Bundan tashhari, har qanday tarbiyaviy-korreksion tadbir o'quvchi xulqidagi me'yordan o'g'ishishlarning oldini olish va ularni tuzatish bilan birga, uning komil inson bo'lib shakllanishiga va ma'naviy-axloqiy fazilatlarini hayotda to'liq namoyon qilishiga sharoit yaratishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Diagnostika va korreksiyaning birligi tamoyili pedagogik jarayonning yaxlitligini ta'minlaydi. Tarbiyaviy ta'sir ob'ekti to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lmasdan turib to'laqonli korreksion faoliyatni olib borish va ijobiy natijaga erishish mumkin emas. O'quvchi shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar – o'ziga xos xususiyatlari, boshqalar (o'rtoqlari, kattalar, oila a'zolari va hokazo) bilan o'zaro munosabatlari, uning xulqidagi me'yordan o'g'ishishning tabiati hamda kelib chiqish sabablari va shu kabilarga ega bo'lmasdan turib tarbiyaviy-korreksion faoliyatning shakl va metodlarini tanlash, korreksion tadbirlarni rejalashtirish va tashkil qilish nihoyatda qiyindir.

Korreksion faoliyatning barcha bosqichlarida – diagnostika qilishdan muammolarni tahlil qilinguniga qadar, bevosita korreksiya qilishdan yakuniy bosqichga qadar ro'y barayotgan o'zgarishlarning barchasi hisobga olinishi zarur.

Pedagogik korreksiya jarayonida o'quvchining individual va yosh xususiyatlarini hisobga olish tamoyili shaxsda zarur fazilatlarni shakllantirishda uning individual hamda yosh jihatlarini hisobga olgan holda, pedagogik va psixologik diagnostika metodlaridan foydalanib amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu tamoyilga rioya qilish o'tkazilayotgan tarbiyaviy ta'sir va tadbirlarning o'quvchi shaxsiga yo'naltirilganlik shartining bajarilishini ta'minlaydi. Boshqacha qilib aytganda, ushbu tamoyil pedagogik korreksiyaning

shaxsga yo'naltirilganligini ta'minlashdagi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Pedagogik korreksiya o'quvchi faolligini tashkil qilish tamoyili. Ushbu tamoyil korreksion tadbirlarni amalga oshirish yo'llarini hamda belgilangan maqsadlarga erishish usullarini belgilaydi. Korreksiya jarayonida belgilangan maqsadga erishishdagi asosiy omil bo'lib o'quvchining faol ishtirokini tashkil qilish, uning murakkab vaziyatlarni tushunishi va muammoning mohiyatini anglashi uchun sharoit yaratish, unda ijtimoiy jihatdan samarali bo'lgan xalq-atvor algoritmini shakllantirish muhim o'rin egallaydi.

O'quvchi faolligini tashkil qilish tamoyili pedagogik korreksiya jarayonini tashkil qilishning metodologik tamoyili hisoblanadi. Shuning uchun ham korreksiya jarayonini rejalashtirish va tashkil qilishda maqsad va vazifalarga muvofiq bo'lgan faoliyat modelini tanlash zarur. Tanlangan faoliyat modelining mazmuni, shakl va metodlarining murakkablik darajasi o'quvchidan faollikni talab qilishi hamda unda ijobiy sifatlarni, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllanishiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Pedagogik korreksiyaning metod va usullarini majmuaviy qo'llash tamoyili. Ma'lumki, pedagogika fanida ham, psixologiya fanida ham shaxsga ta'sir qilib tanlangan yo'lini, xulq-atvorini, qadriyatlarini o'zgartira oladigan universal usullar mavjud emas. Shuning uchun, pedagogik korreksiya shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini hamda ijtimoiy holatini, pedagogik jarayonning moddiy-texnik hamda o'quv-metodik ta'minlanganligini, pedagoglarni bu ishni u yushtirish va o'tkazishga tayyorlik darajalarini hisobga olish imkoniga ega bo'lgan shakl, metodik va vositalar majmuasi zarur bo'ladi. Ushbu metod va usullardan ma'lum bir mantiqqa asoslangan holda, muayyan bir ketma-ketlikda o'quvchining emotsional-hissiy sohasiga ehtiyotkorlik bilan ta'sir o'tkazilib, uni individual yoki guruhli faoliyatga jalb qilishda foydalanish zarur bo'ladi.

Yaqin ijtimoiy muhit orqali ta'sir qilish tamoyili. Shaxs ijtimoiy muhitsiz rivojlana olmaydi, chunki u – ijtimoiy muhitning faol bo'lagi, yaxlit ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismi. O'quvchi xulqidagi og'ishish – uning shaxsiga ota-onasining, do'stlarining, tengdoshlarining, ta'lim muassasasining pedagog va o'quvchilarining ta'siri (yoki qaysi biriningdir ta'sir qilmaganligi) natijasidir. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchi xulqidagi murakkab vaziyatlarning kelib chiqishi – uning yaqin ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabati va shaxslararo muloqotining oqibati hisoblanadi. Bundan tarbiyaviy-korreksion ishni o'quvchining ota-onasi yoki unga yaqin bo'lgan boshqa kishilar bilan hamkorlik qilmasdan, do'stlari yoki tengdoshlari bilan mavjud bo'lgan munosabatlariga tayanmasdan amalga oshirilar ekan, ushbu tadbirlarning muvaffaqiyatga erishishi mushkul vazifaligicha qo'laveradi.

Shunday qilib, ta'lim muassasasida pedagogik korreksiyaning umumpedagogik va maxsus tamoyillarga asoslanib tashkil qilinsa o'quvchining xulq-atvoridagi mavjud og'ishishlarni tuzatish, unda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, barkamol inson bo'lib shakllanishiga yordam berish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva Sh.A. O'quvchilarni pedagogik tashxislashda qo'llaniladigan metodlar// Xalq ta'limi, 2003 ,№3, 40-45 b.b.
2. Abdullayeva Sh.A. Pedagogik diagnostika.-T.: Fan,2005,256 b.
3. Abdulla Avloniy. Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom.-T.: Fan, 1994, 293b.
4. Bojovich L. I. Lichnost i yego formirovaniye v yunosheskom vozraste.-M.: Vldos, 1998,219 s.
5. Xobson Fleyk. Razvitiye rebyonka i yego otnosheniy s okrujayuShimi.-M.: pedagogika,1990, 304 s.
6. Qo'ziyev.Z. Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalshtirish-Toshkent:Universitet, 1994.-127 b.



10-§. O‘QUVCHILARNING SHAXSIY SAMARADORLIGI PEDAGOGIK KORREKSIYA OBYEKTI SIFATIDA

Agar pedagogikaning obyekti – jamiyatning maqsadli faoliyati jarayonida inson shaxsining rivojlanishini belgilaydigan voqelik hodisalari, ongli va maqsadli amalga oshiriladigan tarbiya jarayoni bo‘lsa, **pedagogik korreksiya obyekti** esa psixofiziologik rivojlanishida, ya’ni *sezgi-motor, somatik, intellektual-nutq sohalarida* kichik og‘ishlar mavjud bo‘lgan, yoki, uning adekvat rivojlanishini, ijtimoiylashuv va maktabga moslashishini murakkablashtiradigan og‘ishlari bo‘lgan bolaning shaxsiyati qaraladi.

Korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi bola shaxsiyatining rivojlantirishidagi kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish (tuzatish), unga dunyo manzarasini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish va jamiyatga munosib integratsiyalashuviga yordam berishdir. Ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilarning shaxsiy samaradorligi pedagogik korreksiya obyekti sifatida qaraladi va o‘qituvchilik kasbining obyekti shaxs, subyekti esa uni rivojlantirish, ta’lim berish va tarbiyalash faoliyatidan iborat ekanligini namoyon etadi.

Pedagogik korreksiya obyekti – psixofiziologik rivojlanishida (sezgi-motor, somatik, intellektual-nutq sohalarida) kichik og‘ishlar bo‘lgan bolaning shaxsiyati.

Korreksion pedagogika kengroq tushuncha bo‘lib, u xulq-atvori, rivojlanishi va moslashuvda kichik og‘ishlarga ega bo‘lgan bolalarni tarbiyalash va o‘qitish bilan shug‘ullanadi;

Korreksion pedagogika vazifasi - bolada faoliyatga bo‘lgan did va irodani uyg‘otish, uni o‘zlashtirish vositalari bilan ta’minlash,

faoliyatni rejalashtirish, maqsadlar qo'yish, unga erishishning maqbul vositalarini aniqlash, monitoring qilish va baholash qobiliyatini rivojlantirish. jarayon va natijalar.

Subyekt – ta'lim jarayonining vakolatga ega bo'lgan ishtirokchisi, ma'lum pedagogik maqsadning tashuvchisi va uning ijrochisi, ya'ni tarbiya beruvchidir.

Obyekt – bu subyektning pedagogik faoliyati yo'naltirilgan mavjudot, ya'ni tarbiyalanayotgan shaxs. Ijtimoiy-pedagogik tuzatish - bu jamiyatda qabul qilingan o'quvchilar xatti-harakatlarining namunalari va me'yorlariga mos keladigan psixologik, pedagogik ijtimoiy rivojlanish xususiyatlarini tiklashga qaratilgan mutaxassisning ishi.

Maxsus pedagogika ma'lum rivojlanish nuqsonlari (kar va zaif eshitish; ko'r va ko'rish qobiliyati zaif bolalar; aqli zaif bolalar; hissiy rivojlanish; tayanch-harakat tizimining funksiyalari; aqliy zaif bolalarni o'qitish va tarbiyalash sharoitlarini o'rganadigan bo'limlardan iborat.

Korreksion pedagogikada 5 xil pedagogik yondashuv mavjud: *konstruktiv yondashuv, hamkorlikda yondashish, refleksiv yondashuv, integrativ yondashuv va nihoyat, izlanish yondashuvi*. Ularning barchasi o'quvchilarning ta'lim va tarbiya sohasidagi muvaffaqiyatlarini kafolatlashga xizmat qiladi.

Korreksion pedagogika sohasining asosiy vazifasi maxsus ta'lim va tarbiya tizimlarining uslubiy, nazariy asoslarini ishlab chiqishdir. O'rnatilgan ilmiy an'analar doirasida, har bir yosh bosqichiga nisbatan maxsus ta'limning asosiy qadriyatlari bolaning normal aqliy rivojlanish yo'lida rivojlanishi, tabiatda ikkilamchi bo'lgan buzilishlarning oldini olish va tuzatishdir.

1. Konstruktivistik yondashuvi

Konstruktivistik yondashuvi konstruktivizm konsepsiyasiga asoslanadi. Bunda o'quvchilar o'zlarining atrofidagi dunyo haqidagi tushunchalarini yaratadilar va ushbu tushuncha o'sib borishlari bilan ularning kundalik hayotidagi tajribalariga asoslanadi. Bu yondashuv

o'quvchilarga o'quv jarayonida faolroq ishtirok etish imkonini berishi bilan foydalidir, chunki u ma'lumotni passiv qabul qilishdan ko'ra yangi tushunchalarni tushunish uchun asos sifatida oldingi bilimlaridan foydalanishga undaydi.



2. Hamkorlik yondashuvi

Hamkorlikdagi yondashuv kooperativ ta'limga tayanadi, ta'lim oluvchilar uchun ularga taqdim etilgan ma'lumotni yaxshiroq tushunish uchun birgalikda ishlashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvning kuchli tomoni shundaki, o'quvchilar bir-birining ma'lumotlarini tushunish va hatto o'zlarining noyob qobiliyatlari va resurslaridan foydalanishlari mumkin.



3. Refleksiv yondashuv

Refleksiv yondashuv birinchi navbatda o'qituvchi va o'quvchilarning sinfda nima qilayotganini tahlil qilishga qaratilgan. Bu o'quvchilar sinfi uchun o'quv jarayonlarini yanada samaraliroq qilish uchun o'qitish usullari va ularni takomillashtirish yo'llarini topish haqida o'ylashga undaydi. Buni o'z amaliyoti haqida ko'proq o'rganish, muayyan amaliyotni yaxshilash (masalan, kichik guruhlarda va hamkorlikda o'rganish) yoki diqqatni jamlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini aks ettirish kabi

jarayonlar orqali amalga oshirish mumkin. talabalar duch keladigan muammolar.

Har kim mulohaza yuritish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan ba'zi o'ziga xos baholash shakllari jurnal taqdimotlari va jurnallardir.



4. Integrativ yondashuv

Integrativ yondashuv o'quvchilarga o'rganilayotgan dolzarb mavzu va o'quv dasturining turli bosqichlarida duch keladigan boshqa mavzular o'rtasida bog'lanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu shuni anglatadiki, u alohida-alohida faktlarga emas, balki turli xil ma'lumotlarning o'ziga xos aloqalariga e'tibor qaratadi. Garchi bu yondashuv oliy ta'limda ko'proq qo'llanilsa-da, u ta'limning boshqa bosqichlarida hali ham juda foydali bo'lishi mumkin, chunki u o'quvchilarga tegishli ma'lumotlarni bir-biriga bog'lash orqali atrofdagi dunyo haqida kengroq tushunchaga ega bo'lishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bu yondashuv o'quvchilarga o'zlari, mustaqil o'rganayotgan mavzulari bilan shug'ullanishlariga yordam beradi.



1. So'rovga asoslangan yondashuv

So'rovga asoslangan yondashuv o'quvchilarni izlanish va o'rganishga undashi bilan o'ziga xosdir. U hal qilish uchun tanqidiy fikrlashni talab qiladigan savollar, stsenariylar yoki muammolarni taqdim etishdan boshlanadi, bu faktlarni bevosita taqdim etadigan boshqa yondashuvlardan juda farq qiladi. Ushbu yondashuv savollarga to'g'ri javob berishdan ko'ra ko'proq narsani talab qiladi va o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantiradi.



Korreksion (tuzatish (maxsus)) pedagogikaning asosiy muammosi kattalarning ijtimoiy va madaniy tajribasini bolaga etkazish ehtiyoji va qobiliyati o'rtasidagi qarama-qarshilikni hal qilish yo'llarini izlashdir. Rivojlanishining har bir bosqichida an'anaviy ta'lim va tarbiya muammolarini hal qilishning "vaqtinchalik echimlari" va o'ziga xos vositalarini ishlab chiqish vazifasi paydo bo'ladi. Pedagogikaning barcha sohalar uchun dolzarb bo'lgan ta'lim va rivojlanish o'rtasidagi munosabatlar muammosi korrektsion (maxsus) pedagogika uchun ajralmas va asosiy muammodir, ammo uni hal qilish pedagogikaning boshqa sohalariga qaraganda ancha murakkablashadi. Bolaning biologik kamchiligi (eshitish, ko'rish, markaziy asab tizimi va boshqalar) uning tashqi dunyo bilan o'zaro munosabatlarini anomallashtiradi, bu aqliy rivojlanishda og'ishlarni keltirib chiqarishi mumkin, Maxsus tashkil etilgan ta'lim buning oldini olishi mumkin.

Bolalarning taqdiri ta'lim va rivojlanish o'rtasidagi munosabatlar muammosi maxsus ta'lim tizimida qanday tushunilishi va hal qilinishiga bog'liq.

Korreksion pedagogikaning shakllanishi defektologiya doirasida - klinik-fiziologik va psixologik-pedagogik tadqiqot yo‘nalishlarini bolalarning rivojlanishi va o‘rganish jarayonlarini bog‘laydigan ilmiy bilimlarning integral sohasi doirasida amalga oshiradi.

Shunday qilib, korreksion (maxsus) pedagogikaning genetik va tarixiy ildizlari uning umumiy pedagogikaning boshqa sohalari bilan, tegishli tibbiy va psixologik fanlar bilan yaqinroq bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy maktabgacha korreksion (maxsus) pedagogikaning eng katta yutug‘i rivojlanishida anomaliya bo‘lgan bolalarni erta (hayotining birinchi oylaridan boshlab) aniqlashning ilmiy asoslarini, erta differentsial diagnostika asoslarini va maxsus ta‘lim tizimini ishlab chiqishdir. Bu esa, ontogenezning dastlabki bosqichlarida bolalarda aqliy rivojlanishning sifat jihatidan boshqacha darajasiga erishish va uning buzilishlarini tuzatish imkonini beradi.

Korreksion (maxsus) pedagogikaning tarixiy va genetik ildizlari klinik-fiziologik va psixologik-pedagogik tadqiqot sohalari ma‘lumotlarini jarayonlarga integratsiyalashuvi natijasida yuzaga kelpan ilmiy g‘oyalar asosida maxsus ta‘lim va tarbiya tizimini rivojlantirish an‘analarining barqarorligini belgilab berdi.

Ushbu an‘ananing rivojlanishiga misol sifatida eshitish qobiliyati zaif bolalarga nisbatan maxsus ta‘lim va tarbiyalash yondashuvini keltirib o‘tish mumkin. Ushbu yondashuvning nazariy asoslari bolaning aqliy rivojlanishidagi hissiy deprivatsiyaning roli haqidagi ma‘lumotlarni birlashtirishga asoslangan; yuqori aqliy funksiyalarni rivojlantirishning sezgir davrlari; bola rivojlanishida ta‘limning etakchi roli; maxsus didaktika asoslari; zamonaviy eshitish vositalarining rezolyutsiya qobiliyatlari va erta eshitish vositalarining roli haqida g‘oyalarni qamrab olganligini misol tariqasida keltirish mumkin.

Hozirgi davrda maxsus pedagogikada inkyuziv ta‘lim tizimining tarkibiy va funktsional tashkil etilishini yangi asosda qayta ko‘rib chiqish imkoniyatini beradi va bu bolalarning umumiy rivojlanishi

kontekstida buzilgan funksiyalarni erta aniqlash va erta kompleks tuzatishga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'lim — bu barcha bolalar umumiy ta'lim tizimiga kiritilgan o'quv jarayoni. Bu yerda “barcha bolalar”, ya'ni ularning jismoniy, aqliy, intellektual, madaniy, etnik, til va boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar, aniq ta'kidlash muhimdir. Bu shuni anglatadiki, bolalar o'z yashash joylarida ta'lim olish uchun teng imkoniyatlarga ega. Umumta'lim maktablari maxsus ta'lim ehtiyojlarini hisobga oladi va o'quvchilarga zarur maxsus yordam ko'rsatadi. Va nihoyat, barcha bolalar tengdoshlari bilan teng ravishda o'rganishlari, rivojlanishi, ijtimoiylashishi va bir-biriga bag'rikenglikni o'rgatishi mumkin.

Inklyuziv ta'limda barcha bolalar, shu jumladan nogironlar maxsus ajratilgan guruhda emas, balki bir sinfda o'qiydilar. Shunisi e'tiborga loyiqki, maxsus guruhlar va muassasalar qolaveradi, ular tugatilmaydi, ammo ota-onalar bolasi uchun muassasani tanlash huquqiga ega.

2025-yilga borib O'zbekiston maktablarning kamida 51 foizini inklyuzivlikka erishishni maqsad qilib qo'ygan. Bundan tashqari, bolalar uchun xavfsiz va inklyuziv ta'lim muhitini yaratish respublika rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

2020-yilda O'zbekistonda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Birinchi bosqichlarda u alohida maktablar va hududlarda eksperimental sinflarni ochishni o'z ichiga oldi, masalan, alohida ta'limga muhtoj bolalar uchun boshlang'ich asosiy tuzatish sinflari yoki 9-sinf o'quvchilari uchun ixtisoslashtirilgan guruhlar.

Konsepsiyaga muvofiq, 2021-2022 o'quv yilidan boshlab ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida 11 yillik majburiy umumiy o'rta ta'lim, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining 10–11-sinf o'quvchilarini kasbga o'rgatish maqsadida kasb-hunarga o'rgatish kurslari tashkil etildi.

Shuningdek, Respublika o'quvchilarni kasbga yo'naltirish va psixologik-pedagogik diagnostika markazida "Inklyuziv ta'lim laboratoriyasi" tashkil etildi. Uning vazifalariga umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim uchun shart-sharoitlar yaratish, inklyuziv ta'lim sifati va samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish, shuningdek, ularning amalga oshirilishini nazorat qilish kiradi.

Inklyuziv ta'limning o'ziga xos xususiyati shundaki, u o'quv dasturiga emas, balki bolalarga qaratilgan. Bunga har bir bolaning, shu jumladan nogironligi bo'lgan va qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning ehtiyojlarini qondiradigan pedagogika orqali erishiladi.

O'zbekistonning yangi ta'lim tizimi o'quvchilarga shunchaki akademik bilimlarni singdirish emas, balki ularda kundalik hayotda va kelajakda zarur bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Tizim erkin muloqot qila oladigan, fikrlaydigan, hayotdagi har qanday masala va muammolarga ijodiy yechim topa oladigan, jamoada ishlay oladigan yoshlarni kamol toptirishga qaratilgan.

Bu "4K" modeli (aloqa, hamkorlik, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik) asosida yaratilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi YuNICEF O'zbekistonga inklyuziv ta'lim tizimini yaratishda yordam ko'rsatmoqda. Hamkorlik davomida bir qator muvaffaqiyatlarga erishildi, masalan, YuNISEF Xalq ta'limi vazirligining inklyuziv ta'limda defektolog va psixologlarning roli to'g'risidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishga hissa qo'shdi.

Konstitutsiyada davlat tomonidan bepul umumiy o'rta va boshlang'ich kasb-hunar ta'limi kafolatlanishi belgilab qo'yilgan.

Maxsus ta'limga muhtoj bolalar uchun ta'lim tashkilotlari inklyuziv ta'lim va tarbiyani ta'minlaydi.

Davlat tomonidan inklyuziv ta'limni shakllantirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, ishni xalqning o'zi olib borishi kerak. Jamiyatda nogironlarga nisbatan ko'plab stereotiplar mavjud bo'lib, bu tizim rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday ekan, jamiyat qanchalik bag'rikeng bo'lsa, dasturlarni amalga

oshirish shunchalik oson bo‘ladi. Va, eng muhimi, bolalarning xususiyatlaridan qat’i nazar, umumiy tilni topish osonroq bo‘ladi.

Umuman olganda, hozirgi bosqichning asosiy vazifasi ochiq fuqarolik jamiyati qadriyatlariga yo‘naltirilgan yangi turdagi ta’lim tizimiga o‘tish jarayonini ilmiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashdir, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son Qarori/ <https://lex.uz/docs/5044711>
2. Выготский Л.С. Собрание сочинений : В 6-ти т. Т. 5: Основы дефектологии / Выготский Л.С. - М.: Педагогика, 2016. - 368 с.
3. Кащенко, В.П. Педагогическая коррекция: Испр. недостатков характера у детей и подростков: кн. для учителя / В.П. Кащенко. - 4-е изд. - М.: Просвещение, 2011. - 223 с.
4. Левина, Р.Е. Нарушения речи и письма у детей: избр. тр. / Ред.-сост. Г.В. Чиркина, П.Б. Шошин. - М. : Аркти, 2015. - 221.
5. Основы специального обучения слабослышащих детей / Под ред. Р.М. Боскис. - М.: Просвещение, 2012. - 310 с.
6. Зыков, С.А. Обучение глухих детей языку по принципу формирования речевого общения - М.: Издательство Академии педагогических наук РФ, 2019. - 360 с.



11-§. MAKTABDA PEDAGOGIK KORREKSIYA FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING SHAKLLARI VA METODLARI

Korreksion faoliyat jarayonida ta'lim-tarbiyaning umumiy metodlari. Ijtimoiy pedagogning ishi, avvalambor pedagogik jarayonni insonparvarlashtirish, o'quvchining umumiy madaniyatini shakllantirish orqali ularda muloqot madaniyati va empatiya (hamdardlik, o'zgalar o'rniga o'zini qo'ya olish xususiyati)ni shakllantirish orqali kechadi. Bu o'rinda quyidagi jadvallarga murojaat etsak.

7-Jadval Pedagogik korreksiyalash zarurati

8-

<i>Kichik maktab yoshidaga o'quvchilarda</i>	<i>O'rta pog'onadagi o'quvchilarda</i>	<i>O'smirlarda</i>
Pedagog bilan muloqot, maktabdagi ayrim omillar: o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar, sinf o'quvchilari tomonidan tan olinishi yoki inkor etilishi va h. k.	Sinf jamoasi va o'rtoqlari bilan muloqotga kirishuvchanlik darajasining pastligi;	Individual omillar: muhit adaptatsiyasi, muloqot jarayonida o'zligini namoyon qila olish; O'qishlaridagi qiyinchiliklar: Sinf jamoasida konform va nokonform guruhlarda tan olinishi yoki inkor etilishi.

«Pedagogik e'tiborsizlik» natijasida vujudga kelgan nuqsonlarni bartaraf qilish quyidagi korreksion metodlar orqali amalga oshiriladi:

Umumiy metodlar: Oilada, maktabda, mahallada mikromuhitni vujudga keltirish uchun harakat qilish;

Ruhiy-hissiy zuriqishning oldini olish.

Maxsus metodlar: bolaning asosiy faoliyat yoʻnalishlaridagi (oʻyin, dars, mehnat) muvaffaqiyatini taʼminlash;

Ijobiy fazilatlariga tayangan holda xulq-atvorini boshqarish;

Tengdoshlari bilan muloqot madaniyatini shakllantirish;

Hissiy olamini kengaytirish orqali intellektual jihatdan oʻsishini taʼminlash;

Xulqidagi nuqsonlarni bartaraf etishda intellektual jihatdan oʻsish orqali erishish;

Axloqiy fazilatlarni kamol toptirishga qaratilgan kompleks topshiriqlardan foydalanish;

8-Jadval «Pedagogik eʼtiborsizlik»ning profilaktikasi

Muloqotni boshqarish metodikasi	Xulq-atvorni boshqarish metodikasi	Bolaning qobiliyatlarini rivojlantirish	Faoliyatni faollashtirish metodikasi
Tengdoshlari oldida bola nufuzini koʻtarish	Xulq-atvorda individual tajribani Shakllantirish	Rivojlanishdagi nuqsonlarni bartaraf etish	Faollikni oʻstirish, motivatsiyani vujudga keltirish, mustaqil hatti-harakat qilishga undash

9-Jadval Korreksiya taʼsiri

Axloqiy tarbiya	Intellektual rivojlanish	Hissiy-irodaviy muhit
Tarbiyachi, pedagoglar	Pedagoglar va psixologlar	Pedagoglar, psixologlar, Shifokorlar
Ijtimoiy pedagog	Salomatlik o‘qituvchisi	
Muhit, oila, tevarak-atrofdagilar		

Maktabda o'quvchilarga axloqiy tarbiya berishda xilma-xil usullardan foydalanish lozim:

- dars, ta'lim jarayonida axloqiy tarbiyani qo'shib olib borish;
- ahil, inoq uyushtirilgan intizomli jamoa orqali axloqiy tarbiya berish;
- to'g'ri rejalashtirilgan tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish orqali;
- Maktabda ijobiy emotsional Sharoit yaratish orqali. Masalan, Mustaqillik kuni, Navro'z bayrami;
- Barcha o'quvchilarning maktabdagi umumiy va yagona tartib qoidasiga rioya qildirish orqali;
- Turli tushuntirish, uqtirish, suhbat, munozara, rag'batlantirish, jazolash usullaridan foydalanish orqali;
- Tarbiyaviy soatlar, «Odobnoma» darslari saviyasini oshirish orqali;
- Mehnat, sport ilg'orlari, ilm-fan xodimlari, san'at yulduzlari, mehnat faxriylari, hojilar bilan uchrashuvlar uyushtirish orqali;
- Maktabda turli kechalar, olimpiada, festival, musobaqalar o'tkazish, turli axloqiy-ma'rifiy, badiiy-estetik tele-radio eShittirishlaridan foydalanish;
- Dars va tarbiyaviy tadbirlar jarayonida milliy qadriyat va an'analarimiz aks etgan asarlarni o'qib-o'rganish orqali.

Ta'limning interfaol metodlari tarbiyaviy korreksiya jarayonini faollashtirishga yordam beradi. Bu guruhga kiruvchi metodlarning o'ziga hos jihatlari mavjud bo'lib, bular quyidagilardan iborat:

- tafakkurni faollashishga majbur qiladi;
- qaror qabul qilishga mustaqil va ijodiy yondashishning zarurligi;
- pedagog va o'quvchilarning doimiy ravishdagi o'zaro hamkorligi.

Interfaol metodlarning o'ziga hos tasnifi mavjud bo'lib, ular noitatsion va imitatsion metodlarga bo'linadi.

Nomitatsion metodlar qatoriga muammoli ma'ruza, evristik suhbat, tadqiqotli laboratoriya mashg'uloti; adabiyot bilan mustaqil ishlash hamda dasturli ta'lim kiradi.

Imitatsion metodlar: o'yinli bo'lmagan metodlar – muammoli vaziyatlarni va diagnostik vazifalarni hal qilib yechimini topishga qaratilgan o'yinli metodlar – rolli va o'quv o'yinlarini o'z ichiga oladi.

Pedagogik korreksiya interfaol ta'lim metodlari o'quvchilarga tayyor bilimlarni berishga emas, balki ularning bilish faolligini oshirish hisobiga, o'quvchilarning o'zlari ma'lumotlarni qabul qilib, to'plab xulosa chiqarishlariga qaratilgan. Korreksiya jarayonida faol metodlardan foydalanish o'quvchilarni mavjud bo'lgan muammoni hal qilishda faol ishtirok etishlarini, guruh a'zolari bilan faol munosabatda bo'lib o'zaro ma'lumot almashishlarini ta'minlaydi. So'nggi vaqtlarda ta'limning faol metodlari ichida ish o'yinlari metodi keng qo'llanilmoqda.

Shaxsda fazilatlarni shakllantiruvchi metodlar qatoriga «Rezyume», «Muammo», «Labirint», «Yelpig'ich», «Muloqot», KBI (kuzatish, baxslashish, ishontirish) kabi metodlarni kiritish mumkin. Quyida Tarbiyaviy-korreksion faoliyat jarayonida fazilatlarni shakllantirishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan interfaol metodlarning ba'zilarini havola qilingan⁵.

«Rezyume» metodining tavsifi. Bu metod murakkab, ko'p tarmokdi. mumkin kadar muammoli mavzularni o'rganishga karatilgan bo'lib, uning mohiyati mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha ma'lumotlar berish va ularni amaliyotda qo'llashdan iborat.

Metodning maqsadi: o'quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida, mavzudan kelib chiqqan holda, muammoning yechimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, guruhga o'z fikri bilan ta'sir etishga, uni ma'qullashga, shuningdek, muammoni yechishda o'quvchi tomonidan mavjud bilimlarini amaliyotda qo'llashga o'rgatish.

⁵ Qarang: Ишмухаметов Р. ва бошқ. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). –Т.: Истеъдод, 2008. – 180 б.

Pedagogik korreksiya jarayonida mazkur metodni o'quvchilarni yakka yoki kichik guruhlariga ajratib qo'llash mumkin. Mashg'ulotda A-3 formatdagi qo'g'ozlarda (o'quvchilar soniga qarab) tayyorlangan tarqatma materiallar, flomaster yoki rangli qalamlardan foydalaniladi.

Mash g'ulotni o'tkazish tartibi quyidagicha:

- pedagog o'quvchilarni, ularning soniga qarab, 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;
- pedagog o'quvchilarni mash g'ulotning maqsadi va o'tkazilish tartibi bilan tanishtiradi va har bir kichik guruhga qo'g'ozning kchiri kismida yozuvi bo'lgan, ya'ni asosiy muammo va uni yechish yo'llari belgilangan varaqlarini tarqatadi;
- xar bir guruh a'zolari ularga tushgan varaqdardagi muammolarni yechish yo'llarining har birini afzallik va kamchiliklarini aniqlab, o'z fikrlarini flomaster yordamida yozma bayon etadilar. Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoni yechimini topib, eng maqbul variant sifatida umumiy xulosa chiqarladilar;
- kichik guruh a'zolaridan biri tayyorlangan materialni jamoa nomidan taqdimot etadi. Guruhning yozma bayon etgan fikrlari o'qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi;
- pedagog boshqa kichik guruhlardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so'rab, ular fikrini aniqdaydi, guruhlar fikridan so'ng takdimot guruhi o'z xulosasi bilan tanishtiradi;
- pedagog guruhlar tomonidan berilgan fikrlarga yoki xulosalarga izox berib, ularni baxolaydi, so'ngra mash g'ulotni yakunlaydi.

Bu qatorga muammo yoziladi:							
Muammoning 1-yechim varianti		Muammoning 2-yechim varianti		Muammoning 3-yechim varianti		Muammoning 4-yechim varianti	
1-yechim varianti-ning afzallik tomoni	1-yechim varianti-ning kamchilik tomoni	2-yechim varianti-ning afzallik tomoni	2-yechim varianti-ning kamchilik tomoni	3-yechim varianti-ning afzallik tomoni	3-yechim varianti-ning kamchilik tomoni	4-yechim varianti-ning afzallik tomoni	4-yechim varianti-ning kamchilik tomoni

Bu qatorga esa xulosa yoziladi:

«Muammo» metodining maqsadi – korreksiya qilinishi maqsad qilib olingan muammodan kelib chiqqan holda, o'quvchilarga muammoning turli vaziyatlardagi ratsional yechimini topishga o'rgatish, muammoning mohiyatini aniqlash bo'yicha malakalarni shakllantirish, muammoni yechishning ba'zi usullari bilan tanishtirish va muammoni yechishga mos bo'lgan uslub va vositalarni to'g'ri tanlashga o'rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi xatti-harakatlarni to'g'ri belgilashga o'rgatishdir.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: o'quvchilarni guruhlariga ajratib, ularni mos o'rinlariga joylashtirgandan so'ng, mashg'ulotni o'tkazish tartib-qoidalari va talablari – mashg'ulotni boskichma bosqich bo'lishi, har bir bosqich o'quvchilardan maksimal diqqat-e'tibor talab qilishi, mashg'ulot davomida ular yakka, guruh va jamoa bo'lib ishlashlari tushuntiriladi. Bunday kayfiyat o'quvchilarga berilgan topshiriqlarni bajarishga tayyor bo'lishlariga yordam beradi va ularda bo'lajak mashg'ulotga nisbatan qiziqish uyg'otadi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartib-qoidalari va talablari tushuntirilgach quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- o'quvchilar mashg'ulot uchun tayyorlangan kinolavhani diqqat bilan tomosha kilib, unda yoritilgan muammoni aniqlashga harakat qilishlari va daftarlariga belgilab boradilar. Agar kinofilm ko'rsatishning imkoniyati bo'lmasa, u holda pedagog o'quv predmetining mavzusi bo'yicha plakat, rasm, afisha yoki biror muammo bayon kilingan matndan foydalanishi mumkin;
- guruhning xar bir a'zosi tomonidan ushbu lavhadan (raemdan, matndan, hayotiy voqeadan) birgalikda aniqlangan muammolarni vatman yoki A-3 formatdagi ko'g'ozga flomaster bilan yozib chikadi;
- berilgan vaqt tugagach, tayyorlangan ishni har bir o'quvchi tomonidan o'kib eshittiriladi;

- pedagog guruh aʼzolari tomonidan tanlangan va muammolar yozilgan qogʻozlarni almashtirgan holda guruhlariga tarqatadi;
- tarqatilgan qogʻozlarda guruhlar tomonidan yozilgan muammolardan guruhning har bir aʼzosi oʻzini qiziktirgan muammodan birini tanlab oladi;
- pedagog tomonidan tarqatilgan quyidagi chizmaga guruhning har bir aʼzosi oʻzi tanlab olgan muammosini yozib, mustakil ravishda tahlil qiladi. Masalan:

Muammoning turi	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muammo yechimi yoʻllari
Misolni muammoga bogʻlash kerak	Kelib chiqish sabablari ifodalanadi	Muammo yechimi

- 1) yakka tartibdagi faoliyat tugagandan soʻng har bir oʻquvchi oʻzi bajargan taqlidiy ishini barchaga oʻqib eshittiradi;
- 2) muammolar va ularning yechimi boʻyicha jamoaviy fikr almashiladi;
- 3) himoyadan soʻng pedagog mashgʻulotga yakun yasaydi va guruh aʼzolarining qiziqarli ishlari uchun minnatdorchilik bildiradi.

Pedagogik korreksiya “muammo” metodidan foydalanish oʻquvchilarda har qanday muammoni yechishdan avval uning sababini aniqlanish va, faqat shundan keyingina zarur boʻlgan uslub va usullarni tanlash koʻnikmasini shakllantirishga yordam beradi.

«Labirint» metodining maqsadi: oʻquvchilarning ijtimoiy faoliyatlarida uchraydigan turli holat va vaziyatlardan oʻz obroʻlarini sakdagan holda chiqish, vaziyatni toʻgʻri baholash va tezlik bilan kerakli yechimini topish koʻnikmalarini shakllantirish, shu boradagi malakalarini oshirishga koʻmaklashish, ularning fikrlash qobiliyati va nutqiy faoliyatini oʻstirish hamda muloqot kilish madaniyatini shakllantirish.

Mashgʻulotni oʻtkazish tartibi: pedagog mashgʻulot boshlanishi oldidan oʻquvchilar uchun stullardan doira shaklida joy tayyorlaydi.

Doira shaklidagi joyning o'rtasiga esa savat yoki tuvakda gul ko'yish maqsadga muvofiq. Joyni bunday jihozlanishi mash g'ulotni qiziqarli va jonli o'tishiga yordam beradi.

O'quvchilar shu davradan joy egallaganlaridan so'ng mashg'ulot boshlanadi. Bunda pedagog mash g'ulotni inson faoliyati rang-barang va turli-tuman voqealar, hodisalar, vaziyatlarga boy ekanligi haqidagi qiskacha suhbat bilan boshlaydi. Misol tarikasida pedagog, o'quvchilar faoliyatida u yoki bu fazilatning qay darajada namoyon bo'lishi, fazilatning shaxsning ma'naviy-ahloqiy kamolotidagi ahamiyati hamda shu fazilat yetarlicha shakllanmagan vaziyatlar to'g'risida misollar bilan gapirib beradi va shu vaziyatdan chikish yo'lini (yechimlarini) so'raydi. O'quvchilardan kamida uchta variantdan bittasini tanlashlari va nima uchun shu variantni tanlaganliklarini tushuntirib berishlari so'raladi. Shundan so'ng o'quvchilardan, o'z hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan holda, o'quv va tarbiyaviy jarayonlarda uchraydigan yoki uchragan biron-bir muammoli vaziyatni eslashlari hamda uning kamida uch xil yechimini ham topishlari so'raladi.

Pedagog yordamida guruhning har bir a'zosi navbat bilan o'zi tayyorlagan vaziyat yoki muammolarni boshqalarga o'g'zaki bayon etadi. va aytilgan muammoning yechimini topish uchun pedagog ularga aniq vaqt (5-10 minutgacha) belgilab beradi. Berilgan vaqt ichida guruh a'zolari vaziyat yoki muammo yechimini topishga harakat kiladilar va ajratilgan vaqt tugagach, guruh a'zodarinig javoblari tinglanadi. Masalan, avval bir kishi tanlagan vaziyat yoki muammo yana bir marotaba esga tushiriladi va guruhning qo'lgan a'zolari navbat bilan ushbu vaziyat va muammoga o'z yechimlarini taklif qiladilar, to'g'ri yechim haqida fikr bildiradilar. Pedagog ham shu vaziyat yoki muammoga nisabatan o'z fikrini bildiradi va bildirilgan barcha fikrlarni umumlashtiradi.

«Yelpig'ich» metodining tavsifi: metod murakkab va ko'ptarmokdi bo'lib, muammoli mavzularni o'rganishga qaratlilgan.

Metodning mohiyati: o'quvchilarga ko'rilayotgan muammoning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot berilib, ularning har biri

alohida nuqtalardan muhokama qilinadi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interfaol metod o'quvchilarga tanqidiy, tahliliy va aniq mantiqiy fikrlashlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va o'g'zaki shaklda ixcham bayon etish, shuningdek uni himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

«Yelpig'ich» metodi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi har bir kantashchining va umuman kichik guruhning faol ishlashiga karatilgan.

«Yelpig'ich» metodi korreksiya jarayonining turli boskichlarida qo'llanilishi mumkin:

boshlanishida – muammo yuzasidan o'z bilimlarini erkin ifodalash;

mavzuni o'rganish jarayonida – muammoning kelib chiqish sabablarini anglab yetish;

yakunlash boskichida – olingan bilimlarni tartibga solishda.

«Yelpig'ich» metodining tarbiyaviy xarakteri shaxsda bir qator fazilatlarini shakllantirishga yordam berishi mumkin bo'lib, bular quyidagilardan iborat:

- o'quvchida jamoa bo'lib guruhdarda ishlash;
- muammolarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish;
- murosali qarorlarni topa olish;
- xushmuomalalik, o'zgalar fikrini hurmat qilish;
- faollik, ishga ijodiy yondashuv;
- muammoga diqqatni jamlay olish kabilardir.

«Muloqot» metodining tavsifi. Ushbu metod o'quvchilarning mustakil fikrlashiga, o'z fikrlarini erkin bayon eta olishiga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga karatilgan.

Metodning maksadi. Tanlangan mavzu, muammo asosida o'quvchilarning fikrlarini hamda ushbu mavzuga bo'lgan munosabatlarini anikdash, mustaqil holda umumiy bir fikrga kelishlariga va to'g'ri xulosa chiqarilishlariga yordam berish, erkin

xolda bahslashishlariga sharoit yaratish, muloqotga kirish va muloqot qila olishga o'rgatish.

Metodning ko'llanishi. Pedagogik korreksiyada bu metodni qo'llash uchun o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanib, mashg'ulotlar o'quv auditoriyasida yoki tabiat qo'ynida o'tkazilishi mumkin.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar: vatman qog'oz, flomaster va markerlar.

- Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:
- pedagog mashg'ulotni boshlashdan avval o'quvchilarni mulokot, baxs-munozarani o'tkazishga qo'yilgan talablar va qoidalar bilan tanishtiradi, so'ngra ushbu mashg'ulotning har bir boskichining mazmunini hamda bajariladigan vazifalarini tushuntiradi;
- pedagog mavzu yo'nalishlari bo'yicha o'quvchilar guruhini kichik guruhlariga ajratadi;
- har bir kichik guruh jamoasi o'z yo'nalishi bo'yicha tayyorgarlik ko'ra boshlaydi;
- kichik guruhlar boshqa guruhlar bilan muloqotga kirishish uchun o'z yo'nalishi bo'yicha turli ko'rgazmali kurollar tayyorlaydilar, rivoyatlar hamda olim va mutafakkirlarning fikrlarini yig'adilar;
- kichik guruhlar o'rtasida asosiy mavzu va uning yo'nalishlari bo'yicha mulokot boshlanadi;
- pedagog guruhdarning fikrlarini maqsadli yo'naltirib boradi va asosiy mavzu kichik guruhlar tomonidan yoritilgach, u aytilgan fikrlarga o'zining munosabatini bildirgan holda muloqotni yakunlaydi.
- Metodni qo'llash algoritmi:

Bosqichlar	Bajariladigan ish	Olinadigan natija
1-bosqich.	Pedagog mashgulotni mulokotning mavzusini aniklashdan boshlaydi. Masalan, «Siz kaysi madaniyat tarafdorisiz: Shark yoki Ovro‘poq» Shu mavzuni o‘rtaga tashlab o‘quvchilardan Shark madaniyati va yevropa madaniyati tarafdorlarini (kiyinish, muomala kilish, munosabat o‘rnatish va x.k.) aniklab oladi. Ularni shu tartibda guruhlariga ajratadi va ularga tayyorgarlik ko‘rishlari uchun sharoit yaratib, imkoniyatga qarab anik vaqt belgilaydi.	O‘quvchilarda muammoni aniqlab, uning yechimi yuzasidan o‘z nuqtai nazarini belgilash ko‘nikmasi shakllanadi.
2-bosqich	Har bir kichik guruhdagi o‘quvchilar o‘z mavzulari asosida kerakli materiallar (dalillar, misollar, aniq fikrlar, o‘z fikrlarini tasdiklovchi ko‘rgazmali materiallar, imkon bo‘lsa videofilm, makolalar, mutafakkir va olimlarning so‘zlari va boshkalar)ni tayyorlaydilar. Kichik guruhdan bir kishini himoya uchun tanlaydilar, qo‘lganlar esa o‘z fikrlarini ko‘shimcha kilishlari mumkin.	O‘quvchilar muammo yechimini mustaqil ravishda topishni, yechimning ratsional ekanligini asoslashni o‘rganadilar.
3- bosqich.	Kichik guruhlar himoyaga tayyor bo‘lgach, pedagog kichik guruhlarining biriga himoya uchun so‘z beradi (himoyaga chikish ixtiyoriy ravishda bo‘lishi ham mumkin). Kichik guruh vakili jamoa nomidan so‘zga chikib, ularga berilgan mavzu asosida tayyorlangan materiallar va dalillarga tayanib o‘z nuqtai-nazarini himoya kilishga kirishadi. Kichik guruh vakili so‘zini tugatgach, jamoaning qo‘lgan a‘zolari o‘z fikrlari bilan ko‘shimcha kilishlari mumkin.	O‘quvchilarda muammo yechimi yuzasidan o‘z nuqtai-nazarlarini dalillar asosida o‘g‘zaki bayon kilish, nutq madaniyati kabi fazilatlar shakllanadi.
4-bosqich.	Mashgulotning 3-boskichidagi kabi, bu bosqichda ham pedagog navbatdagi guruh vakiliga ximoya uchun so‘z beradi. Ikkinchi kichik guruh ham birinchi kichik guruh kabi	O‘quvchilarda muammo yechimi yuzasidan boshqalar nuqtai-nazarlarini

	o'z mavzusi bo'yicha himoya qiladi. Himoya tugagach, pedagog mashg'ulotning keyingi boskichiga o'tadi. Izoh: Har ikkala kichik guruhning himoyasi vaktida pedagog iloji boricha ularga halaqit bermaslikka, o'z fikr-mulohazasini bildirmaslikka, savol bermaslikka harakat kilib, hech saysi kichik guruhga yon bosmagan holda muloqotni boshharadi. Kichik guruhlar himoyasi vaktida tartib saklanishiga va muloqotni o'tkazishga quyilgan talab hamda qoidalarga to'liq bajarilishiga erishishga harakat kiladi. Bu boskichda, asosan, ikki kichik guruh erkin va mustakil faoliyat ko'rsatishlari kerak bo'ladi.	tinglash hamda, zarur bo'lgan hollarda, bu nuqtai nazarni qabul qilish yoki, asosli ravishda, inkor qilish ko'nikmasi shakllanadi.
5-bosqich.	Kichik guruhlar bir-birlariga savollar berishni boshlaydilar. Beriladigan savollar, ularning himoyasi vaktida aytilgan dalillar, misollar, fikrlarni yanada oydinlashtirish maksadida o'z guruhlarining fikrlarini to'g'ri ekanligini ta'kidlab, isbotlab, kolganlarni ham shu fikrga ko'shilishlariga da'vat kilish uchun berilishi mumkin. O'quvchilar erkin holda o'zlarining chiqishlari bilan barchaga ta'sir ko'rsatishga, o'z fikrlarini ma'qullashga harakat qiladilar. Pedagog bunday xolatga sharoit va imkoniyat yaratgan holda baxs-munozarani samimiylik bilan boshharadi.	O'quvchilarda aniq mavzu bo'yicha o'zaro muloqot, munozara olib borish, o'z fikrlarini ma'qullash, imkoniyat bo'lgan hollarda esa baxs-munozarani samimiylik bilan boshkarish fazilatlarini shakllanadi.
6-bosqich.	Pedagog har ikkala tomonning savollari, ma'qullaydigan so'zlari tugagach, ular tomondan aytilgan fikrlarni umumlashtiradi va o'zining bu masala xakidagi muloxazasini bayon etadi, ishtirokchilardan tushgan savollarga javob berishga harakat qiladi.	O'quvchi munozara jarayonida aytilgan fikrlarni umumlashtirishni va o'zining muammo yeschimi haqidagi muloxazasini umumlashtirishni o'rganadi.

Mashg'ulot ohirida pedagog har ikkala guruhning mashg'ulot jarayonidagi faoliyatlarini tahlil etib, ularga minnatdorchilik bildiradi va mashg'ulotni yakunlaydi.

KBI (kuzatish, bahslashish, ishontirish) metodning maqsadi: o'quvchi (yoki o'quvchilar)ni hayotda faol o'rnini topishlarini, peshqadamlik va sardorlik sifatlarini, jamoada ishlash ko'nikmalarini, shuningdek, o'zgalar fikrini hurmat qilgan holda dalil keltira olish, o'z fikrini isbotlay olish, asoslash, ishontirish, munozara olib borish ko'nikmalarini hamda murosaga kelish, izlanish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Pedagogik korreksiya jarayonida bu metod ko'lanilsa o'quvchilar mashg'ulotga oldindan tayyorgarlik ko'rishlari kerak bo'ladi. Mashg'ulot mavzusi o'quvchilarga oldindan ma'lum qilinadi, vazifalarni bajarish uchun tayyorlanishga beriladigan vaqt esa mavzuning mazmuni va murakkablik darajasiga qarab belgilanadi. Mashg'ulot bahs-munozara uslubiga asoslangan bo'lib, o'zining aniq o'tkazilish vaqti va tartibiga egadir. Pedagog dastlab o'quvchilarni mashg'ulot o'tkazish tartib-qoidalari bilan tanishtiradi va ularni kichik guruhlariga ajratadi. Masalan, «Shaxs va madaniy ahloq» mavzusidagi mashg'ulotni o'tkazish tartibi quyidagicha bo'lishi mumkin.

Pedagog mashg'ulotning boshlang'ich bosqichida o'quvchilarga muhokama qilishlari uchun quyidagi savollarni o'rta tashlaydi:

shaxs ijtimoiylashuvi nima?

- axloqiy madaniyat nima?
- shaxs sifati ko'rinishida axloqning o'rnini qanday?
- qanday qilib muvaffaqiyatli inson bo'lish mumkin?

Kichik guruh qatnashchilari o'z hohishlari bo'yicha bittadan muammo yoki hal qilinishi kerak bo'lgan masala tanlab oladilar va so'zga chiqishga tayyorlanadilar. Ular o'zlari tanlagan masala yuzasidan o'z tushunchalari, muammo mavzusini hal qilishga bo'lgan yondoshuvlari, munosabatlari hamda ushbu yechimga oid javoblarini tayyorlashda o'zlarining egallagan holatlari kanchalik to'g'ri ekanligiga chiqishlari orkali boshqalarni ishontirishga harakat qiladilar. Pedagog

ko'rsatmasiga binoan, boshqa kichik guruh qatnashchilari so'zga chiqqan o'quvchi tomonidan aytilgan fikr va egallagan holatlariga nisbatan o'z munosabatlarini bildiradilar, ya'ni so'zga chiqqan kichik guruh tanlagan yo'lni rad etishga harakat qiladilar va shu orkali ularni bahs-munozara, tortishuvga undaydilar.

Bahs-munozara yakunida har bir so'zga chiqqan kichik guruh boshqa kichik guruh a'zolarini o'zlarining tortishuvdagi fikrlari, tanlagan holatlari, dalil va isbotlari kanchalik to'g'ri ekanligiga ularni ishontira olishlari va o'z tomonlariga o'gidira olishlari, iloji bo'lsa ularni o'z guruhlariga qo'sha olishlari kerak bo'ladi.

Mashg'ulot ohirida pedagog ko'rilgan masala yuzasidan yakun yasaydi va bahs-munozara bo'yicha o'z fikrini bildiradi.

KBI 'metodi bir qancha variantlarda qo'llanilishi mumkin. Masalan, o'quvchilardan, ularning hohishlariga qarab, tashabbuskorlar guruhini tuzish mumkin va bu guruh bahs-munozara davomida aytilgan qiziqarli fikrlar, dalillar, asosiy tushunchalar, vaziyatdan chiquvchi holatlar, qiziqarli javoblar, mulohaza, takliflar va boshqalarni o'quv xonasining taxtasiga yoki vatmanga yozib boradi.

Tashabbuskorlar guruhi a'zolari zimmasiga bahs-munozara borishini nazorat qilish, qatnashchilarni faollashtirish, kerak bo'lsa, ba'zilariga alohida tanbeh va tilaklar bildirishni kiritish vazifasini ham yuklatish mumkin. Bunday tashabbuskorlar guruhi auditoriyasida bir-biriga o'xshash fikrlar bildirilishi guruhlarini faollashtiradi, ularga o'z fikrlarini erkin ifodalashlari uchun zarur sharoit yaratadi. Shunindek, bu guruh mashg'ulotning hulosasi qismida ham ishtirok etib, guruhlarining muammoni hal qilish yuzasidan tanlagan yechimlari, bildirgan fikrlari va tortishuvlariga o'z munosabatlarini bildirishlari mumkin bo'ladi.

Pedagogik korreksiya KBI metodidan foydalanib bahs-munozara tashkil qilish uchun quyidagi savollarni muhokama qilish va ularga oydinlik kiritish maqsadga muvofiq:

– jamoat transportidagi xulq madaniyati;

- ta'lim muassasasi (dars jarayoni, tanaffus vaqti)dagi xulq madaniyati;
- dasturhon atrofidagi (ovkatlanish, suhbat, uchrashuv) xulq madaniyati;
- oiladagi xulq madaniyati;
- o'quv guruhi jamoasidagi xulq madaniyati;
- jamoat joylaridagi xulq madaniyati;
- yoshlarning xulq madaniyati;
- so'zlashish (telefonda, uchrashuv vaqtida, ish jarayonida va hokazo) madaniyati;
- an'analar va madaniyat;
- salomlashish odobi va boshqalar.

Maktab o'quvchilarini pedagogik korreksiya qilishda qo'llaniladigan metodlar

Quyida o'quvchilar bilan tashkil qilinadigan tarbiyaviy faoliyatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan pedagogik korreksiya metodlaridan namunalar keltirilgan.

1. "Do'stinga yordam" korreksiya metodi.

Metod turi: mashq.

Maqsad: depressiv bola xulq-atvorini korreksiya qilish

Jarayon: depressiyaga tushgan, o'ziga ishonmaydigan bolaga butun sinf o'quvchilari yordam beradi. O'qituvchi bolalar bilan kelishinib olgan holda o'quvchiga ochiq samimiy, do'stona munosabat o'rnatish kerakligini kelishib olishadi. O'qituvchi boshqa sinf a'zolariga "hozir unga qiyin, bunday vaziyat hammamizda bo'lishi mumkin. Biz uni qo'llab quvvatlasak u o'ziga kelib olishi mumkin", deb tushuntiradi va zaruriyatga qarab rollarni ham taqsimlab berishi ham mumkin. Masalan, kimdir o'qishlariga, kimdir muloqot o'rnatishiga, kattalar bilan munosabat o'rnatishiga yordam berishi mumkin.

Variatsiya: Bu metodika barcha turdagi og‘ishishlarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Natijalar tahlil: o‘quvchi harakatlarini kuzatish.

Xulosa: natijalar o‘z poyniga etganda o‘quvchida normal munosabatlar paydo bo‘ladi va boshqalarni jalb qilish odati yo‘qo‘ladi.

2. Frustratsiya va deprivatsiyani korreksiya metodi vositasida bartaraf etush.

“Men hursandman”

Metodi: yozma

Maqsadi: deprivatsion hislarni normallashtirish.

Jarayon: o‘qituvchi bolalarga “Men hursandman chunki men... emasman” deb boshlanadigan kichik hajmdagi insho yozishni taklif etadi. Bolalar sog‘lomligidan, kiyimlari va yeyishga bir burda noni borligidan xursandligini yozishi mumkin. Oldinda butun hayot turibdi, o‘zini bularning barchasi yo‘q insonlar bilan taqqoslashtirib ko‘rsin.

Variatsiya: yoshga yoki deprivatsiya darajasiga bog‘liqlik.

Natijalar tahlili: o‘zini o‘zidan ham og‘ir atrofdagilar bilan solishtirib ko‘rgan bola asta - sekin deprivatsiyadan holos bo‘ladi.

3. O‘zlashtirishi past o‘quvchilarni korreksiya qilish metodi.

Nomlanishi: “Bu yurtmaga ko‘ra a‘lochilar”

Metodi: xulq-atvorga ta‘sir etish.

Maqsad: har bir bolaning yashirin intiluvchanligini rag‘batlantirish.

Jarayon: pedagog Rozentalning tadqiqot natijalari bilan tanishsak, bir kuni u sinfxonada testni eng yaxshi yechgan o‘quvchilarni e‘lon qiladi. Shundan so‘ng bir necha haftadan keyin aynan shu o‘quvchilar yanada yaxshi o‘qishga harakat qilgan.

Darsda bir necha o‘quvchiga test berib, “sizlar eng yaxshi o‘quvchisizlar” deb ayting. Bu bilan ularning o‘zlariga va o‘qishiga bo‘lgan ishonchi ortadi. Qo‘rquvlarini bartaraf etishiga yordam beradi. Iltifotli bo‘ling va bolalar bo‘rtirmoqda deb tushunmasin.

Natijalar tahlili: o'quvchining harakatlarini kuzating metodika ish bermasa, boshqa o'quvchilarda sinab ko'ring albatta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

4. Ijtimoiy adaptatsiyani korreksiya qilish metodi

“Men va boshqalar”

Metodi: Korreksion o'yin.

Maqsadi: bola o'zini boshqalar bilan taqqoslaganda qanday baho berayotganini tushunish. U boshqalarga qanday munosabatda bo'lsa, boshqalar ham unga shunday munosabatda bo'lishini tushuntirish.

Jarayon: o'qituvchi doskaga savollarni javobi bilan namuna qilib ko'rsadi. O'quvchilar qog'ozni vertikal ravishda ikkiga bo'lib, chap uchiga “Men”, o'ng uchiga “Boshqalar” sifatlarini yozishlari kerak.

Masalan:

Men	Boshqalar
rostgo'y	menga yordam bermaydi
mehribon	qizg'anchiq
jasur	qo'rqq

Bolalardan faqat o'zining sifatini yozish boshqalardan esa bunga javobni yozish talab etiladi.

Variatsiya: Tayyor sifatlarini aytish ham mumkin. Eng muhimi bolalar uni tushunsin va to'g'ri belgilasin. 3-4-sinf o'quvchilari uchun “Menga qanday munosabatda”, “Nega menga yaxshi yoki yomon munosabatdaq”, “Menga boshqalar yaxshi munosabatda bo'lishi uchun men nima qilishim kerak?” kabi nomalarda berish ham mumkin.

Natijalar tahlili: muhimi o'quvchilar qancha sifatni belgilab yozgani emas, balki “Men-boshqalar” o'rtasidagi munosabatlaridagi farqlikdir.

5. Bolalar bilan ishlash uchun korreksion metodlar.

“Kim yoqimtoy?”

Metodi: o'yin.

Maqsad: agressiv holatlarni o'rganmaslikni shakllantirish. Urushlar, zo'ravonliklar va boshqa shakldagi agressiyani qo'zg'atuvchi yaxshi emasligini ko'rsatish.

Jarayon: bolalar turli emotsional holatlarini ko'rsatishni yoqtiradilar. Turli agressiv rasmlar va xatti-harakatlar ular uchun yaxshiroq bo'lsin. Bolalardan ularga odatda qanday holatdagi odamlar yoqishi so'raladi. Yomon odam rasmini belgilab qo'yib "unga o'xshashni xohlaysizlarmi", – deb so'raladi.

Natijalar tahlil: o'quvchi harakatlarini kuzatish

Nomlanishi: "Skulptor"

Metodi: o'yin

Maqsadi: agressiv xulq-atvorni korreksiya qilish.

Jarayon: bolalar plastilindan agressiv kayfiyatdagi odamni yasab ko'rsin. Odamning ko'zlari, yuzi, gavdasi aks etsin. "Eng yomon odam" ni yasash konkursini e'lon qiling.

Nomlanishi: "Mening xarakterim".

Metodi: test-o'yin

Maqsadi: korreksion mashqlar va suhbatlar bo'yicha ma'lumotlar to'plash

Jarayon: o'qituvchi bolalarga o'z harakter sifatlarini yozib berishini taklif etadi. Keyin o'qituvchi bilan birgalikda varroq o'rtasidan vertikal chiziq tortib xarakter sifatlarini ijobiy va salbiylariga ajratadi.

Mening harakterim

Yaxshi sifatlarim

Yomon sifatlarim

Tez xafa bo'lmayman

Ishimni oxirigacha bajarmayman

Uyda oyimga yordam beraman

Vaqtida uxlashga yotmayman

4 va 5 bahoga o'qiyman

Ro'xsatsiz televizor ko'raman

Variatsiya: qancha bo'lsa shuncha yozish kerak. Bolalarning yoshiga bo'g'liq ravishda ularning harakter va xatti-harakatlari tushunish kerak.

Natijalar tahlil: o'quvchi harakatlarini kuzatish .

Xulosa: o'yin nihoyasiga etganda o'quvchida normal munosabatlar paydo bo'ladi va boshqalarni o'ziga jalb qilish odati yo'qo'ladi.

Nomlanishi: "Tabriknoma"

Metodi: mashq

Maqsadi: depressiv bola xulq-atvorini korreksiya qilish.

Jarayon: depressiya tushgan, o'ziga ishonmaydigan bolaga butun sinf o'quvchilari yordam beradi. O'qituvchi bolalar bilan kelishib olgan holda o'quvchiga ochiq samimiy, do'stona munosabat o'rnatish kerakligini kelishib olishadi. O'qituvchi boshqa sinf a'zolariga "hozir unga qiyin, bunday vaziyat hammamizda bo'lishi mumkin. Biz uni qo'llab quvvatlasak u o'ziga kelib olishi mumkin" deb tushuntiradi va zaruriyatga qarab rollarni ham taqsimlab berishi ham mumkin. Masalan, kimdir o'qishlariga, kimdir muloqot o'rnatishiga, kattalar bilan munosabat o'rnatishiga yordam berishi mumkin.

Variatsiya. Bu metod barcha turdagi og'ishishlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Natijalar tahlil: o'quvchi harakatlarini kuzatish.

Xulosa: Mashq o'z nihoyasiga etganda o'quvchida normal munosabatlar paydo bo'ladi va boshqalarni jalb qilish odati yo'qo'ladi.

«Axloq tarbiyasi insonni axloqiy barkamollikka yetkazish va uning baShariyat jamiyatiga foydali inson qilib tarbiyalashdan iboratdir... Bolalar suvga o'xshaydilar. Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi, bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar o'sha muhitning O'xshash odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar ko'proq yaxshi va yomon axloqni o'z uylaridan, ko'chadagi o'rtoqlaridan, maktabdagi o'quvchilardan qabul qiladilar¹», - deb yozadi buyuk ma'rifatparvarlarimizdan biri Abdurauf Fitrat.

Pedagogik korreksiyalashda axloqiy tarbiya mazmuni asosan quyidagilarda o'z ifodasini topishini unutmasligimiz kerak:

1. Jamiyatga, Vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash. Bu xildagi munosabatlar shaxsning vatanparvarligi, fuqaro yetukligi, baynalminallik kabi fazilatlarda aks etadi, uning maqsadlarida Vatan boyliklarini ko'paytirish, mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan amaliy ishlarida namoyon bo'ladi.

¹ Fitrat Abdurauf. *Ўзбек педагогикаси антологияси. Тузувчилар: К.Қошимов, С.Очил -Т., «Ўқитувчи», 1999 й, 5-бет.*

2. Mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash. Bu axloqiy munosabat shaxsning mehnat jarayonida namoyon bo'ladigan yuksak ongida, mehnatning hayotdagi rolini anglashida, xususiy va jamoa mehnatiga tayyorlik, mehnatsevarlikda ifodalandi.

3. Atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat. shaxsning jamoatchilik, ko'pchilik manfaatini o'z shaxsiy manfaatidan ustun qo'yishidir.

4. Shaxsning o'ziga, o'z xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalashi - bu o'quvchini ongli intizom ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Maktabda axloqiy mavzularga oid tadbirlar sinfdan va maktabdan tashqari turli -tuman shakllarda olib boriladi. Bolalar yoshiga, saviyasiga qarab «Inson go'zalligi nimada?», «Axloq va qonun», «Ona yurtning omon bo'lsa», «Inson odobi bilan», «Jannat onalar oyog'i ostida» va boshqa mavzularda suhbatlar, munozaralar o'tkazish mumkin. Sharq qadriyatlari va milliy an'analarni dars va tadbirlar jarayonida o'quvchilarga o'rgatib borish lozim. Maktabda mehnat ilg'orlari, faxriylar, hurmatli qariyalar bilan uchrashuvlar, adabiy kechalar, musobaqalar o'tkazish, turli matbuot materiallaridan foydalanish ham mumkin.

Har tomonlama yetuk, komil insonni shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonidan kutilgan asosiy natija ekan, yoshlarimizga kompleks tarbiya berishimiz lozim. Ayniqsa, ularda fuqarolik hissini shakllantirish, ularning huquqiy madaniyatini o'stirish, vatanparvar va baynalminal insonlar qilib yetishtirishga, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini o'stirishga alohida ahamiyat qaratishimiz lozim. O'quvchilarga huquqiy tarbiyani berishda va ularni vatanni sevishga o'rgatishda davlat ramzlaridan foydalanishning ahamiyati kattadir.

Davlat ramzlaridan pedagogik maqsadlarda foydalanish, ta'lim va tarbiya jarayonida ularning ahamiyatini o'quvchilarga tushuntirish, tarbiyalanuvchilar xulq-atvoriga chuqur ta'sir etadi. Hayotga qadam qo'yib kelayotgan har bir o'quvchi davlatimiz Konstitutsiyasini, bayrog'i, gerbi va madhiyasini yaxshi bilishi kerak. O'quvchilarda Shu

ramzlarga chuqur hurmat-ehtirom tuyg'ularini tarbiyalash tarbiyaviy ishlarimizning uzviy qismini tashkil etishi lozim.

Davlat ramzlarini o'rganish pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilsa, u o'quvchilarning huquqiy va axloqiy his-tuyg'ulariga, vatanparvarlik qarashlariga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Bu borada o'quvchilar bilan olib boriladigan jamoa tarbiyaviy ishlarining imkoniyatlari beqiyosdir. Davlat gerbi, bayrog'i, madhiyasi hamda o'quvchilar tashkilotlari ramzlarining axloqiy, siyosiy, huquqiy mazmuni haqida uyushtirilgan xilma-xil munozara va suhbatlar shubhasiz samarali natijalar beradi.

Davlat ramzlari faqat ta'sirchan tarbiyaviy vosita bo'lib qolmay, balki ta'limiy jihatdan ham muhim omillardandir.

Davlat gerbi va bayrog'ining tasviri, Davlat madhiyasining matni bilan tanishish jarayonida o'quvchilarda davlat hokimiyati ramzlariga hurmat his-tuyg'usi qaror topadi. Davlat ramzlarini o'rganishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini albatta hisobga olish, mavjud darslik, uslubiy ko'rsatma va qo'llanmalardan o'z o'rnida foydalanish lozim.

O'zbekiston fuqarosi o'z Vatanini sevishi, xalqiga cheksiz sadoqatli bo'lishi, O'zbekiston Respublikasining qonun va qoidalarini, ramzlarini yaxshi bilishi va ularga chuqur hurmat bilan munosabatda bo'lishi shart. O'quvchilarda Shu his-tuyg'ularni tarbiyalash o'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir.

Davlat ramzlarini o'rgatish faqat gumanitar fanlarni o'qitish jarayonidagina emas, balki har bir fanni o'qitishda ham, ayniqsa, darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar jarayonida xam keng olib borilishi kerak. Davlat ramzlarining mohiyatini o'rgatish, ularga hurmat ruhini tarbiyalashda sinf rahbarining o'zni ham ahamiyatlidir.

O'quvchilarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalashda axloqiy tarbiyaning o'zni o'ziga xos va juda muhim. Axloqiy tarbiyaning mazmunida jamiyatga, Vatanga muhabbatni tarbiyalash va baynalmilallikni targ'ib qilish birinchi o'rinda turadi. Vatanga muhabbat va sadoqat Shaxsning vatanparvarligi, fuqaro yetukligi,

baynalmilallik kabi fazilatlarda aks etadi, uning maqsadlarida, Vatan boyliklarini ko‘paytirish, mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Vatanparvarlik va baynalmilallik axloqiy tarbiyada alohida o‘rin tutadi. Hadisi shariflarda ham «Vatanni sevmok iymondandir», «Vatan ostonadan boshlanadi», - deb bejiz aytilmagan.

«Vatanparvarlik- kishining o‘zi tug‘ilib o‘sgan, kamol topgan joy, zamin, o‘lkaga bo‘lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma‘naviy axloqiy xislatlari, fazilatlaridir»¹. Vatanparvarlik aniq muhitda, zaminda va mavjud ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Vatanga muhabbat tuyg‘usi bolaga ona suti bilan, allasi bilan kiradi. Bu aziz tuyg‘u bir umr unutilmaydi. Shuning uchun ham vatanparvarlik tarbiyasi hamma zamonlarda ulug‘langan.

Vatanparvarlik shaxsni axloqiy shakllantirishning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Maktabda vatanparvarlikni Shakllantirish quyidagi mezonlar asosida tashkil etiladi:

- Vatanga muhabbat hissi;
- Milliy g‘urur;
- Davlatimizning milliy istiqlol mafkurasi va uni ilmiy idrok etish;
- Davlatimiz ramzlariga sadoqat;
- Millatlararo madaniy muomala (baynalmilallik).

Vatanparvarlik hissini har bir fandan dars o‘tish jarayonida, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida shakllantirish ijobiy samara beradi.

O‘quvchilarda vatanparvarlik va baynalmilallik tuyg‘usini shakllantirishda darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning va sinf rahbarining o‘rni ham o‘ziga xosdir. «Vatan tarixini bilmay turib, uni to‘la sevib bo‘lmaydi», «Vatan ostonadan boshlanadi», «Vatan-yagonadir, Vatan - bittadir» va shunga o‘xshash boshqa ko‘plab mavzularda bellashuvlar, tarbiyaviy soatlar, ko‘rik-tanlovlar o‘tkazish bilan ham Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqatni

¹ Иброхимов А., Султонов Х., Жасраев Н. Ватан туйғуси, -Т.: Ўзбекистон, 1999, 98б.

tarbiyalash mumkin. Yuqori sinf o'quvchilari bilan esa tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda siyosiy axborotlarning o'zni salmoqlidir. Bolalar bunda mamlakatimiz va chet ellardagi siyosiy voqealar bilan tanishib boradilar.

Jahon pedagogikasida e'tirof etilishicha, tarbiya jarayonida mustaqil davlat timsollarining asosiy mafkura va ma'naviy xislatlarni shakllantirishdagi ahamiyati nihoyatda beqiyos.

Davlat timsollari insonda eng avvalambor milliy g'urur va iftixor hissini shakllantirishning zaminlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Millatning shakllanishi, ayni vaqtda millat tomonidan o'z o'tmishining, o'z tarixini, ajdodlarning mehnati, qahramonligi, milliy ma'naviyat va madaniyatining barcha yo'nalishlari tarmoqlari xilma-xilligini hamda o'ziga xosligini o'rganish- davlat ramzlariga bo'lgan hurmatdan boshlanadi.

Davlat timsollari, xususan madhiya - jamiyat a'zolarining, ijtimoiy guruhlar siyosiy partiya, jamoat tashkilotlari, millatlar va elatlar, yoshlar ommaviy harakatlari, diniy uyushmalari, xotin-qizlar, faxriylar, tadbirkorlar va boshqa ijtimoiy subyektlarning umumiy manfaat muddaolarini o'ziga aks ettiruvchi mujassamlaShtiruvchi, ularning hatti- harakatlarini, faoliyatini, fikr- zikrini yagona bir maqsadga- mustaqillikka erishish hamda uni mustaxkamlaShga yo'naltiruvchi g'oyalarni o'z

O'xshash qilib, o'quvchilarni milliy madhiyamiz, davlat ramzlari ruhida g'oyaviy tarbiyalashda maxsus metodikadan foydalanish ijobiy samaralar keltiradi.

Maktab yoshidagi o'quvchilarga huquqiy tarbiya berish ham ularning xulqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga zamin yaratadi.

Tarbiya jarayonida o'rta va katta pog'ona(konsentr)dagi o'quvchilarning xulq-atvorini korreksiyalash yo'llari. Tarbiya jarayonida jamiyat tomonidan qabul qilingan xatti-harakatlar, qoidalar va me'yorlardan chekingan o'smirlarning xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalash ular to'g'risida to'liq axborotga ega bo'lishni talab qiladi.

Deviant xulqli o'smir va o'spirinlarning paydo bo'lishi bu hodisaning obyektiv va tarixiy vujudga kelishi jamiyatimiz oldida, ijtimoiy harakat va ta'lim-tarbiya muassasalari oldiga ulkan vazifani-dezadaptatsiyalashgan (xulq normalaridan chetlashgan) yoshlar bilan ishlashda tarbiyaviy shakl, metod, texnologiyalarni to'g'ri tanlashni, tarbiyaviy ta'sir kuchini jamlashni taqozo etadi. Bu sa'y-harakatlar balog'atga yetmaganlarning reabilitatsiyasiga va shu bilan birga, ularning axloqlarini profilaktikasiga qaratilishi zarur.

Deviant xatti-harakat-bu psixik sog'lom shaxslar tomonidan me'yoriy qoidalarni buzish holatlaridir.

Deviatsiya-bu ijtimoiy pedagogik muammo bo'lib, inson ruhiy olamidagi, uning atrofidagi muhitning o'zgarish hollari bilan bog'liq. Bu hol, ayniqsa, o'smir yoshidagi bolalarga xosdir. Chunki bu yosh eng qiyin va murakkab davr bo'lib, bu yoshdagi bolalarning anatomo-fiziologik, intellektual, axloqiy va boshqa jihatlarida o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'zgarishlar o'z navbatida ularning psixikasida o'zgarishlar ro'y berishiga zamin yaratadi. Ularning ijtimoiy statusida, jamoada o'zini tutishida o'zgarishlar ro'y berib, ularni ko'proq «Men kimman?»-degan savol qiynaydi.

Jamiyatda o'rnatilgan me'yor va qoidalarga rioya qilmaydigan O'xshash tarbiyasi og'ir o'smirlarni ilmda deviatsiya deb atashadi.

Deviatsiya o'z ichiga deviant, delinkvent va kriminal hatti-harakatlarni birlashtiradi.

Deviant hatti-harakat- bu kichik ijtimoiy munosabatlar (oilalar, maktab) hamda xarakter, jinsiy va yosh xususiyatlari jihatidan yaqin kichik ijtimoiy guruhlariga xos ijtimoiy me'yorlardan, hatti-harakatlar va qoidalaridan og'ish, chekishning bir turidir. Ya'ni bu turdagi harakatni intizomsizlik deb ham atash mumkin. Agressiya, chaqiriq ishda va mehnat faoliyatida o'z boshimchalikka yo'l qo'yish, bolalar va o'smirlarning ichkilikka berilishi, daydib yurishlari, oliftachilik qilishlari, assotsial harakatlarga berilish kabilar deviant harakatlarning asosiy ko'rinishlaridir. Ma'lum vaziyatlarda bolalar va o'smirlarning

shu kabi hatti-harakatlarni namoyon etishi deviant harakatlarning tipik xususitidir.

Delinkvent hatti-harakat-deviant harakatlardan farqli ularoq, ular vaziyat ta'sirida emas, balki yuqoridagi kabi assotsial harakatlarning doimiy xarakterga ega bo'lishidir. Delinkvent harakatlarning quyidagi turlari mavjud:

- Haqoratlash, xo'rlash, azoblash va undan huzurlanish kabi agressiv bosqinchilik harakatlar;
- Kichik o'g'riliklar, ta'magarlik, avtotransport va boshqada kerakli buyum va anjomlarni o'g'irlash kabi moddiy foyda ko'rishga qaratilgan o'z shaxsiy manfaati yo'lidagi xarakatlar;
- Narkotiklar sotish va tarqatish.

Kriminal hatti-harakat-bu jinoiy javobgarlikka tortilishga yoshi yetgan Shaxslarning huquqlarga zid harakatlari bo'lib, ular ustidan jinoiy ish qo'zg'atilish jarayonidir. Kriminal harakatlarga deviant va delinkvent harakatlar asos yaratadi.

Yoshlarning asotsial xulqi va g'ayriqonuniy harakatlari salmog'i kamayishiga muammoning holati davlat organlari, hokimiyatlar, jamoat tashkilotlari, uzluksiz ta'lim tizimi tuzilmalarining diqqat markazida turishi kerak. Shu sababli mazkur masala pedagogikaning eng murakkab va ko'pqirrali muammolaridan hisoblanadi.

Shu sababli bugungi kunda yoshlarning xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalashda ikki xil texnologik yondoshuvdan foydalanish zarur:

- profilaktik;
- reabilitatsion.

Profilaktika – xulqdagi ijtimoiy og'ish holatlarini keltirib chiqaruvchi sabablarni oldini olishga, ularni bartaraf etishga, asosiy sabab va shartlarni neytrallashga qaratilgan davlat, jamoa, mahalla, oilaviy, ijtimoiy-tibbiy, tashkiliy-tarbiyaviy tadbirlarning majmuasi.

Profilaktik tadbirlar deganda ijtimoiy pedagogikada ilmiy asoslangan va o'z vaqtida amalga oshiriladigan hatti-harakatlar tushuniladi. Ular quyidagilarga qaratiladi:

- ijtimoiy risk guruhiga kiruvchi bolalarning jismoniy, ruhiy, sotsiomadaniy vaziyatlarning oldini olishga qaratiladi;

- bolaning normal hayotini himoyalash va salomatligini mustahkamlash;

- bolaning ijtimoiy maqsadlarga erishuvi yoʻlidagi saʼy-harakatlariga yordam berish, uning ichki salohiy qudratini yuksaltirish;

«Profilaktika» atamasining oʻzi salbiy holatning oldini olishga qaratilishi bilan uygʻunlashadi.

Ijtimoiy ogʻish turli sabablarga koʻra vujudga kelishini inobatga oladigan boʻlsak, profilaktik tadbir oʻtkazish bir necha koʻrinishda boʻlishi mumkin:

1. Neytrallashtiruvchi;
2. Muvofiqlashtiruvchi;
3. Ijtimoiy ogʻish oldini oluvchi, salbiy holatlarning vujudga kelishiga toʻsqinlik qiluvchi tadbirlar;
4. Salbiy vaziyatlarni bartaraf qiluvchi tadbirlar;
5. Oʻtkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlarni va ularning natijalarini nazoratga oluvchi tadbirlar;

Profilaktik tadbirlarning samaradorligi quyidagilarga eʼtibor berilganda yuqori boʻlishi koʻzda tutiladi:

- Boladagi, ijtimoiy muhitdagi diskomfort hissiyotlarini bartaraf qilishga qaratilgan tadbirlar va ularning balogʻatga yetmaganlar tomonidan vujudga kelgan muammo yechimini topishga boʻlgan qiziqishini, motivatsiyani tajribani shakllantirish;

- Bolaning sogʻligini, maʼnaviy qiyofasini mustahkamlaydigan maqsadlarga qaratilgan yangi koʻnikmalarga oʻrgata borish;

- Hali paydo boʻlmagan muammolarning yechimini topishga oʻrgatish, ularning paydo boʻlishiga yoʻl quymaslik malakalarini shakllantirish;

Profilaktik texnologiyalarga asoslanib tuzilgan tarbiyaviy ishlar rejalarida avvalambor, oʻspirinlar bilan ishlashda *axborot yoʻnalishiga* alohida eʼtiborni qaratish kerak. Bu yoʻnalish mohiyatiga koʻra balogʻatga yetmaganlar ijtimoiy xulq normalaridan ogʻishiga sabab:

ularning muhim axborotdan chetlashtirilganligi sabab bo'ladi. Demak, bu yo'nalish bo'yicha ish olib borilganda, balog'atga yetmaganlarga ularning haq-huquqlari, mas'uliyatlari, jamiyat va davlat oldidagi ijtimoiy burchlari va vazifalari to'g'risida axborot berish lozim bo'ladi. Buni ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio, televizor), kino, teatr, badiiy adabiyot, Internet hamda ijtimoiy ta'lim tizimi orqali amalga oshirib, o'smir va o'spirinlarning huquqiy ongini shakllantirish, ularda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni kamol toptirish mumkin bo'ladi.

Ijtimoiy-profilaktik yo'nalishga asoslangan tadbirlar maqsadi salbiy holatlarning oldini olishga, ularning vujudga kelishini bartaraf qilishga qaratiladi. Mazkur yo'nalishning mohiyati davlat, jamiyat, muayyan ijtimoiy pedagogik muassasa tomonidan o'tkaziladigan ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, tashkiliy, huquqiy, tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan tadbirlar tizimi bo'lib, ular deviant xulqning paydo bo'lishiga to'sqinlik qilishga, uni minimizatsiyalashga (past darajadagi ko'rinishga kelishiga), bartaraf qilishga qaratiladi. Maqsadli axborotning yo'qligi sababli, masalan, giyohvand moddalarni nafaqat tarqatish, balki ularni iste'mol qilish ham jinoiy javobgarlikka olib kelishi mumkinligi to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lmagan yoshlar ko'p hollarda o'xshash jinoyatga qo'l o'rishlari aniqlandi.

Deviant xulqlilar bilan profilaktik ishlarni o'tkazishda asosiy yo'nalishlardan yana biri-*tibbiy-biologik yo'nalish* hisoblanadi. Bu yo'nalishning mohiyati maqsadli tibbiy-profilaktik xarakterga ega bo'lgan chora-tadbirlar orqali ruhiy anomaliyali, biologik sathda patologiyalarga duch bo'lganlarning ijtimoiy normalardan og'ishining oldini olishga qaratilgan.

Ma'lumki, ruhiy sog'lom o'smirlar, o'spirinlar o'zining irodaviy kuchi va ma'naviy va axloqiy qadriyatlari tufayli turli jinoiy hatti-harakatlardan o'zini tiya oladi. Ammo ruhiy patologiyalarga duch bo'lganlar mavjud bo'lgan ma'naviy-axloqiy, huquqiy normalarga zid ish qila olishi qiyin bo'lmaydi. Subyektning bu holati «o'z faoliyatiga javob bera olmaslik» (nevmenyayemost) deb qaraladi. Shu sababli,

o'smir va o'spirinlarning ruhiyatidagi patologiyalarini vaqtida aniqlay olish o'ta zarur deb hisoblanadi. O'smirlarni o'z vaqtida psixoterapevt ko'rigidan o'tishi lozim bo'lib, unga tegishli tibbiy yordam ko'rsatilishi Shart.

Keyingi yo'nalish- *ijtimoiy-pedagogik yo'nalish* bo'lib, uning mohiyati: ichki irodaviy xislatlariga tayangan holda Shaxs sifatlarini qayta tiklaSh yoki korrektsiyalashni nazarda tutadi. Akademik I.P.Pavlov fikricha, «. . . ongli, fikr-mulohazali inson- o'z hohish-istaklarini jilovlay oladigan, o'z hatti-harakatlarini ma'naviy-ma'rifiy maqsadga yo'naltirgan, qonunga xilof ish qilmaydigan fuqaro hisoblanadi». Shu fikrdan kelib chiqqan holda, o'sib kelayotgan o'smir va o'spirinlarda quyidagi irodaviy hislatlarni shakllantirish lozim:

- o'z so'zining va qilayotgan ishining egasi bo'lishga o'rgatish;
- jamiyatga, tevarak-atrofdagi insonlarga ziyon keltiruvchi hatti-harakatlardan o'zini tiya olishga o'rgatish. Buning uchun salbiy tasnifga ega bo'lgan motivlardan saqlanish, ularni jilovlaSh;
- hozirgi paytdagi faoliyatda asosiy va muhim narsalar(o'qish, sport bilan shug'ullanish, ishlash va h.k.lar)ga diqqatni qarata olish ko'nikmasini shakllantirish;
- qonunga xilof bo'lmagan tizimli va rejali maqsadni o'z oldiga qo'ya olishni o'rgatish. Bunda ikkinchi darajali va yo'l-yo'lakay paydo bo'luvchi istaklarni asosiy maqsadga bo'ysundira olish ko'nikmalarini shakllantirish;

Iroda hamisha maqsadli va ongli regulyatsiya qila oladigan faoliyatda namoyon bo'ladi. Irodasiz, kuchsiz xarakterga ega bo'lgan yoshlar ko'p hollarda o'zgalar hohish-istagini bajaruvchilariga aylanib qolishadi. Shu sababli ular turli nojo'ya qiliqlar qilishga moyil bo'ladilar. Ularda irodalilik, sabr, matonat kabi xislatlarni shakllantirish kelajakda jamiyatda faol, axloqiy, ma'naviy qiyofali shaxs shakllanishiga sabab bo'ladi.

Deviant xulqli yoshlarda iroda zaifligi, asotsial xatti-harakat qilishlariga sabab bo'ladi. Bunday salbiy xususiyatlar kelgusida ularning axloqi va xulqida o'z aksini topadi.

Yoshlarda ijobiy xislatlarni shakllantirish, ularning sogʻlom irodali boʻlishlari uchun tarbiyaviy tadbirlarni yosh xususiyatlariga mos ravishda bir qator bosqichlarda oʻtkazilishi maqsadga muvofiqdir (14 - rasm).

Axloqiy tushunchalarni oʻzlashtirish jarayoni maxsus rahbarlik qilishni talab etadi. Oʻquvchilarning tasodifiy hollar, kuchadagilarning bemaʼni taʼsiri, kattalarning yaramas hatti-harakatlari taʼsirida tarkib topadigan axloqiy tushunchalari va jamoa tomonidan toʻgʻri gʻoyaviy rahbarlik qilinmasa, xato, notoʻgʻri, buzuk tushunchalarga aylanib qolishi mumkin.

Yoshlarda ijobiy sifatlarni shakllantiruvchi bosqichlar

I bosqich	Irodaviy sifatlar mohiyatining tavsifi
II bosqich	Oʻz-oʻziga tanqidiy yondashish sifatlarini shakllantirish
III bosqich	Oʻzini-oʻzi tarbiyalash, xulqidagi nuqsonlarni aniqlay olish va ularni korrektsiyalash
IVbosqich	Ehtiyoj va motivlarni oʻzini oʻzi ijobiy tarbiyalashga qaratish
Vbosqich	Ijobiy orzu-istaklarning ushalishiga maqsadli yondashish

14-rasm. Yoshlarda ijobiy sifatlarni shakllantiruvchi bosqichlar

Baʼzan oʻquvchi turmushdagi biror fakt yoki voqeani, adabiy asarlardagi mazmunni, kinokartinalarni oʻzi mustaqil tushuna olmay

noto'g'ri xulosalarga kelib qoladi. Juda og'ir sharoitlarda o'quvchida xato fikrlargina emas, balki ma'naviy tamoyillar va ustanovkalar ruhiga ko'ra bizga yot bo'lgan xatolar ham yuzaga kelishi mo'mkin.

Ko'pchilik noto'g'ri hatti-harakatlarning yuz berishiga ana shular sabab bo'ladi. Axloqiy ongni tarkib toptirishning eng muhim yo'li o'quvchilarning o'zlarida to'g'ri xulq- atvorni yuzaga keltirish bilan axloqiy tajribani boyitish va umumlashtirish yo'lidir, albatta. O'quvchilardagi axloqiy bilimning turli-tuman formalari ularning ongi va his-tuyg'ulariga jonli, yorqin, otashin so'zning (jamoalarda uyuShtiriladigan etik suhbatlar, leksiyalar, munozaralar) ta'siri bu ishni mazmunan boyitishi mumkin.

Axloqqa doir suhbatlar qo'yidagi tamoyillar asosida tuzilishi kerak:

1. Axloqiy mavzudagi suhbatlar mazmuni jihatidan tegishli yoshdagilarga tushunarli bo'lishi lozim. Mavhum va abstrakt tushunchalar, murakkab mulohazalar bilan toliqtirib quyishga yul qo'yib bo'lmaydi.

2. Suhbat o'tkaziladigan jamoani, uning yo'nalishini bu jamoa a'zolarining o'zaro munosabatlarini, o'qituvchiga, o'qishga va boshqalarga munosabatini yaxshi bilish zarur.

3. Suhbatlarni nihoyatda tez-tez o'tkazib turmaslik kerak, chunki psixologik nuqtai nazardan ular kishini toliqtirib quyishi mumkin. Agar suhbatlar konkret sabablar bilan mamlakat yoki jamoa hayotidagi biror voqeaga moslab o'tkazilsa, samarali natija beradi.

4. Suhbatni yorqin, yaxshilab tanlab olingan konkret misollar, hayotiy voqealar yoki adabiy asarlardagi faktlarni hamda kuzatishlarni tahlil qilishdan boshlab umumlashtirish hamda xulosalar chiqarishga o'tish tavsiya etiladi.

5. Emotsional tarzda keltirilgan yorqin va ta'sirchan obrazga oqilona tayanish (nafis san'atdan, adabiyot asarlaridan foydalanish. Kinofilmlar yoki teatr asarlariga kollektiv bo'lib borish yohud ularni jamoada muhokama qilish) zarur.

6. O'quvchilarning ongiga singdiriladigan qoidalarini asoslab berilishi, isbotlangan bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bu hamma narsani tushunib olishga va buning oqibatida dalil qabul qilishga, uning asoslanganligiga ishonch hosil qilishga oqilona isbotlarga rozi bo'lishga qodir bo'lgan o'smirlar va o'spirinlar bilan suhbat o'tkazish paytida juda muhimdir. Boshqa tomondan, bu yoshda so'z ta'sirining samaradorligi pasayib ketishi mumkin, chunki yoshlarda rivojlanib boradigan tanqidiy tendensiyalar ko'pincha uni kattalarning dalillariga ehtiyotkorlik bilan ishonmasdan va noto'g'ri tushunib qabul etishga, ularning dalillarini rad qilishga, biror qoida bilan kelishmaslikka, kattalarning iltimoslari va talabalariga qarshi chiqishga majbur etishi mumkin. yana shuni inobatga olish lozimki, o'smirlar ko'pincha kattalarning o'ziga aql-idrokli kishi deb murojaat qilishlaridan mag'rurlanib yuradi. Unda bu ishonchni oqlash, ana o'xshash munosabatga munosib kishi bo'lish istagi yuzaga keladi.

7. O'smirlarda maksimal darajada faollik, jonli ravishda fikr almashish istagini uyg'otish, ularning fikrini avj oldirish va o'zlarini axloq masalalari ustida o'ylab ko'rishga majbur qilish zarur. O'smirlarga tayyor haqiqatni zo'rlab qabul qildirish yaramaydi, axloq normalari xaqidagi xulosalarni ularning faol ishtirokida (ammo o'qituvchining rahbarligida) chiqartirish kerak. Buning uchun suhbat jarayonida muhokama qilish kerak bo'lgan masalalarni oldindan tayyorlab qo'yish tavsiya etiladi.

8. O'smirlarda chuqur va ta'sirchan emotsiyalarni uyg'otishga intilish lozim. Bunda o'qituvchi suhbatni befarq va shavq-zavqsiz emas, balki emotsional tarzda jonli qilib o'tkazgandagina erishish mumkin. O'qituvchi o'zining ehtirosli e'tiqodi o'smirlarga utishini unutmasligi darkor. O'smirlarning o'zlari his etadigan to'yg'ularni taxminan qo'yidagi formada anglab olishlariga erishish juda muhimdir:" Nima uchun bu hodisa menda shunchalik g'azab va nafrat uyg'otadi?", "Nima uchun men bu xatti -harakatlardan shunchalik hayratlandim?"

Tarbiyachilarning shaxsiy namunasi o'smir shaxsini tarkib toptirishda muhim ahamiyatga ega. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi

ko'pincha o'qituvchiga taqlid qilib, unga o'xshashga harakat qiladi, lekin birinchidan, buni ko'pincha tushunib yetmasdan qiladi, ikkinchidan o'qituvchining tashqi ko'rinishiga va qiliqlariga taqlid qiladi, chunki u shaxsning namoyon bo'lishini tahlil qilishini va shaxsni barqaror hislatlarini anglab yetishga qodir emas. O'smir va o'spirin yoshidagilar esa ko'p hollarda namunaga ongli ravishda taqlid qiladilar. O'smir o'zini katta deb hisoblay boshlagandan e'tiboran kattalarning hatti- harakatlari va ishlariga taqlid qilishga intiladi. Shuning uchun unda tevarak- atrofdagi kishilarning, ayniqsa o'ziga eng yaqin va o'zi uchun eng obro'li kishilarning hatti- harakatiga qiziqish hamda e'tibor berish yuzaga keladi. O'qituvchi qanchalik obro'li bo'lsa, uning e'tiqodi, bilimlari, fikrlari, didi o'quvchilarga shunchalik ko'p ta'sir qiladigan bo'ladi. O'smir kattalarning biror hislatlariga taqlid qilayotib, ko'pincha bu hislatlarni shunchalik ilib olish bilan birga, ularning salbiy hislatlari va hatti -harakatlarini ham o'ziga singdirib oladi. Agar o'qituvchi muayyan maqsadni ko'zlaydigan va prinsipial matonatli, o'z burchini qat'iyat bilan bajaradigan bo'lsa, xuddi shu narsalarni o'z tarbiyalanuvchisidan ham talab qilish unga oson bo'ladi. Aksincha, o'quvchining tajangligi, qo'polligi, o'zini qo'lga ola olmasligi, manmanligi o'quvchilarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilar va ota-onalar ba'zan tarbiyaviy ishlarda o'zlarining shaxsan namuna ko'rsatishlarining ta'siriga yetarlicha baho bermaydilar. Holbuki, ularning qilayotgan ishlari, o'zlarining qanday tutishlari ularning aytgan gaplariga, o'rgatgan narsalariga qaraganda kamroq emas, balki ko'proq ahamiyatga ega bo'ladi.

XX asrning 20-30 yillaridayoq A.S.Makarenko shaxs tarbiyasini pedagogik texnologiyalar tizimida o'ta dolzarb muammo, deb qaragan. Pedagogika fanining rivojlanishi «Shaxsni loyihalashni qay darajada bajarganligi bilan o'lchanadi»¹, ya'ni tarbiya jarayonida tarbiyachi shaxsni shakllantirar ekan, pedagogika oldindan yangi avlod kishisini- barkamol insonni voyaga yetkaza olish qobiliyatiga ega bo'lishi

¹ Макаренко А. С. Педагогические проблемы подрастающего поколения, -М., 1999, 57с.

kerak,- degan fikrni ilgari surgan. Demak, pedagogik texnologiyalarga tayanilgan holda jamiyatga zarur bo'lgan komil inson shaxsini tarkib toptirish, ko'p jihatdan tarbiyaviy maqsad hamda vazifalar tizimini ishlab chiqishni, tarbiyaviy metodlarni to'g'ri tanlashni, tarbiyaviy maqsadlarni nazorat qilishni, tarbiyaviy maqsadlarga erishilganlikni baholashni taqozo etadi. Ko'rib turganimizdek, pedagogik texnologiya ikkita turli soha: texnik fanlarda-ta'lim tizimini mukammallashtirish uchun zarur bo'lgan o'quv vositalari bilan ta'minlashni nazarda tutsa, gumanitar sohada, ya'ni pedagogikada ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarni oldindan oydinlashtirishni taqozo etadi. Abdulla Avloniy fikricha, «...tarbiyalash o'xshash individual tahririy dastur bilan olib borilishi kerakki, u shaxs sifatlarini tarkib toptirishda jamiyat talablaridan birmuncha ilgari ketgan bo'lishi zarur»².

To'g'ri hatti-harakatlarda amaliy tajribani uyushtirish yuqorida ta'kidlab o'tilgandek shaxsni tarbiyalashda muhim va asosiy omildir. Tarbiyachi o'quvchilarda xatti-harakatlarning o'xshash shakl va metodlarini tarkib topdirmog'i kerakki, bu shakl va metodlarda tarbiyaning hal qiluvchi ta'siri ostida yuzaga keladigan yoshlarning e'tiqodlari amalga oshsin. Xatti -harakatlarning aytib o'tilgan shakllari motivlarni, tarbiyalanuvchining ehtiyoj va munosabatlarini "moddiylashtirish" ifodasi, vositasi, shakliga aylanib qolgandagina barqaror omil bo'lib s mustahkamlanadi. A.S.Makarenko xuddi ana shu ma'noda xulq-atvor gimnastikasi to'g'ri xatti-harakatlarni mashq qilishni uyushtirish zarurligi to'g'risida gapirgan edi.

Axloqiy xatti-harakatlarni mashq qilish-bu turli variantlardagi xatti-harakatlarni aslida bir- biriga o'xshash vaziyatlarda uyushgan va muayyan maqsadni ko'zlagan holda takrorlashdir. Faqat ana o'xshash qilingandagina hatti-harakatlarning barqaror va ayni vaqtda umumlashgan formalari tarkib topadi. Sun'iy mashqlar emas, balki o'quvchi hayoti va faoliyatining tabiiy sharoitlari nazarda tutiladi.

O'smirlik yoshidan boshlab, tarbiyaning yangi omili o'z- o'zini tarbiyalash vujudga keladi. O'quvchilar o'zlaridan ijtimoiy ahamiyatga

² Авлоний Абдулла. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ.-Тошкент: Ўқитувчи, 1994.-141-бет.

ega bo'lgan shaxs hislatlarini tarkib toptirish sohasida xulq-atvoridagi kamchiliklarga salbiy hislat va sifatlarga barham berish sohasida ongli ravishda yondashsalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda o'z ustida muntazam ravishda ishlash «. . . odamning yuksak darajada o'z-o'zini idora qiluvchi, o'z-o'zini kamol toptiruvchi birdan bir tizimdir¹»- degan edi L.I. Bojovich. Demak, agar o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan intilishni kattalar, jamoa yetarli darajada tashxislab, boshqarib va tashkil qilib turmasalar unda o'quvchi o'z-o'zini tarbiyalash mazmunida (nimani tarbiyalashda) hamda uning shaklida (qanday tarbiyalashda) jiddiy xatolarga yo'l qo'yishi mumkin.

Uzluksiz ta'lim tizimida xizmat qilayotgan o'qituvchi, tarbiyachi tashxislash jarayonida quyidagi vazifalarni nazarda tutishi kerak:

birinchidan, - o'quvchida shaxsning ijobiy hislatlarini taraqqiy ettirib, o'z xulq-atvoridagi yomon tomonlaridan xalos bo'lishga intilish istagini uyg'otish.

ikkinchidan, - o'smir shaxsiga tanqidiy munosabatda bo'lishda, o'z xulq-atvoridagi xususiyatlarni diqqat bilan va odilona tushunib olishda, o'z kamchiliklarini yaqqol ko'rishda, o'z nuqsonlarini fahmlab olishda yordamlashish.

uchinchidan - o'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalash dasturini tuzishda, shaxs xulq-atvori hislatlarining qaysi xususiyatlarini (masalan, o'zini qo'lda tuta olish, qat'iylik, empatiya, sovuqqonlik (yaxshi ma'noda) va shuning singarilarni) taraqqiy ettirish, qaysilarga (masalan, o'jarlik, yalqovlik, qo'pollikka) barham berish kerakligini belgilab, hamda hal qilib olishda o'quvchi-yoshlarga yordam beradilar. Xuddi shu yerda shaxs sifatlarini to'g'ri va obyektiv baholashda, xulq-atvordagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablarini mohiyatan baholashda ham o'quvchilarga ko'maklashish muhimdir.

Nihoyat, *to'rtinchidan* - o'qituvchi, tarbiyachi o'z-o'zini tarbiyalashning oqilona yo'llarini ko'rsatib beradilar, shaxsning ijobiy

¹ Божович Л. И. Личность и её формирование в юношеском возрасте. -М.: Просвещение, 2009, 94-с.

hislatlarini tarkib toptirish va kamchiliklariga barham berishga oid eng maqsadga muvofiq va samarali yo'llarni ko'rsatadilar.

O'qituvchilik- inson jamiyati tarixi boshlangandan e'tiboran davom etib, shu bilan birga hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tiborga loyiq e'zozlab kelingan kasbdir.

Nasriddin Tusiy o'zining "O'qituvchilarni tarbiyalash to'g'risida" degan asarida O'xshash deydi: "O'qituvchi munozaralarni olib borishi, rad etib bo'lmaydigan darajadagi isbot qilishni bilishi, o'z fikrlarining to'g'riligiga ishonishi nutqi esa mutlaqo toza, jumalari mantiqiy ifodalanadigan bo'lishi lozim. O'qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaharhandali, qo'pol yoki qattiq bo'lishi mumkin emas. Dars paytida o'qituvchining o'zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin", ¹

Yusuf Xos Hojib: "Men a'zolar kasalligini davolashdan oldin odamlarning ruhiyatini davolashni zarur deb topdim. Bunga men o'qituvchilik yo'li bilan erishaman, bunga mening ishonchim komil. Chunki a'zolar kasalligi bilan yuzlarcha, minglarcha odamlar halok bo'lsalar, nodonlik, bilimsizlik tufayli o'n ming va yuz minglarcha odamlar halok bo'ladilar»², - deb ta'kidlashlari bejiz emas.

Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy ham o'qituvchining yoshlarga ta'sir o'tkazish mehnatini xolisona baholab: "Agar Shogird nodonlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi", "Haq yo'linda kim sanga bir harf o'qutmish ranj ila, Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila"³ - kabi satrlar bitgan.

Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi - sinfdagi o'quv jarayonining tashkilotchisidir. O'qituvchi o'quvchilar uchun dars payti, qo'shimcha darslarda va Shu bilan birga darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbaidan biridir. Ko'pchilik o'qituvchilar sinf rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo'lib hisoblanadilar.

¹ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. -Т.,2002, 456-б.

² Ўша жой., 349- б


³ Алишер Навоий Танланган асарлар тўплами. -Т.:Ўзбек адабиёти ва санъати, 1996,2-жилд, 148-б.

Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy pedagog-psixolog bo'lmisligi mumkin emas. Shuning uchun ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir. Ma'lumki, pedagogik faoliyat – kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir.

Reabilitatsion xizmatni boshqarish modeli va uni amalga oshirish mexanizmi hududdagi ijtimoiy madaniy vaziyatlarning ma'lum modelini yaratish imkonini beradi. Bu model bola va o'smirlarning:

Umumorganizmni reabilitatsiya qilish (tibbiy)

1. Shaxs sifatida reabilitatsiya qilish (psixologik)
2. Ijtimoiy subyekt sifatida (ijtimoiy)
3. Faoliyat subyektiv darajasiga ko'tarishga qaratilgan reabilitatsion xizmati bo'lishi kerak (14-rasm).



15-rasm. Bolalar va o'smirlarni kompleks rehabilitatsiya qilish tuzilmasi

Hududiy rehabilitatsion xizmat xodimlarining faoliyati qo'yidagi mexanizm asosida yuritilganda samarali kechadi:

- Rehabilitatsion xizmat ko'rsatishda muassasalararo umumhamkorlik
- Rehabilitatsion xizmat ko'rsatishni ilmiy metodik ta'minlash
- Rehabilitatsion xizmatda kadrlar masalasi
- Rehabilitatsiya qilish obyektlarini tanlash va diagnostika qilish

- Reabilitatsiya subyektlarining kelishuvi asosida faoliyat ko'rsatish.

Jamiyatimizdagi yoshlarni tarbiyalashda optimal uslub va vositalardan foydalanishimiz lozim, buning uchun esa avvalambor ularning tarbiyalanganlik darajasini tashxis qilishimiz kerak. Tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirganimizda siyqallaShib qolgan tadbirlardan voz kechishimiz shart.

Pedagogik omillarning sotsiumga hamda har bir shaxsga ta'sir ko'rsatishini pedagogik diagnostika va korrektsiyalashda inobatga olish zarur.

O'quvchi-yoshlarning yosh davrlarini hisobga olgan holda o'tkazilgan pedagogik diagnostika va korrektsiya ishlari ularning egallagan bilim sifatiga va kasbiy yo'naltirilishiga ijobiy ta'sir etadi.

Maktab tizimidagi ta'lim-tarbiyaning nazariy va amaliy tomonlarini tahlil etish shundan dalolat beradiki, pedagogik diagnostika va korrektsiyalashga qaratilgan prinsipial yangi adabiyotlar, XXI asr adabiyotlar majmualarini ishlab chiqish va tajribadan o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim beruvchi o'qituvchilar tomonidan ijtimoiy-gumanitar, tabiiy fanlar blokiga kiruvchi darslarda didaktik vazifalar bilan bir qatorda tarbiyaviy masalalarning tugunini topishga harakat qilinganda tadqiq qilinayotgan muammo doirasida qo'yilgan vazifalar o'z yechimini topadi.

Maktab yoshidagi o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi tashxislangandan so'ng, ularga axloqiy, huquqiy, mehnat, jismoniy va hokazo tarbiya turlari bo'yicha korrektsiyalash ishlari olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu o'quvchilar tarbiyalanganligining tizimlilikini, yaxlitligini va puxtaligini ta'minlaydi.

Pedagogik korrektsiyalash ishlarini amalga oshirganda muassasalararo umumhamkorlikka erishish lozim. Bunda pedagogik diagnostika va reabilitatsion ishlarni amalga oshiruvchi mutasaddi kadrlarni voyaga yetkazishni nazarda tutish lozim.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Deviant xatti-harakat nima? Delinkvent xatti-harakat-chi?
2. Kriminal xatti-harakat deviant va delinkvent harakatlarga asos bo'ladimi?
3. «Profilaktika» mohiyatini tushuntirib bering. Profilaktik tadbirlar deganda ijtimoiy pedagogikada nimalar tushuniladi?
4. Profilaktik tadbirlar asosan qanday holatlarning oldini olishga qaratiladi?
5. Pedagogik korreksiyalashda axloqiy tarbiya mazmuni nimalarda o'z ifodasini topadi?

ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva SH.A. O'quvchilarni pedagogik tashxislashda qo'llaniladigan metodlar// Xalq ta'limi, 2003 ,№3, 40-45 b.b.
2. Abdullayeva SH. A. Pedagogik diagnostika.-T.: Fan,2005,256 b.
3. Abdulla Avloniy. Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom.-T.: Fan, 1994, 293b.
4. Abdurauf Fitrat. Muxtasar islom tarixi.-T: Fan, 1993, 172 b.
5. Abu Ali ibn Sino. Tadbiri manzil. DuShanba: «Irfon», 1980.420 b.
6. Abu Abdulloh Muhammad ibn al-Buxoriy. Hadis («Al-jomi' as-Sahih»). 1-jild. Tarjimon Z.Ismoilov.-T:Qomuslar bosh tahririyati, 997, 572 b.
7. Abu Iyso-at-Termiziy. Sahih Termiziy. Abdug'ani Abdulloh o'g'li tarjimasi.-T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1993, 118 b.
8. Komilov Najmiddin. Tasavvur 1-kitob.-T.: Yozuvchi, 1996.-208 b.
9. Qo'ziyev.Z. Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalshtirish-Toshkent:Universitet, 1994.-127 b.



12-§. PEDAGOGIK KORREKSIYADA NEYROLINGVISTIK DASTURLASHNING BAZAVIY TEXNIKASIDAN FOYDALANISH

Neyrolingvistika (lot.: “neuron” –“nerv” va “lingua”- “til”) - tilning miyyada qanday namoyon bo‘lishini o‘rganadigan soha bo‘lib, psixologiya fani sohasi, afaziyaning psixolingvistik jihatlarini tadqiq qiladi.

Soddaroq qilib aytadigan bo‘lsak, til miyya orqali boshqariladi, uning turli vaziyatlarda qanday namoyon bo‘lishi miyyadagi neyronlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Neyrolingvistikaning o‘rganish ob’ekti sifatida afaziya- nutq sistemasidagi muammolar; yoshlar orasida nutqda farqlarning yaqqol bo‘linishi; logopedga ehtiyojning ortishi; alsgeymer kasalligiga moyillik va uning yosharishi; so‘zlar va xotira bog‘liqligi, ikki tillilik; Ma‘naviy va moddiy halokat va til sistemasi orasidagi yaqinliklar; - Tashqi va ichki nutq – ong osti holatlar; - Qizlarning gapirish toni va o‘gil bolalarning ohangi, so‘zlarning ishlatilishi, pauza, temp, gapirish intonatsiyasidan tortib, til grammatikasi ham farqlanishi; - Etiqod, yosh, soha va til hamda uning bo‘limlarining bog‘liqligi kabi juda ko‘plab sohalar bugungi kunda uning o‘rganish obyektidir.

Ushbu soha tarixiga qaraydigan bo‘lsak, 1940-1950-yillarda E.Tragger, A.Xekan, A.Luriya kabi olimlarning ishlarida mazkur masala bo‘yicha ma’lumotlar yoritib berildi. Luriyaning “Neyrolingvistikaning asosiy muammolari” kitobi dastlabki kitob sanaladi. Voqealarga izma-iz ravishda 1970-yillarning boshlarida Santa Kruz universitetida professor va talabalar Jon Grinder va Richard Bandler neyrolingvistika (NLP) sohasini o‘rganishni chuqurlashtirishgan.

O'zbek tilshunoslik dorasida bu soha haqida dastlabki fikr quyidagicha: Neyrolingvistika - tilshunoslikning eng yangi sohasi sifatida ma'lum bo'lib, u miyadagi neyronlarning tilni hosil qilishdagi xizmatini o'rganuvchi sohadir. Neyrolingvistika psixolingvistika bilan uzviy bog'liq va ba'zan ular o'rganadigan obyektlar aralashadi. Ammo "Psixolingvistika buni insondagi psixologik jarayonlar bilan bog'lab tushuntirishga harakat qiladi. Neyrolingvistika esa miya strukturalari va funksiyalari bilan bog'lab o'rganadi",- deya ta'kidlaydi lingvist neyrolingvistika va psixolingvistika bo'yicha olimi Iroda Azimova . Neyrolingvistika nevrologiyaning kognitiv nevrologiya bo'limi sohasi tarkibi sifatida o'rganilgan. Neyrolingvistikaning dastavval asosi afaziya bo'lgan.

Afaziya - nutqning sistem buzilishi bo'lib, bosh miya po'stlog'ida joylashgan nutq markazlarining zararlanishi oqibatida kuzatiladiga holatdir. Neyropsixologlar nutqning ikta alohida turini farq qilishadi. Bu ekspressiv nutq(so'zlash) va impressive nutq (so'zlarni, gaplarni tushunish) . Afaziyaning barcha turlarida bu ikki nutq u yo bu darajada zararlangan bo'ladi. Afaziyada bir necha turlari bor: - Global - Eksperssiv - Aralash - retseptiv afaziya(ravon) - Anomik - Birlamchi progressiv afaziya.

Neyrolingvistika doirasida o'rganilgan til bilan bog'liq kasalliklarni davolash bo'yicha gipnoterapiyadan foydalanishga doktor H. Milton, Erikson, shu bilan birga oilaviy terapevt Virjiniya Satir ham fan rivoji va davo choralarini topish bo'yicha o'z xissalarini qo'shishgan.

Neyrolingvistikaning asosiy obyekti nutq sistemasi buzilishi bo'lsa-da bugungi kunda neyrolingvistika dasturlash yoki NLP kabi yangi yo'nalishi ham tarqalyapti. Bunda birovning ongiga ta'sir qilish ikki shaxsning neyronlari o'rtasida bog'liqlik kabi yangi tarmoqlar paydo bo'yapti. Neyrolingvistika dasturlashning kuchi amaliy tajribalar bazasidir. NLP bo'yicha, biz tashqi muhit sifatida boshdan kechirayotgan narsalarimiz va ushbu tajribaning ichki tasavvurlari o'rtasidagi bog'liqlikni tekshirishni ham taklif qilgan. Buni amalga

oshirish uchun NLP nevrologiya, psixofiziologiya, tilshunoslik, kibernetika, aloqa nazaryasi bilan hamkorlikda rivojlanadi. Neyrolingvistikaning o'rganish predmeti 4ta hisoblanadi va bular juda soddadir.

A= eshitish

V=visual/ ko'rish

K= Kinestik/ Tana sezgilari

O= ta'm, hid.

“e” va “i” ustki yozuvlari tashqi manbalardan olinadigan ma'lumotlar qiyofasidir. Masalan, “e” biz o'zimizdan tashqarida bo'lgan narsaga qaraganimizda, tinglaganimizda, his qilganimizda, hidlaganimizda, ta'mini his qilganimizda; “i” esa biz qandaydir tasvirni, tovushni, his-tuyg'ularni eslaganimizda yoki tasavvur qilganimizda bizning ongimizda uning inikosi namoyon bo'ganligini ifodalaydi. Yuqoridagi ilmiy izlanishlar asosida shakllangan fikrlar neyrolingvistika sohasini umumiy tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi va ular keying bosqich uchun tayanch sanaladi. Demakki, neyrolingvistika o'rganish obyektlari asosida klinik ko'riklar va laboratoriya tekshiruvlari yotadi va ular klinik davo uchun ham xizmat qila oladi.

Neyrolingvistik dasturlashtirishda shaxsga nisbatan psixologik ta'sirning muvaffaqiyati mazkur jarayonning ob'ekt va sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro ishonch muhitining tashkil etilishidadir. Neyrolingvistik dasturlashtirishda (bundan keyin NLD) shaxsga o'tkaziladigan ta'sir sub'ekt bilan ob'ekt o'rtasidagi anglanmagan holda o'zaro moslashish tufayli amalga oshiriladi. Buning asosiy sababi – inson to'g'risidagi birinchi ta'surotning 55 foizi noverbal kommunikatsiya kanallari hisobliga, 38 foizi tovush xarakteristikallari hisobliga va faqat 7 foizi berilayotgan ma'lumotning mazmuni bilan belgilanishidadir.

NLD o'z mazmuniga ko'ra insonning psixologik jarayonlari va xulq-atvori modeli bo'lib, xuddi kompyuter dasturlari majmuasi kabi qurilgan. Shaxsning hayot faoliyati samaradorligi uning “dasturiy

ta'minoti" bilan belgilanib, yanada mukammal psixik faoliyat "dasturlari"ga o'tish hisobliga oshirilishi mumkin.

NLD, ya'ni "neyrolingvistik dasturlashtirish" deganda "neyro" tushunchasi insonning har qanday faoliyati va xulq-atvori uning bosh miyasi hamda tanasidagi nevrologik jarayonlar bilan uzviy bog'liq ekanligini, "lingvistik" tushunchasi esa fikr va faoliyatni tashkil etish va tartibga solish hamda shaxslararo muloqot til orqali amalga oshirilishini aks ettiradi. "Dasturlashtirish" tushunchasi esa inson u yoki bu darajadagi muhim natijalarga erishishi uchun psixikasini tashkil etishi yo'llari (dasturlari)ni nazarda tutadi.

NLD inson ongi ostiga deyarli sezdirmay ta'sir etish asosida o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatishning juda samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Neyrolingvistik dasturlashtirishning asosiy tamoyillari.

Hozirgi vaqtda neyrolingvistik dasturlashtirish, uni kundalik hayotda qo'llanilishi to'g'risida bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mazkur yonalishda S.V.Kovalevning "Zamonaviy NLDga kirish: Shaxsiy samaradorlik psixotexnologiyalari" ("Введение в современное НЛП: Психотехнологии личностной эффективности") nomli o'quv qo'llanmasida keltirilgan NLDga oid ayrim ma'lumotlar, bazaviy texnikalar va usullarning pedagogik diagnostika va korreksiyada foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Odamlarning tashqi va ichki ta'sirlarga nisbatan aksariyat reaksiyalari avtomatik va stereotip bo'lib, ko'p hollarda foydali hamda optimal bo'lmaydi. Noratsional, eski dasturlarni nisbatan samarali bo'lganlariga almashtirish hisobiga ichki va tashqi ta'sirlarga nisbatan yetarlicha muvaffaqiyatli bo'lgan aks ta'sir hamda xulq-atvorni shakllantirish mumkin. Pedagogik korreksiya jarayonida o'quvchi shaxsiga o'tkaziladigan tarbiyaviy ta'sir samaradorligi NLD bazaviy texnikasining quyidagi tamoyillariga rioya qilinishiga bog'liq:

1. Har bir muammo o'z yechimiga ega. To'g'ri, bunda "atrof-muhit o'zgaruvchilari"ga biz ta'sir eta olmasligimiz mumkin. Biroq,

har qanday vaziyatda muammoni hal etish yo'llari - "tanlov o'zgaruvchilari"ni tanlash bizning ixtiyorimizdadir.

2. Har birimizda muammolarni hal qilishimiz uchun yetarli resurslar – bilim, ko'nikma va tajribalar mavjud bo'lib, faqatgina ularni kerakli vaqtda va zarur ketma-ketlikda foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishimiz kerak.

3. Har bir vaziyat bir necha variantdagi yechim yo'llariga ega. Shuning uchun, agar muammoni hal qilishda bir variant yaxshi (yoki umuman) ishlamasa, u holda boshqa variantni qo'llab ko'rishimiz, masala yechimiga yangicha yondashishimiz kerak.

4. Muammo – aks aloqa mexanizmi bo'lib, uning vositasida asosiy ma'lumot olinishi kerak. Har qanday muammo – faoliyat (harakat) yo'nalishini o'zgartirish uchun signaldir.

5. Mag'lubiyatlar emas, balki faqat aks aloqa mavjuddir. Har qanday muvaffaqiyatsizlikka inson o'zini-o'zi ayblashi uchun amaliy faoliyatdagi yangi tajribaga ega bo'lish, muammoning yangi yechim yo'llarini izlash kerak.

6. Har qanday xulq-atvorimiz o'sha vaqt va vaziyat uchun mavjud bo'lgan variantlar ichidagi eng yaxshisidir. Biz o'z bilim va ko'nikmalarimizdan kelib chiqib doimo eng yaxshi qaror qabul qilganmiz. Yo'l qo'yiladigan xatoliklar esa –mavjud qarorlardan yaxshirog'ini qabul qilishni ayni vaqtda bilmasligimizdadir. Shuning uchun xatti-harakatlarimiz va xulq-atvorimiz o'sha vaqt va vaziyat uchun eng yaxshisi bo'lgan. Shu sababli xato va muvaffaqiyatsizliklarimiz uchun o'zimizni ayblashimiz kerak emas, chunki o'sha vaqt va vaziyatda biz mavjud imkoniyatlarimiz doirasidagi bilim, ko'nikma va tajribamizdan kelib chiqib qaror qabul qilganmiz.

Neyrolingvistik dasturlashtirishning asosiy texnikalari

N.L.D ning bazaviy metodlari quyidagi holatdan kelib chiqadi: inson psixikasida sodir bo‘ladigan har qanday murakkab hodisalarni miya faoliyatining elementar jarayonlari va kodlari tizimiga keltirish mumkin bo‘lib, ularni o‘zgartirish o‘z navbatida aynan shu psixologik hodisalarni ham o‘zgartiradi.

Shaxs holatini o‘zgartirishning asosiy modellaridan biri “Shaxs holatni o‘zgartirish: XH-EIH” bo‘lib, quyidagi sxemada berilgan.

Resurslar

(natijaga erishish uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan har qanday vositalar)

Xozirgi holat (muammoli holat)	Erishish istalayotgan holat (samarali holat, natija)
-----------------------------------	---

Texnika

(ko‘zlangan natijaga erishishda qo‘llaniladigan usullar va metodlar)

3-rasm. “Shaxs holatini o‘zgartirish: XH-EIH” modeli

Sxemadan ko‘rinib turibdiki, korreksiya jarayonida shaxsga samarali ta’sir ko‘rsatish uchun u qanday holatga erishishini istashining o‘zi yetarli bo‘lmasdan, bunda shaxsning ayni vaqtda qanday holatda ekanligini ham bilish muhimdir.

NLDning bazaviy texnikalari sifatida “langar joylashtirish” (yakoreniye), “Men” obrazini o‘zgartirish, xulq-atvor stsenariysini modifikatsiyalash va submodal tahrirlash.

Langar joylashtirish texnikasi – O‘quvchiga o‘zi uchun samarali bo‘lgan, faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi uchun ma’qul hisoblagan holatini so‘z bilan aniq ifodalashi so‘raladi. Bunda ijobiy hissiyot va kechinmalarga alohida va atroflicha e’tibor qaratlib, o‘quvchi faoliyatining boshqa sohalariga salbiy ta’sir etmasligiga ahamiyat berilishi kerak bo‘ladi.

O'quvchidan o'zi uchun samarali bo'lgan, samarali faoliyat uchun ma'qul hisoblagan holatga imkon qadar to'liq o'tishi so'raladi.

O'quvchi faoliyati uchun samarali hisoblangan holatiga biron-bir so'z, ibora yoki qisqa va aniq harakatni langar sifatida "joylashtirishi" taklif qilinadi.

Langar nisbatan samarali ishlashi uchun o'quvchiga har-bir reprezentativ (vizual, audial, kinestetik) tizimdan bittadan o'ziga hos signal tanlanishi tavsiya qilinadi

Langar joylashtirish texnikasi o'quvchi ongidagi faoliyat uchun foydali bo'lgan harakat dasturlarini shakllantirishda qo'llanilishi mumkin. Biroq, ayrim langarlar shaxs faoliyati uchun zararli ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Chunki ayrim langarlar, ya'ni biron-bir tovush, shavqin yoki jismlar o'quvchi ko'ngilsiz xotiralarni eslashiga yoki esankirashiga, qo'rquv holatlariga tushib qo'lishiga olib kelishi mumkin. Bunday hollarda langarlarni o'zaro to'qnashtirish yoki navbatdagi texnika – shaxsning "Men" obrazini o'zgartirish texnikalaridan foydalanish tavsiya qilinadi.

"Men" obrazini o'zgartirish texnikasi –shaxsning ayrim (muhim) vaziyatlarda o'z xatti-harakatlaridan qoniqmaslik holatlarini korreksiya qilishda qo'llaniladi.. Bunda shaxsning hayoti va faoliyati uchun muhim, mas'uliyatli bo'lgan vaziyatlardagi samarasiz hisoblangan xulq-atvor dasturini mazkur texnologiya yordamida nisbatan samarali dasturga o'zgartirish mumkin bo'ladi.

Mazkur texnikadan pedagogik korreksiyada pedagoglar quyidagi tartibda foydalanishlari mumkin:

1. O'quvchiga o'z muammosi mazmunini anglashi va so'z yoki so'z birikmalari yordamida aniq ifodalashi taklif qilinadi. Bunda sodir etilishi rejalashtiriladigan korrektsion o'zgarishlar faqatgina ko'rilayotgan muammoga taalluqli bo'lib, shaxs faoliyatining boshqa sohalariga ta'sir etmasligi ahamiyatga ega bo'ladi.

2. O'quvchidan muammoli vaziyatda o'z hissiyot va kechinmalarini og'zaki ifodalashi so'raladi. Bunda o'quvchi sodir

bo'ladigan psixofiziologik o'zgarishlarning muammoli vaziyat bilan bog'liqligini aniqlash muhim sanaladi.

3. O'quvchiga mazkur muammoli vaziyatda o'z xulq-atvorini tashharidan – dissotsiatsiyalashgan holda kuzatishi taklif qilinadi.

4. O'quvchidan chap mushtini (chapaqaylarda esa o'ng mushtini) borgan sari qattiq siqib va shunga mos ravishda muammoli vaziyatdagi o'z obrazini borgan sari salbiy tomonga o'zgartirib, maksimal darajada yoqimsiz holatga keltirishi taklif qilinadi. Salbiy kechinmalar eng yuqori cho'qqiga ko'tarilganida o'quvchi mushtini ochib yuborishi kerak bo'ladi.

5. O'quvchiga o'zi uchun eng ma'qul bo'lgan holatni modellashtirish taklif qilinadi. Bunda ma'qul bo'lgan holatda xulq-atvorining o'zgarishi, ekspressiyasi, qomatini tutishi, gapirish ohangi, nutqining tezligi, atrofga nigoh tashlashi kabi detallarga e'tibor qaratilishi muhim sanaladi.

6. O'quvchidan o'ng mushtini (chapaqaylardan esa chap mushtini) borgan sari qattiq siqib, o'ziga maqul holatini imkon qadar ijobiy tomonga, maksimal darajada yoqimli qilib o'zgartirishi so'raladi. Ijobiy kechinmalar o'zining maksimal darajasiga ko'tarilganida mushtini ochib yuborishi kerak bo'ladi.

7. O'quvchi ikkala qo'llarini ikki tomonga keng ochib, ularni bir-biriga yaqinlashtirish jarayonida kaftlari bilan har ikkala obrazni – muammoli va ma'qul holatdagi obrazlarini sinxron ravishda fikran yaqinlashtirishi kerak bo'ladi.

8. So'ng, har ikkala obraz bir-biriga qo'shilib birlashgach, o'quvchiga hosil bo'lgan obrazga kirish – assotsiatsiyalashish taklif qilinadi, kechinmalarni ko'zdan kechirishi, his qilishga intilishi taklif qilinadi. Kechinmalar tugaganidan so'ng o'quvchiga mazkur holatdan chiqish so'raladi.

“Men” obrazini o'zgartirish texnikasi o'quvchi ongidagi mavjud bo'lib, uning faoliyati uchun samarasiz bo'lgan obraz dasturini faoliyati uchun nisbatan samarali hisoblangan yangi obraz dasturiga o'zgartirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

- 1.С.В.Ковалев С.В. Введение в современное НЛП: Психотехнологии личностной эффективности: Учебное пособие. –М.: изд-во «Флинта», 2002.
- 2.Р.Дилтс Р. НЛП: навыки эффективной презентации. – СПб.:Питер. 2002;
- 3.Д.А.Зарайский Д.А. Управление чужим поведением. -Дубно, “Феникс”, 1996;
- 4.Д.Р.Паркинсон Дж.Р. Люди сделают так, как захотите Вы. / Пер.с англ.
- 5.С.Мурина. -Т.: “Шарк”; 1994. Семке В.Я Умейте властвовать собой, или беседы о здоровой и больной личности. -Новосибирск, Наука. 1991.



13-§. PEDAGOGIK KORREKSIYA TEXNOLOGIYALARI

O‘quvchilar bilan pedagogik korreksiyanı samarali tashkil qilish uchun pedagogdan mazkur faoliyatga tizimli yondashish va bir qator shartlarnı bajarishi talab etiladi.

Pedagogik korreksiyada ushbu yondashish shaxsiy faoliyat samaradorligini oshirish texnologiyasini qo‘llash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Shaxsiy faoliyat samaradorligini oshirish texnologiyasi bir necha fazadan iborat bo‘lib, o‘quvchilar bilan korreksion-rivojlantiruvchi tadbirlarnı boshlashga tayyorgarlik ko‘rish fazasi, bevosita korreksiya (va rivojlantirish) fazasi hamda korreksiya ishlarini yakunlash fazasini o‘z ichiga oladi. Ushbu fazalarning barchasi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan va mantiqiy ketma-ketlikda joylashgan tarkibiy qismlardan, ushbu qismlar esa maxsus tashkil qilinadigan tadbirlardan iborat bo‘ladi. Korreksion tadbirlar, o‘z navbatida bosqichma-bosqich va maqsadga yo‘naltirilgan xolda tashkil etiladi.

Odatda pedagogik korreksiyada shaxsiy faoliyat samaradorligini oshirish texnologiyasini pedagog hamda o'quvchi o'rtasidagi mavjud ijtimoiy to'siqlarni kamaytirishdan boshlanishi (agar shunday to'siqlar mavjud bo'lsa, albatta) maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tayyorgarlik ko'rish fazasi. Tayyorgarlik ko'rish fazasida korreksion-rivojlantiruvchi faoliyatni o'tkazish qay darajada zarur va maqsadga muvofiq ekanligini aniqlab olish kerak bo'ladi. Buning uchun shaxsning o'ziga hos xususiyatlari, unning xulqidagi bartaraf qilinishi kerak bo'lgan illatlar va rivojlantirilishi kerak bo'lgan sifatlar, mazkur tadbirlardan kutiladigan natija, o'quvchining bo'lajak o'zgarishlarga tayyorligi hamda korreksion faoliyatni olib borish yo'nalishi majmu'aviy diagnostika natijalariga asoslanib aniqlanishi kerak bo'ladi.

O'quvchilarni majmuaviy diagnostika qilish ta'lim va tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Ba'zi pedagog-o'qituvchilar o'z o'quvchilarini o'rganishlari uchun hech qanday maxsus tadqiqotlarning keragi yo'q, deb hisoblaydilar. Biroq masalaga bunday yondashish o'qituvchilarning o'z o'quvchilari to'g'risida faqatgina yuzaki ma'lumotlarga ega bo'lishlarini ta'minlashi mumkin.

Ta'lim muassasalari o'quvchi-yoshlarining individual xususiyatlarini va tafakkur strategiyalarini o'rganish, ularda ijtimoiy va kasbiy zarur sifatlarning shakllanganlik darajalarini pedagogik va psixologik diagnostika metodlari yordamida aniqlanib, olingan natijalarga asosan o'quvchilar bilan o'tkaziladigan korreksion-rivojlantiruvchi tadbirlar rejalashtiriladi. Bunda korreksion faoliyatni tashkil qilishda zarur bo'lgan moddiy-texnika bazasining holatini aniqlash, muammo va farazdan kelib chiqqan holda o'tkaziladigan tadbirlarning maqsadi va vazifalarini belgilash, erishish maqsad qitlingan natijani ko'ra bilish, ko'zlangan natijaga erishish yo'llari va vositalarini tanlash, tadbirlar mazmunini belgilash va faqat shundan so'nggina ushbu faoliyatni tashkil qilishga kirishish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagogik korreksiyaga tizimli yondashilsa, ushbu keltirilgan bosqichlar shu tizimning tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Ko'rgazmali tarzda ifodalanadigan bo'lsa, korreksion-rivojlantiruvchi ishga tayyorgarlik ko'rish fazasi, M.A.Churkina taklif qilgan qoidalar asosida quyidagi ko'rinishda aks ettirilishi mumkin (1-chizma).

**Shaxsiy faoliyat samaradorligini oshirish texnologiyasining
tayyorgarlik ko'rish fazasi mazmuni**

№	Tayyorgarlik ko'rish fazasining bosqichlari	Tayyorgarlik ko'rish fazasida aniqlanishi kerak bo'lgan masalalar
1.	Majmuaviy diagnostika natijalari tahlili	Xulqdagi tuzatilishi kerak bo'lgan illatlar va rivojlantirilishi kerak bo'lgan sifatlar qaysilar?
2.	Korreksiyadan kutiladigan natija	Korreksiya orqali qanday natijaga erishmoqchimiz? Biz qanday o'zgarishlarga erishmoqchimiz?
3.	Korreksiyadan maqsad	Kimni o'zgartirmoqchimiz. Nimaga erishmoqchimiz. Nima sababdan o'zgartirmoqchimiz. Qanday o'zgarishlar sodir bo'lishi kerak?
4.	O'quvchi xulqida korreksion o'zgarishlar bo'lishiga ehtiyoj	Pedagogik korreksiya yordamida qaysi muammolarni hal qilish mumkin? Pedagogik korreksiya qanday masalalarni yechishi mumkin. Korreksiya nima uchun? kerak
5.	O'quvchi(lar)ni korreksiyadan kutilayotgan natijalar bilan tanishtirish	O'quvchilarda qanday fazilatlarni shakllantirishq O'quvchilar qanday natijaga erishishni hohlaydilarq O'quvchilar qanday natijaga erishishlari mumkin
6.	Pedagogik korreksiyaga nisbatan o'quvchi(lar)ning munosabati	O'quvchilar korreksiyaga tayyormiq Ularda bo'lajak o'zgarishlarga ehtiyoj mavjudmi? Ular ayni vaqtda qanday ko'nikma va malakalarga egalar?

7.	Korreksion tadbirlarni o'tkazish uchun moddiy-texnik bazasini o'rganish	Pedagogik korreksiya uchun nimalar zarur. Pedagog qanday tarqatma materiallar va ma'lumotlar bazasiga ega bo'lishi kerak?
8.	Korreksiyadan kutilayotgan natija va maqsadiga muvofiq bajariladigan vazifalar	O'quvchilarda qaysi fazilatlar shakllantiriladi? Ular qanday natijalarga erishadilar? Buning uchun ular qanday vazifalarni bajarishlari kerak?
9.	Pedagogik korreksiya natijalarini baholash mezonlari	Korreksiya maqsadiga erishganimizni qanday qilib bilishimiz mumkin? Korreksiya natijalarini taqqoslashimiz uchun qaysi mezonlarga asoslanishimiz kerak?
10.	Pedagogik korreksiya mazmunini belgilash	Qaysi fazilatni shakllantiramiz? Qanday ketma-ketlikda ishni tashkil qilishimiz mumkin. Texnologik jarayonni tashkil qilishga qanday yondashish kerak.
11	Pedagogik korreksiya xaritasini tayyorlash	Korreksiya tadbirlari qanday ketma-ketlikda, qaysi usul va vositalar yordamida, qachon, qaerda va qanday shaklda o'tkaziladi.

Pedagogik korreksiya samaradorligi quyidagi shartlarning bajarilishiga bog'liq:

1. Muammoning mavjudligi.
2. Muammoning pedagogik korreksiya yordamida bartaraf qilish imkoniyatining mavjudligi.
3. Muammoni bartaraf qilinishiga nisbatan o'quvchida tur g'un xohish yoki ehtiyojning mavjudligi.
4. Pedagogning pedagogik korreksiya metod, usul va vositalarini bilishi hamda to'g'ri qo'llay olishi.

Muammoning mavjudligi hamda uning mazmunini to'liq o'rganish juda muhimdir. Bu shartning bajarilishi korreksiya ishini tashkil qilish, rejalashtirish hamda shakl, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishini ta'minlaydi.

Keyingi qadam – ehtiyojlarni tahlil qilish bo‘lib, bu bosqichning to‘g‘ri tashkil qilinishi tarbiyaviy-korreksion faoliyatning muvafaqqiyati garovidir. Ehtiyojlar tahlilida quyidagi masalalarga ahamiyat berilishi kerak bo‘ladi:

1. O‘quvchida tuzatilishi va rivojlantirilishi kerak bo‘lgan hislatlar to‘g‘risida tushunchaning mavjudligi.
2. O‘quvchida ijtimoiy va kasbiy zarur sifatlarning shakllanganlik darajalari.
3. Ijtimoiy va kasbiy zarur sifatlarni shakllanishining o‘quvchi shaxsi kamolotidagi ahamiyati.

O‘quvchida muammoni bartaraf qilinishiga nisbatan turg‘un hohish yoki ehtiyojning shakllanganligi korreksion-rivojlantiruvchi faoliyat maqsadi, mazmuni hamda o‘tkazish texnologiyasini yuqori darajada aniqlik bilan belgilashga imkon beradi. Kasbiy pedagogika fanida shaxsdagi ushbu holatni tarbiyalash tarbiyaviy mobillik deyiladi. O‘quvchining pedagogik korreksiya ta’sirlariga tarbiyaviy mobillikni shakllanganligi maxsus so‘rov varaqasi yordamida aniqlanishi mumkin.

Shaxs korreksion-rivojlantiruvchi o‘zgarishlarga hamda bunday o‘zgarishlarning zarurligiga nisbatan ongli munosabatda bo‘lib, mazkur jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi. Agar shaxsning birlamchi holati sust bo‘lsa, pedagogik korreksiyaning birlamchi vazifasi – o‘quvchida o‘z xulqi, qadriyatlari hamda ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatlarini o‘zgartirish istagi, hohish va ehtiyojini shakllantirishdan iborat bo‘ladi. Ushbu vazifaning bajarilishi shaxsda korreksion-rivojlantiruvchi ta’sir natijasida ro‘y beradigan o‘zgarishlarga nisbatan ijobiy va faol munosabatni shakllantiradi. Shaxsning tarbiyaviy ta’sirlarga nisbatan munosabatida sust holatdan faol holatga o‘tish unda tarbiyaviy mobillikning shakllanganligidan dalolat beradi. Odatda, bunday holatda, o‘quvchiga nisbatan qilinadigan korreksion-rivojlantiruvchi ta’sir eng samarali natija beradi.

Pedagogik korreksiyaga tayyorgarlik ko'rish fazasida quyidagi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni o'rganib chiqish kerak bo'ladi:

- Pedagogda pedagogik diagnostika va korreksiya ishlarini olib borish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarning yetarli darajada shakllanganligi.
- Belgilangan vazifalarni bajarishga ajratilgan vaqt reglamentdan oshib ketmasligi (aks holda o'quvchida zerikish hissi uyg'onib, korreksiya jarayonidagi faolligi pasayib ketishining kuzatilishi mumkin).
- Korreksion-rivojlantiruvchi tadbirlarni olib borishda pedagogik korreksiya tamoyillariga to'liq amal qilinishi, mashg'ulotlar jarayonida tarqatma materiallar hamda axborot texnologiyalaridan o'rinli foydalanilishi.
- Tayyorgarlik ko'rish fazasida pedagogik korreksiyaning qachon, qayerda va qancha vaqt davomida olib borilishining aniq belgilanishi.

Shaxsiy faoliyat samaradorligini oshirish texnologiyasining asosiy fazasi. Pedagogik korreksiyaning asosiy fazasida bevosita korreksion-rivojlantiruvchi ish o'tkazilib, u quyidagi ketma-ketlikdagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

1. O'quvchi(lar) bilan birgalikda mavjud muammo yoki muammoli vaziyat(lar)ni tahlil qilish.
2. Muammo(lar)ni ratsionallashtirish, ya'ni maqsadga muvofiq bo'lgan yechim yo'l(lar)ini ko'rib chiqib eng optimal yechim yo'lini tanlash.
3. Korreksiyaning shakl hamda metodlarini tanlash va o'tkazishda o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

O'quvchi(lar) bilan birgalikda mavjud muammo yoki muammoli vaziyat(lar)ni taxlil qilish bosqichida, pedagogik korreksiyaning samaradorligini oshirish maqsadida, o'quvchi shaxsining o'ziga hos xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- individual suhbat jarayonida o'quvchida qaysi modallik operatori (vizual, audial yoki kinestetik) yetakchi ekanligi aniqlanadi;

- diagnostika natijalariga asoslangan holda, o‘quvchidagi muammoli vaziyat imkon qadar aniq va qisqa jumla bilan ifodalanadi. Bunda muammoning kelib chiqish sabablari, uni o‘quvchining kelajakdagi faoliyatiga qay darajada salbiy ta’sir qilishi mumkinligi aniqlanadi;
- o‘quvchining hozirgi muammoli holati (HMH) hamda uning o‘zi erishishni istagan holati (EIH) so‘z bilan, aniq va tushunarli qilib, yozma ravishda ifodalanadi;
- agar zarur fazilatlarni shakllantirish imkoni bo‘lmasa, u holda rivojlantirish mumkin bo‘lgan kompensator sifatlarni rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi;
- o‘quvchining o‘zini-o‘zi baholashi hamda uning bo‘lg‘usi korreksion o‘zgarishlarga munosabati o‘rganiladi.

Pedagogik korreksiya jarayonida muammoli vaziyatlarni tahlil qilish ikki bosqichda amalga oshirish mumkin bo‘lib, bu bosqichlar mos ravishda “birlamchi tahlil” va “ikkilamchi tahlil” deb yuritiladi.

Muammoli vaziyatning birlamchi tahlili o‘quvchiga quyidagi savollarni berish orqali amalga oshiriladi.

- muammo qachon paydo bo‘lgan
- muammo qaerda va qanday hollarda (vaziyatlarda) paydo bo‘lagan
- muammo qanday ko‘rinishda namoyon bo‘ladi
- muammo kim bilan muloqotga kirishganingizda paydo bo‘lagan
- muammo qanday vaziyatlarda paydo bo‘ladi
- muammo faoliyatingizda nimani boshqacha bajarishingizga majbur qiladi
- muammoning bartaraf qilinishi Sizning faoliyatingiz samaradorligi uchun qay darajada muhim
- muammoni qaysi usullar bilan bartaraf qilish mumkin, deb hisoblaysiz
- muammo bartaraf qilinganligini qanday qilib bilishingiz mumkin

O'quvchilarda pedagogik korreksiyaning maqsadi va vazifalari to'g'risida tushuncha shakllanishiga muammoning ikkilamchi tahlili yordam beradi. Buning uchun o'quvchiga, mavjud muammoga nisbatan uning munosabatini o'rganishga qaratilgan quyidagi savollarni berish maqsadga muvofiq, deb hisoblanadi.

- Siz pedagogik korreksiya yordamida qanday natijaga erishmoqchisiz?
- maqsadga erishganingizni qanday bilib olasiz? Bunda Sizning xulq-atvoringizda, his-tuyg'ularingizda qanday o'zgarishlar ro'y berishi mumkin?
- qanday sharoitda korreksiya maqsadiga erishish siz uchun muhim, qanday sharoitda esa bunga unchalik zaruriyat yo'q
- ushbu maqsadga erishishingiz uchun sizga nima (qanday sharoit, vosita va shu kabilar) kerak?
- nima sababdan siz bu natijalarga ilgari erishmagansiz?
- siz maqsadga erishsangiz nima sodir bo'ladi- yu, erishmasangiz nima sodir bo'ladi?
- maqsadga erishish Sizning umidlaringizni oqlaydimi?

Muammo(lar)ni ratsionallashtirish bosqichida o'quvchi bilan individual shaklda o'tkaziladigan tushuntiruvchi suhbat jarayonida amalga oshiriladi. Suhbat o'quvchi faoliyati uchun zarur bo'lgan axloqiy fazilatlar, ijtimoiy va kasbiy zarur sifatlarning ahamiyati, ularni shakllantirish yo'llari va vositalari to'g'risida ma'lumot beradi, shaxsida shu fazilatlarning shakllanganlik darajalari muhokama qilinadi hamda mavjud muammolarni bartaraf qilishning turli yo'llari birgalikda tahlil qilinib, ulardan eng maqsadga muvofi tog'ri tanlab olinadi. Bunda o'quvchining o'zini-o'zi baholashiga pedagog alohida e'tibor qaratishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ushbu bosqichda muammoni tahlil qilish bosqichidagi savollar qisman takrorlanishi mumkin.

O'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda korreksiya shakl hamda metodlarini tanlash va qo'llash bosqichida

o'quvchida, maxsus algoritmlashtirilgan mashqlar asosida muhim ma'naviy-axloqiy ko'nikmalarning elementlari shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Bunda rol o'yinlardan foydalangan holda, turli ijtimoiy vaziyatlarda shaxsga o'zini tutish, atrofida-gilar bilan munosabatlarni tashkil qilish, o'z faoliyatini rejalashtirish va o'zini boshharish masalalari ko'rilishi mumkin.

Pedagogik korreksiya amaliyotida guruhli munozara hamda kichik guruhlar bilan ishlash, amaliy topshiriqlar va individual mashg'ulotlar shaklida o'tkazilishi nisbatan ko'p kuzatiladi. Ushbu tarbiyaviy ish shakllari har bir pedagog uchun nihoyatda tanish bo'lib, umumpedagogik faoliyat jarayonida doimo qo'llanilib kelinmoqda.

Pedagogik korreksiya tadbirlari guruh bilan o'tkaziladigan bo'lsa eng asosiy tamoyil – guruhdagi o'quvchilar uchun korreksiya qilinishi ko'zda tutilgan muammoning yagonaligi hisoblanadi. Aks holda korreksion tadbirining samaradorligi pasayib, ularning barchasi o'quvchilar uchun zerikarli majburiy mashg'ulotlarga aylanib qo'lishi mumkin.

Korreksion-rivojlantiruvchi tadbirlar guruhli yoki individual shakllarda o'tkazilishidan qat'iy nazar, unda asosan ma'lumot beruvchi va interfaol metodlar guruhlaridan foydalaniladi. Bahs-munozaralarni o'tkazish mavzulari o'quvchilardagi mavjud muammolar mazmunidan kelib chiqib oldindan belgilanishi (masalan, "Moddiy va ma'naviy hayot uy g'unligiga Mening munosabatim", "Mening hayotda tutgan o'rnim", "Kelajakda muvaffaqiyatli mutaxassis bo'lishim uchun Menga nimalar kerak", "Giyohvandlik va axloqsizlik bizni qanday holatlarga olib kelishi mumkin?" va h.k.) maksadga muvofiq hisoblinadi.

Shaxsiy faoliyat samaradorligini oshirish texnologiyasining yakuniy fazasi. Pedagogik korreksiyaning yakuniy fazasida quyidagi vazifalar bajarilishi kerak bo'ladi:

- shaxsda shakllantirilgan kompensator mexanizmlar mustahkamlanadi;

- shaxsda shakllangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni anglanganlik darajasi aniqlanadi;
- shaxschining xulq-atvori va faoliyati jarayonida unda shakllantirilgan fazilatlarning namoyon bo'lishi kuzatiladi;
- shaxsning ma'naviy-ahloqiy fazilatlari hamda ijtimoiy va kasbiy zarur sifatlarida sodir bo'lgan o'zgarishlarni aniqlash maqsadida qaytadan diagnostika o'tkaziladi;
- zarur bo'lgan hollarda, kutilgan natijaga umuman yoki qisman erishilmagan bo'lsa, takroran pedagogik korreksiya rejalashtiriladi va o'tkaziladi.

Pedagogik korreksiya natijasi, ko'p jihatdan o'quvchi shaxsini o'rganish va uni diagnostika qilish, unida tarbiyaviy mobillikni shakllantirish va tarbiyaviy tadbirlarni to'g'ri rejalashtirish hamda u yushtirishga bog'liq bo'ladi. Neyropedagogika, neyrolingvistik dasturlashtirish va psixodiagnostika imkoniyatlaridan foydalanish esa Pedagogik korreksiya samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Pedagoglarni diagnostik va korreksion faoliyatga tayyorlash texnologiyasi. Pedagogning biror tasodifiy xatti-harakati natijasida o'quvchilarda u haqda paydo bo'lgan fikr ham ta'lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir etishi, tarbiyachining ishini murakkablashtirishi mumkin. Odatda, bunday ziddiyatlar uzoq davom etadi va o'qituvchi foydasiga "hal" etiladi. Pedagogning obro'sini saqlayman, deb kattalar ba'zan bolaning qadr-qimmatini kengaytiradilar, o'qituvchidan kechirim so'rashga majburiy qiladilar. Baholanki, bu nizoga o'qituvchining noto'g'ri xatti-harakati sabab bo'lgan. Pedagoglarning bu ishi axloqiy tarbiya talablariga to'g'ri kelmaydi.

By o'rinda gap pedagogning odobi haqida bormoqda. Zero, pedagogning ta'limiy-tarbiyaviy faoliyati, shu faoliyatning samara berishi, ta'sirchan bo'lishi uning ma'naviy-axloqiy munosabatlari va muomalasi samimiy bo'lmog'i lozim. Shuningdek, pedagog olib borayotgan ta'limiy-tarbiyaviy ishlarning hosilasi uning tarbiyachilik odobiga va shu hislatga dahldor ta'lim-tarbiya jarayonlarida ishtirok

etuvchi tarbiyalanuvchilarning axloqiy - ruhiy kayfiyati va ichki olamiga bevosita bog'liqdir.

Shuning uchun pedagog, o'zini faoliyatning barcha jarayonlariga tayyorlashi, o'zining ta'lim - tarbiya usullari ustida tinmay ishlashi, pedagogik yangiliklardan doimiy habardor bo'lishi, o'z faoliyatini o'zi baholab, kamchilik va qusurlarini bartaraf eta borishi muhimdir. Bu pedagogning o'z-o'ziga talabchanligi tufayli amalga oshadi.

Pedagogik jarayonning o'zida ham faoliyatning turli sohalarida masalan, o'quv ishlari sohasida, jamoat ishlarini bajarishda, o'quvchilar bilan sinfdan tashhari ishlarda, dam olish paytlarida turlicha muomala-munosabatlar mavjud.

Demak, pedagog o'z odobi, muomala madaniyatining yuksakligi, jamoatchilik oracida o'zini tutishi, kiyinishi, dunyoqarashi va milliy g'ururining balandligi bilan boshqalardan farqlanishi hamda o'rnak bo'lishi tarbiyalanuvchilarda iftixor tuyg'ularini uyg'otadi.

Pedagog hayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar-yosh bolalar va o'smirlar bilan muloqotda bo'ladi. Bolalar ta'lim-tarbiya jarayonida umuminsoniy, milliy axloq va milliy g'urur normalarini (me'yorlarini) o'zlashtiradi. Tarbiyalanuvchi muomala odobini, milliy axloq va milliy g'ururni asosan o'qituvchi timsolida anglab oladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ochiq chehra, ko'tarinki kayfiyat va ayniqsa, samimiyat pedagog axloqining asosiy nuqtalaridan hisoblanadi. Ular o'zlari bolalarning yaqin do'sti, birodari, har bir sohada maslahatchi sifatida namoyon bo'lishlari lozim. Bu axloqiy sifatlar tarbiyalanuvchilar qalbiga kirib borishida va munosib joy olishda muhim ahamiyatga ega.

Mas'uliyatni belgilovchi asosiy omillar sifatida pedagogning ongliligi, zukkoligini, istagan vaziyat va holatda tegishli qarorga kela olishini, yani amalga oshira olishini ko'rsatish mumkin. Demak, diagnostik va korreksion faoliyat pedagoglar oldiga quyidagi mas'uliyatli vazifalarni ko'ndalang qo'yadi:

- tarbiyalanuvchining ruhiy holatlarini to'g'ri baholash;

- o‘zining xatti-harakati, tarbiyachilik mahorati orqali bola qalbi va yuragidan chuqur o‘rin egallash;
- ta‘lim-tarbiya jarayonida chuqur nazariy bilim va milliy g‘oya asosida tarbiya berish;
- tarbiyalanuvchilar ongiga ijobiy axloqiy fazilatlarni singdirish;
- tarbiyalanuvchilarni har tomonlama rivojlangan barkamol insonlar qilib tarbiyalash va shu kabilar.

Yuqorida tahlil qilingan pedagogning pedagogik odobi va vijdoni, burchi va mas‘uliyati, axloqi va sha‘ni, muomala odobi va shu kabilar pedagogning mahoratini belgilab beruvch mezonlar hisoblanadi.

Pedagoglar tarbiyalanuvchilar bilan diagnostik-korreksion faoliyat olib borishga har tomonlama tayyor bo‘lmog‘liklari lozim. Ana shu nuqtai nazardan pedagogning kasbiy faoliyat qiyinchiliklariga shaxsiy tayyorligi-bu murakkab jarayon bo‘lib, uch-motivatsion, kognitiv va axloqiy-psixologik mazmunga egadir. Mazkur tarkibiy qismlar bilan bog‘liqlikda qator ko‘rsatkichlarini ochib berish orqali ularni shakllantirish mezonlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin (4-rasm).

Tarkibiy qismlar	Mezonlar	Ko‘rsatkichlar	Darajalar 1) yuqori; 2) o‘rta; 3) quyi
MOTIVATSION TARKIBIY QISMLAR	Kasbiy faoliyat va uning ob‘ektiga munosabat	1.Kasbiy yo‘nalganlik	1) kasbiy faoliyatni to‘g‘ri tanlanganiga bo‘lgan ishonch; 2) kasbga ijobiy munosabat; 3)OTM tugatgandan so‘ng, kasbiy yo‘nalishi bo‘yicha ishlashga bo‘lgan istakning yo‘qo‘lishi
		2.O‘quvchilarning hayotiy pozittsiyasi shakllanishiga yordam berishga intilish	1)o‘quvchilarga yordam berishga faollantirish; 2)shaxsiy tashabbus ko‘rsatmagan holda o‘quvchilarga yordam berish istagi;

			3) o'quvchilarga loqayd munosabatda bo'lish
		3.Kasbiy faoliyatdagi qiyinchiliklarni yengib o'tish motivining mavjudligi	1) kasbiy va shaxsiy rivojlanishga bo'lgan extiyoj; 2) kasbiy faoliyatdagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga intilish; 3) o'z faoliyatidagi nimanidir o'zgartirishga hohishning mavjud emasligi
	Kasbning o'ziga xosliklaridan xabardorlik	1.Diagnostik va korreksion faoliyatning o'ziga xosliklari haqida ma'lumotga egalik	1) diagnotsistk va korrektsion faoliyatning o'ziga xosligi haqidagi bilimlarining to'liqligi, chuqurligi va tizimlilikligi; 2) diagnostik va korreksion faoliyatning o'ziga xosliklari va talablari haqidagi bilimlari tizimli bo'lmasa ham, yaxlitlikda to'g'riligi; 3) diagnostik va korrektsion faoliyat haqida zaruriy bilimlarning mavjud emasligi
		2.Yosh va individual xususiyatlari bilan bog'liqlikda o'quvchilarning o'ziga xosliklari va muammolarini bilish va tushunish	1) o'quvchilarning ijtimoiy, tibbiy-psixologik muammolari, pedagogik o'ziga xosliklari haqida chuqur bilimga egalik; 2) o'quvchilarning o'ziga xosliklari va muammolari haqida chuqur tushunish mavjud bo'lmasa-da, yaxlitlikda ularning to'g'riligi; 3) o'quvchilarning o'ziga xosliklari haqidagi zaruriy bilimlarning mavjud emasligi
		3.Diagnostik va korrektsion	1) diagnostik va korreksion faoliyatni olib boruvchi

		faoliyatni olib boruvchi pedagog sifatida kasbiy faoliyat bilan bogʻliq qiyinchiliklarni tasavvur qilish	pedagog sifatida kasbiy faoliyat bilan bogʻliq qiyinchiliklarni aniq tasavvur qila olish; 2) yaxlitlikda toʻgʻri, biroq kasbiy faoliyatdagi qiyinchiliklar haqida juda umumiy tasavvurga egalik; 3) kasbiy faoliyatdagi qiyinchiliklar haqida adekvat boʻlmagan tasavvurning mavjudligi
AXLOQIY-PSIXOLOGIK TARKIBIY QISM	Kasbga shaxsiy muvofiqligi	1. Empatiya tarbiyalanuvchilar bilan oʻzaro ijobiy harakat sharti sifatida	1) empatiya qobiliyatining yuqori darajada rivojlanganligi; 2) oʻrtacha aks etuvchi empatiyaning mavjudligi; 3) empatiyaning sust namoyon boʻlishi
		2. Oʻquvchi shaxsini hurmat qilish sifatidagi tolerantlik	1) tarbiyalanuvchilar bilan munosabatda tolerantlik tamoyiliga amal qilinishiga doir shaxs sifatining doimiy, yaxshi namoyon boʻlishi; 2) tolerantlik tamoyilini eʼtirof etish; 3) baʼgʻri kenglikning yetishmasligi
		3. Emotsional moslashuvchanlik	1) qiyin pedagogik vaziyatlarda oʻzining salbiy empatiyasining nazorat qilish qobiliyatining yuqori darajada rivojlanganligi; 2) oʻzining emotsional holati ustidan nazoratning mavjudligi; 3) oʻz his-tuygʻularini jilovlay olishning mavjud emasligi

4-rasm. Pedagogning diagnostik va korrektsion faoliyatni tashkil etishga doir kasbiy kompetentligining tarkibiy qismlari

Pedagoglarning tahsil oluvchilarni doimo kuzatib borishining o'zidayoq diagnostik faoliyat hisoblanadi. Diagnostik axborotlarni ma'lum ko'rsatkichlar (guruh ishlari, test, anketa va boshqalar), orqali yoki ularsiz (oddiy kuzatish orqali) yig'ish mumkin.

Diagnostik faoliyatda quyidagi yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- a) solishtirish;
- b) tahlil;
- v) bashorat (prognoz) qilish;
- g) interpretatsiya (talqin qilish);
- d) diagnostik faoliyat natijalarini o'quvchi-talabalarga yetkazish;
- e) turli diagnostik metodlarning yoshlarga ta'sirini nazorat qilish.

Solishtirish – diagnostik jarayonning asosiy tayanch nuqtasi hisoblanadi. Biz hayotdagi har bir narsani kuzata turib, beixtiyor uni solishtiramiz. Ko'rgan narsamizni o'z tajribamizga moslab tahlil qilishni, unga baho berishni xohlaymiz. Shu maqsadda hotiramizdagi xuddi shunday yoki shunga o'xshash kuzatishlarni esga olamiz. Faqat o'z kuzatisharimiz emas, balki o'zgalar tomonidan o'tkazilgan kuzatishlar ham tadqiqot klassifikatsiyasiga yordam berishi mumkin. Yangi kuzatishda solishtirishga asos yo'q bo'lsa, kuzatishimizda unga yaqinroq bo'lgan kategoriyadan foydalanishga harakat qilamiz.

Insonning xulqini kuzata turib, uning oldingi xulqi yoki hozirgi kundagi va o'tmishdagi boshqa individning xulq-atvori bilan, kimningdir xulq haqidagi fikrlari bilan solishtiramiz. Bu pedagogik diagnostikada individual, ijtimoiy yoki ob'ektiv solishtirish normalari deb hisoblanadi.

Normalar pedagogik diagnostikada yoshlarning ma'naviy darajasini baholash uchun zaruriy axborotlar to'plashni bildiradi. Masalan, biz to'plagan axborotlar intellektni o'lchovchi quyidagi

ma'lumotlar bo'lishi mumkin: diktantda yo'l qo'yilgan xatolar soni, matematikadan to'g'ri yechilgan misollar soni, uchta mashg'ulot davomida olingan spontan javoblar soni, testdan to'g'ri bajarilgan topshiriqlar soni yoki shaxsning tarbiyalanganligini bildiruvchi axloqiy kategoriyalar: qiyin vaziyatda o'zini tuta bilishi, to'g'ri ma'nodagi sovuqqonlik, ijtimoiy foydali mehnatda ko'rsatgan ko'rsatkichlari, bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish, ijtimoiy faollik darajalari kabilar. Lekin bu axborotlar to'la informativ emas. Bizga ayrim holatlarda kriteriya va normalar etishmaydi. Agar o'quvchi-yoshlarimiz yozma ishda 9 ta xatoga yo'l qo'yganligi ma'lum bo'lsa, uni baholash uchun yozma ishning murakkablik darajasini bilishimiz kerak. Bundan tashhari, xuddi shu sharoitda boshqa ta'lim oluvchilar yozma ishni qanday yozganliklarini yoki o'quv maqsadiga erishish uchun qancha xatogacha yo'l qo'yilishi mumkinligini bilishimiz kerak. Boshqacha so'z bilan aytganda solishtirma tahlilni amalga oshirish kerak bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva SH.A. O'quvchilarni pedagogik tashxislashda qo'llaniladigan metodlar// Xalq ta'limi, 2003 ,№3, 40-45 b.b.
2. Abdullayeva SH. A. Pedagogik diagnostika.-T.: Fan,2005, 256 b.
3. Abdulla Avloniy. Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom.-T.: Fan, 1994, 293b.
4. Божович Л.И. «Личность и его формирование в юнеческом возрасте».-М.: Владос, 1998,219 с.
5. Хобсон Флейк «Развитие ребенка и его отношение с окружающими»-М.: Педагогика,1990, 304 с.



14-§. MAKTABDA PEDAGOGIK-KORREKSION FAOLIYAT DASTURINI TAYYORLASH VA TASHKIL ETISH

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik-korreksion faoliyat dasturi har qanday o'quv dasturi kabi, bir nechta asosiy funksiyani bajaradi: axborot-uslubiy, tashkiliy va rejalashtirish.

Axborot-metodik funksiya o'quv jarayonining barcha ishtirokchilariga maqsadlar, mazmun, rivojlanish yoki korreksiyalashning umumiy strategiyasi haqida tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.

Pedagogik-korreksion faoliyat dasturi ta'limning o'zgaruvchan shakllarini ham, nogiron bolalarni maxsus qo'llab-quvvatlashning turli xil variantlarini ham nazarda tutadi. Bular uy sharoitida, yoki, masofaviy ta'limdan foydalangan holda individual dastur bo'yicha o'qitish shakllari bo'lishi mumkin.

Pedagogik-korreksion faoliyat dasturi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- nogiron bolaning maxsus ta'lim ehtiyojlariga muvofiq rivojlanishi uchun maqbul bo'lgan dasturlar, metodlar va o'qitish usullarini tanlash;
- individual va juftli guruhlarini tashkil etish va o'tkazish.

DTS talablariga muvofiq, tuzatish ishlari dasturi nogiron bolalarga boshlang'ich umumiy ta'limning asosiy ta'lim dasturini o'zlashtirishda har tomonlama yordam berish tizimini yaratishga, o'quvchilarning jismoniy va aqliy rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatishga qaratilgan. va ularning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

Nogironligi bor bo'lgan bolalarda jismoniy va aqliy rivojlanishning turli ko'rinishdagi patologiya (og'ishlar): vaqtinchalik va oson tuzatiladigan kasallikdan tortib, ularning imkoniyatlariga moslashtirilgan individual ta'lim dasturini yoki maxsus ta'lim

dasturlarini qo'llashni talab qiladigan doimiy og'ishlargacha bo'lishi mumkin.

Pedagogik-korreksion faoliyat dasturi nogiron bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi va ta'lim jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirishni talab etadi hamda ta'lim va tarbiya uchun maxsus shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 11-sentyabrda qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunida: "**nogironligi bo'lgan bolalar** (bola) — barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari tufayli hayotiy faoliyati cheklanganligi munosabati bilan davlat va jamiyat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatilishiga hamda o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga muhtoj o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslar"-deb belgilangan.

Mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, ularni hayot faoliyatiga doir cheklovlarni yengib o'tish, ularning o'rnini qoplash (kompensatsiya qilish) uchun nogironligi bo'lgan shaxslarga shart-sharoitlarni ta'minlaydigan hamda ularga jamiyat va davlat hayotida ishtirok etishning boshqa fuqarolar bilan teng imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan, davlat tomonidan kafolatlangan iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy chora-tadbirlar tizimini amalga oshirishga imkoniyat yaratilgan.

Nogironligi bo'lgan shaxs — ijtimoiy yordam va himoyaga, jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan birga teng to'liq va samarali ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga muhtoj barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxs.

Respublikamizda nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyat yuritadi. Bu tashkilotlar nogironligi bo'lgan shaxslar tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyat

va davlat hayotida boshqa fuqarolar bilan teng ravishda ishtirok etish imkoniyatlarini ta'minlash maqsadida tuzilgan nodavlat notijorat tashkilotlari hisoblanadi.;

Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- nogironligi bo'lgan shaxslarning qadr-qimmatini, ularning mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish;

- nogironlik belgisiga ko'ra kamsitilishga yo'l qo'ymaslik;

- insonning huquq va erkinliklarini amalga oshirishdagi imkoniyatlar tengligi;

- nogironligi bo'lgan bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatini va o'z individualligini saqlab qolish huquqini hurmat qilish;

- ob'ektlar va xizmatlarning qulayligi;

- nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat va davlatning hayotiga jalb etish.

Maktabda pedagogik-korreksion faoliyat dasturini tayyorlash va tashkil etishda korreksiya talab bolalarning qadr-qimmatini, ularning mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish zarur.

Agar, o'quvchining nogironligi bo'lsa, unda uning huquq va erkinliklarini boshqa o'quvchilar bilan teng ravishda himoya qilish hamda amalga oshirish kafolatlarini belgilash orqali ta'minlanadi.

Nogironligi bo'lgan o'quvchilarga nisbatan har qanday ajratib qo'yish, istisno etish, chetlatish, cheklash yoki afzal ko'rish, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslarning ob'ektlar va xizmatlardan foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratishni rad etish taqiqlanadi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun imkoniyatlar tengligini ta'minlashga hamda ularni jamiyat va davlat hayotiga jalb etishga qaratilgan maxsus choralar boshqa fuqarolarga nisbatan kamsituvchi choralar hisoblanmaydi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishdagi imkoniyatlar tengligi ular uchun ob'ektlar hamda xizmatlardan, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalardan, sog'liqni saqlashdan, ta'limdan, ishga joylashishdan, shuningdek axborotdan va

aloqa vositalaridan foydalanish kafolatlarini yaratishga hamda ulardan teng ravishda foydalanish imkoniyatlarini berishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish yo'li bilan ta'minlanadi.

Nogironligi bo'lgan bolalar boshqa bolalar bilan teng ravishda insonning barcha huquq va erkinliklaridan to'liq hajmda foydalanadi.

Nogironligi bo'lgan bolalarni har tomonlama va uyg'un rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligini, mehnatga bo'lgan qiziqishiga ko'maklashish, ta'limga, ilm-fanga, texnikaga, san'at va sportga jalb etish maqsadida nogironligi bo'lgan bolalar manfaatlarining ustunligi ularga nisbatan bajariladigan barcha harakatlarda ustuvor hisoblanadi.

Obyektlar va xizmatlarning qulayligi nogironligi bo'lgan shaxslarning binolardan, inshootlardan, transportdan, axborotdan va aloqa vositalaridan, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlaridan, shuningdek boshqa ob'ektlardan va aholiga ko'rsatiladigan xizmatlardan o'zga fuqarolar bilan teng ravishda foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratish yo'li bilan ta'minlanadi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat va davlat hayotiga jalb etish ularning ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etishini har tomonlama rag'batlantirish hamda cheklovlarning har qanday shakllariga yo'l qo'ymaslik orqali amalga oshiriladi.

Davlat organlari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat va davlat hayotiga jalb etishni ta'minlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- nogironligi bo'lgan shaxslarning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan kompleks chora-tadbirlar ko'rish;

- nogironligi bo'lgan shaxslarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish;

-nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari va imkoniyatlari tengligini boshqa fuqarolar bilan teng ravishda ta'minlash;

-nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat va davlat hayotiga jalb etish;

-nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari va qadr-qimmatini hurmat qilish masalalari bo'yicha jamiyatda ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va boshqalar.

Pedagogik-korreksion faoliyat dasturi ta'limning o'zgaruvchan shakllarini ham, nogiron bolalarni maxsus qo'llab-quvvatlashning turli xil variantlarini ham nazarda tutadi. Bular uy sharoitida va (yoki) masofaviy ta'limdan foydalangan holda individual dastur bo'yicha o'qitish shakllari bo'lishi mumkin. Yordamchi mutaxassislarining ishtirok etish darajasi va ishning tashkiliy shakllari turlicha qo'llaniladi

Pedagogik-korreksion faoliyat dasturining maqsadlari:

1. Boshlang'ich umumiy ta'limning asosiy ta'lim dasturini o'zlashtirishda nogiron bolalarga har tomonlama yordam berish tizimini yaratish.

2. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'zlashtirishlaridagi qiyinchiliklar, shaxslararo o'zaro ta'sir, individual psixo-fiziologik xususiyatlarining diagnostikasi (fikrlash, fazoviy yo'nalish, psixomotor muvofiqlashtirish sohasida).

3. Ta'limda qiyinchiliklarga duch kelgan bolalar uchun umumiy ta'limning asosiy ta'lim dasturini o'zlashtirishda yordam ko'rsatish, o'quv qobiliyati yuqori bo'lgan maktab o'quvchilarini rag'batlantirish (individual rivojlanish traektoriyasini ishlab chiqish).

Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish zarur:

– nogironlik tufayli moslashishda qiyinchiliklarga duch kelgan bolalarni o'z vaqtida aniqlash; - nogiron bolalar va nogiron bolalarning maxsus ta'lim ehtiyojlarini aniqlash;

- har bir bolaning o'quv faoliyatini tashkil etish xususiyatlarini aniqlash;

- nogiron bolalarning umumiy ta'limning asosiy ta'lim dasturini o'zlashtirishi va ularni ta'lim muassasasiga integratsiyalashuvi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;

- aqliy va (yoki) jismoniy rivojlanish xususiyatlarini, bolalarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda nogiron bolalarga individual yo'naltirilgan psixologik, tibbiy va pedagogik yordamni amalga oshirish (psixologik, tibbiy va pedagogik komissiyaning tavsiyalariga muvofiq);

– individual o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, jismoniy va aqliy rivojlanishida jiddiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkiloti o'qituvchisi ko'magida individual va guruh mashg'ulotlarini tashkil etish;

- qo'shimcha ta'lim dasturlari bo'yicha o'qitish va ta'lim olish va qo'shimcha ta'lim tuzatish xizmatlarini olish imkoniyatini ta'minlash;

– nogiron bolalarni ijtimoiy moslashtirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish;

- ota-onalarga (qonuniy vakillarga) nogiron bolalarning ota-onalariga (qonuniy vakillariga) tibbiy, ijtimoiy, huquqiy va boshqa masalalar bo'yicha maslahat va uslubiy yordam ko'rsatish.

Pedagogik-korreksion faoliyat dasturi quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

Tizimlilik. Ushbu tamoyil diagnostika, tuzatish va rivojlanishning birligini, ya'ni nogiron bolalarning rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish va buzilishlarini tuzatishga tizimli yondashuvni, shuningdek, turli sohalaridagi mutaxassislarning kompleks ko'p bosqichli yondashuvini, o'zaro ta'sir va muvofiqlashtirishni ta'minlaydi.

Uzluksizlik tamoyili bolaga va uning ota-onasiga (qonuniy vakillariga) muammo to'liq hal qilinmaguncha yoki uni hal qilish yondashuvi aniqlanmaguncha yordamning uzluksizligini kafolatlaydi.

O'zgaruvchanlik tamoyili jismoniy, yoki, aqliy rivojlanishida nuqsoni bor bo'lgan bolalarning ta'lim olishlari uchun o'zgaruvchan shart-sharoitlarni yaratishni o'z ichiga oladi.

Yordamning tavsiyaviy xarakterdaligi tamoyili nogiron bolalarning ota-onalari (qonuniy vakillari)ning o'z farzandlari uchun ta'lim shakllarini, ta'lim muassasalarini tanlash, bolalarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha qonun bilan kafolatlangan huquqlariga rioya etilishini ta'minlaydi.

Pedagogik-korreksion faoliyat dasturi pedagogik jamoaning har bir a'zosiga bolaning ta'lim jarayoni qanday ketayotganini "ko'rish" imkonini beradi, qiyinchiliklarning mohiyatini, uning bilim, ko'nikma va harakat usullarini o'zlashtirish xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi. Dastur jamoaning sa'y-harakatlarini va bolaning rivojlanishida sodir bo'lgan o'zgarishlarni baholashga imkon beradi.

Pedagogik-korreksion faoliyat dasturi bir nechta bosqichda amalga oshiriladi:

1. Diagnostika faoliyati. Nogiron bolalarni o'z vaqtida aniqlash, ularni har tomonlama tekshirish va ta'lim muassasasida ularga psixologik, tibbiy va pedagogik yordam ko'rsatish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash.

2. Korreksiya va rivojlantirish faoliyati. Ta'lim mazmunini o'zlashtirish va ta'lim muassasasida nogiron bolalarning jismoniy va (yoki) aqliy rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatishda o'z vaqtida ixtisoslashtirilgan yordam. Bolalar orasida universal ta'lim harakatlarini shakllantirish (shaxsiy, tartibga solish, kognitiv, kommunikativ).

3. Maslahat faoliyati. Bolalarni o'qitish, tarbiyalash, tuzatish, rivojlantirish va ijtimoiylashtirish uchun tabaqalashtirilgan psixologik-pedagogik sharoitlarni amalga oshirishda nogiron bolalar va ularning oilalariga alohida yordam ko'rsatish.

4. Axborot va ta'lim faoliyati. Ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari - bolalar, ularning ota-onalari (qonuniy vakillari), pedagogik xodimlar bilan ushbu toifadagi bolalar uchun ta'lim jarayonining xususiyatlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha tushuntirish ishlari.

Ish mazmunining xususiyatlari:

Diagnostika ishlari: maxsus yordamga muhtoj bolalarni o'z vaqtida aniqlash; rivojlanish buzilishlarini erta tashxislash va moslashishdagi qiyinchiliklarning sabablarini tahlil qilish;

- imkoniyati cheklangan o'quvchining hozirgi darajasini va proksimal rivojlanish zonasini aniqlash, uning zahiraviy imkoniyatlarini aniqlash; o'quvchilarning hissiy-irodaviy sohasi va shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishni o'rganish; rivojlanishning ijtimoiy holatini va oila sharoitlarini o'rganish va bolaning oilaviy tarbiyasi sharoitlarini o'rganish;

- nogiron bolaning adaptiv qobiliyatlari va ijtimoiylashuv darajasini o'rganish;

- bolalarning rivojlanish darajasi va dinamikasi bo'yicha mutaxassislarning tizimli monitoringi;

- tuzatish va rivojlantirish ishlarining muvaffaqiyatini tahlil qilish.

Dasturda korreksion-pedagogik faoliyatning ifodalanishi:

- nogiron bolaning maxsus ta'lim ehtiyojlariga muvofiq rivojlanishi uchun optimal tuzatish dasturlari va o'qitish usullarini tanlash;

- rivojlanish buzilishlari va o'rganishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan individual va guruhli tuzatish va rivojlanish sinflarini mutaxassislar tomonidan tashkil etish va o'tkazish;

- oliy psixik funksiyalarni korreksiyalash va rivojlantirish;

- bolaning hissiy-irodaviy va shaxsiy sohalarini rivojlantirish va uning xatti-harakatlarini psixokorreksiya qilish;

- travmatik vaziyatlarda noqulay turmush sharoitlarida bolani ijtimoiy himoya qilish.

Maslahat faoliyatining ifodalanishi:

- imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlashning asosiy yo'nalishlari bo'yicha qo'shma asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;

- imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlashning individual yo'naltirilgan uslub va vositalarini tanlash bo'yicha mutaxassislarning o'qituvchilar bilan maslahatlashuvi;

- nogiron bolani tarbiyalash strategiyasi va tuzatish ta'lim usullarini tanlash masalalarida oilaga maslahat yordami.

Tashviqotli (axboriy)-ma'rifiy ishlar:

- o'quv jarayoni ishtirokchilari - o'quvchilar, ularning otalari (qonuniy vakillari), pedagogik xodimlarga - o'quv jarayonining xususiyatlari bilan bog'liq masalalarni tushuntirishga qaratilgan o'quv faoliyatining turli shakllari (ma'ruzalar, suhbatlar, axborot stendlari, bosma materiallar) asosida ta'lim jarayonini tashkil qilish va nogironligi bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash.

Tuzatish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bosqichlar ketma-ketligi va ularning maqsadliligi tartibsiz omillarni bartaraf etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Dasturni amalga oshirish bosqichlari:

1. Axborotni yig'ish va tahlil qilish bosqichi (axborot va tahliliy faoliyat). Natija - bolalarning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish, o'ziga xosliklarini va ularning maxsus ta'lim ehtiyojlarini aniqlash uchun talabalar populyatsiyasini baholash; muassasaning dasturiy-uslubiy ta'minoti, moddiy-texnik va kadrlar bazasi talablariga javob berish maqsadida ta'lim muhitini baholash.

2. Rejalashtirish bosqichi, tashkil etish, muvofiqlashtirish (tashkiliy va ijro etuvchi faoliyat). Natijada, ko'rib chiqilayotgan bolalar toifasini o'qitish, o'qitish, rivojlantirish va ijtimoiylashtirish uchun maxsus yaratilgan (o'zgaruvchan) sharoitlarda nogiron bolalarni tuzatish va rivojlanish yo'nalishiga va maxsus qo'llab-quvvatlash jarayoniga ega bo'lgan tashkillashtirilgan o'quv jarayoni.

3. Korreksion va rivojlantiruvchi ta'lim muhitini diagnostika qilish bosqichi (nazorat va diagnostika faoliyati). Natijada yaratilgan shart-sharoitlar va tanlangan tuzatish, rivojlanish va ta'lim dasturlari

bolaning maxsus ta'lim ehtiyojlariga muvofiqligi to'g'risidagi bayonot.

1. Tartibga solish va muvofiqlashtirish bosqichi (tartibga solish va sozlash faoliyati). Natijada ta'lim jarayoniga va nogiron bolalarni hamrohlik qilish jarayoniga zarur o'zgarishlar kiritiladi, o'qitish sharoitlari va shakllari, ish uslublari va usullari moslashtiriladi.

Dasturni amalga oshirish mexanizmlari. Korreksion ishlarni amalga oshirishning asosiy mexanizmlari ta'lim tashkiloti mutaxassislarining ta'lim jarayonida turli profildagi mutaxassislar tomonidan nogiron bolalarni tizimli qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydigan optimal tuzilgan o'zaro hamkorligi va kasbiy o'zaro hamkorlikni o'z ichiga olgan ijtimoiy sheriklikdir. tashqi resurslar (turli bo'limlar, jamoat tashkilotlari va jamiyatning boshqa institutlari tashkilotlari) bilan ta'lim tashkilotining.

Ta'lim tashkiloti mutaxassislarining o'zaro hamkorligi quyidagilarni ta'minlaydi:

- bolaning muammolarini aniqlash va hal qilishda har tomonlama, unga turli sohalaridagi mutaxassislar tomonidan malakali yordam ko'rsatish;

- bolaning shaxsiy va kognitiv rivojlanishini ko'p o'lchovli tahlil qilish;

- bolaning ta'lim, kognitiv, nutq, hissiy, irodali va shaxsiy sohalarining individual tomonlarini umumiy rivojlantirish va tuzatish uchun kompleks individual dasturlarni ishlab chiqish.

Hozirgi bosqichda mutaxassislar o'rtasidagi tashkiliy hamkorlikning eng keng tarqalgan va samarali shakllari bolaga va uning ota-onasiga (qonuniy vakillariga), shuningdek, ta'lim tashkilotiga ko'p tarmoqli yordam ko'rsatadigan ta'lim tashkilotlarining maslahatlari va yordam xizmatlaridir. Nogiron bolalarni moslashtirish, o'qitish, rivojlantirish, ijtimoiylashtirish uchun:

- ularni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash:

- psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya tavsiyalariga muvofiq tabaqalashtirilgan shart-sharoitlarni (optimal o'quv yuklamasi, o'zgaruvchan ta'lim shakllari va ixtisoslashtirilgan yordam) ta'minlash;

- psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlash (ta'lim jarayonini tuzatishga yo'naltirish);

- bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish;

-qulay psixo-emotsional rejimni saqlash;

-ta'lim jarayonini optimallashtirish, uning samaradorligi va qulayligini oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, jumladan, axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish; - maxsus shart-sharoitlarni ta'minlash (nogiron o'quvchilarning alohida ta'lim ehtiyojlariga yo'naltirilgan maxsus o'quv maqsadlari majmuasini ilgari surish);

- ta'lim mazmuniga normal rivojlanayotgan tengdoshlar uchun ta'lim mazmunida mavjud bo'lmagan bola rivojlanishi muammolarini hal qilishga qaratilgan maxsus bo'limlarni kiritish;

- bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlariga yo'naltirilgan maxsus usullar, uslublar, o'quv qo'llanmalari, ixtisoslashtirilgan ta'lim va tuzatish dasturlarini qo'llash;

- bolaning rivojlanishidagi buzilishlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan ta'lim; individual va guruhli tuzatish darslarida o'tkaziladigan o'quvchiga kompleks ta'sir;

- salomatlikni saqlash sharoitlarini ta'minlash (sog'liqni saqlash va himoya qilish rejimi, jismoniy va ruhiy salomatlikni mustahkamlash);

- o'quvchilarning jismoniy, aqliy va psixologik ortiqcha yuklanishining oldini olish, sanitariya-gigiyena qoidolari va qoidalariga rioya qilish);

- inklyuziv ta'lim talablari asosida, barcha nogiron bolalarning normal rivojlanayotgan bolalar bilan birgalikda ta'lim, madaniy,

ko'ngilochar, sport va boshqa dam olish tadbirlarida ishtirok etishini ta'minlash zarur.

Psixologiya, pedagogika, tibbiyot va ijtimoiy ish sohasidagi turli mutaxassislarning sa'y-harakatlarini birlashtirish har tomonlama psixologik, tibbiy va pedagogik yordam tizimini ta'minlash va bolaning muammolarini samarali hal qilish imkonini beradi.



Mavzu yuzasidan testlar:

1. Pedagogik korreksiyaning predmeti:

- a) aqliy va jismoniy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarni ixtisoslashtirilgan tarzda tayyorlash va o'qitish
- b) 8 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'qitish va rivojlantirish
- s) yengil jismoniy nuqsonlari bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash
- d) to'g'ri javob yo'q

2. Rivojlanishda og'ishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan omillardan qaysi biri biologik omil emas?

- a) biokimyoviy zararli omillar bilan o'zaro ta'sirda bo'lish
- b) bolaning ijtimoiy xavfi mavjud bo'lgan oilada ulg'ayishi
- s) tug'ilishda yuzaga kelgan patologiya
- d) onaning yuqumli yoki virusli kasalliklar bilan kasallanishi

3. Daktil nutq qachon ishlatiladi?

- a) ruhiy kasalliklar
- b) ko'rishning buzilishi
- s) nutqning buzilishi
- d) eshitish qobiliyatining buzilishi

4. Bolalarda aqliy zaiflik qanday namoyon bo'ladi?

- a) hissiy va kognitiv faoliyatning rivojlanmaganligi orqali
- b) nutqning buzilishi
- s) axborotni qabul qilishda qiyinlik
- d) to'g'ri javob yo'q

5. Ijtimoiy muhit sharoitiga moslashishning boshqa nomi nima?

a) moslashish

b) tuzatish

s) abilitatsiya

d) rehabilitatsiya

6. Surdopedagogning vazifalariga quyidagilar kiradi:

a) korreksion dasturlarini ishlab chiqish

b) eshitish qobiliyati zaif bolalarni tarbiyalash bo'yicha ota-onalar bilan birgalikda ishlash

s) eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni moslashtirish va ijtimoiylashtirish uchun sharoit yaratish

d) barcha javoblar to'g'ri

7. Rivojlanishdagi nuqsonlarni tuzatish qanday nomlanadi?

a) rehabilitatsiya

b) korreksiya

s) abilitatsiya

d) kompensatsiya

8. Somatik kasalliklarga nimalar kiradi?

a) surunkali kasalliklar, tayanch-harakat apparati faoliyatining buzilishi

b) eshitish va ko'rishning buzilishi

s) aqliy va intellektual rivojlanishdagi buzilishlar


d) to'g'ri javob yo'q

Topshiriq. Glossariyni to'ldiring

Abilitatsiya bu-	
Reabilitatsiya-	
Kompensatsiya-	
Daktil nutq bu-	
Somatika	

ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva SH. A. Pedagogik diagnostika.-T.: Fan,2005,256 b.
2. Божович Л.И. «Личность и его формирование в юношеском возрасте».-М.: Владос, 1998,219 с.
3. Чуркина М.А. Тренинг для тренеров на 100 %. Секреты интенсивного обучения. –Москва: Альпина Бизнес Букс, 2015,326с..



15-§. MAKTABDA PEDAGOGIK-KORREKSION FAOLIYAT JARAYONI VA NATIJALARINI RASMIYLASHTIRISH

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida pedagogik-korreksion faoliyat jarayoni va natijalarini rasmiylashtirish uchun sinf rahbarlari va psixologlar oʻquvchilarning rivojlanish dinamikasini va yutuqlarini kuzatib boradilar. Ushbu faoliyat maqsadi maktab oʻquvchilarining shaxsiy va psixologik rivojlanishini taʼminlash, maktabga moslashtirish, hissiy, xulq-atvor va kognitiv sohalarida turli xil ogʻishlarning oldini olishdir

Hozirgi vaqtda umumiy oʻrta taʼlim maktablari oʻquvchilari bilan korreksion-peagogik faoliyatni olib borish uchun turli xil metodikalardan foydalaniladi. Bular:

- maktab motivatsiyasini baholash uchun skrining testi (N.G. Luskanova);

- maktabga salbiy munosabatda boʻlgan bolalarni aniqlash, sinfdagi maktab motivatsiyasining umumiy darajasini, parallelliklarini baholash, profilaktika va tuzatuvchi rivojlanish ishlarining samaradorligini kuzatish;

- emotsional holatlarning rangli testi - oʻquv faoliyati va hayotining turli sohalarida maktab oʻquvchilarining sub'ektiv hissiy holatini diagnostikasi, shuningdek test natijalari boʻyicha keyingi suhbatlar davomida salbiy hissiy holatning sabablarini aniqlash;

- Tuluza-Pieron testi - boshlang'ich sinf o'quvchilarida minimal miya disfunktsiyalarini tashxislash va kompensatsiya qilish;

- Raven testi - vizual-majoziy fikrlashning rivojlanish darajasining diagnostikasi;

- Matematik qobiliyat testi(E. F. Zambatseвичene) - og'zaki va mantiqiy fikrlash va matematik qobiliyatlarning rivojlanish darajasi diagnostikasi;

-Sotsiometriya – o'quvchilarning sotsiometrik holati va guruh tuzilishi diagnostikasi.

Maktabda pedagogik-korreksion faoliyat jarayoni va natijalarini rasmiylashtirish ko'rinishlaridan biri-bu o'qituvchilar uchun kuzatuv anketasini qayd etishdir. Bu rasmiylashtirilgan hujjat o'quvchining maktabdagi moslashuvi, uning individual ko'rinishlarining stenogrammasini o'z ichiga oladi. Unga ko'ra sinf rahbari, fan o'qituvchisi, maktab psixologi bolaning xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan o'zgarishlarni kuzatishi va daftarga qayd etishi mumkin. Kuzatuv anketa quyidagicha rasmiylashtiriladi:

**O'QUVCHILARNING MAKTABGA MOSLASHISH
(ADAPTATSIYA)
KUZATUV ANKETASI**

O'quvchining FISH_____

Qayd etish muddati_____

-son umumiy o'rta ta'lim maktabi

Manzil:_____

Telefon:_____; E-mail_____

Kuzatuv sanasi	Maktabdagi adaptatsiya holati	Qaysi muddatda boshqa bolalar bilan do'stlashish va o'rtoqlashishga ulgurdi	Ta'limiy va tarbiyaviy sohalaridagi yutuqlari; Maktabda o'rnatilgan xulq normalariga rioya qilishi
----------------	-------------------------------	---	--

2024-yil, 13-mart, soat 9:00- 13:30	qoniqarli; qoniqarsiz	1 hafta ichida 2 hafta ichida 1 oy ichida	yaxshi; qoniqarli; qoniqarsiz
2024-yil, 14-mart, soat 9:00- 13:30	Kommunikativligi yuqori, kirishuvchan. Ertalabdan kayfiyati yaxshi, biroq tibbiy yordamga muhtoj. Sinfdozlari bilan muomalasi iliq.Pozitiv.	2 kun ichida T.Toshmatov, B.Sirojev, U. Turdiev bilan do‘stlashishga ulgurdi.	Bilim olishga ishtiyoqmand, Yangi terminlarni o‘zlashtirishda qiynaladi. Kognitiv sohasini rivojlantirish ehtiyoji mavjud.
2024-yil, 15-mart, soat 9:00- 13:30	Maktabda o‘zini tutishi mustaqil, biroq tibbiy yordamga muhtoj. O‘qituvchilar, sinfdozlari bilan yaxshi munosabat o‘rnatiladi	O‘rtog‘i B.Sirojevdan unga kitobini bermaganligi uchun ranjigan.	Maktabda o‘rnatilgan xulq normalariga rioya qilishga harakat qiladi, biroq, birinchi soatdagi darslarga kechikib kelish holati kuzatilmoqda.
2024-yil, 16-mart, soat 9:00- 13:30.....	Maktabga moslashish holati qoniqarli. O‘zi mustaqil qaror qabul qilayotganligi kuzatilmoqda. O‘qituvchilar, sinfdozlari bilan yaxshi munosabat o‘rnatiladi.	B.Sirojev bilan yarashgan. O‘rtoqlari bilan konsert dasturini ko‘rishga shaylanishgan.	Maktabga kechikish holati aniqlanganda, bolaning maktabdan uzoqroq manzilda yashashi aniqlandi. Ota-onasi bilan suhbat belgilandi
2024-yil, 13-aprel	O‘quvchining moslashuv va korreksiyaviy	O‘quvchiga psixologik, tibbiy va pedagogik	O‘quvchi uchun ta’lim va reabilitatsiya yo‘nalishini tanlash, shu jumladan

	rivojlanish muhiti qoniqarli	yordam ko'rsatish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash	uning ta'lim muhitiga integratsiyalashuvi shakli va darajasini aniqlash zarurati mavjud.
Sinf rahbari tomonidan berilayotgan tavsiyalar			
Maktab psixologi tomonidan berilayotgan tavsiyalar			
Tibbiyot mutaxassisi tomonidan berilayotgan tavsiyalar			

Sinf rahbari _____ (FISH), (Imzo)

Maktab psixologi _____ (FISH), (Imzo)

Tibbiyot mutaxassisi _____ FISH), (Imzo)

” __ » _____ 2025-y.

Nogironligi bo'lgan bolalar uchun ta'lim va reabilitatsiya yo'nalishini tanlash, shu jumladan uning ta'lim muhitiga integratsiyalashuvi shakli va darajasini aniqlash masalasi bolaning ehtiyojlari, rivojlanish xususiyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, uning ota-onalar (qonuniy vakillar)ning bevosita ishtirokida hal qilinadi.. Bolalar uchun mustaqillik darajasini bosqichma-bosqich oshirishga, kattalarning tashkiliy, rag'batlantiruvchi yordami bilan ularning faoliyatini belgilangan maqsadga bo'ysundirishga qaratilgan tuzatish va rivojlantirish ishlari tashkil qilinadi. Bu yo'naishdagi eng muhim vazifa - bu toifadagi bolalarning jismoniy va nevropsixik salomatligini himoya qilish va mustahkamlash, shuningdek, ularning ijtimoiy moslashuvini amalga oshirish bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida” gi Qonunining “Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim” deb nomlangan 9 -moddasida: “Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi”- deya e'tirof etilgan. Yoki, Qonunning “Ta'lim olish shakllari”deb

nomlangan 15-moddasida ta'lim olish shakllari sirasiga oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish; inklyuziv ta'lim kabi shakllari kiritilganligi Davlat tomonidan nogironligi bo'lgan bolalarga g'amxo'rlik qilayotganligidan dalolat beradi. Davlat oilada ta'lim olishga va mustaqil ta'lim olishga ko'maklashadi. Bolalarning oilada ta'lim olishi va mustaqil ta'lim olish uslubiy va maslahat yordami ko'rsatilgan holda tegishli o'quv dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. Uy sharoitida ta'lim - bu nogironligi bo'lgan bolalarni o'qitish varianti bo'lib, unda ta'lim muassasasi o'qituvchilari uyushtirilgan tartibda bolaga tashrif buyurishadi va u bilan bevosita uning yashash joyida mashg'ulotlar o'tkazadilar. Dars vaqti mutaxassis tomonidan tasdiqlangan jadvalda belgilanadi.

Modullarni misol tariqasida ko'rib chiqsak:

Diagnostika moduli

Maqsad: nogiron bolalarning rivojlanishidagi qiyinchiliklarning tabiati va intensivligini aniqlash, ularni har tomonlama tekshirish va ularga psixologik, tibbiy va pedagogik yordam ko'rsatish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash.

Rasmiylashtirish: maktabda pedagogik-korreksion faoliyat jarayoni va natijalarini rasmiylashtirish quyidagicha amalga oshirilishi mumkin (1-jadval)

1-jadval.

Maktabda diagnostik-korreksion faoliyat jarayoni va natijalarini rasmiylashtirish

Faoliyat yo'nalishining vazifalari	Loyihalangan natijalar	Faoliyat tadbiri turlari va shakli	O'tkazilish muddati	Mas'ul
Tibbiyot tashxisi	Tekshiruvdan o'tkazilayotgan shaxsning klinik-funksional,	Shaxs uchun sog'lig'ining holatiga ko'ra mumkin bo'lgan	yil davomida	Ota-ona, Shifokor, sinf rahbari

	ijtimoiy, psixologik ma'lumotlarini kompleks baholash asosida uning sog'lig'i yo'qolganligi darajasini hamda organizmining funksiyalari turg'un buzilganligi sababli hayot faoliyati cheklanganligi darajasini, nogironlik guruhini, nogironlikning boshlanishi sababi hamda vaqtini aniqlash.	faoliyat turlari va zarur sharoitlari, o'zgalarning parvarishi; Kompensatsiya qilishga qaratilgan shakllar va vositalar		Maktab psixologi
Psixologik-pedagogik diagnostika	Tiflotexnika vositalari asosida nogironligi bo'lgan shaxslarning ko'rishidagi nuqsoni natijasida yo'qolgan imkoniyatlarini tiklash	Davolanishning tegishli turlariga hamda ijtimoiy himoyaga bo'lgan ehtiyojiga qarab treninglar belgilash	Reja asosi da	Sinf rahbari Maktab psixologi
Ijtimoiy-pedagogik diagnostika	Shaxsning o'ziga o'zi xizmat qilish, harakatlanish, yo'lni topa olish, muloqot qilish, o'z xulq-atvorini	Anketa So'rov	Yil davo mida; Reja asosi da	Sinf rahbari Maktab psixologi

	nazorat qilish, shuningdek o'qish va mehnat faoliyati bilan shug'ullanish qobiliyatini yoki imkoniyatini to'liq yoxud qisman yo'qotganligi.		Reja asosida	
--	---	--	--------------	--

2. Korreksion-rivojlantiruvchi modul.

Maqsadi: nogironligi bo'lgan bolalarning kognitiv va hissiy-shaxsiy sohalaridagi kamchiliklarni tuzatishda o'z vaqtida ixtisoslashtirilgan yordam ko'rsatish.

2-jadval.

Maktabda korreksion faoliyat jarayoni va natijalarini rasmiylashtirish

Pedagogik-korreksion faoliyat yo'nalishining vazifalari	Loyihalangan natijalar	Faoliyat tadbiri turlari va shakli	O'tkazilish mudati	Mas'ullar
Tibbiy korreksiya faoliyati	Shifokor ko'rigidan o'tish; muolajalarning belgilanishi	Statsionar davolash; massaj tibbiyot muolajalari	Shifokor tavsiyasiga binoan yil davomida	Ota-ona, shifokor, sinf rahbari, maktab psixologi
Psixologik-pedagogik korreksiya faoliyati pedagogich	Nogironligi bo'lgan bolalar uchun dastur ishlab chiqish; Ota-onalar bilan ishlash	O'qishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan o'quvchilarni	Yil davomida Reja asosida	Ota-ona, sinf rahbari, fan o'qituvchisi maktab psixologi

eskaya rabota Obespechit pedagogich eskoe soprovojen ie detey s OVZ, detey- invalidov Razrabotka programm individualn ыx traektori razvitiya, vklyuchayu щix:	dasturini ishlab chiqish Sinf va o'quvchi uchun alohida-alohida ishlash rejasini shakllantirish	ing individual o'qish traektoriyasi ni tuzish		
Ijtimoiy- pedagogik korreksiya	Psixologik va nutq terapiyasi yordamini ta'minlash Ish rejasini tuzish	Nogironligi bo'lgan bolalar uchun korreksiya ishlari parametrlari ni rivojlantirish ning ijobiy dinamikasi	Har chorakda	Logoped o'qituvchi

3. Maslahatlar moduli

Maqsad: nogironligi bo'lgan bolalarni rivojlantirish va ijtimoiylashtirish hamda ular uchun tabaqalashtirilgan ta'limdagi psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash.

3-jadval.**Umumiy o'rta ta'lim maktabida korreksion faoliyat
natijalarini rasmiylashtirish**

Faoliyat yo'nalishining vazifalari	Loyihalangan natijalar	Faoliyat tadbiri turlari va shakli	O'tkazilish mudati	Mas'ullar
Maslahat berish;	Mashqlar Metodikalar Ishlash texnikasi.	Suhbat Trening Maslahat Individual mashqlar Guruh tadbirlari Mavzuiy tadbirlar	Reja asosida	Mutaxassislar
O'qituvchilarga nogironligi bo'lgan bolalar bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar	Mashqlar Metodikalar Ishlash texnikasi. Bola bilan ishlash bo'yicha maslahat ishlanmasi.	Individual mashqlar Guruh tadbirlari Mavzuiy tadbirlar	Reja asosida	Mutaxassislar
Ota-onalarga bolalarning psixologik va fiziologik rivojlanishi bo'yicha maslahat berish	Konsultatsiya Mashqlar Metodikalar Ishlash texnikasi.	Individual mashqlar Tarbiyaviy tadbirlar	Reja asosida	Mutaxassislar

4. Ma'rifiy-axborot moduli

Maqsad: ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan nogiron bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalari bo'yicha axborot-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish.

Korreksion-pedagogik faoliyat o'quvchining oilasi bilan yaqin hamkorlikda amalga oshiriladi. Bunda korreksion (tuzatish) faoliyat maktab o'quvchilarining kognitiv jarayonlarini, intellektual va shaxsiy sohalarini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Giperaktiv, tajovuzkor bolalar bilan psixokorreksiya ishlari rejalashtiriladi va muammolarni tuzatish, xavf guruhiga moslashish davri natijalariga ko'ra bolalarda kognitiv faoliyatning individual uslubini shakllantirishga zamin hozirlanadi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni, 2020-y. 23-sentyabr/ <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil 11-sentyabr;/ <https://lex.uz/docs/-5049511>
3. Abdullaeva Sh.A. Pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya. Magistrlar uchun darslik.-T.:Nodirabegim, 2021.-310 b.
4. G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi –Toshkent: O'qituvchi, 2010,-292 b.



AMALIY MASHG‘ULOTLAR BO‘YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR:

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Pedagogik diagnostikaning ilmiy va nazariy asoslari.
2. Ta’lim muassasasida pedagogning diagnostik faoliyati.
3. Pedagogik diagnostika metodlari.
4. Pedagogik diagnostikada testlarning tutgan o‘rni.
5. Pedagogikada diagnostik faoliyatning tashkiliy-metodik jihatlari.
6. Ta’lim muassasasida pedagogik diagnostika faoliyatini tashkil etish.
7. Ta’lim muassasasida pedagogik diagnostika faoliyati natijalarini rasmiylashtirish.
8. Pedagogik korreksiya: mazmuni, mohiyati, maqsadi va vazifalari.
9. O‘rta umumta’lim muassasasida olib boriladigan pedagogik-korreksion faoliyatlar tasnifi va tamoyillari.
10. O‘quvchilarning shaxsiy samaradorligi pedagogik korreksiya obykti sifatida.
11. Maktabda pedagogik korreksiya faoliyatini tashkil etishning shakl va metodlari tasnifi.
12. Pedagogik korreksiyada neyrolingvistik dasturlashning bazaviy texnikasidan foydalanish.
13. Pedagogik korreksiya texnologiyalari.
14. Maktabda pedagogik-korreksion faoliyat dasturini tayyorlash.
15. Maktabda pedagogik-korreksion faoliyat jarayoni va natijalarini rasmiylashtirish.



MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. “Pedagogik diagnostika” va “psixologik diagnostika” tushunchalarining o‘zaro qiyosiy jadvalini tuzing.
2. Pedagogik diagnostikaning asosiy yo‘nalishlarini klaster shaklida ifodalang.
3. Ta'lim muassasasida o‘quvchilarda mehnatsevarlik sifati tarbiyalanganligini diagnostika qilish algoritmini ishlab chiqish.
4. Pedagogik diagnostika tamoyillarini sxematik tarzda ifodalang va ularga izoh bering.
5. Siz o‘qigan maktabda pedagogic diagnostika qanday yo‘nalishlarda olib borilganligi to‘g‘risida qisqacha esse tayyorlang.
6. Xulqida og‘ish bo‘lgan o‘quvchi bilan shaxsiy samaradorligi past o‘quvchida tarbiyaviy mobillik shakllantirishning o‘xshash va farqli tomonlarini o‘zaro qiyoslang.

UZLUKSIZ TA'LIMDA FOYDALANILADIGAN DIAGNOSTIK METODIKALARDAN NA'MUNALAR

TARBIYALANUVCHILARNING AXLOQIY SIFATLARINI DIAGNOSTIKA QILISH.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun amaliy diagnostik-trening

AXLOQIY FAZILAT NIMA?

“Odobi yo‘q odamning ilmi yo‘q”

(O‘zbek xalq maqoli)

(35 daqiqa)

Maqsad:

- 1. MTT tarbiyalanuvchilariga axloq, odob, axloqiy fazilat xaqida tushuncha berish. 6-7 yoshli bolalarning axloqiy sifatlarini diagnostika qilish natijasida korreksion tadbirlar tizimini ishlab chiqish;*
- 2. maktabgacha ta'lim va tarbiya mazmuni bilan bog'liq innovatsiyalar ta'sirini o'rganish, ta'lim subyektlarini differensialashtirish;*
- 3. maktabgacha ta'limning shakl, metod, vosita va texnologiyalarining bola shaxsiga yo'naltirilganligini baholash.*

Qisqacha ta'rifi: *«Tarbiyalanuvchilarning axloqiy sifatlarini diagnostika qilish» nomli uslubiy ko'rsatma 6-7-yoshli maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) tarbiyalanuvchilari uchun ishlab chiqilgan bo'lib, unda amaliy material asosida bolalarning axloqiy sifatleri: to'g'riso'zlik, kamtarinlik kabilarni diagnostika qilishga mo'ljallangan metodika aks ettirilgan.*



Odob va axloq haqida tushuncha

Tarbiyachi matnni o‘qiydi: “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da: “odob, “adab” (arabcha)” - yaxshi tarbiya, ma’qul harakat degan ma’noni bildiradi. Odob-axloq- ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi yaxshi axloq, tarbiya, xushmuomilalikni bildiradi.

Odob so‘zi arab tilidan o‘zbek tiliga kirgan so‘z bo‘lib, insonlarni ma’naviyatga, yaxshilikka da’vat qilmoq, go‘zal xulq-atvorga undash ma’nosini anglatadi. Odobga ta’rif beradigan bo‘lsak, u quyidagicha bo‘lishi mumkin. Odob inson uchun juda muhim fazilatdir. “Karohiyatli xulq”, “osiylik”, “yaxshi tarbiyaga zid harakat” kabi so‘zlar odob so‘zining aksi hisoblanadi. Ma’lumki, insonning barcha aloqa, munosabatlari uning e’tiqodi va xulq-odobi asosiga yuzaga keladi. Odob insonlarning aloqa va munosabatlarini qanday bo‘lishini belgilaydi.

Odobsiz kishi jamiyatda o‘z aloqa va munosabatlarini yaxshi o‘ringa qo‘ya olmaydi. SHu sababli xalqimizda farzandlarni yoshligidan odob olishiga alohida ahamiyat beriladi. SHu jihatdan xalqimiz maqolida: “ Bola – aziz, odobi undan aziz” deyiladi. Luqmoni Hakimdan odamlar: “**Ey Luqmoni Hakim, odobni qaerdan o‘rganding?**”deb so‘rashibdi. SHunda Luqmoni Hakim: “**Odobni beadablardan o‘rgandim**” deb javob bergan ekan. Inson umri davomida o‘z odobini yaxshilab bormog‘i lozim. Odatda odob oldin o‘rganilib, undan so‘ng esa unga amal qilinadi. Donishmandlar “**Odobi yo‘q odamning ilmi yo‘q**” deb aytishadi.

Inson qancha ilm o'rgangan sari uning odobi shuncha yuksalib boradi. Beadablik johillik alomatidir. Odobsizlik inson ilmining kamligini, u insonning hali kamolotga etmaganligining belgisidir.

Inson yaxshi odob bilan kamolotga erishadi. Odob inson uchun eng qimmatli narsadir. Hadislarning birida ota-ona o'z farzandiga go'zal odobdan afzal narsani hadya qilolmasligi ta'kidlanadi. Shu sababli har bir inson o'zida go'zal odoblarning bir umr saqlanib qolishiga erishish lozim.

Beadablik insonga yaxshilik keltirmaydi. Odobsizlik tufayli inson mehr-muhabbatdan judo bo'ladi. Odobsizlik tufayli jamiyat kishilari orasida turli ixtiloflar, o'zaro nafrat, noroziliklar kelib chiqadi.

Odob tufayli inson nafsni jilovlaydi, uni tartibga soladi. Odobsizlik havoyi nafsga tobe' bo'lishlik, nafsga ergashishdir. Odob insonni o'z nafs-havo qutqularidan saqlovchi, uning domidan chiqarib oluvchidir.

Dunyodagi barcha go'zal odob sohiblari kamolot sari intilib, odamlarni yaxshilikka chorlab, ularni yomonlikdan qaytarganlar. Bunday kishilarning hayoti, ularning husni-xulqi hamisha insonlar uchun ibrat namunasidir.

Yaxshi odob insonlar orasida o'zaro mehr-muhabbatni, tinch-totuvlikni yuzaga keltiradi. Odob har bir insonning umrini yaxshi kechishiga, uning jamiyatda yaxshi o'rin topishiga sabab bo'ladi. Odob insonni ikki dunyo saodatiga erishtiradi.

1-

Topshiriq



Quyidagi fikrlarni o‘z so‘zingiz bilan aytishga harakat qiling.

AXLOQ — insonlarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui.

ODOB- yaxshi, go‘zal xulq-atvorga egalik. Insonning yaxshi tarbiya, yaxshi xulq-atvor bilan sifatlanishi va xunuk xulqlardan o‘zini saqlashi odob deyiladi.



2

Topshiriq. Maqollarning ma’nosini izohlab bering. O‘zingizga yoqqanini yod oling.



Eshik ochiq bo'lsa ham, so'rab kir.

Yaxshi bola yog' keltirar.

Yomon bola dog' keltirar.

Yaxshi bola nom keltirar,

Yomon bola g'am keltirar.

Yaxshi bola — otaga quvvat,

Yomon bola — uqubat.

Yaxshi bola — suyuk,

Yomon bola — kuyuk.

Yaxshi bola — to'rga tortar,

Yomon bola — go'rga.

Yaxshi bola shon keltirar,

Yomon bola qon keltirar.

Yaxshi boladan rahmat,

Yomon boladan — la'nat.

Yaxshi yaroqsiz bo'lar,

Yomon — quloqsiz.

Bola — aziz, odobi undan aziz.

Usta bo'lsang, ustozingni unutma.

Ustozingga tik qarasang, to'zasan,

Hurmat qilsang, asta-asta o'zasan.

Chakki yursang, dakki yersan.

Shalp yursang, shapaki yersan.

SHamolimni so'kma,

Tuzimni erga to'kma.

O'ynoqi qo'zi oyna sindirar.
O'ynoqi buzoq o't bosar.
O'rinsiz qiliqdan o'rinli yumruq yaxshi.
O'g'ilga o'g'il bo'lmasang,
Uviq tegar boshingga.
O'g'irlik osh badanga yuqmas,
Yomon bola ota-onaga boqmas.
Qiz bola uyda yaxshi,
Er bola elda yaxshi.
Qizning erkasi — echkinining serkasi.
Qizining qilig'i ko'chada bilinar.
Qobil farzand — jonga payvand.
Qobil o'g'il rohat keltirar,
Noqobil o'g'il — mehnat.
Qovun qovundan rang olar.
Qo'yni — serka,
O'yinni erka boshlar.
Hay-hay sening yurishing,
Bordir sening bir ishing.
Husn husn emas, odob husn.
Ho'l yog'ochni egmagin,
Tegmaganga tegmagin.



Topshiriq. Maqollarga mos rasmni tanlang



Maqol	Maqolga mos rasmni tanlang
Bola odobi bilan aziz	
Yaxshi qiz erta turib, soch tarar, Yomon qiz erta turib, non so‘rar.	 
Yaxshi xulq — kishining husni.	

Husn xulqi bilan chiroyli.	
Qobil o‘g‘il otga mindirar, Noqobil — otdan tushirar.	
Odobning — boshi til.	
Tilingni tiysang, boshing omon qolar	

TO‘G‘RI JAVOBLAR

Maqol	Maqolga mos rasmni tanlang
Bola odobi bilan aziz	 
Yaxshi qiz erta turib, soch tarar, Yomon qiz erta turib, non so‘rar.	
Yaxshi xulq — kishining husni.	
Husn xulqi bilan chiroyli.	

Qobil o‘g‘il otga mindirar, Noqobil — otdan tushirar.	
Odobning — boshi til.	
Tilingni tiysang, boshing omon qolar	



Savollarga javob bering

Savol	Kutilayotgan to‘g‘ri javob	To‘g‘ri javob uchun qo‘yiladigan ballar
Qanday bolalarga odobli va axloqli deyish mumkin?	Tarbiyali, yaxshi, go‘zal xulq-atvorga ega bolalarni axloqli deyish mumkin	1ball dan 5 ballgacha
Odobsizlik nima?	Odobsizlik tarbiyalanmaganlikdir. Insonning nafsga tobe’ bo‘lishidir.	1ball dan 5 ballgacha
Nafs nima?	Nafs insonni yomonlikka undovchi xislat. Nafs irodasizlik alomatidir. Masalan, ertalab badantarbiya qilmaslik, tishlarni tozalamaslik, dangasalik bularning barchasiga insonning nafi sabab bo‘ladi.	5-ball dan-10 ballgacha

	Yoki, ertalab, ota-onamiz uyqudan o‘z vaqtida turish lozimligini aytib, uyg‘otishganda, nafs (dangasalik, tanballik orqali) bunga xalaqit beradi.	
Nafsni jilovlash deganda nimani tushunasiz?	Irodani safarbar qilishga, aql bilan ish tutishga nafsni jilovlash deyiladi. Masalan, uy yumushlariga yordam bergingiz kelmasada (yana o‘sha dangasalik tufayli), siz aqlingizni yig‘ib, ota-onangizga yordam berasiz. YOKi, badantarbiya bilan shug‘ullanishni istamay turgan paytingizda, uning foydali ekanligini o‘ylab, jismoniy mashqlarni bajarasiz.	5-balldan-10 ballgacha
Ushbu rasmni qanday izohlaysiz?		10 balldan 15 ballgacha
“Odotsizlik tufayli kishilar orasida norozilik, nizo kelib chiqadi” degan fikrni qanday tushundingiz?	Axloqsiz va odotsiz odamlar tarbiyasi bo‘lishmaydi. SHu sababli ular jamoat joyida, kattalar vatengdoshlari oldida turli nojo‘ya harakatlarni sodir etishlari mumkin. Masalan, qo‘pol gap aytishlari, o‘rtog‘i yoki, tengdoshi bilan mushtlashishi, yolg‘on gapirishi va boshqa xatti-harakatlarni qilishlari mumkin. SHu sababli odotsizlik tufayli odamlar orasida nizo va janjallar kelib chiqishi mumkin. Odobli bola axloqsizlik qilmasligi kerak.	5-balldan-10 ballgacha
Odob haqida qanday maqollarni bilasiz?	Yaxshi bola — otaga quvvat; Eshik ochiq bo‘lsa ham, so‘rab kir Yaxshi bola shon keltirar	1-balldan3 ballgacha
Siz o‘zingizni odobli, deb hisoblaysizmi?	Men axloqqa zid bo‘lgan xatti-harakatlarni qilmayman. Ota-onam, murabbiylarim va tengdoshlarimni hurmat qilaman. Odob-axloq haqidagi ertaklar va hikoyalarni sevib tinglayman.	1 balldan-5 ballgacha

JAVOBLAR ISHLOVI:

14balldan 28 ballgacha

MTT tarbiyalanuvchisi axloq, odob, axloqiy fazilat xaqida tushunchaga ega. Kattalar tomonidan aytilgan topshiriqlarni bajaradi. Biroq, amaliy xatti-harakatida odob me'yorlariga rioya qilishda iroda, aqliy amallarni bajarishga motivatsiya hosil qilish kerak.

28 balldan 35 ballgacha

MTT tarbiyalanuvchisi axloq, odob, axloqiy fazilat xaqida tushunchaga ega. Kattalar tomonidan aytilgan topshiriqlarni qiziqish bilan bajaradi. Odob me'yorlariga rioya qilishda iroda safarbarligi shakllangan.

35 balldan 50 ballgacha

MTT tarbiyalanuvchisi axloq, odob, axloqiy fazilatlar xaqida tushunchaga ega. Kattalar tomonidan aytilgan topshiriqlarni kuchli motivatsiya bilan bajaradi. Do'stlari va guruhdoshlari bilan inoq. Amaliy xatti-harakatida odob me'yorlariga rioya qiladi, qiziquvchan. Iroda safarbarligiga tayyor, aqliy amallarni bajarishga motivatsiyasi kuchli.

TARBIYALANUVCHILARDA AXLOQIY SIFATLARNI DIAGNOSTIKA QILISH.

VIJDON NIMA?

Qisqacha ta'rif: «Tarbiyalanuvchilarning axloqiy sifatlarini diagnostika qilish» nomli diagnostik trening 6-7-yoshli maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) tarbiyalanuvchilari uchun ishlab chiqilgan bo'lib, unda amaliy material asosida bolalarning axloqiy sifatleri: vijdonlilik, to'g'riso'zlik, kamtarinlik kabilarni diagnostika qilishga mo'ljallangan metodika aks ettirilgan.

POK VIJDONLI INSON KIM?

(35 daqiqa)

Maqsad::

1. *MTT tarbiyalanuvchilariga vijdon xaqida tushuncha berish. 6-7 yoshli bolalarda vijdonlilik, or-nomus kabi sifatlarni shakllantirish va ularni diagnostika qilish natijasida korreksion tadbirlar tizimini ishlab chiqish;*

Vijdon xaqida haqida tushuncha

Tarbiyachi matnni o'qiydi: Vijdon — axloqiy tushuncha, yaxshilik nima-yu, yomonlik nimaligiga javob beradigan ichki ishonch, o'z xatti-harakatlari uchun axloqiy mas'uliyatni anglash.

Vijdon shaxsning axloqiy jihatdan o'zini nazorat qila olish, o'zida axloqiy burchni mustaqil shakllantirish hamda o'zidan uni ado etishni talab qilish va o'z xatti-harakatlariga baho berish qobiliyatini ifodalaydi.

Vijdon axloqiy mayl bo'lib, tashqi ta'sir tufayli rivojlanishi yoki so'nishi mumkin. U ehtiros, hissiyot shaklida shaxsning salbiy xatti-harakatlari uchun uyalish, pushaymon bo'lish kabilarda namoyon bo'ladi.

Jamiyatning rivojlanishi, ma'naviy, axloqiy yuksalishi bilan vijdon tushunchasining mazmuni va mohiyati boyib boradi.

1-topshiriq. Quyidagi jummalarni qanday tushundingiz? Izohlab bering.

Vijdon -yaxshilik, burch, baxt, halollik kabi boshqa axloqiy tushunchalar bilan bog'liq. Uning mohiyati ijtimoiy muhit bilan belgilanadi.

Vijdon axloq jihatdan kamol topishdir. U yaxshi hislarni rivojlantirish va yomon sifatlardan forig' bo'lish demakdir.

Agar kishi vijdonli bo'lsa, yaqin odamlariga har narsada ko'mak bersa, halol mehnat qilib, ko'p bilim o'rgansa, albatta, ertami-kechmi u shon-shuhrat qozonadi.

2-topshiriq. Quyidagi maqollardan 3-4 tasini yod oling. Ularning ma'nosini qanday tushundingiz?

Bir harom luqma deb, ming halol luqmani yo'qotasan.

Halollik bozorda sotilmas.

Arman maqoli.

Vijdondan bo'lak hamma narsani suv bilan yuvib tozalash mumkin.

Gruzin maqoli.

Tuyaga yuk azob beradi, odamga – vijdon.

Qoraqalpoq maqoli.

To'ning yamoq bo'lsa ham,

Diling yamoq bo'lmasin.

Tortinchoq kishi samimiy va pokdil bo'ladi.

Halol mehnat insonni ulug'laydi.

Odamning husni – insof

Qalblar bo'lsin doim sof.

Halol topgan pulingga, olib esang oshu non,

SHundagina ishtahang ochiladi begumon.

Oshing halol bo'lsa, ko'chada ich.

O'zbek maqollari.

CHiroyli tovus o'z parlarini ehtiyot qilar,

Vijdonli kishi o'z shonu-sharafini saqlar.

Xitoy maqollari.

3-topshiriq. Quyidagi iboralarning mohiyatini tarbiyachi yordamida tahlil qiling. Ularga munosabat bildiring.

Gar ochlikdan bersa ham mard jon,

Etimlar haqin emagay hech qachon.

Sa'diy SHeroziy.

Kimki vijdonsiz erur, qilma ularni ehtirom,

Tuzni qadrin bilmagan xoinlara yo'qdir taom.

Mutriba.

Soflingingni saqlab qolish uchun juda katta mahorat kerak!

M. E. Saltikov-Shchedrin.

Bu olamda kishikim pok qalbu sof botindir,

Hamisha fikr kunjida qanoat birla sokindur.

Tabibiy.

Aql ko‘pga etkazar,

Hunar — ko‘kka.

Barakat — mag‘izda,

Hunarli qo‘l — og‘izda.

Baxt belgisi — bilim.

Behunaming hunari — yalqovlik.

Bilagi zo‘r birni yiqar,

Bilimi zo‘r — mingni.

Bilak bilan bitmagan

Bilim bilan bitar.

Bilgan bilganin ishlar,

Bilmagan barmog‘in tishlar.

Bilgan bitirar,

Bilmagan yitirar.

Bilgan o‘zar,

4-topshiriq.Savollarga javob bering

Savol	Kutilayotgan to‘g‘ri javob	To‘g‘ri javob uchun qo‘yiladigan ballar 38dan 73gacha
Qanday bolaga vijdonli deyish mumkin?	To‘g‘riso‘z, rostgo‘y, samimiy, o‘z ishini halol bajaruvchi bolaga vijdonli deyish mumkin	1 ball dan 5 ballgacha
Vijdon nima?	Xatti-harakati uchun uyatga qolmaslik, halol va pokiza ishlarni bajarish.	1 ball dan 5 ballgacha
Vijdonsizlik nima?	Yomon xulqli bo‘lish, atrofdagi do‘stlari, ota-onasiga yolg‘on gapirish, xiyonat qilish	5-balldan-10 ballgacha
Sen, ulug‘ va	Inson vijdonli, ya‘ni to‘g‘riso‘z, halol	5-balldan-10

mashhur bo‘lmasang ham hechqisi yo‘q. Sen, pok vijdon mehnatkash va odobli kishi bo‘lganing bilan faxrlan. I. F. Smolyaninov. Ushbu sitataning mazmunini tushuntirib bering.	bo‘lsa, har qanday kerakli narsani yaxshi bajarishda katta xursandchilikka erishadi. Hayotni munosib tarzda o‘tkazish juda muhim.	ballgacha
Ushbu rasmni qanday izohlaysiz?		10 balldan 15 ballgacha
“Yaxshi ishlarga farishtalar, yomon ishlarga shayton boshlaydi..” iborasini qanday tushundingiz?	Yaxshi, ezgu ishlar qilinsa, odamlar, jamiyat o‘sha ishni bajargan insonni ulug‘laydi, qadrlaydi. SHu sababli farishtalar faqat yaxshi, solih ishlarga undaydi, chunki farishtalar o‘zlari ochiqqo‘ngil, ezgulikkka undovchi maloikatlar. Yomon ishni qilgan odamni hamma la‘natlaydi. SHayton esa xudo tomonidan lan‘atlangan maxluqot. SHu sababli uning izidan ergashmaslik kerak.	5-balldan-10 ballgacha
Vijdon xaqida qanday maqollarni bilasiz?	Halol mehnat hayoting ziynatidir, asti or etma! Ko‘z uchiman ko‘zlama, Ko‘zlaringga zo‘r kelar. Til uchiman so‘zlama, O‘zingga zarar kelar.	1-balldan 3 ballgacha

	Uyalishni bilgan oq ko'ngil bo'ladi.	
Siz o'zingizni vijdonli, deb hisoblaysizmi?	Men axloqqa zid bo'lgan xatti-harakatlarni qilmayman. Ota-onam, murabbiylarim va tengdoshlarimni hurmat qilaman. Odob-axloq haqidagi ertaklar va hikoyalarni sevib tinglayman.	1 balldan-5 ballgacha
Agar, yoningizdagi do'stingiz vijdotsizlarcha ish tutsa, ya'ni kimnidir aldasa, o'rtog'ining o'yinchog'ini olib quysa, qanday xatti-harakat tutasiz?	A)Men bunga murosasiz bo'laman. Unga nojo'ya harakatlari xaqida aytib, to'g'ri yo'lga boshlayman; B) kattalarga aytib, bu yo'ldan qaytarishga harakat qilaman S) Hech narsa bo'lmagandek o'zimni tutaman, lekin tarbiyachimga sekin aytib quyaman D)Unga yomon ko'rinmaslik uchun hech narsa demayman	5-ball 4 ball 1 ball 0 ball

JAVOBLAR ISHLOVI:

25 balldan 38 ballgacha

MTT tarbiyalanuvchisi vijdon, vijdonlilik xaqidagi tushunchalarga ega. Samimiy, to'g'riso'z. Biroq, amaliy xatti-harakatida jamoa tomonidan qo'yilgan me'yorlariga rioya qilishda iroda, aqliy amallarni bajarishga motivatsiya hosil qilish kerak.

39 balldan 56 ballgacha

MTT tarbiyalanuvchisi vijdon, vijdonlilik, samimiylik, ochiqko'ngillik kabi fazilatlarga ega. Rostgo'y, kattalar tomonidan aytilgan topshiriqlarni qiziqish bilan bajaradi. Jamoa tomonidan qo'yilgan axloqiy me'yorlarga rioya qilishda iroda safarbarligi shakllangan.


57 balldan 73 ballgacha

MTT tarbiyalanuvchisi MTT tarbiyalanuvchisi vijdon, vijdonlilik, samimiylik, to'g'riso'zlik, andishalilik kabi fazilatlarga ega. Do'stlari va guruhdoshlariga ko'mak berishga tayyor bilan inoq.

Amaliy xatti-harakatida odob me'yorlariga rioya qiladi, qiziquvchan. Iroda safarbarligiga tayyor, yaxshi fazilatlari bilan kattalar va tengdoshlari orasida obro' qozongan. Ezgu amallarni bajarishga motivatsiyasi kuchli.

STEAM ta'lim texnologiyasiga oid metodikalar

STEAM – bu zamonaviy ta'lim trendlaridan biri bo'lib, aralash o'quv muhitida fan va san'at yo'nalishlarini kundalik hayotda uyg'un tarzda qo'llashni ko'rsatadi va harakatlar, modifikatsiyalar ro'yxati ko'rinishidagi muammolarni hal qilish texnologiyasi sifatida xizmat qiladi.



STEAM ta'limining afzalliklari	
Ta'limning atrofdagi real dunyo bilan yaqin aloqada bo'lishini ta'minlaydi	Tahsil oluvchilarni intellektualligi, nufuzi (feshn), individual xususiyatlari asosida birlashtirishga imkon beradi
Tahsil oluvchilarni rag'batlantirish, hamkorlikni tashkil qilish	Mustaqil, ijodiy, kreativ, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi
BKM (bilim, ko'nikma, malaka) va kompetensiyalar rivojlanishiga ulkan hissa qo'shadi	Ta'limga muhandislik yondashuvini amalga oshiradi
Dizayn asoslarini tushunishga, ilmiy ijodga yo'l ochadi	O'quv dasturi asosida o'rganish g'oyasiga asoslangan fanlararo va amaliy yondashuvni amalga oshiradi
Fanlarni integral o'rganishga imkon beradi	Ilmiy va texnik bilimlarni hayotda qo'llashga xizmat qiladi
Tahsil oluvchining o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi	Faol muloqot va jamoaviy ish orqali texnik fanlarga qiziqishni rivojlantiradi
Loyihalarga ijodiy va innovatsion yondashishga o'rgatadi	Tahsil oluvchining yoshi va individual xususiyatlarini hisobga oladi
Kasbga yo'naltiradi	O'qishga, izlanishga motivatsiyani uyg'otadi

SINEKTIKA – guruh faoliyati metodi

Tavsifi: Sinektika (sinektika- getorogen elementlarning kombinatsiyasi)- bu jamoaviy intellektual faoliyatning ijtimoiy-psixologik motivatsiyasiga asoslangan ixtirochilik ijodkorlik metodi.

Guruh faoliyatining ushbu metodi aqliy hujum g'oyalarining davomi sifatida juda keng tarqalgan bo'lib, bularning barchasi tahsil oluvchining rivojlanishining tubdan yangi, yuqori darajasini ta'minlaydi va kelgusi kasbiy kompetentligi imkoniyatlarini kengaytiradi.

Qadamlar:

1. STEAM ta'limi orqali o'rganilayotgan muammo, hodisalar mantig'ini chuqur tahlil qilish;
2. O'zaro bog'liqligini kashf etish va tushunish, yangi, g'ayrioddiy va juda qiziq narsalarni kashf etish imkoniyatini yaratish;
3. Yangi narsa bilan tanishishni kutish qiziqish va bilim faolligini rivojlantirish;
4. O'zi uchun qiziqarli muammoni aniqlash, usullarni tanlash va uni hal qilish algoritmini tuzish zarurligi, natijalarni tanqidiy baholash qobiliyati muhandislik fikrlash uslubini rivojlantirish;
5. Jamoaviy faoliyat orqali jamoada ishlash mahoratini rivojlantirish.

Ushbu metodga namuna keltiramiz.

Topshiriq. Hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlash hamda zamonaviy ta'lim jarayonini ko'rib chiqish asosida talabalarning rollar orqali namoyon bo'lishini tartib bilan ifodalang.


- 1) guruhli faoliyatning ishtirokchisi;
- 2) namuna bo'yicha uy vazifasini mustaqil bajargandan so'ng faoliyat egasi;
- 3) o'quv jarayoni bilan dastlab tanishishda tomoshabin, kuzatuvchi;
- 4) o'z faoliyati natijasida yuzaga keladigan o'z-o'zining faoliyati egasi;

5) faoliyatning shaxsiy namunasini yaratishda faoliyat egasi+fikr egasi

Talabaga taqdim etilgan sxema



O'qituvchining javobi.



- 1.O'quv jarayoni bilan dastlab tanishishda tomoshabin, kuzatuvchi
- 2.Guruhli faoliyatning ishtirokchisi
- 3.Namuna bo'yicha uy vazifasini mustaqil bajargandan so'ng faoliyat egasi
- 4.Faoliyatning shaxsiy namunasini yaratishda faoliyat egasi+fikr egasi
- 5.O'z faoliyati natijasida yuzaga keladigan o'z-o'zining faoliyati egasi

Topshiriq. Chap tarafdagi ustunda ko'rsatilgan STEAM qisqartmasiga mos bo'lgan ta'rifni ustunning o'ng tomoniga moslashtiring.

STEAM qisqartmasi	STEAM ta'rif
S	
T	
E	
A	
M	

To'g'ri javob:

STEAM qisqartmasi	STEAM ta'rifi
S	science – fan. Tahsil oluvchilarning fanlarga oid bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini ilmiy tadqiqotchilik ko'nikmalari asosida rivojlantirish.
T	technology – texnologiya. Tahsil oluvchilarning fanlarga oid bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish.
E	engineering – muhandislik. Tahsil oluvchilarning muhandislik sohasiga oid bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirish.
A	arts - san'at. Tahsil oluvchilarning san'at va madaniyat sohasidagi dunyoqarashini kengaytirish; bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirish.
M	math - matematika. Tahsil oluvchilarning matematika sohasidagi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirish.

Topshiriq. “Muammoli vaziyat” metodi orqali STEAM texnologiyalarining afzalliklarini muhokama qiling.

“Muammoli vaziyat” metodi - muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

«Muammoli vaziyat» metodi qo'llanilganda bitiruvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar. Quyida “muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan (-Ilova).

Bosh muammo: STEAM ning afzalliklari va kamchiliklari

Afzalliklar	Kamchiliklar

O'qituvchining javobi

Afzalliklar	Kamchiliklar
Fanlararo integratsiyaning vujudga kelishi	Didaktik tizimlarda yetuk mutaxassilarning yetishmasligi
Tahsil oluvchilarda kreativ fikrlash ko'nikma, malakalarni tarkib topishi	Yosh o'qituvchilarda muayyan kompetensiyalarning rivojlanmaganligi
Mustaqil va ijodiy fikrlashga zamin yaratilishi	Uzviylik va uzluksizlik kabi didaktik tamoyillarning inobatga olinmasligi
Tahsil oluvchilarda ilmiy tadqiqotchilik ko'nikmalari, texnika, muhandislik, fan, san'at, madaniyat, matematikaga oid bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirish	Texnika va muhandislik sohasiga oid zaruriy asbob va uskunalarning har doim ham yetishmasligi

OLTI SHLYAPA METODI

Tavsifi: Pedagog va amaliyotchi Edvard de Bono o'zining bir qator asarlarini guruh ijodiy fikrlash usullariga bag'ishlagan. Mushohada qiluvchi shlyapalar metodi bitiruvchilarda pedagogik texnikani rivojlantirishda samarali bo'lib hisoblanadi.

Qadamlar:

1. Rejalashtirish, modellashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish;
2. Amaliy va aqliy disputlar tashkil qilish, o'tkazish, xulosalarni umumlashtirish;

3. O'rganilayotgan muammoning sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish, nutqni rivojlantirish;
4. Ovoz tebrini sozlash, mimikaga e'tibor qaratish.

MORFOLOGIK QUTI METODI

Tavsifi: Mazkur metod morfologik tahlil asoschisi, shveytsariyalik astronom F.Svikki tomonidan taklif qilingan. Oldingi metod singari, u o'quv guruhlarida ishni yanada oqilona tashkil etish uchun mo'ljallangan. Morfologik quti metodi (morfologik tahlil) muammoning alohida qismlari (qurilmani tavsiflovchi morfologik xususiyatlar deb ataladigan) uchun mumkin bo'lgan yechimlarni tanlash va ularning kombinatsiyalarini (birlashtirish) keyinchalik tizimli ravishda olishga asoslangan.

Morfologik quti metodining mohiyati ma'lum bir tuzilishda, mavjud muammoni tahlil qilish, inventarizatsiyada yotadi. F.Svikki muammoli vaziyatni matritsa tuzish orqali hal qilish uchun quyidagi bosqichlarni taklif qiladi:

Qadamlar:

1. Yechilishi kerak bo'lgan masalani aniq shakllantirish;
2. Yechimini kutayotgan masalaning ob'ktini matritsaga joylashtirish;
3. Obyekt variantlarini variatsion qatorlarga quyib, muammo yechimini topish.
4. Amaliy mashg'ulot interfaol metodlar va turli grafikli organayzerlar yordamida tashkil qilinadi.



TUSHUNCHA	MAZMUNI
ADOLAT	(arabcha «adolat»-odillik, to'g'rilik)- axloq va xuquqning me'yoriy kategoriyalaridan biri bo'lib, mavjud ijtimoiy voqelik inson mohiyatiga va huquqlariga mosligini belgilab beruvchi mezon bo'lib xizmat qiladi. Adolat insoniyat ma'naviy qadriyatlarining oliy ko'rinishi bo'lib, baxt ozodlik, tenglik tushunchalari kabi, inson erki va irodasini o'zida ifoda etgan. Har qanday madaniyat sotsiomadaniy darajasining yuksalishi ijtimoiy adolat normalariga rioya qilish bilan belgilanadi.
ANALIZATOR	sezgi nerv sistemasining u yoki bu qo'zg'atuvchidan ta'sirlanuvchi reaksiyalari tarzida hosil bo'ladi va har qanday ruhiy hodisa kabi reflektorlik xususiyatiga egadir. Quzg'atuvchining aynan o'ziga

	o‘xshaydigan analizatorga ta’siri natijasida hosil bo‘ladigan nerv jarayoni sezgining fiziologik negizi hisoblanadi. Analizatorning o‘zagi nafis analiz va sintez qilish funksiyasini bajaradi.
ADOLAT	(arabcha «adolat»-odillik, to‘g‘rilik)- axloq va xuquqning me‘yoriy kategoriyalaridan biri bo‘lib, mavjud ijtimoiy voqelik inson mohiyatiga va huquqlariga mosligini belgilab beruvchi mezon bo‘lib xizmat qiladi. Adolat insoniyat ma’naviy qadriyatlarining oliy ko‘rinishi bo‘lib, baxt ozodlik, tenglik tushunchalari kabi, inson erki va irodasini o‘zida ifoda etgan. Har qanday madaniyat sotsiomadaniy darajasining yuksalishi ijtimoiy adolat normalariga rioya qilish bilan belgilanadi.
AXLOQIYLIK	Axloq-faqat insonga xos bo‘lgan oliy ne‘mat bo‘lib, uch asosiy omildan: axloqiy anglash, axloqiy his etish va axloqiy munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Axloqiy ongni tarkib toptirishning eng muhim yo‘li yoshlarning o‘zlarida to‘g‘ri xulq-atvorni yuzaga keltirish bilan

	axloqiy tajribani boyitish va umumlashtirish yoʻlidir. Axloqiy tarbiyalanganlik-shaxsning asosiy fazilatlarining (mehnatsevarlik, olijanoblik, toʻgʻrisoʻzlik, kirishimlilik va boshqalar) yoki axloqning asosiy belgilari rivojlanishi darajasiga qarab aniqlanadi.
AXLOQIY XATTI-HARAKATLARNI MASHQ QILISH	bu turli variantlardagi xatti - harakatlarni aslida bir- biriga oʻxshash vaziyatlarda uyushgan va muayyan maqsadni koʻzlagan holda takrorlashdir. Faqat ana shunday qilingandagina xatti -harakatlarning barqaror va ayni vaqtda umumlashgan formolari tarkib topadi. Sunʼiy mashqlar emas, balki yoshlarning hayoti va faoliyatining tabiiy sharoitlari nazarda tutiladi.
ANDISHALIK	ota-onaga, kattalarga hurmat va ehtirom koʻrsatish; sabr-toqatli boʻlish hissi.
ALTRUIZM	shaxsiy manfaatlarni ijtimoiy manfaatlarga boʻysundirish, shaxsiy manfaatdan, jamoaviy manfaatni ustun quyish.

BASHORAT QILISH (PROGNOZ)	Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagog doimo vaziyatni bashorat (prognoz) qilib boradi, uning natijalariga qarab o'quv-tarbiyaviy tizimning keyingi bosqichlarini aniqlaydi. Attestatsiya o'tkazish davomida o'qituvchi yuqori bilim talab qilinadigan o'quv maskanida o'qishga, uni muvaffaqiyatli tugallashiga tadqiq qilinuvchi o'quvchi-yoshlarning tayyorgarligi etadimi, yo'qmi, ijtimoiy hayotdagi faollik darajasi ko'rsatkichi kabi masalalarni bashorat qila olishi kerak. Hozirgi kun talabi asosida har bir o'qituvchi prognostika bilan shug'ullanishi zarur.
VALIDLIK	(inglizcha:«valid»-«ishonchli»)- o'lchov sifatining muhim metodik talablaridan biri. Validlik haqiqatda ham o'lchash talab etilayotgan narsa o'lchanganligini absolyut ishonch hosil qilinganligi(yoki boshqa narsa o'lchanganligi)ni aniqlaydi. Test metodikasida validlikning quyidagi turlari uchraydi: Mazmunning validligi, Natijaning validligi, Prognozning validligi, Kostruktivlik validligi.

VATANPARVARLIK	Vatanga sodiqlik, vatanparvarlik, oʻzining qudratli ildizlari bilan oʻz oilasining avlod - ajdodlarining nomus- origa chuqur ehtiromga, insonning shaxsiy vijdoniga, burchga va oʻz soʻziga sodiqlikka borib taqaladi. Kishilarimizning vatanparvarligi hamma vaqt sevimli xalqning shon - sharafi, qadr - qimmat, madaniyati va anʼanalariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda oʻz ifodasini topib keldi. Vatanparvarlik fuqarolar yakdilligi yosh va mustaqil Oʻzbekiston davlati barpo etilayotgan negizdir. Ayni shu narsa jamiyatni qayta oʻzgartirish yoʻlidagi qiyinchiliklarni engib oʻtishga, hamjihatlik va hamkorlikka erishishga yordam beradi.
DEVIATSIYA	(lotincha: «de»-ogʻish, sinish, qaytish; «viantus»-faoliyat»-, yaʼni xulq normalaridan chetlashish)-bu ijtimoiy pedagogik muammo boʻlib, inson ruhiy olamidagi, uning atrofidagi muhitning oʻzgarish hollari bilan bogʻliq.

DEVIANT XATTI-HARAKAT	bu ruhiy sog'lom shaxslar tomonidan jamiyat tomonidan belgilangan me'yoriy, axloqiy qoidalarni buzish holatlari.
DIAGNOSTIKA	(yunon tilida: «dia»- shaffof, «гнозис»-bilim degan ma'noni bildiradi)- o'rganilayotgan obyekt yoki jarayon to'g'risida aniq ma'lumot olishning umumiy vositasi bo'lib xizmat qiladi.
IDROK	narsalar yoki hodisalarning sezgi a'zolariga bevosita ta'sir qilish jarayonida o'quvchilar ongida bilimlarning aks etishi. Muayyan muddatda sezgi organlariga ularning bevosita ta'sir etishi davomidagi bir butun hodisalar (o'ziga xosliklarning majmuaviy muvofiq kelishligi) yoki narsalarning inson ongida aks etishi.
IDENTIFIKATSIYALASH	bir kishining ikkinchi kishini uning ta'rifini subyektning o'z ta'rifiga anglanilgan yoki anglanilmagan tarzda o'xshatilishi orqali tushunish usulidir. Odamlar o'zaro birgalikda harakat qilish vaziyatlarida boshqa kishini o'zining o'rniga qo'yib ko'rishga uringan holda uning ichki holati, niyatlari, o'y-fikrlari, mayllari va his-tuyg'ulari haqida taxmin qiladilar.

IRODA	Iroda hamisha maqsadli va ongli regulyasiya qila oladigan faoliyatda namoyon bo‘ladi. Irodasiz, kuchsiz xarakterga ega bo‘lgan yoshlar ko‘p hollarda o‘zgalar xohish-istagini bajaruvchilariga aylanib qolishadi. SHu sababli ular turli nojo‘ya qiliqlar qilishga moyil bo‘ladilar. O‘spirinlarda iro dalilik, sabr, matonat kabi xislatlarni takomillashtirish kelajakda jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy qiyofali shaxslarini ko‘paytirishga zamin yaratadi. Deviant xulqli yoshlarda iroda zaifligi, asotsial xatti-harakat qilishlariga sabab bo‘ladi. Bunday salbiy xususiyatlar kelgusida ularning axloqi va xulqida o‘z aksini topadi.
ISTE’DOD	Qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichi. Iste’dod muayyan murakkab o‘quv yoki mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar majmuasidir. Mustaqillik sharofati bilan Respublikamizdagi qobiliyatli va iste’dodli yoshlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan iqtidorli

	yoshlarimiz xorijiy davlatlarga borib, ilm o‘rganishga, o‘z mahoratlarini va iste’dodini yuksaltirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.
ISHONCHLILIK	deganda o‘rganilgan u yoki bu aniq belgining ishonchlilik va aniqlik darajasi tushuniladi. Agar biror belgi yuqori darajadagi aniqlik bilan o‘lchansa, uning aks etish darajasi shkalada bitta yagona nuqtaga tushadi. Aniq va uncha aniq bo‘lmagan o‘lchov haqida gapirilganda quyidagicha misolni keltirish mumkin: masofa 4188 mmni tashkil qiladi, yoki masofa 4 metrga yaqinni tashkil qiladi. O‘lchovning ishonchlilik darajasi ishonchlilik koeffitsenti bilan aniqlanadi.
«KORREKSIYA	(lotincha: «korrektion»- «tuzatmoq», «bartaraf etmoq», «to‘g‘irlamoq» degan ma’noni bildiradi)- yoshlarning ongiga, his-tuyg‘ulariga ta’sir etuvchi va turli ijobiy qobiliyatlarini shakllantiruvchi faoliyat turidir. Pedagogik korrektsiyalash ta’sirida o‘quvchi-yoshlarning g‘oyaviy,

	axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlari tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi va shu bilan birgalikda tarbiya masalalari amalga oshiriladi.
KREATIVLIK	<i>shaxsning muhim tavsifiy belgisi bo'lib, u birovlarinikiga o'xshamagan tarzda, noyob, takrorlanmas fikrlashga imkon beradi.</i>
MADANIYAT	arabcha: «madina»-«shahar», «Kent» soʻzidan kelib chiqqan. Bugungi kunda madaniyat atamasi keng maʼnoda qoʻllanilib, u jamiyatni ishlab chiqarish ijtimoiy va maʼnaviy hayotda qoʻlga kiritgan yutuqlari majmuidir. Madaniyat - insoniyat faoliyati maxsuli natijasi sifatida insonlarning moddiy va maʼnaviy faoliyatlari jarayonlarida vujudga keladi. Madaniyat tarixiy xarakterga ega boʻlib kishilarning moddiy maʼnaviy hayotga ehtiyoji oshishi natijasida paydo boʻlgan va ularning maʼnaviy hatti-harakati, xulq atvori normalarini oʻz mazmunida ifodalangan, shaxs va jamiyatning (ijtimoiy, iqtisodiy,

	ma'naviy) rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ongli faoliyat yig'indisidir.
MASHQ	muayyan xatti- harkatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi. Mashq natijasida ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi. Mashq va odatlantirish o'quvchi uchun ongli ijodiy jarayondir.
MA'NAVIYAT	arabcha: «ma'naviyat»- "ma'no" yoki "ma'naviyatun," "ma'noi g'oya" so'zlaridan olingan bulib, "ruhiy holat" «ma'nolar majmui» degan ma'noni anglatadi)- insonlarning ilmiy, falsafiy, badiiy, diniy, huquqiy, axloqiy, estetik tasavvurlari va tushunchalari majmui. Ma'naviyat tarbiyadan boshlanadi. Ta'lim - tarbiyasiz ma'naviyatni shakllantirish mushkul.
MA'RIFAT	arabcha: «arafa»- «bilmoq» so'zidan olingan bo'lib, ta'lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, diniy g'oyalar majmui asosida insonlarning ongini, bilimini, madaniyatini, dunyoqarashini o'stirishga qaratilgan faoliyatdir.

MAFKURA	arabcha: «mafkura» soʻzidan olingan boʻlib, jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va gʻoyalar majmuidir. Milliy mafkura - xalqimizning maʼnaviy - ilmiy mentaliteti, gʻoyalari asosida amalga oshirilayotgan ishlar, jarayonlardagi tutayotgan yoʻli, davlatga, jamiyatga, olamga, oʻz - oʻziga, taraqqiyotga munosabatlar tizimidan iboratdir.
MAʼLUMOT	taʼlim-tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan koʻnikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmuidir.
MENTALITET	(lotincha: fikr «mens»-aql, idrok) – jamiyat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, maʼnaviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati. “Mentalitet” soʻzi lotinchadan tarjima qilinganda “aql,

	zehn, idrok, fahm” ma’nolarini bildiradi. Xar bir millatning aqli, idroki, faxm-farosati uning yashab tugan shart-sharoitlari, tarixi, qanday xalqlar qurshovida istiqomat qilishi, ijtimoiy faolligi va qator boshqa omillar bilan bog’liqdir.
METOD	(lotincha: «metodos»-yo‘l, uslub)-Ilmiy tushuncha sifatida «metod» so‘zi keng ma’noda: muayyan maqsadga erishish yo‘lini, tor ma’noda tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari hamda qonuniyatlarini bilish maqsadida qandaydir vazifani hal etish uslubini bildiradi. Obyektiv dunyoni bilish, nazariyada nimani o‘rganish va o‘rgatish kerak, kimni va qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud bo‘lib, ular o‘zaro uzviy bog’liqdir. Har qanday fan fan sifatida o‘zining ilmiy tadqiqot metodlariga ega. Bu metodlari orqali o‘z mazmunini boyitib, yangilab boradi. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari qanchalik to‘gri tanlansa ta’lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanadi, pedagogika fani ham boyib boradi.

MILLIY ONG	har bir millat yoki elatning uzoq tarixiy etnogenez davri, turmush tarzi, iqtisodiy ishlab chiqarish usuli, diniy e'tiqodlari, madaniyati, boshqa xalqlarning bevosita ta'siri tufayli shakllangan dunyoqarashi, iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy va madaniy-ma'naviy sohalarda faollik darajasi. Ong - inson ruhiyatining yuqori darajasi bo'lib, dunyo haqidagi obyektiv bilimlarning, unga obyektiv munosabatlarning tahlili, kishilarning o'zaro munosabatlari, o'zaro ta'sirlarining, ijtimoiy munosabatlarining natijasidir.
MILLAT	kishilarning barqaror tarixiy birligi, umumiy iqtisodiy turmush hamda til birligi, madaniyati, ongi va ruhiyatining o'ziga xosligi zaminida qaror topgan ijtimoiy taraqqiyot shaklidir.
MILLIY G'OYA	inson va jamiyat hayotiga ma'no - mazmun baxsh etadigan, uni maqsad sari etaklaydigan fikrlar majmuidir. Foya - inson tafakkuri mahsuli, milliy g'oya esa millat tafakkurining mahsulidir.

MUNOSABATLAR YOKI PROPORSIYALAR SHKALASI.	Munosabatlar shkalasi proporsiyalar haqida xulosa chiqarishga (ikki barobar ko‘p, ikki barobar kam, to‘rt barobar og‘ir kabi) imkon beradi. Buni uzoqlikni (metr, santimetr kabi) va og‘irlikni (kilogramm, gramm) o‘lchovlarida ko‘rishimiz mumkin. Agar doskaning uzunligi 3 metr bo‘lsa, u 1,5 metrlik doskadan ikki barovar uzun. Yoki 170 grammlik buyum 100 grammlik buyumdan 1,7 barovar og‘ir. Bu shkala yordamida barcha statistik hisoblar olib boriladi.
MUOMALA	bu og‘zaki kommunikatsiya, ya’ni til erdamida munosabat qilish jaraeni demakdir. Ijtimoiy tajribada biron-bir mohiyatni anglatadigan so‘zlar og‘zaki kommunikatsiya vositasi hisoblanadi. So‘zlar eshittirib yo ovoz chiqarmasdan aytilishi, ezib qo‘yilishi, eki karsoqov kishilarda Biron-bir mohiyatga ega bo‘lgan imoishoralar bilan almashtirilishi (buni har bir harf barmoqlar harkati bilan ifoda etiladigan daktilologiya va imo-ishora butun bir so‘z eki suzlar

	turkumini anglatadigan imo-ishorali muomala bo‘ladi) mumkin.
NOMINAL SHKALA	bu shkala bo‘yicha tashxis quyilganda o‘quvchi-yoshlarning sifatlovchi belgilariga qarab qo‘yiladi. Bunda musiqaviy qiziqishlarni, matematik qobiliyatlarni, sportga qiziqishini, san‘atga ishqibozligini differensiatsiya qilish mumkin.
NORMALAR	pedagogik diagnostikada yoshlarning ma‘naviy darajasini baholash uchun kerak bo‘ladigan axborotlar to‘plashni bildiradi.
OBYEKTIVLIK	deganda o‘lchov natijalari tadqiqotchiga bog‘liq bo‘lmagan tarzda baholanishi yoki bir necha voqea-hodisani tadqiqotchilarning shu masala yuzasidan deyarli bir xil xulosa chiqarishi tushuniladi. O‘lchovni o‘tkazish obyektivligi barcha qatnashchilarning aynan bir xil sharoitda bo‘lishini taqozo etadi.

PEDAGOGIK MUNOSABATDA PSIXOLOGIK BOG‘LANISH	bog‘lanish (lotincha contactus ya’ni “yaqinlashish” degan so‘zdan olingan)- munosabatga kiruvchilar o‘rtasida ikki tomonlama aloqa bo‘lishini taqozo etadi. Bunga erishish va uni ko‘ngildagidek rivoqlantirish sharti munosabatga kirishuvchi shaxslarning o‘zaro bir-birlariga hurmati va ishonchidan iboratdir.
PEDAGOGIK TALAB	yoshlarning turli vazifalarni bajarishi; ijtimoiy xulq atvor mezonlarini ifodalashi; u yoki bu faoliyatla qatnashib bajarilishi zarur bo‘lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo‘lishi; u yoki bu harakatda rag‘batlantiruvchi yoki uni to‘xtatuvchi bo‘lishi; oqilona harakatlarga undovchi bo‘lishi mumkin.
PROFILAKTIKA	xulqdagi ijtimoiy og‘ish holatlarini keltirib chiqaruvchi sabablarni oldini olishga, ularni bartaraf etishga, asosiy sabab va shartlarni neytrallashtirishga qaratilgan davlat, jamoa, mahalla, oilaviy, ijtimoiy-tibbiy, tashkiliy-tarbiyaviy

	tadbirlarning majmuasi.
REFLEKSIYA	(lotincha reflexio- orqaga qaytish) falsafaga oid tushuncha bo‘lib, u individ ongiga sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar haqida o‘zining mulohaza yuritishini anglatadi. Refleksiya-bu subyektning faqatgina o‘zini -o‘zi tushunishi bo‘libgina qolmay, balki u «refleksiyalanuvchi»ni, uning shaxsiy xususiyatlari, ta’sirga javob berishning ifodalanganligi va bilishga oid tasavvurlarning oydinlashtirilishi va boshqalar tomonidan tushunilishini anglatadi. Murakkab refleksiya jarayonida subyektlarni o‘zaro aks ettirilishining kamida oltita darajasi ifodalanadi. Ular: subyektning o‘zi haqiqatdan ham qanday, subyekt o‘zini-o‘zi qanday «ko‘radi» subyekt boshqalar tomonidan qanday idrok qilinadi va yana yuqoridagi uch daraja subyekt tomonidan qanday idrok qilinadi.
SOTSIAL NAZORAT VA IJTIMOIIY QOIDALAR	Birgalikda faoliyat va munosabat ijtimoiy qoidalar- odamlarning birgalikdagi harakati va o‘zaro munosabatlarini qat’iyan belgilab qo‘yadigan hamda jamiyatda udum bo‘lgan xulq-atvor namunalari

	asosida amalga oshiriladigan sotsial nazorat sharoitida yuz beradi.
STEREOTIPLASHTIRISH	xulq-atvor shakllarini tasniflash va ularni hozirgacha ma'lum va mashhur deb sanalgan, ya'ni ijtimoiy qoliplarga mos keladigan hodisalar jumlasiga kiritish yo'li bilan ularning sabablarini (ba'zan hech qanaqa asossiz) izohlashdan iborat. Bu o'rinda kishining shakllangan va andoza (shtamp) sifatida qo'llaniladigan timsoli qolip tarzida xizmat qiladi.
TANQIDIYLIK	shaxs o'z faoliyatida ishga, o'kishga, faoliyatiga, hatti-harakatiga tanqidiy munosabatda bo'lishi, o'z hatti-harakatlarini axloq normalari nuqtai nazaridan kuzatishi.
TARBIYA	“Tarbiya” tarixiy va ijtimoiy hodisadir. Tarbiya insonlarning faoliyati jarayonida ularning ongi va irodasini o'stirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga tarbiya ijtimoiy hodisa bo'lib, insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o'ziga xos mazmun va amalga oshirish shakliga egadir.

TASHABBUSKORLIK-	shaxsning tezkorlik, tinib-tinchimaslik, tadbirkorlik hislatlari. Tashabbus yuksak mas'uliyat talab etadigan hislat. Tashabbuskor shaxs yangilik sari atrofdagilarni safarbar qila olish ko'nikmasiga ega bo'ladi.
TAHLIL.	Tahlilda biz kuzatishning solishtirma klassifikatsiyasidan chetga chiqamiz. Endi biz u yoki bu individning xulqi oldingidan, boshqa individlarning xulqidan nima uchun farq qilishini yoki normadan chekinishini bilishni xohlaymiz. Biz bu sabablarni tahlil qilishni, ayrim o'quvchilarimizning xulqi biz kutganimizdan boshqacha bo'lib chiqishi sabablarini bilishga intilamiz.
TA'LIM	maxxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, bilim, qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir. Agar tarbiya bola tug'ilganidan boshlab umrining oxirigacha oilada, maktabda va jamoatchilik ta'sirida

	shakllansa, kamol topsa, ta'lim chegaralangan holda (masalan, sinf xonasi, auditoriya, laboratoriya xonalarida) tashkil etiladi, o'kituvchi rahbarligida muayyan belgilangan vaqtda olib boriladi. Ta'lim - tarbiya insonning shakllanishida etakchi rolni o'ynaydi, ta'lim-tarbiya natijasida irsiyat va muhitning stixiyali ta'siri bera olmaydigan o'qish, yozish, mehnat, malaka va ko'nikmalar egallanishi, hatto tug'ma kamchiliklar ham ma'lum tomonga o'zgartirilishi (kar, ko'r, soqovlarni o'qitish), muhit ta'sirida yuzaga kelgan salbiy kamchiliklarni ham tugatish mumkin. Hozirgi kunda yurtimizda qobiliyatli, iste'dodli va iqtidorli bolalarga alohida e'tibor berilganligi, bu ishlar o'zbekistonimiz kelajagi deb aytilayotganligi ham bejiz emas. Prezident, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy nomidagi stipendiyalari, «Nihol» sovrini, Zulfiya mukofotining joriy etilishi ham yoshlarga berilayotgan e'tiborning namoyon bo'lishidir.

TEMPERAMENT

(lotin tilida: «temperamentum»- qismlarning tegishli nisbati)- Psixikaning individual jihatdan o'ziga xos, tabiiy jihatdan shartlashgan dinamik ko'rinishlari majmui. Miloddan av. 2 asrda yashagan rimlik anatom va vrach Galen birinchi bo'lib temperamentlarning kengaytirilgan tasnifini berdi: u 13 ta turni o'z ichiga qamrab oladi. Temperament turlari soni qadimgi meditsina vakillari tomonidan keyinchalik to'rttaga qadar kamaytirildi. Ularning har biri qandaydir suyuqlikning boshqalardan ko'pligi bilan ajralib turadi.

Temperament tiplari.
Sangvinik temperament deb(lotin tilida: «sangvis»- qon so'zidan); limfa ko'p bo'lganda flegmatik temperament deb («flegma»- shilimshiq parda); sariq o'tning ko'paygani xolerik temperament deb (yunon tilida: «xole»- o't so'zidan); qora o't ko'p bo'lgan melanxolik temperament deb (yunoncha: «meloyna xole» - qora o't) ataladi.

I. P. Pavlovning nerv sistemasi

turlari to'g'risidagi ta'limoti yoki xudi shuning o'zi kabi oliy nerv faoliyatining turlari temperamentlarni tabiiy-ilmiy o'rgashish tarixida keskin o'zgarish yasadi.

Temperamentning namoyon bo'lishlari o'zida sotsial ta'sirlar, ijtimoiy norma va talablar ta'sirini aks ettiradi. Har bir kishida temperamentning o'z tipii, uning asosida yotgan nerv sistemasi xususiyatlari barqaror bo'ladi. SHu sababli tarbiyachi pedagogikada o'quvchi-yoshlar psixikasining dinamik xislatlariga ko'ra tafovutlarning tabiiy bog'liqligi bilan hisoblashmasligi mumkin emas.

O'z temperamentining xususiyatlarini egallash va ularning o'rnini to'ldirish, faoliyatning individual uslubini shakllantirish bolalik yillarida boshlanadi va ta'lim-tarbiya ostida ro'y beradi.

O'quvchi-yoshlarni ma'lum bir tipga kiritish uchun ularda, avvalo, quyidagi fazilatlarning u yoki bu tarzda ifodalanganligiga ishonch hosil qilish kerak:

1. Faollik
2. Emotsionallik

	3. Motorikaning o'ziga xos xususiyatlari Temperamentning xususiyatlari kishi xarakterini tashkil etadigan ruhiyatning muhim xususiyatlarini rivojlantirish shartlaridan biridir (Qarang: Xarakter).
TOPSHIRIQ	Yoshlarning o'kuv va mehnat topshiriqlarini jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.
UMUMINSONIY QADRIYATLAR	Mustaqil O'zbekistonning kuch - qudrat manbai – xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Umuminsoniy qadriyatlar adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik va vatanparvarlik bo'lib hisoblanadi. Xalqimiz bu qadriyatlarning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab - asrab kelmoqda. Insonparvarlik - bu o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Bugungi kunda hur va ozod xalqimiz barcha xalqlar va davlatlar tomonidan yaratilgan ma'rifatda, fan va texnikada, madaniyat va san'atda nimaiki

	yangi va ilgʻor jihatlar boʻlsa, shunga dadillik bilan intilmoqda. Oʻzbek diyorida, tarixda koʻp marta boʻlganidek, yana yangidan oʻzimizning betakror va ilgʻor, iqtidorli va eng muhimi - insonlarga kerakli qadriyatlarimiz barpo etiladi.
XARAKTER	(yunon tilida: «xarakter» – «belgi», «zarb qilish»)- shaxsning faoliyat va muomalada tarkib topadigan va namoyon boʻladigan barqaror individual xususiyatlari boʻlib, individ uchun tipik xulq-atvor usullarini yuzaga keltiradi. Insonning xarakterini tashkil etuvchi bu individual xususiyatlar birinchi navbatda irodaga (masalan, dadillik yoki ishonchsizlik, qoʻrqoqlik) va his-tuygʻularga (masalan, xushchaqchaqlik yoki ruhan siqilganlik) taalluqli boʻladi, lekin maʼlum darajada aqlga ham (masalan, engiltaklik yoki oʻychanlik) taalluqlidir. Xarakter kishi shaxsining yoʻnalishini belgilaydigan ijtimoiy munosabatlarga bogʻliq.
XABARDORLIK	shaxsning oʻz mutaxassisligi boʻyicha toʻliq maʼlumotga ega boʻlishi, oʻz sohasini dunyoviy

	jarayonlar bilan qo‘shib olib borishi, ulardan o‘rganishi.
XOTIRA	Individning o‘z tajribasini esda saqlab qolishi va keyinchalik uni yana esga tushirish jarayonidir. Ruhshunos olim A. V. Petrovskiy ta’kidlashicha: «xotirada esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unitish kabi asosiy jarayonlar alohida ajratib ko‘rsatiladi. Bu jarayonlarning har biri alohida mustaqil psixik xususiyat hisoblanmaydi. Ular faoliyat davomida shakllanadi va usha faoliyat bilan belgilanadi.
SHAXS	kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi. SHaxs- «odamning jamiyat a’zosi sifatida, o‘z-o‘zini anglash va tafakkurni, faoliyatning obyektivligini, muloqat hamda biluvchanlikni tashuvchanligidir». SHaxs deganda ruhiy jihatdan taraqqiy etgan, o‘z xususiyati va sifatlari bilan boshqalardan farq qiladigan muayyan jamiyatning a’zosi tushuniladi. SHaxs avvalo o‘zining qadr-qiymati va

	kamchiliklari bilan jamiyat hayotida faol qatnashganligi hamda ta'lim-tarbiya natijasida yuzaga kelgan o'zining kuchli va kuchsiz tomonlari bilan paydo bo'lgan individdir.
SHAXSNING HAR TOMONLAMA KAMOLGA ETISHI	ma'lum bir real tarixiy shart-sharoitlarda amalga oshirish mumkin bo'lgan qobiliyatlar va iqtidorlarning, uning mohiyatini tashkil etadigan hamma kuchlarning to'liq va batomom rivojlanishidir.
SHAXSNING UMUMIY FAZILATLARI	insonni birinchi ko'rishdayoq ko'zga tashlanadigan o'ziga xosligi. Shulardan asosiylari: 1. Yoqimlilik, jozibadorlik, dilbarlik, ko'rkamlik. Ko'rkam odam faqat kiyimi bilangina emas, muomalasi, odobi bilan ham e'tibor topadi. 2. Maftunkorlik, fusunkorlik-go'zallik, o'ziga rom etuvchi o'xiga xoslik bilan xarakterlanadi. 3. Rivojlanganlik-etuklik, aqli rasolik, iqtidorlilik, salohiyatlilik. Bunda inson egallagan bilimlarning salmog'i Ushbu bilimlarni tezkor ravishda ko'llanishi bilan baholanadi. 4. Kirishimlilik-ochiqlik, yorqinlik. Bunday hislatli insonlar o'zgalar

	bilan tez til topishib ketishadi. Ularni ko‘pincha «ko‘ngli ochiq odam», deb ta’rif berishadi. 5. Salobatlilik-salovatlilik kishining kamtarligi, turli vaziyatlarda vazminligi, kattalarga hurmatda va kichiklarga izzatda bo‘lishi bilan belgilanadi. 6. So‘zga chechanlik-mazmunli va’z aytadigan, gapga chechan ko‘nikma sohibi. 7. Ruhlanganlik, ko‘tarinkilik, jo‘shqinlik – o‘z ortidan o‘zgalarni ergashtira olish qobiliyatining mavjudligi, o‘z so‘zi, fikri, g‘oyalariga ishontira olish. 8. .Buyuklik, daholik- jamiyat hayotini o‘zgartirish mas’uliyatini gardaniga olish. Bu fazilat sohibi insonlar taqdirini ijobiy tomonga burishni diliga tugib yashaydi. 9. Jiddiylik – muayyan maqsadga intilib, kam gapirib, ko‘p ishlash qobiliyati. 10. Ziyolilik- intellegentlik, ziyo, ilm, bilim tarqatish xususiyati. Bunday shaxslarda boshqalarga ta’lim-tarbiya berish ehtiyoji mavjud bo‘ladi.
QAT’IYATLILIK	Shaxsning maqsad yo‘lida og‘ishmay shijoatkorona qilgan

	faoliyati.
QIZIQISH	Biron bir sohada to‘g‘ri mo‘ljall olishga, yangi dalillar bilan tanishishga, voqelikni ancha to‘la va chuqur aks ettirishga erdam beradigan motivdir. Individd uchun qiziqish, subyektiv tarzda olganda, bilish jaraeni tusini kashf etadigan ijobiy hissi ohangda, obyekt bilan chuqurroq tanishishga, u haqda ko‘proq bilish, uni anglab etishga bo‘lgan istakda namoen bo‘ladi. Qiziqishning faoliyat jaraenlaridagi roli benihoya kattadir. Qiziqishlar shaxsni o‘zida bilim olish va anglab etish borasida hosil bo‘lgan ishtieqni qondirish yo‘llarini va usullarini faol tarzda izlashga majbur etadi. <i>SHaxsning yo‘naltirilganligini ifodalaydigan qiziqishning qondirilishi, odamda, uning so‘nishiga olib kelmaydi, aksincha, uni qayta qurgan, boyitgan va chuqurlashtirgan holda bilish faoliyatining yanada yuksak darajasiga mos keladigan YAngi qiziqishlarni keltirib chiqaradi.</i>

E'TIQOD	shaxsni o'z qarashlariga, prinsiplariga, duneqarashiga muvofiq tarzda ish ko'rishga da'vat etadigan motivlar tizimi. E'tiqod shaklida namoyon bo'ladigan ehtiyojlarning mazmuni- bu tabiat, tevarak-atrofdagi olam to'g'risidagi bilimlar va ularning muayyan tarzdagi tushunilishi demakdir. Bu bilimlar nuqtai nazarlar (falsafiy, estetik, axloqiy, tabiiy-ilmiy va hokazolar) ning tartibga solingan va ichki uyushgan tizimini tashkil etgan taqdirda kishining <i>duneqarashi</i> sifatida talqin qilinishi mumkin.
O'RGATISH.	Ijodiy xulq- atvorning odatiy shakliga aylantirish maqsadida o'quvchi-yoshlarning bajarishlari uchun rejali izchil tarzda tashkil qilinadigan turli harakatlar amaliyot ishlaridir. O'rgatish bir necha izchil harakatlar yig'indisidir. O'qituvchi bu harakatlarni ko'rsatib berishi, tushuntirishi lozim. Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xillari mavjud. Faoliyatda mashq

	qilish mehnat ijtimoiy faoliyat, jamoadagi faoliyat, o‘zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilgan. Kun tartibi mashqlari o‘quv muassasalarida, oilada o‘rnatiladigan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog‘liq o‘z istak va harakatlarini boshqarish va bo‘sh vaqtdan to‘g‘ri foydalanish odatiga o‘rgatadi.
O‘Z - O‘ZINI TARBIYALASH USULLARI.	O‘quvchida o‘z - o‘zini tarbiyalashga, ya’ni o‘z ustida ongli batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo‘lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasa bo‘ladi. O‘z - o‘zini tarbiyalash o‘quvchilarning o‘zini - o‘zi idora qilishi organlari faoliyatida qatnashishlari, ularning ijtimoiy faollik mavqeini shakllantirishning ta’sirchan vositasidir. O‘quvchilar o‘qishda, tarbiyada, dam olishda o‘z -o‘zini tarbiyalash usullaridan foydalanadilar, o‘z-o‘zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydilar. O‘z - o‘zini tarbiyalash sifatlari bola bunga tayyor bo‘lganda, u o‘zini shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarga mustaqillik ko‘rsata boshlagan vaqtda paydo bo‘ladi.

O‘Z - O‘ZINI TAHLIL QILISH	o‘z shaxsini, fazilatlarini tahlil qilishga xatti - harakatlari haqida o‘ylashga o‘rgatadi. O‘z - o‘zini nazorat qilish uchun o‘quvchi o‘zining yurish -turishi, intizomi, ijobiy odatlarining ortib borishi va aksincha salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.
O‘Z- O‘ZINI BAHOLASH	o‘quvchining qobiyalitini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordam beradi. O‘z - o‘zini baholash o‘zining imkoniyatlarini hisob - kitob qilish, baholash, chetdan turib xolisona baho berish, o‘zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.
O‘LCHASH	O‘lchashning maqsadi doimo obyekt hodisa yoki jarayonning belgilari haqida axborot olishni ko‘zda tutadi. Biz obyektning o‘zini emas, uning xususiyatlari va farqli tomonlarini ulchaymiz. Masalan, biz stulning o‘zini emas, uning balandligi, eni, bo‘yi, og‘irligi kabilarni o‘lchaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-Toshkent: O‘zbekiston, 2003, 38 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. - Toshkent, 1997 .
3. O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. –Toshkent, 1997
4. “2017—2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi”. –Toshkent, 7-yanvar 2017 yil.
5. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.-Toshkent:O‘zbekiston, 2017.-104 bet.
6. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent:O‘zbekiston, 2016.-56 bet.
7. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga qo‘ramiz. –Toshkent:O‘zbekiston, 2017.-488 bet.
8. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-Toshkent:o‘zbekiston, 2017.-48 bet.
9. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.-Toshkent:O‘zbekiston, 2017.
10. 1001 savolga psixologning 1001 javobi. G‘.B. Shoumarov tahriri ostida.-Toshkent: Mehnat, 2000,296 b .
11. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. –Toshkent:O‘qituvchi, 1994.- 178 b.
12. Abdulla Avloniy. Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom.-Toshkent: Fan, 1994.- 293b.
13. Abdurauf Fitrat. Muxtasar islom tarixi.-Toshkent: Fan, 1993.- 172 b.

14. Abdullayeva Sh. A. Pedagogik diagnostika.-Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.- 256 b.
15. Abdullayeva Sh. A. O'quvchilarni pedagogik tashxislashda qo'llaniladigan metodlar// Xalq ta'limi, 2016 ,№3, 40-45 b.b.
16. Abdurauf Fitrat. Muxtasar islom tarixi.-T: Fan, 1993, 172 b.
17. Abu Ali ibn Sino. Tadbiri manzil. Dushanba: «Irfon», 1980.420 b.
18. Abu Abdulloh Muhammad ibn al-Buxoriy. Hadis («Al-jomi' as-Sahih). 1-jild. Tarjimon Z.Ismoilov.-T:Qomuslar bosh tahririyati, 997, 572 b.
19. Abu Iyso-at-Termiziy. Sahih Termiziy. Abdug'ani Abdulloh o'g'li tarjimasi.-T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1993, 118 b.
20. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat.-T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va sa'nat nashriyoti., 1992.
21. Bohnisch S. Einige philosophisch-methodologische Fragen-Berlin,1990, r. 175.
22. Bloom B. S. A taxonomy of Educational Objectives Handbook.-Harvow ,1965, 83 p.
23. Bojovich L. I. Личност и её формирование в юношеском возрасте. -Москва: Владос, 2009.-219 с.
24. Weiner B, Theorien der Motivazion. Stuttgart: Klett ,2007.-196 p.
25. Vershlovskiy S.G. Общее образование взрослых: стимулы и мотивы.-Москва: Педагогика, 2017- 271с.
26. Voyshvillo ye. K., Degtyarev M.G. Logika,-M.: Vlados, 1998, 528s.
27. Widdel H. Fragebogen zur Attribuerung fon Erfolg und Misserfolg in der Schule. Beltz ,2010.- 189 p.
28. Giddens Entoni. Sotsiologiya.- T., «Sharq», 2002 y.,848b.
29. Denyakina L. I. Педагогическая диагностика- движущая сила педагогического коллектива.-Москва: Университет, 2000, 198 с.

30. Jo'rayev R. H. va boshqalar. Pedagogika fani konsepsiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2014.-232 b.
31. Ingenkamp Karlxayns. Pedagogischen diagnostik.-Berlin,1991.-240 p.
32. Jenks C. The Sociology of Childhood. - London, 2005.-196 p.
33. Zimnyaya I.A. Педагогическая психология. –Москва: Логос, 2002. 284 б.
34. Zunnunov A.M. Pedagogika tarixi.-Toshkent: Ma'naviyat, 2010.-308 b.
35. Xayrullayev N. Xotamov D. Shodiyev O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. –Toshkent: Fan,1996.-351bet.
36. Ibn Sina Abu Ali. Избранные философские произведения. Москва:Наука, 1980.552b.
37. Ibroximov A, Sultonov X, Jo'rayev N. Vatan tuyg'usi.-Toshket:O'zbekiston, 1996.-. 400 b.
38. Ingenkamp Karlxayns. Der pedagogischen diagnostik.-Berlin:Lampress,2001, 240 p.
39. Kuzmina N.V. Пут от нравственного понятия к нравственному убеждению.-М.: Знание, 1999,178 с.
40. Munavvarov A.Q. Oila pedagogikasi.-Toshkent: O'qituvchi,1994.- 204 b.
41. Nemov R. S., Olshanskiy i dr. Kak razvivayutsya i kreput ubejdeniya v period npravstvennoy zrelosti.-М.: Pedagogika, 1991, 403 s.
42. Piaje J. J. Ребёнок и его развитие -Москва: Знание, 2008,508 с.
43. Подласый И. П. Педагогика –Москва: Владос, 2010.- 576 с.
44. Rollet B. Anstrengungsvermeidungstest (FVT). Braunschweig: Westermann ,2009, 304p.
45. Сунсов Н.С. Диагностирование в ученическом коллективе-М., // Педагогика, 2016 №4,С.- 40-50.
46. UO'T muassasalarida o'quvchilar bilim darajasini nazorat qilish to'g'risida Nizom. –Toshkent, 2015.

47. Frances C. Waksler. Studying the Social Worlds of Children.- London. 1991. -176p.
48. Hartley I. Strategies from Programmed Instructional Technology. London, 2003, 179 p.
49. Хобсон Флейк. Развитие ребёнка и его отношений с окружающими.-М.: Педагогика, 1990, 304 с.
50. Schmidt H. D. Zum Problem des Konstrukttbegriffs in der empirischen Persönlichkeitsforschung und-diagnostik- Berlin, Psychologik 1999ю 182 r.
51. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-Jild.-Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 2000.-568 b.
52. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. Tuzuvchilar: Hoshimov K., Ochil S. -Toshkent: O‘zbekiston, 1999, 461 b.
53. Quronov M. Q., Qurboniyozova Z. Q. Ijtimoiy pedagogika.- Toshkent: RTM, 2003.- 48 b.
54. Qo‘ziyev. Z. Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish. – Toshkent: Universitet, 1994.-127 b.
55. G‘aybulloh as- Salom. Ezgulikka chog‘lan, odamzod.- Toshkent: Sharq, 1999.- 320 b.
56. G‘oziyev E. Tafakkur psixologiyasi –Toshkent: O‘qituvchi, 1990.-292 b.
57. Hasanboyeva O. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi.- Toshkent: O‘qituvchi, 1996.- 178 b.
58. www.ziyonet.uz
59. www.edu.uz
60. www.pedagog.uz
61. www.wikipedia.ru

MUNDARIJA

SO‘ZBOSHI	3
1-§. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING ILMIY VA NAZARIY ASOSLARI	8
MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR TESTLAR	32
2-§. TA’LIM MUASSASASIDA PEDAGOGNING DIAGNOSTIK FAOLIYATI	38
MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR TESTLAR	42
3- §. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA METODLARI	43
MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR TESTLAR	66
4-§. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKADA TESTLARNING TUTGAN O‘RNI MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR TESTLAR	71
5-§. PEDAGOGIKADA DIAGNOSTIK FAOLIYATNING TASHKILIY- METODIK JIHATLARI	90
MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR TESTLAR	115
6-§. TA’LIM MUASSASASIDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA FAOLIYATINI TASHKIL ETISH	124
MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR TESTLAR	130
7- §. TA’LIM MUASSASASIDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA FAOLIYATI NATIJALARINI RASMIYLASHTIRISH	133
MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR TESTLAR	145

8-§. PEDAGOGIK KORREKSIYA: MAZMUNI, MOHIYATI, MAQSADI VA VAZIFALARI	148
QAT'ITYATLILIK, O'Z SO'ZIDA TURA Olish KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	155
9-§. UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASASIDA OLIB BORILADIGAN PEDAGOGIK-KORREKSION FAOLIYATLAR TASNIFI VA TAMOYILLARI	160
10-§. O'QUVCHILARNING SHAXSIY SAMARADORLIGI PEDAGOGIK KORREKSIYA OBYEKTI SIFATIDA	170
11-§. MAKTABDA PEDAGOGIK KORREKSIYA FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING SHAKLLARI VA METODLARI	179
12- §. PEDAGOGIK KORREKSIYADA NEYROLINGVISTIK DASTURLASHNING BAZAVIY TEXNIKASIDAN FOYDALANISH.....	218
13-§. PEDAGOGIK KORREKSIYA TEXNOLOGIYALARI	226
14- §. MAKTABDA PEDAGOGIK-KORREKSION FAOLIYAT DASTURINI TAYYORLASH VA TASHKIL ETISH	242
15-§. MAKTABDA PEDAGOGIK-KORREKSION FAOLIYAT JARAYONI VA NATIJALARINI RASMIYLASHTIRISH	254
AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR	265
UZLUKSIZ TA'LIMDA FOYDALANILADIGAN DIAGNOSTIK METODIKALARDAN NA'MUNALAR	267
TARBIYALANUVCHILARNING AXLOQIY SIFATLARINI DIAGNOSTIKA QILISH.....	278
GLOSSARI	291
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	371

Ilmiy-ommabop nashr

SH. A. ABDULLAYEVA, U. M. UTAMURADOV,
L. I. SUVONOVA, F. O. TURSUNOVA, F. T. XAMIDOVA

PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYA

Darslik

Mas'ul muharrir S. Absobirov
Badiiy muharrir S. Shasimova
Sahifalovchi M. Ravshanov

Bosishga ruxsat etildi: 23.01. 2025-yil.
Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 60x84.
Times New Roman garnituras. Ofset bosma.
Bosma tabog'i 20,5. Adadi 50 dona. Buyurtma № 02
Bahosi kelishilgan narxda.
Aziz kitobxon nashriyotida nashrga tayyorlandi va chop etildi.
210100, Navoiy sh., Navoiy ko'chasi, 36-uy.
Tel. +998 (93) 439-00-44

2798



ISBN 978-9910-7954-8-0



9 789910 795480